3. Raupova, S. A. (2023). USING TIMSS ELEMENTS IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY CLASSES. World of Scientific news in Science, 1(2), 69-74.
4. Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." JournalNX, vol. 7, no. 11, 2021, pp.
5. ХУДАЙКУЛОВА С. З. ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИНИИ УРОВНЯ БОЛЬШОГО ПОЛИНОМА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНОЙ АЛГЕБРЫ //World of Scientific news in Science. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 139-145.
6. Кабирова Н.Х. Способы выявления и устранения ошибок, которые учащиеся начального образования могут допустить при расчетах.// Inter education & global study.2024. №4(1). С.122–128.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kabirova Navro'za Hayotxon qizi,** o'qituvchi [**Кабирова Навруза Хаётжон кизи,** учитель], [**Navruza H. Kabirova,** teacher]; manzil: O'zbekiston, Termiz tumani, "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1 A-uy Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111],], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP "Yangiabad", At-Termizy street 1 A-uy Postal code: 190111].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

TALABALARNI XOLIS FONDA 2-3 GEOMETRIK JISMDAN TUZILGAN SODDA NATYURMORT ISHLASHNI O'RGATISH METODIKASI (GRIZAYL)

© Ch.X. Sadatov[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola oliy ta'lim talabalari va san'at ixlosmandlari uchun rangtasvir san'atining qoidalari va mazmun mohiyatini ochib beradi.

MAQSAD: Simmetriya, assimetriya, ritm, rang gammasi, tus, mo'yqalam, refleks, grizayl.

MATERIALLAR VA METODLAR: grizayl – bu tasvirlash san'atida oq-qora va kulrang ranglarda ishlash usuli bo'lib, u talabalarga shakl, hajm va yorug'lik-soya o'zaro munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu usulni o'rgatishda quyidagi bosqichma-bosqich metodikadan foydalanish mumkin:

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o'quvchilarni zarur materiallar bilan tanishtiring: Grizayl uchun qo'llanadigan materiallar: grafit qalamlar (HB, 2B, 4B), quruq bo'yoqlar yoki akvarel (faqat kulrang tonlar). Yorug'likni boshqarish uchun stol lampasi. Qog'oz (silliq yuzali). Materiallardan to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar bering.

Grizayl usulida o'qitish orqali talabalar shakl, hajm, yorug'lik va soya o'zaro munosabatini chuqurroq anglaydilar. Ushbu metodika ularga vizual idrokni o'stirish, kuzatuvchanlikni rivojlantirish va rasm chizishda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. O'quvchilar oddiy geometrik jismlardan boshlab, murakkabroq kompozitsiyalarni yaratishga tayyor bo'ladilar. Muhokama jarayonida talabalar o'z ishlarini tahlil qilib, texnikani tushunishda bir-birlariga fikr-mulohaza berishadi.

XULOSA: grizayl usulining qo'llanilishi nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki kuzatuvchanlik, sabr-toqat va ijodiy fikrlash kabi sifatlarni shakllantiradi. Bu talabalarni tasviriy san'atning yuqori bosqichlariga tayyorlashda muhim bosqich hisoblanadi.

Kalit so'zlar: grizayl, geometrik jismlar, natyurmort, yorug'lik-soya, hajm, xolis fon, kompozitsiya, rasm chizish, san'at metodikasi, tasvirlash texnikasi.

Iqtibos uchun: Sadatov Ch.X. Talabalarni xolis fonda 2-3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishlashni o'rgatish metodikasi (grizayl). // Inter education & global study. 2024. №10. B.21-26.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ИЗДЕЛИТЬ ПРОСТОЙ НАТЮРМОРТ (ГРИЗАЙЛ) СОСТОЯЩИЙ ИЗ 2-3 ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ТЕЛА НА СБАЛАНСИРОВАННОМ ФОНЕ

© Ч.Х. Садатов[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

[1]Термизский государственный педагогический институт, Термиз, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье объясняются принципы и содержание живописи для студентов высших учебных заведений и любителей искусства.

ЦЕЛЬ: Симметрия, асимметрия, ритм, цветовая гамма, цвет, кисть, рефлекс, гризайль.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: гризайль — это техника изобразительного искусства в черно-белых и оттенках серого, которая помогает учащимся лучше понимать форму, объем и взаимодействие света и тени. Для обучения этому методу можно использовать следующую пошаговую методику:

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: познакомить учащихся с необходимыми материалами: Материалы, используемые для гризайли: графитовые карандаши (HB, 2B, 4B), сухие краски или акварель (только серые тона). Настольная лампа для управления освещением. Бумага (гладкая поверхность). Предоставить инструкции по правильному использованию материалов.

Обучая методу гризайль, студенты получают более глубокое понимание взаимосвязи между формой, объемом, светом и тенью. Эта методика помогает им развивать зрительное восприятие, развивать наблюдательность и применять теоретические знания в живописи. Учащиеся будут готовы создавать более сложные композиции, начиная с простых геометрических объектов. В ходе обсуждения учащиеся анализируют свою работу и дают друг другу обратную связь по пониманию методики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: применение метода Гризале развивает не только технические навыки, но и формирует такие качества, как наблюдательность, терпение и творческое мышление. Это важный шаг в подготовке учащихся к высшим ступеням изобразительного искусства.

Ключевые слова: гризайль, геометрические объекты, натюрморт, свет-тень, объём, нейтральный фон, композиция, живопись, художественная методика, техника изображения.

Для цитирования: Садатов Ч.Х. Методика обучения студентов изделить простой натюрморт (гризайл) состоящий из 2-3 геометрических тела на сбалансированном фоне. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 21-26.

METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS TO CREATE A SIMPLE STILL LIFE (GRISAILLE) CONSISTING OF 2-3 GEOMETRIC BODIES ON A BALANCED BACKGROUND

© Sadatov Kh. Chori[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

INTRODUCTION: this article explains the principles and contents of painting for college students and art lovers.

AIM: symmetry, asymmetry, rhythm, color scheme, color, brush, reflex, grisaille.

MATERIALS AND METHODS: Grisaille is a technique of fine art in black and white and grayscale that helps students better understand form, volume, and the interaction of light and shadow. The following step-by-step methodology can be used to teach this method:

DISCUSSION AND RESULTS: to introduce the students to the necessary materials: Materials used for grisaille: graphite pencils (HB, 2B, 4B), dry paints or watercolor (gray tones only). Desk lamp to control the lighting. Paper (smooth surface). Provide instructions on the correct use of the materials.

By learning the grisaille method, students gain a deeper understanding of the relationship between form, volume, light and shadow. This method helps them develop visual perception, develop observation skills and apply theoretical knowledge in painting. Students will be ready to create more complex compositions, starting with simple geometric objects. During the discussion, students analyze their work and give each other feedback on their understanding of the method.

CONCLUSION: the use of the Grisaille method develops not only technical skills, but also forms such qualities as observation, patience and creative thinking. This is an important step in preparing students for the higher stages of fine art.

Key words: grisaille, geometric objects, still life, light and shadow, volume, neutral background, composition, painting, artistic technique, image technique.

For citation: Sadatov Kh. Chori. (2024) 'Methodology for teaching students to create a simple still life (grisaille) consisting of 2-3 geometric bodies on a balanced background.', Inter education & global study, (10), pp. 21-26. (In Uzbek).

Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort rasmini qog‘oz yuzasida to‘g‘ri tasvirlash. Rasm ishlashda uning konstruktiv tuzilishlarini hisobga olish. Tasvirning yorug‘ va soyalarini aniqlab, rang berish.

Sovuq tusda berilgan sodda natyurmortni tasvirlash dastlabki ta’lim bosqichlarida bajarish orqali o‘zlashtirish mumkin. Masalan, N.Tenning“Natyurmort” asari misol bo‘la oladi. Unda mahoratli bo‘yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o‘zlashtirish mumkin. Ya’ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug‘ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus varang munosabatlari, manzara va interer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg‘unlik hisoblanadi.Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun’iy yorug‘likda tasvirlash lozim. Bu esa o‘z navbatida o‘quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi. Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq so‘ngra esa narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig‘ilganini tasvirlash uchun natyurmort

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

kompozitsiyasini to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo‘yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko‘rish nuqtasini aniqlash va qog‘oz yuzasida qo‘yilmani tasvirlash. O‘quv natyurmort qo‘yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Har bir o‘quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturidako‘rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo‘lishi kerak. Talabalar naturaqo‘yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O‘quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo‘lishi, mazmun jihatdan ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi va ma’lum g‘oyani ilgari surishi kerak.[1]

O‘quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o‘quv vazifa muvaffaqiyatli echim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va Shunday yoritiladiki, qo‘yilma natijali yakunlanadi. O‘quv natyurmortida biroz bo‘lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.

Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo‘yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O‘quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo‘lajak natura qo‘yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo‘ladi.Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruktsiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo‘lgan ma’qul. Murakkab buyumlarga burmali issiq rangdagi gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo‘yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo‘lishi qo‘yilmadagi rang munosabatlar mohiya-tini tuShunishga qiyinchilik tug‘diradi.



1-rasm. O‘quv mashg‘uloti uchun natyurmort



2-rasm. O‘quv mashg‘uloti uchun natyurmort

[1] S.Abdirasi1ov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019
2.Abduraxmonov G‘.M Kompozitsiya asoslari. “Iqtisod-moliya”, T. 2010

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Shuning uchun oq ranlardagi buyumlardan tashkil topgan natyurmortni maqsad qilib olamiz. Natyurmort qo‘yilmasini ufq chizig‘iga nisbatan pastda joylashgani ma’qul, chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko‘rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo‘yicha qo‘yilsa, stol yuzining gorizontal tekisligi ko‘rinmay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy echimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xolmurodovich S. C. et al. O’QUVCHILARNING CHIZMACHILIK FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGYALARNING O’RNI VA AMALIY AHAMIYATI //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 189-192.
2. Садатов Ч. Обучение рисованию обнаженного мужского тела с передней стороны с карандашным рисунком //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 361-365.
3. Sadatov C. The importance of virtual museums in the formation of students' educational competencies on fine literacy //Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19). – 2020. – Т. 1. – №. 04. – С. 201-203.
4. Bahodirovna M. Z., Xolmurodovich S. C. Methodical Interpretations on the Organization of Independent Educational Classes in the Subject of Painting //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 24-27.
5. Sadatov C. K., Normatova G. Some species eksperimentno-experimental work that makes a teacher //European Conference on Education and Applied Psychology. – 2014. – С. 174-176.
6. Sadatov C. TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O’QUVCHILAR IJODIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.
7. Xolmurodovich S. C., Xolbozorovich Q. J. THEORETICAL FUNDAMENTALS OF STUDY PEN AND GENERAL PRINCIPLES OF DRAWING //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 10. – С. 709-716.
8. Садатов Ч. Х., Нарматова Г. Т., Хайдарова М. Б. ОВЛАДЕНИЯ ГРАФИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ В СРЕДНЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Матрица научного познания. – 2020. – №. 8. – С. 128-131.
9. Kholmurodovich S. C. THE SPIRITUAL IMPACT OF FINE ARTS ON PERSONAL DEVELOPMENT AND ITS PLACE AND SIGNIFICANCE TODAY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 2020.
10. Abduraximov L. X. et al. MUHANDISLIK GRAFIKASI VA CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 63-66.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

11. Садатов Ч. Х., Норматова Г. Т. Изобразительная деятельность дошкольников, ее использование в подготовке к обучению в школе //Вестник современной науки. – 2016. – №. 9. – С. 122-125.
12. Садатов Ч. Х., Норматова Г. Т. Нетрадиционное обучение в школе //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2016. – №. 10-2. – С. 128-130.
13. Kholmurodovich S. C. FUNDAMENTALS OF PENCIL AND ITS GOALS //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 6-7.
14. Xolmurodovich S. C. AKVARYOL BO'YOQLAR BN ISHLASH TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 261-264.
15. Abduraximov L. X. BAKALAVRIAT YONALISHI BOYCHA CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MASHGULOTLAR MAVZUSINI VA ULARNING KETMA-KETLIGINI MAQSADLI ISHLAB CHIQISH METODIKASI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 48-52.
16. Sadatov CH.X. Amaliy badiiy bezak san'ati. O'quv qu'llanma " Buxoro Determinanti" MCHJ-2023 yil. S-50-58

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sadatov Chori Xolmurodovich**, tasviriy san'at kafedrasi dotsent, [**Садатов Чори Холмуродович** Доцент кафедры изобразительного искусства], [**Chori Kh. Sadatov**, Associate Professor, Department of Fine Arts]; manzil: O'zbekiston, Termiz tumani, "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1 A-uy Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111],], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP "Yangiabad", At-Termizy street 1 A-uy Postal code: 190111].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TABIIY FANLAR MISOLIDA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI BUGUNGI KUNNING DOLZARB MUAMMOSI

© Sh.S. O’roqova[1]✉
[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu ish boshlang’ich sinf o’quvchilarining tabiiy fanlar misolida individual yondashuv asosida intellectual salohiyatini rivojlantiishmetodikasining bugungi kunning dolzarb muammosi ekanligiga bag'ishlangan. Individual yondashuv asosida intellectual salohiyatli yoshlarning ilmiy bilimlarini yuksaltirishni hisobga olgan holda ushbu jarayonning mohiyati va mazmunini aniqlashga e'tibor qaratiladi.

MAQSAD: tadqiqot boshlang’ich sinf o’quvchilarining tabiiy fanlar orqali individual bilimlarini aniqlashda interfaol metodlardan foydalanish, jumladan, bilish ,tushunish,amalda qo’llash,tahlil,sintez,xulosa qilishga tayyorligini baholashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: boshlang’ich sinf o’quvchilarining intellektual salohiyatini aniqlashda maktab o’quvchlilaridan iborat namuna tanlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o‘quvchilarga individual yondashgan holda ularni intellektual rivojlantirish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatdi. Ta’lim jarayoni, undagi o‘zgarishlar, uning ko‘p faoliyatli didaktik maydonga aylanishi o‘quvchi shaxsiga nisbatan yangicha pedagogik munosabatni qaror toptirishni taqozo qilmoqda. Bugun boshlang‘ich sinf o‘quvchisini individuallashgan yondashuv asosida intellektual rivojlantirish metodikasi o‘quv jarayonining ustuvor maqsadiga aylandi.

XULOSA: tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishda ularga individual yondashuv nihoyatda zarur ekan. Bugungi kunda pedagogika fani oldiga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish vazifasi o‘z echimini kutayotgan ekan, buning uchun har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchi va o‘quvchilar guruhining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik tizimni vujudga keltirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: muammo, tabiiy fanlar,metodika, o’quvchi,tarbiya,imkoniyat, tajriba, ijtimoiy, faoliyat.

Iqtibos uchun: O’roqova Sh.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy fanlar misolida individual yondashuv asosida intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasi bugungi kunning dolzarb muammosi.// Inter education & global study.2024. №10. С.27-34.

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ПРИМЕРЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА - АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА СЕГОДНЯ

© Ш.С. Урокова[1]✉
[1]Термизский государственный педагогический институт, Термиз, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данная работа посвящена тому, что методика развития интеллектуального потенциала учащихся младших классов на основе индивидуальногоподхода на примере естественных наук является актуальной проблемой современности. На основе индивидуального подхода уделяется внимание определению сущности и содержания этого процесса с учетом совершенствования научных знаний молодых людей, обладающих интеллектуальным потенциалом.

ЦЕЛЬ: исследование направлено на оценку готовности учащихся начальной школы использовать интерактивные методы для определения своих индивидуальных знаний посредством естественных наук, включая знания, понимание, практическое применение, анализ, синтез и выводы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: для определения интеллектуального потенциала учащихся младших классов была отобрана выборка школьников.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследование показало, что существует необходимость интеллектуального развития студентов при индивидуальном подходе. Учебный процесс, изменения в нем, превращение его в многофункциональное дидактическое поле требуют решения нового педагогического подхода к личности учащегося. Сегодня приоритетной целью образовательного процесса стал метод интеллектуального развития учащихся младших классов, основанный на индивидуализированном подходе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование показало, что повышение готовности студентов к использованию умных технологий в образовании требует не только использования цифровых инструментов, но и системного подхода к обучению и постоянной поддержки.

Ключевые слова: проблема, естествознание, методология, студент, образование, возможность, опыт, социальная, деятельность.

Для цитирования: Урокова Ш.С. Методология развития интеллектуальной компетентности учащихся начальных классов на примере естественных наук на основе индивидуального подхода - актуальная проблема сегодня .// Inter education & global study.2024. №10. С. 27-34.

METHODOLOGY OF DEVELOPING INTELLECTUAL CAPACITY OF PRIMARY STUDENTS ON THE EXAMPLE OF NATURAL SCIENCES IS A CURRENT

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

PROBLEM OF TODAY

© Sharofat S. Urokova[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this work is devoted to the fact that the methodology of developing the intellectual potential of primary school students on the example of natural sciences is a current problem of today. Attention is paid to determining the essence and content of this process, taking into account the improvement of scientific knowledge of intellectually capable young people on the basis of an individual approach.

AIM: the study is aimed at assessing the readiness of primary school students to use interactive methods in determining their individual knowledge through natural sciences, including knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, and conclusion.

MATERIALS AND METHODS: a sample of schoolchildren was selected to determine the intellectual potential of primary school students.

DISCUSSION AND RESULTS: The study showed that there is a need for an individual approach to the intellectual development of students. The educational process, its changes, its transformation into a multi-activity didactic field require the establishment of a new pedagogical attitude towards the student's personality. Today, the methodology for the intellectual development of primary school students based on an individualized approach has become a priority goal of the educational process.

CONCLUSIONS: the study showed that an individual approach to the intellectual development of primary school students is extremely necessary. Today, the task of intellectual development of primary school students is waiting for its solution before the pedagogical science, for this purpose, the creation of a didactic system aimed at their intellectual development, taking into account the specific characteristics of each primary school student and group of students, is of particular importance.

Keywords: problem, natural sciences, methodology, student, education, opportunity, experience, social, activity.

For citation: Sharofat S. Urokova 'Methodology of developing intellectual capacity of primary students on the example of natural sciences is a current problem of today'. Inter education & global study, (10), pp. 27-34. (In Uzbek).

Dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'limni tashkil etishda individual yondashuv asosida shaxsni intellektual rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga individual yondashgan holda intellektual rivojlantirish masalasi amerikalik olimlari tamonidan "Pueblo-plan", "Nort-Denver-plan", "Batavaya-plan", "Dalton-plan", "Govard-plan", "Ena-plan", "Tramp-plan" va "Keller-plan"lar doirasida ishlab chiqilgan. Angliya, Germaniya va janubiy Koreya olimlari ushbu muammoni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

alohida ilmiy jihatdan yoritganlar. Angliyada har bir maktab iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlatdan moliyaviy ko‘mak oladi, Germaniyada iqtidorli o‘quvchilar uchun “Nemis maktab akademiyasi” nomli ta’lim dasturi mavjud. Koreya, Tailand, Singapur va janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida universitetlar huzurida iqtidorli o‘quvchilarga chuqurlashtirilgan ta’lim berishga mo‘ljallangan o‘quv muassasalari faoliyat ko‘rsatadi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, fanlarni chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflarning o‘quvchilari uchun individual o‘quv rejalarini tuzish tajribasi keng yoyilmoqda. Fanlar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflar uchun individual o‘quv rejalarini tuzish, amaliyotda qo‘llash tajribasi rivojlangan davlatlarda keng yoyilgan bo‘lib, individual o‘quv rejalari yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan. Shuning uchun ham bu sohadagi tajribalarni o‘rganish muhim. Jamiyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar shuni yaqqol ko‘rsatdiki, ijtimoiy hayotdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, ma’naviy, madaniy qiyinchiliklar, to‘siqlar aynan insonning aqliy faoliyati natijasidagina bartaraf etiladi. Inson aqliy faoliyati mahsuli ijtimoiy jarayonlarni jadallashtiruvchi etakchi kuchdir. So‘nggi yillarda aynan shaxsni ijtimoiylashtirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.Uni ijtimoiylashtirish uchun esa, shaxsning ichki dunyosi va o‘ziga xosligini hisobga olish lozim. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida har bir shaxsning hissiyotlari, tashvishlari, intilishlari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Har bir shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodirdir va u bugungi kunda jamiyatdagi eng muqaddas qadriyat sifatida e’tirof etilmoqda. Shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi izchil tarzda uning ma’naviyati, o‘ziga xosligi va yorqinligi, ijtimoiylashganligi, betakrorligi bilan bog‘liqdir[2]. Ma’lumki, o‘zbek xalqi azaldan boy intellektual quvvatga ega bo‘lgan xalqdir. Ajdodlarimiz o‘zlarining intellektual quvvatlari bilan katta mo‘jizalar yaratganlar. Shu bilan bir qatorda, azaldan ota-bobolarimiz o‘zlarining intellektual quvvatlarini rivojlantirishda ta’lim-tarbiyaning imkoniyatlaridan foydalanganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da, 2017-2019 yilda qabul qilgan boshqa farmon va qarorlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018yil 14 avgustdagi Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3907-son[3], 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-son Farmoni va PQ-3931-sonli qarorlari umumiy o‘rta ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim muassasini ilmiy-metodik jihatdan samarali boshqarish va ta’lim-tarbiya sifatini ko‘tarishda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ularga pedagogik shart-sharoitlar yaratishda rahbarning kasbiy tayyorgarligidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha asosiy ustuvor vazifalar belgilab berildi [4] .

Ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib,

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE5

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi” [83:60-61-b]. Darhaqiqat, ajdodlarimizning aql-zakovati bilan asrlar davomida buyuk mo‘jizalar yaratilgan va xalqimizning asriy tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan ta’lim tizimi ushbu mo‘’jizalarni yaratishga yoshlarni tayyorlagan.

Hozirgi paytda ta’lim o‘quvchi shaxsida jamiyat va shaxsiy manfaatlar orasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi ta’sir mexanizmlarini ishlab chiqishga, shaxslarning o‘zlarini takomillashtirib borishi va hayotda o‘z o‘rnini topib, jamiyatda samarali mehnat qilish yo‘llarini o‘rgatishga yo‘naltirilmoqda[5]. Ta’lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv yutuqlarini ob’ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; kompetentsiyaviy yondashuvga asoslanib, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallari asosan axborotga mazmunan to‘g‘ri yondashib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir . Bu ayniqsa, o‘quvchilarning keyingi shaxsiy rivojlanishi va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o‘rta ta’lim darajasida muhim ahamiyatga ega.Shaxsning rivojlanish jarayoni unda faqatgina alohida sifatlarning tarkib topishidan iborat emas. Bu jarayon aqliy-intellektual, jismoniy, axloqiy hamda dunyoqarashning shakllanishi bilan bog‘liq tarzda amalga oshadi. Alohida tashkil etilgan ta’lim muhitida o‘quvchining yaxlit tarzda rivojlanishi ta’minlanadi.

O‘quvchi shaxsini intellektual rivojlantirishning o‘ziga xos mexanizmlari mavjud. Bu mexanizmning ba’zi bir jihatlari o‘z vaqtida A.M. Kamenskiy , A.N Esev , L.N Sobchiklar tomonidan taklif qilingan. Bugungi kunda dunyo miqyosida o‘quvchi shaxsini intellektual taraqqiy ettirishning insonparvarlikka asoslangan ko‘p parametrli kontseptsiyalari ilgari surilmoqda. Masalan, insonparvar yondashuvning voqelik, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq jihatlari V.I.Slobodchikov, vaziyat bilan bog‘liq faollik masalasi A.V.Paxomovlar tomonidan tadqiq etilgan. Bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos jihatlariga tayangan holda uni intellektual rivojlantirish muammosi tadqiq etilgan. Masalan, O.S.Grebenyuk, I.Unt, J.G‘.YO‘ldoshev, R.G‘.Safarova, U.Nishonaliev, U.Q.Musaevlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda aksariyat yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsining o‘z-o‘zini rivojlantirishiga qaratilgandir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosi bir qator pedagog olimlar J.G‘.YO‘ldoshev,R.G‘.Safarova,E.Seyitxalilov,B.R.Adizov,R.Axliddinov,U.Musaev,Sh.Qurbonov,B.Ma’murov,E.V.Bondarevskaya,V.M.Monaxov kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Olimlarning ta’kidlashicha, o‘quvchi shaxsi aqliy taraqqiyotining muayyan bosqichlarida unga tizimli tarzda pedagogik ta’sir ko‘rsatish lozim. O‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish muammosi bu sohada bir qator yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan hamon dolzarb pedagogik muammo sifatida o‘z echimini kutmoqda. Ayniqsa, 1-4-sinf

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE5

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

o‘quvchilarini ularga individual yondashgan holda, intellektual rivojlantirish muammosi didaktik jihatdan ochib berilmagan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini har tomonlama rivojlantirish muammosining echimi jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bugungi kunga qadar ta’lim jarayonida mavjud bo‘lgan ayrim an’analardan voz kechish zaruriyati tug‘ilmoqda[6]. Jumladan, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan an’anaviy ta’lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta’minlagan holda o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mavjud bo‘lgan bilimlar paradigmasi hamda ular taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlari orasida aloqadorlikni ta’minlagan holda shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, ularning o‘quv jarayonidagi taraqqiyotlari orasida dinamik aloqadorlikni ta’minlash lozim. O‘quvchining intellektual jihatdan erkin rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan insonning haq-huquqlari haqidagi qonun-qoidalarga amal qilib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi bo‘lishga undash orqali amalga oshiriladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish shuning uchun ham zarurki, bu jarayonda o‘quv vaziyati barqaror rivojlanadi va o‘quvchilarga samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati vujudga keladi. Birinchidan, mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga aksariyat hollarda e’tibor qaratmaydilar. Ikkinchidan, ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlar vujudga keldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish masalasi o‘tgan asrning 60 yillaridan boshlab o‘rganila boshlandi. Biroq, bu masalaga hozirgi kunda yangicha pedagogik paradigma asosida yondashilmoqda. Jumladan, ushbu masalaga jamiyatshunoslar va psixologlar birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratdilar. Biz so‘ragan o‘qituvchilarning 1,4% i o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish haqida tasavvurga ega ekanliklari ayon bo‘ldi. Ularning juda kam qismigina bu masala haqida muayyan bilimga ega ekanliklari aniqlandi. Aksariyat o‘qituvchilar o‘quv predmetlaridan dars beradigan pedagoglarning o‘quvchilarda intellektual faoliyat ko‘nikmasini tarkib toptirishga etarlicha e’tibor qaratmaydilar, ayrimlari esa, bu sinf rahbarining vazifasiga kiradi deb hisoblaydilar[7]. So‘ralgan bir guruh o‘quvchilar o‘zlarining intellektual faoliyatlarini baholashlari, o‘z bilimlarini tadbiq etishga qiziqishlari aniqlandi. Ularning muayyan qismi o‘zlarining intellektual o‘ziga xosliklarini anglab etishlari ayon bo‘ldi. Bularning barchasi o‘quvchilarga individual yondashgan holda ularni intellektual rivojlantirish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatdi. Ta’lim jarayoni, undagi o‘zgarishlar, uning ko‘p faoliyatli didaktik maydonga aylanishi o‘quvchi shaxsiga nisbatan yangicha pedagogik munosabatni qaror toptirishni taqozo qilmoqda.

Bugun boshlang‘ich sinf o‘quvchisini individuallashgan yondashuv asosida intellektual rivojlantirish metodikasi o‘quv jarayonining ustuvor maqsadiga aylandi. Keyingi yillarda o‘quv jarayoni sub’ektlariga nisbatan qadriyatli munosabat pedagogik madaniyatning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Ta’lim jarayonining demokratlashuvi o‘quvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanishiga asos

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE5

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

bo‘lmoqda.Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirish va buning uchun qulay pedagogik muhitni vujudga keltirishning kontseptual asoslari yaratilgan[8]. Nazariy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish sohasida bir qator xorijiy davlatlarda katta pedagogik tajriba to‘plangan. Chunonchi, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Avstriya kabi mamlakatlarda o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga qaratilgan davlat miqyosidagi dasturlar va rejalar mavjud. Bu mamlakatlarning tajribalaridan shu narsa ayonki, ularda ta’lim jarayonida o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish uchun keng ko‘lamli pedagogik muhit tarkib toptirilgan. O‘qituvchilar har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini biladilar. Shunga ko‘ra ular, ta’lim jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadilar va har bir o‘quvchining intellektual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydilar. Bu muammo bilan o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga yo‘naltiruvchi maxsus pedagogik xizmat xodimlari shug‘ullanadilar.

Bunday xodimlar o‘quv muassasasi ma’muriyatidan mustaqilliklari bilan ajralib turadilar. Faylasuflar ham qadimdan shaxsni intellektual rivojlantirish muammosi bilan bevosita shug‘ullanib kelganlar. Ular har bir shaxsning intellektual rivojlanish istagi va imkoniyatlarini, uning shaxsiy sifatlari o‘zgarishi bilan bog‘liq holda o‘rganganlar. Bunda ular insonning shaxsiy, ichki, erkin, ixtiyoriy, nuqtai nazarga tayanadilar. O‘quvchini intellektual rivojlantirish ichki va tashqi pedagogik ta’sirlar bilan bog‘liq amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishga ko‘maklashadigan tashqi – pedagogik ta’sirlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning tarkibiy qismlari ham shunchalik izchil bo‘ladi[9]. Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual jihatdan maqsadga muvofiq tarzda rivojlantirishni ta’minlash uchun, uning tashqi ta’sirlarga nisbatan mustaqilligini oshirish kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish ichki manbalari mohiyatining ortib borishi natijasida, ularning mustaqil fikrlash darajalari ortadi va intellektual qiyofasi o‘zgaradi [10]. Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikriy barqarorligi va atrofdagi o‘zgarishlarga nisbatan bir xildagi o‘ziga xos munosabati qaror topadi.

Ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishda ularga individual yondashuv nihoyatda zarur ekan. Bugungi kunda pedagogika fani oldiga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish vazifasi o‘z echimini kutayotgan ekan, buning uchun har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchi va o‘quvchilar guruhining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik tizimni vujudga keltirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.Va biz o’qituvchilar zimmamizga yuklatilgan bu vazifani sidqidildan bajarmog’imiz lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Asadov Yu.M. O‘quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan darsliklarga qo‘yiladigan talablar// “Boshlangich ta’limni modernizatsiyalash orqali

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №5

o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini va samaradorligini oshirish” mavzusida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari Forumi. Toshkent - 2016.
2. Tabiiy fan -Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Z. B. Sangirova, K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva,M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, S. G‘. Xasanova
3. Tabiiy fan- Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik-2021. K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva, Z. B. Sangirova, M. K. Yuldasheva,M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, D. S. Azamatova, M. T. Umaraliyeva,U. E. Alimuhamedova, S. G‘. Xasanova, D. T. Hasanova, D. Q. Turdiyeva,N. V. Yusupova, G. A. Pahramova, Sh. M. Ganiyeva
4. Sh, O'roqova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy fanlar misolida intellectual rivojlantirish metodikasi // TAFAKKUR MANZILI – 2023. – T. №. 4.–C. 135-138.
5. O’roqova S. S. INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON INDIVIDUAL APPROACH-SOCIAL PEDAGOGICAL NEED //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2024. – T. 11. – №. 04. – C. 3-7.
6. Shabbazova, D. (2023). PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE LITERACY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON A PERSONAL VALUE APPROACH. Academia Science Repository, 4(05), 12-19.
7. Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." JournalNX, vol. 7, no. 11, 2021, pp.
8. Norbo‘tayev, X. B., & O‘roqova, S. S. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI TABIIY FANLAR MISOLIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va echimlar, 1(5), 733-736.
9. Raupova, S. A. (2023). USING TIMSS ELEMENTS IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY CLASSES. World of Scientific news in Science, 1(2), 69-74.
10. NORBOTAEV, Khoshbok, and Avazbek JURAEV. "IMPROVING PRIMARY CLASS LESSONS BASED ON MEDIA TEACHING METHODOLOGY." World Bulletin of Social Sciences 16 (2022): 43-47.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**O’roqova Sharofat**, tadqiqotchi [**Урокова Шарофат** исследователь], [**Sharofat S. Urokova**, Researcher]; manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY, At-Termiziy ko‘chasi 1 A-uy Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111],], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP "Yangiabad", At-Termizy street 1 A-uy Postal code: 190111].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI. TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI VA UNI O‘TKAZISH TARTIBI

© G.T. To‘rayeva[1]✉
[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada tajriba-sinov ishining birinchi,ikkinchi va uchinchi bosqich yakunida mustaqil faoliyatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning yutuq va kamchiliklari aniqlandi hamda o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratish orqali ushbu metodikani takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqildi.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi -talabalar mavjud bilimlaridan kelib chiqib ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini tekshirish va olingan natijalar asosida ularni tahliliy tafakkurini va qonuniyatlar mohiyatini amaliy tushunish yaxlit tasavvur qila olish qobiliyatini rivojlantirish metodlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirishda tajriba-sinov ishlarining pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish uchun ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot yaratish va joriy etish metodikasi asosida fanlarga tayyorlash o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishning nazariy modeli shilab chiqildi.

XULOSA: keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, talabalar o‘zida mavjud bilimlardan amaliyotda yaxshigina darajalarda foydalana oladi. Bu esa talabalarning kelajakda avvalo yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishidan, kerak bo‘lsa, ular orasidan kimyo sohasining yetuk mutaxasislari, kimyoviy jarayonlarni matematik modellashtirish sohasida yangi qirralarni kashf qiluvchi ijodkor olimlar yetishib chiqishidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: kreativ, dasturiy ta’minot, mustaqil ishlash faoliyati,web ilova, restudy, metodika, model.

Iqtibos uchun: To‘rayeva G.T. Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirish samaradorligi. tajriba-sinov ishlari mazmuni va uni o‘tkazish tartibi. // Inter education & global study. 2024. №10 B.35-41.

СИМВОЛИКА ЖИВОТНЫХ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

© Г.Т. Тураева[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье по итогам первого, второго и третьего этапов опытно-экспериментальной работы были выявлены недостатки и недостатки организации учебных занятий, направленных на совершенствование методики использования инновационных технологий в организации самостоятельной деятельности, а также разработаны пути совершенствования данной методики путем создания учебно-методических пособий.

ЦЕЛЬ: цель данной статьи-проверить умение учащихся анализировать данные на основе имеющихся знаний и на основе полученных результатов определить методы развития у них аналитического мышления и умения целостно представлять себе практическое понимание сущности закономерностей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье использованы научно-исследовательские методы исследования педагогического потенциала опытно-экспериментальной работы в развитии самостоятельной трудовой деятельности учащихся.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основе методики создания и внедрения программного обеспечения, развивающего самостоятельную трудовую деятельность студентов, в процессе обучения по предметам разработана теоретическая модель организации самостоятельной трудовой деятельности студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: как видно из приведенных данных, студенты могут использовать имеющиеся знания на практике на хорошем уровне. Это свидетельствует о том, что в будущем студенты станут прежде всего зрелыми специалистами, а при необходимости среди них будут развиваться зрелые специалисты в области химии, творческие ученые, открывающие новые аспекты в области математического моделирования химических процессов.

Ключевые слова: креатив, программное обеспечение, самостоятельная работа, веб-приложение, рестудия, методология, модель.

Для цитирования: Тураева Г.Т. Эффективность развития самостоятельной исполнительской деятельности учащихся. содержание опытно-испытательной работы и порядок ее проведения. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 35-41.

THE EFFECTIVENESS OF THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT PERFORMING ACTIVITIES OF STUDENTS. THE CONTENT OF THE TRIAL WORK AND THE PROCEDURE FOR ITS IMPLEMENTATION

© Gavxarbonu T. To‘rayeva[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

INTRODUCTION: in this article, based on the results of the first, second and third stages of experimental work, the shortcomings and shortcomings of the organization of training sessions aimed at improving the methodology of using innovative technologies in organizing independent activities were identified, and ways to improve this methodology by creating teaching aids were developed.

AIM: the purpose of this article is to test students' ability to analyze data based on existing knowledge and, based on the results obtained, determine methods for developing their analytical thinking and the ability to holistically imagine a practical understanding of the essence of patterns.

MATERIALS AND METHODS: this article uses research methods to study the pedagogical potential of experimental work in the development of independent work of students.

DISCUSSION AND RESULTS: A theoretical model for organizing students' independent work activities in the process of preparing for subjects was developed based on the methodology for creating and implementing software that develops students' independent work activities.

CONCLUSION: The data presented shows that students are able to use their existing knowledge in practice at a good level. This indicates that in the future, students will first of all become qualified specialists, and if necessary, they will become qualified specialists in the field of chemistry, creative scientists who will discover new areas in the field of mathematical modeling of chemical processes.

Key words: creativity, software, independent work,web application, studio, methodology, model.

For citation: Gavxarbonu T. To‘rayeva. (2024) ‘The effectiveness of the development of independent performing activities of students. the content of the trial work and the procedure for its implementation’, Inter education & global study, (10), pp. 35-41. (In Uzbek).

“**O**liy o‘quv yurti “Kimyo” yo‘nalishi talabalari uchun “Matematika” fani mazmunini yorituvchi o‘quv me’yoriy hujjatlarni (davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja, fan dasturi va boshqalar) o‘rganish asosida bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘rganish, umumlashtirish”.

Anketa so‘rovlari yordamida talabalarning mustaqil izlanish va mustaqil faoliyat orqali kerakli bilimlarni olish metodlaridan qanchalik xabardorligi tekshirildi. Shuningdek, ularning o‘qib turgan oliy ta’lim muassasalarida bu sohadagi tashkiliy-metodik taminot haqidagi fikrlari hamda takliflari tinglandi, tegishli xulosalar chiqarildi[1, 2].

Talabalarning fanlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish uchun kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish zaruriyatini asoslash. “Talabalarda “Matematika” fani asoslari bo‘yicha mavjud bilim, ko‘nikma darajasini aniqlash va yangi bilimlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

o‘qituvchining tegishli ko‘rsatmalari, maslahati yordamida va nazoratida qay darajada mustaqil o‘zlashtirishni uddalay olishiga tekshirish”.

“Talabalar mavjud bilimlaridan kelib chiqib ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini tekshirish va olingan natijalar asosida ularni tahliliy tafakkurini va qonuniyatlar mohiyatini amaliy tushunish yaxlit tasavvur qila olish qobiliyatini rivojlantirish metodlarini aniqlash”[3, 4].

Tadqiqotchilik protseduralari strukturasi, talabalarning tajriba-sinov jarayoni uchun tanlangan fanlarga doir bilimlarni o‘zlashtirganliklarini baholashning umumiy me’zonlarini ishlab chiqish.

Talabalarning tajriba-sinov jarayoni uchun tanlangan fanlar bo‘yicha dastlabki bilim darajasini aniqlash.

Talabalarning tajriba-sinov jarayoni uchun tanlangan fanlarni o‘qitishda taklif etilayotgan metodikaning samaradorlik darajasini o‘rganish.

Tajriba-sinov ishini yakunlash va natijalarni matematik statistik usullar orqali qayta ishlash, tahlil qilish.

“O‘quv hamda uslubiy qo‘llanmani va tavsiyanomalarni, yaratilgan yangi web ilovani tajriba-sinovdan o‘tkazish.

Tajriba-sinav ishlari yakunidagi ko‘rsatkichlarni o‘zaro qiyoslash asosida xulosa chiqarish. Testlar, anketalar, so‘rovnomalar, test-anketalar na’munalari, yozma ishlar, suhbatlar mavzularini ishlab chiqish, tegishli miqdorda ko‘paytirish, professor o‘qituvchilar va talabalarga tarqatish”.

Tajriba-sinov mashg‘ulotlari loyihasi, o‘quv mashg‘uloti ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqish, mashg‘ulotlar jarayonida bevosita ishtirokchi sifatida qatnashish. Nazorat va tajriba guruhlariga loyihalangan o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi bo‘yicha tavsiyalar berish.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich – o‘rganuvchi bosqich (2021-2022 o‘quv yili):

“Tadqiqot muammosining nazariy asoslarini o‘rganish maqsadida kredit-modul tizimining ilmiy asoslari o‘rganilindi va ilmiy-uslubiy tomonlari tahlil qilinib chiqildi; Oliy ta’limda kredit-modul tizimining ilmiy asoslaridan kelib chiqib, tadqiqot ishining maqsadi, predmeti, vazifalari hamda tadqiqot ob’ekti aniqlashtirildi”.

Talabalarning mustaqil ta’limda bilim olishning dastlabki holati tashhis qilindi, matematika fanidan mustaqil ta’lim uchun ajratilgan mavzular asosida talabalarning bilim darajasi baholandi. Talabalarning mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirishdagi muammolar aniqlanib, ularda mustaqil o‘rganishda bo‘shliqlar mavjudligi aniqlandi:

“Matematika” fanini “Kimyo” yo‘nalishi talabalari mustaqil o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan mavzular uchun zamonaviy texnik va kommunikativ imkoniyatlardan foydalanib, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llab, dars ishlanmalari yaratish zaruriyati ilmiy-nazariy jihatdan aniqlandi, ishchi farazlar shakllantirildi[5,6].

Ikkinchi bosqich – amalga oshirish bosqichi (2022-2023 o‘quv yili):

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Tanlab olingan oliy ta’lim muassasalarida “Kimyo” yo’nalishi talabalari uchun “Matematika” fanining ishchi dasturlari tahlil qilindi va takomillashgan mazmuni ishlab chiqildi; birinchi bosqichda reja qilingan tadqiqotning ishchi farazi, maqsad va vazifalari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich – tajriba-sinov bosqichi (2023-2024 o‘quv yili).

Kredit-modul tizimida dars mashg‘ulotlari, xususan, mustaqil ta’limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish yo‘nalishida ishlar amalga oshirildi, “Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot yaratish va joriy etish metodikasi – web ilovasi”deb nom berilgan dastur yaratildi va bir nechta yangi metodlar yoritilgan qo‘llanmalar chiqarildi.

O‘rganilayotgan muammoning dolzarbligi, ishlab chiqilgan tamoyillarning tadbiqini metodik asoslash bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi.

Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tinglovchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali baholandi.

Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini innovatsion texnologiyalardan foydalanib tashkil etishning taklif etilgan metodlari samaradorligi va bu metodlarning talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida qanday aks etganini aniqlash maqsadida talabalar o‘rtasida tajriba-sinov o‘tkazildi. Bundan maqsad izlanish bo‘yicha tajriba-sinov natijalarini o‘rganish va ularni amaliy jihatdan tasdiqlash edi.

“Respublikamizning bir nechta oliy o‘quv yurtlarida “Kimyo” yo‘nalishi talabalariga “Matematika” fanini o‘qitishda ta’lim samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi”.

Tajriba-sinov guruhlarida auditoriyadagi mustaqil ishlar hamda auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari biz taklif qilgan metodlar orqali (shuningdek bu guruh talabalariga “Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot yaratish va joriy etish metodikasi – web ilovasi” ham taqdim qilindi), nazorat guruhlarida esa an’anaviy tarzda olib borildi. Tajriba va nazorat guruhida o‘tkazilgan natijalar 5 ballik reyting tizimida baholandi.

Pedagogik eksperiment uch bosqichda: asoslovchi; tashkil etish va o‘tkazish; yakunlovchi bosqichlarida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining tasdiqlovchi, asoslovchi bosqichida tajriba-sinov ishlari yakunlanib xulosalandi. Testlar, anketalar, tajriba-sinov davridagi vaziyatlarni xolis yoritishga erishish maqsadida talabalarning jarayonga munosabatlarini ko‘rsatib beruvchi so‘rovnomalar, test-anketa na’munalari, yozma ishlar, suhbatlar mavzulari ishlab chiqildi, tegishli miqdorda ko‘paytirildi, professor o‘qituvchi va talabalarga tarqatildi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari loyihasi, o‘quv mashg‘ulotlari ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Jarayonda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashish va kuzatishlar asosida, nazorat va tajriba guruhlarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Tajriba-sinov ishlarining tajriba yakunidagi ko‘rsatkichlarini o‘zaro qiyoslash asosida yakuniy xulosa chiqarildi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Tajriba-sinov yakunida test, yozma ishlar o‘tkazildi. Talabalar bilimini baholashda o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzish, uni ta’lim jarayoniga qo‘llash samaradorligini ko‘rsatish maqsadida va natijalarni hisoblash qulay bo‘lishi uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 baholik tizimga o‘tkazildi. Ya’ni, 100 ballik tizimi uchun talabalarni bilimini baholash ulushlarda ishlab chiqilgan bo’lib talabalarning har bir olgan bilimi, egallagan qobiliyati, ballar bilan uning umumiy natijasiga qo’shib borishga ham erishildi va umumiy natijalar qayta besh ballik tizimiga eksport qilindi.

Tajriba-sinov jarayonida “Kimyo” yo‘nalishi talabalariga “Matematika” fanidan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari nisbatan yangi tanlangan pedagogik dasturiy ta’lim vositalari hamda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yangi yaratilgan “Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot yaratish va joriy etish metodikasi – web ilovasi” orqali tashkil etildi va talabalarning bilimini baholash mezonlari ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang)”

“Matematika” fanidan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va matematik kompitensiyalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichini baholash mezonlari

1-jadval

T/r	Baholash darajalari	Baholashning tasniflanishi
1.	Reproduktiv	Talaba kurs bo‘yicha (yetarli yoki umuman) tasavvurga ega emas va mavzu mazmunini to‘liq tushunmagan; matematik fikrlash qobiliyati rivojlanmagan hamda o‘z fikrini bayon etish imkoniyatiga ega emas; matematik atama va tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qiladi va vazifasini tushunmaydi.
2.	Produktiv	Kurs bo‘yicha qisman tasavvurga ega, lekin mavzu mazmunini to‘liq tushunmagan; mustaqil masalalar yechishda formulalardan foydalanishda xatoliklarga yo‘l qo‘yadi; berilgan topshiriqni o‘qituvchi yordami bilan bajara oladi; nazariy ma’lumotlarni tushunadi, lekin o‘z fikrini to‘liq bayon eta olmaydi; o‘qituvchi yechgan namunaga qarab shu tipdagi masalani yechib biladi, biroq mustaqil bajara olmaydi.
3.	Qisman izlanuvchan	Kurs bo‘yicha tasavvurga ega hamda tegishli tushuncha va atamalarni biladi; o‘rta darajadagi masalalarni yechishda formulalardan foydalanishda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaydi va kerakli natijani olib biladi, biroq qo‘shimcha mantiqiy fikrlash talab qilinadigan masalalarda mustaqil natija ololmaydi; nazariy ma’lumotlarni o‘z fikrini qisman bayon eta oladigan darjadagina tushunadi; mavzuni (matematikani tushunishda juda kerak bo‘ladigan) kimyo bilan bog’lab tushuntirishda qiynaladi, biroq o‘qituvchining kichikroq baholash mumkin bo‘lgan yordamidan to‘g‘ri xulosa chiqarib, tezda kichik xatolarini ham tuzata oladi.
4.	Kreativ	Kurs bo‘yicha (Davlat ta’lim standartlaridan kelib chiqilsa) to‘liq tasavvurga ega hamda tegishli tushuncha va atamalarni yaxshi biladi; masalalarni yechishda formulalardan foydalanish jarayonida hamda har xil masalalarni matematik qonuniyatlar asosida talqin qilishda xatoliklarga deyarli yo‘l qo‘ymaydi va kerakli natijani olib biladi; nazariy ma’lumotlarni tushungan holda, o‘z fikrini to‘liq, tushunarli qilib bayon eta oladi; o‘qituvchi tomonidan berilgan nazariy ma’lumotlarni amalda bemalol qo‘llay oladi; o‘zining ma’lum bir matematik bilimlariga tayanib, yangicha matematik qonunlar hamda xossalarini mustaqil tahlil qilishga harakat qilgan holda o‘z mustaqil qarashlarini yetarlicha himoyalay oladi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, talabalar o‘zida mavjud bilimlardan amaliyotda yaxshigina darajalarda foydalana oladi. Bu esa talabalarning kelajakda avvalo yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishidan, kerak bo‘lsa, ular

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

orasidan kimyo sohasining yetuk mutaxasislari, kimyoviy jarayonlarni matematik modellashtirish sohasida yangi qirralarni kashf qiluvchi ijodkor olimlar yetishib chiqishidan dalolat beradi[7].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. To‘raeva. G.T. “Matematika fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning o‘quv-pedagogik ta’minoti”.//Jismoniy madaniyat va boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish istiqbollari. Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2020y. 531-533b.
2. To‘raeva. G.T. “Kompetentli yondashuv asosida matematikaga fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish modeli”. //Boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari . Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2022y. 190-193b.
3. To‘raeva. G.T. “Kompetentli yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish”. //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/ 4-son.. Toshkent 2023y.357-364b.
4. To‘raeva. G.T. “Bo‘lajak pedagog talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish”.//Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/5-son.. Toshkent 2023y. 451-457b.
5. To‘raeva. G.T. “Bo‘lajak pedagog talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish”. //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/7-son.. Toshkent 2023y. 231-235b.
6. Turaeva Gavkharbonu Talibjonovna.- “Organization of independent work of students in the process of teaching mathematics on the competence-based approach”.// Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 8 august 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz. 167-171pp.
7. Turaeva Gavkharbonu Talibjonovna-“Methodology for developing independent creative thinking of students”.// Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 8 august 2023 uif-2022: 8.2| issn: 2181-3337 | scientists.uz.

✉ MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

To‘rayeva Gavxarbonu Tolibjonovna, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, [**Тураева Гавхарбону Толибжоновна,** исследователь Ташкентского государственного педагогического университета имени Низоми], [**Gavharbonu T. Turaeva,** researcher of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi], [manzil:Toshkent shaxar, Bunyotkor kochasi, 27-uy], [адрес: г.Ташкент, ул.Бунёткор, 27], [address: Tashkent city, Bunyotkor street, house 27].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRALLASHGAN TARBIYA TEXNOLOGIYALARI

© B.X. Ilyasov[1]✉

[1]Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, Qoraqalpog‘iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarini jismoniy madaniyatini rivojlantirishning integrallashgan tarbiya texnologiyalari, har tomonlama sog‘lom, barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarida jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda yangicha yondashuv asosida ta’lim berish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tish bilan birgalikda jamiyatda muhitni sog‘lomlashtirish, kelajak avlodni ayniqsa yoshlarni ruhan, ham jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash vazifalari ham keltirib o‘tilgan.

MAQSAD: talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning integrallashgan tarbiya texnologiyalari ishlab chiqish uning samaradorligini tadqiqot jarayonida aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ma’lumki, yuksak jismoniy madaniyatga ega bo‘lgan pedagog va sportchilarni shakllantirish davlatimiz siyosatining bugungi kundagi ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Jismoniy madaniyatni yuqori darajasiga ega shaxsni shakllantirish ko‘p bosqichli, murakkab jarayon bo‘lib, mazkur jarayonga texnologik yondashuvni talab etadi. Jismoniy madaniyatni shakllantirishga texnologik yondashuv uning maqsadga muvofiqligi va oqilona tashkil etilishini talab etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy madaniyatini rivojlantirishning integrallashgan tarbiya texnologiyalari ishlab chiqilgan hamda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish orqali kasbiy ijtimoiylashtirishning shaxslararo, guruhiy, jamoaviy va qadriyatga yo‘naltirilgan yangicha integratsion ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari takomillashtirilgan.

XULOSA: Oliy ta’lim muassasalari talabalarini o‘z sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rgatish, sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali ularda sog‘lom turmush tarzini yaratish, jismoniy tarbiya bilan mustaqil shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunda pedagogik jarayonning bosh maqsadi hisoblanadi. Jismoniy madaniyat –insonning jismoniy rivojlanishi va barkamollashuvi uchun xizmat qiladigan maxsus vositalar, metodlar hamda sharoitlarni yaratish shuningdek ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha erishilgan yutuqlar majmuasi ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, ta’lim, tarbiya, barkamol avlod, ma’naviy-axloqiy tarbiya, harakatli o‘yinlar, ma’naviy-axloqiy mezon.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Iqtibos uchun: Ilyasov B.X. Talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning integrallashgan tarbiya texnologiyalari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.42-49.

ИНТЕГРИРОВАННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ

© Б.Х. Ильясов[1]✉
[1]Каракалпакский государственный университет, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается развитие физической культуры студентов высших учебных заведений, физической зрелости, физического развития, укрепления здоровья, здорового образа жизни с целью стать здоровым, всесторонне развитым человеком в все аспекты, наряду с указанием путей образования на основе нового подхода, также были упомянуты задачи улучшения среды в обществе и воспитания будущего поколения, особенно молодежи, здоровыми как психологически, так и физически.

ЦЕЛЬ: разработка интегрированных образовательных технологий развития физической культуры студентов и определение ее эффективности в исследовательском процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: как известно, формирование педагогов и спортсменов с высокой физической культурой является одним из приоритетов политики нашего государства на сегодняшний день. Формирование личности с высоким уровнем физической культуры-многоступенчатый, сложный процесс, требующий технологического подхода к данному процессу. Технологический подход к формированию физической культуры требует ее целесообразности и рациональной организации.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: разработаны интегрированные образовательные технологии развития физической культуры студентов высших учебных заведений и усовершенствованы новые интеграционные механизмы межличностного, группового, коллективного и ценностно-ориентированного воздействия профессиональной социализации путем уточнения философских, педагогико-психологических факторов развития физической культуры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: научить студентов высших учебных заведений заботиться о своем здоровье, формировать у них здоровый образ жизни путем регулярных занятий спортом, развивать навыки самостоятельного физического воспитания – основная цель педагогического процесса сегодня. Физическая культура важна, поскольку представляет собой совокупность достижений в создании специальных средств, методов и условий, служащих физическому развитию и совершенствованию человека, а также их рациональному использованию.

Ключевые слова: физическая культура, образование, воспитание, зрелое поколение, духовно-нравственное воспитание, подвижные игры, духовно-нравственный критерий.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Для цитирования: Ильясов Б.Х. Интегрированные образовательные технологии развития физической культуры учащихся. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 42-49.

INTEGRATED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL CULTURE OF STUDENTS

© Bakhtiyar Kh. Ilyasov[1]✉
[1]Karakalpak State University, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, the development of physical culture of students of higher educational institutions, the promotion of physical culture, physical education, fitness, physical maturity, physical development, health promotion, healthy lifestyle in order to become a healthy, well-rounded person in all aspects, along with showing the ways of education based on a new approach, the tasks of improving the environment in the society and raising the future generation, especially young people, to be healthy both mentally and physically were also mentioned.

AIM: to develop integrated educational technologies for the development of physical culture of students and determine its effectiveness in the research process.

MATERIALS AND METHODS: as you know, the formation of teachers and athletes with high physical culture is one of the priorities of our state's policy today. The formation of a personality with a high level of physical culture is a multi-stage, complex process that requires a technological approach to this process. The technological approach to the formation of physical culture requires its expediency and rational organization.

DISCUSSION AND RESULTS: integrated educational technologies for the development of physical culture of students of higher educational institutions have been developed and new integration mechanisms of interpersonal, group, collective and value-oriented effects of professional socialization have been improved by clarifying philosophical, pedagogical and psychological factors of the development of physical culture.

CONCLUSION: the formation of skills for teaching students of higher education institutions to take care of their health, creating a healthy lifestyle in them through regular participation in sports, independently engaging in physical education is today the main goal of the pedagogical process. Physical culture is significant in that the creation of special tools, methods and conditions that serve for the physical development and harmonization of a person is also a complex of achievements in their rational use.

Key words: physical culture, education, upbringing, mature generation, spiritual and moral education, active games, spiritual and moral criterion.

For citation: Bakhtiyar Kh. Ilyasov. (2024) 'Integrated educational technologies for the development of physical culture of students', Inter education & global study, (10), pp. 42-49. (In Uzbek).

Jahonda o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama sog'lom, yuksak intellektual salohiyatga ega va jismonan barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy madaniyatning o'rni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

beqiyosdir. Jismoniy madaniyat boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida sport bilan shug‘ullanuvchi talabalarning psixologik va yoshga xos xususiyatlariga to‘liq mos keladigan sharoitlarni yuzaga keltirishda, turli harakat faoliyati sharoitlarida ularning asoslarini egallashda, talabalarning jamoaviy va individual faolligi bilan birga harakat sifatlarini rivojlantirishda, harakat ko‘nikmalarini oqilona shakllantirishda samarali vosita vazifasini o‘tashi mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi. Hozirgi kunda axborot almashish jarayonining jadallashuvi, sog‘lom avlodni tarbiyalashni murakkablashtirmoqa. Tezkor muloqot asrida insonlarning muloqot ko‘lamining kengligi ularning ruhiy zo‘riqishlarini kuchaytirmoqda. Jamiyat a’zolarida toqatsizlik, asabiylik, ruhiy tushukunlik xolatlari kuzatilmoqda. Har bir jamiyatda muhitni sog‘lomlashtirish, kelajak avlodni ayniqsa yoshlarni ruhan, ham jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson kamoloti ruhiy va jismoniy mohiyat uyg‘unligida kechishini hisobga olgan holda jamiyat a’zolari aqliy salohiyatini oshirish bilan birga jismoniy madaniyatini ham rivojlantirish vazifalari yuzaga chiqmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Sport sohasiga hukumat tomonidan alohida e’tibor qaratilishi natijasida sportga qiziqish ortmoqda, jismoniy tarbiya kundalik faoliyatga aylanmoqda. Bu esa, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish bilan birga mamlakatimizda sport sohasini yuksalishiga ham zamin yaratmoqda. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ham jismoniy tarbiya va sportga alohida e’tibor qaratish zarurligini quyidagicha asoslaydi: «Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifadir. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yaksak natijalarga erishgan sportshilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz».[1] Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan besh muhim tashabbusning ikkinchisi yoshlarni jismoniy madaniyatini rivojlantirish, jismoniy chiniqtirish, ularni jismoniy tarbiya, sport bilan shug‘ullanishlari va o‘zlarini namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan.

Jismoniy madaniyatni shakllantirish murakkab va mazkur jarayonni texnologiyalashtirish hamma vaqt ham kutiladigan natijalarga to‘liq erishishga imkon bermaydigan quyidagi belgilariga ega: jismoniy madaniyatni shakllantirish yaxlit tavsifga ega, pedagogik ta’sir kichik qadamlar yoki alohida sifatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish tarzida amalga oshadi.

1. I.Xarlamov tomonidan taqdim etilgan tarbiya texnologiyasi esa quyidagi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarga ega: ma’naviy-axloqiy rivojlanish ziddiyatlarini, ma’naviy-axloqiy sifatlar rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash; kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha vazifalarni belgilash; tarbiyalanuvchilarni shakllantiriladigan sifat mohiyatini anglashga qaratilgan bilish faoliyatiga jalb qilish; rolli va xulqiy tarkibiy qismlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish; to‘g‘ri xatti-harakatni mashq qildirish, uni mustahkamlash [7].

2. V.S. Selivanovning tarbiya texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat: xulqning ma’lum shakliga ijobiy emotsional munosabat uyg‘otish; oqilona xatti-harakat tarzini hosil

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

qilish; xulqning ijtimoiy ma'qullanadigan shakli haqida tasavvurni shakllantirish va mustahkamlash; oqilona xulq-atvor odatlarini tarbiyalashga doir mashqlar; tushunchani o'zlashtirish [8].

SH.T.Xalilova tomonidan taklif etilgan tarbiya texnologiyasi jahon tillarini o'rganish bilan bog'liqlikda quyidagi uch bosqichni o'z ichiga qamrab olgan:

motivatsion: o'z-o'zini tarbiyalash; o'z-o'zini shakllantirish; kasbiy faoliyatda o'zini namoyon etish; ularni harakatga undovchi motivlar; maqsadli ustanovkalar.

Mazmunli: shaxs axloqiy madaniyatining mohiyati haqidagi bilimlar; axloqiy madaniyat tuzilishi to'g'risidagi tushunchalar; xalq an'analari, urfodatlar, etnoetikani bilish.

Jarayonli (protsessual): insonlar bilan muloqot qilish ko'nikma va malakalari; axloqiy normalar asosida o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish malakasi; etiket va etnoetika qoidalariga rioya qilish ko'nikma va malakalari [9].

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida bayon etilgan mazkur texnologiyalarning butun tizimi alohida-alohida qismlarga ajratish, pedagogik shakl va metodlarning aniq turini to'g'ri belgilab olishga katta ehtiyoj mavjud. Qaysi pedagogik vositalar yordamida ma'naviy-axloqiy ideallarning e'tiqod, tarbiyalanuvchining xatti-harakati va sifatlariga o'tishini ko'rsatib berish kerak. Texnologiyalar algoritmining bosqichmabosqich amalga oshirish jarayonni qayta hosil qilishni talab etadi, masalan, emotsional munosabatning munozaraga o'rin qoldirmaydigan ahamiyatiga qaramay, undan oldin "taqdim qilish" (qadriyatni namoyish qilish, tushuntirish) bosqichini amalga oshirish zarur.

Tadqiqot doirasida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning besh – tanishuv, bilishga doir; baholash, refleksiya, tanlov; interiorizatsiya; fazilatlarni faoliyatda qayta yaratish, dolzarblashtirish; mustahkamlash va korreksiya bosqichlarini o'z ichiga qamrab olgan blokmodulli texnologiyasi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarida jismoniy madaniyatni rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasi

Bosqichlari	Mazmuni	Shakl, metod va vositalari
Tanishuv, bilishga doir	jismoniy madaniyatga xos sifatlarni taqdim etish va namoyish qilish, tushuntirish	Individual, guruhli, ommaviy, munozaralar, debatlar, treninglar, muammoli tavsifdagi suhbat, erkin yozish, besh minutlik esse, aqliy hujum
Baholash, refleksiya, tanlov	Taqdim etilgan fazilatlar bilan o'zaro ta'sirga kirishish – munosabat, baholash; o'z tajribasiga, o'zining fazilatlar tizimiga kiritish yoki inkor etish	Individual, guruhli, ommaviy, fikrlar hujumi, fikrlar shkalasi, o'zo'zini baholash, badiiy-ma'rifiy asarlar, multimedia vositalari
Interiorizatsiya	Jismoniy madaniyatning bo'lajak pedagoglar uchun ahamiyatini aniqlashtirish. Jismoniy madaniyatga doir fazilatlarni xatti-harakatlar uchun odat sifatida qabul qilish	Individual, o'z-o'zini tahlil etish, o'zo'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, axloqiy mavzudagi rolli va baholashga doir vaziyatlar
Fazilatni faoliyatda namoyon etish	Jismoniy madaniyatga ijobiy munosabat, xulq-atvorni faoliyat va muloqotning real hayotiy sharoitlariga kiritish.	Individual, guruhli, ommaviy, hasharlar, ekskursiyalar, marafonlar, tanlovlar, sayllar, musobaqa, rag'batlantirish, loyiha, o'yinli vaziyat, ijtimoiy loyiha

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Mustahamlash va korreksiya	Jismoniy madaniyatni takrorlanadigan vaziyatlar (mashqlar) yordamida faoliyatda mustahkamlash va korreksiyalash	Individual, mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, pedagogik vaziyatlar, reproduktiv obrazli suhbat, test (refleksli tarkibga ega, tushunchali), tugallanmagan gaplar metodikasi

Mazkur bosqichlarda qo‘llaniladigan tarbiyaviy-diagnostik ish shakl va metodlari tizimlashtirildi. Ulardan anketa-so‘ronovmalar, interfaol metodlar, treninglar, keys texnologiyalari tarzida tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanildi.

Anketalar (talabalarning ma’naviyat, madaniyat, jismoniy madaniyatni anglashga oid nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarga egaliklarini aniqlashga oid). Ma’lumki, anketalar “og‘zaki ravishda dastlabki ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga imkon beruvchi vosita, so‘rov turi” sanaladi. Tadqiq etilayotgan muammoning yechimini topishga imkon beruvchi anketalarni tayyorlash quyidagi ikki bosqichida amalga oshirildi:1-bosqich anketa mazmuni, yo‘nalishini belgilash, 2-bosqich, savollar turini tanlash.

Anketalarda berilayotgan savollar o‘z mohiyatiga ko‘ra asosiy, yo‘naltirish, nazorat qilish yoki aniqlashtirish kabi xususiyatlarni namoyon qiladi. Tadqiqotni olib borishda asosiy va nazorat qilish xususiyatiga ega anketalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topilib, ular respondentlar e’tiborlariga ikki xil usulda taqdim etildi. Ya’ni: talabalarning jismoniy madaniyat tushunchasi mohiyatini anglashga oid nazariy bilimlari darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi anketa; talabalarning jismoniy tarbiya va sportga oid ehtiyojlarni ifodalovchi ko‘nikma va malakalarga egaliklari darajasini baholashga imkon beruvchi anketa.

Tajriba-sinov ishlari davrida qo‘llanilgan anketalarning har bir variantida 10 ta savol mavjud bo‘lib, ular o‘rganilayotgan holat mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ya’ni:

1-variant talabalarning jismoniy tarbiyasiga oid nazariy bilimlarini aniqlashga oid anketa so‘rovi, II variant talabalarni jismoniy tarbiyaning tarixiy boyliklarni o‘zlashtirishga qiziqishlarini aniqlashga oid anketa so‘rovi, III variant talabalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq namoyon eta olish ko‘nikma va malakalarga egaliklarini aniqlashga oid anketa so‘rovi.

Savol-javoblar (talabalardan moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishishning ahamiyatini tushunilishi darajasini baholashga qaratilgan). Tadqiqotni olib borishda talabalar tomonidan moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishilganlik darajasini baholashda savol-javob metodi ham qo‘llanildi. Ushbu metodni respondentlar o‘rtasida qo‘llash test va anketa metodlari orqali to‘plangan ma’lumotlarni boyitish bilan birga ularning qay darajada obyektiv va to‘g‘ri ekanligini tasdiqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, savol-javob vaqtida respondentlar bilan bevosita muloqotni o‘rnatish, ularning holati, qiyofasi hamda yuz ifodalarini kuzatish, xatti-harakatlarini tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Jismoniy madaniyat boshqa madaniyat shakllari kabi shaxsning kompleks rivojlantiruvshi tizimning bir qismi hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida o‘z sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rgatish, sport bilan doimiy shug‘ullanish orqali ularda sog‘lom turmush tarzini yaratish, jismoniy tarbiya bilan mustaqil shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayonning bosh maqsadi hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Jismoniy tarbiya – jismoniy kamolotga erishish uchun yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, harakat malaka va ko‘nikmalarda o‘rtacha va jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi bir vaqtda amalga oshiriladi [2,3].

Jismoniy madaniyat, barcha jamiyat a’zolarining jismoniy barkamolligini ta’minlash orqali, insonlarni komillikka erishtirishda asosiy omillardan biri sifatida, har bir davlat va dunyo miqyosida o‘zining tizimiga egaligi bugungi kunda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Hozirgi zamon jismoniy madaniyat tizimining rivojlanish tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Hozirgi zamon umumbashariy jismoniy madaniyat tizimida, inson jismoniy barkamolligini takomillashtirishga to‘liq imkoniyat yaratib berilgan [4; 4-14 b.].

Jismoniy madaniyatning yer sharida va har bir davlatning ta’lim tizimidagi o‘rnini o‘rganish, uning har bir insonning turmush tarziga singib borishining ahamiyatini tahlil qilishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijasida jismoniy madaniyat tizimi dunyo va har bir davlat miqyosida o‘z salohiyatiga ega ekanligi ilmiy asoslanib, o‘ziga xos tamoyillari ishlab chiqildi. Bu tamoyillarni quyidagicha izohlaymiz: sog‘lomlashtirish; shaxsni har tomonlama rivojlantirish; mehnat va harbiy amaliyot bilan bog‘liqlik [5; 14-26 b.].

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini jismonan yuksak, aqlan yetuk qilib tarbiyalash orqali quyidagi vazifalar hal qilinadi: talabalarda kasbga qiziqish, vijdonan ishlash, haqiqatparvarlik, odamlarga hurmat, ular bilan yaxshi muomalada bo‘lish, mehnatga muhabbatni tarbiyalash mumkin; talabalarda kuchli xotira, tashkilotchilikka oid malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradi; talabalarda markaziy asab, yarak-qon aylanish, nafas olish tizimlari ishini yaxshilash, ko‘rish, eshitish qobiliyatini yaxshi rivojlantiradi; talabalarda salomatlikni mustahkamlash, turli kasalliklardan himoyalash va immunitetni oshiradi; talabalarda ruhiy barqarorlik sifatlarini shakllantirish, jismoniy zo‘riqishlar, tana, bel va qo‘l mushaklarining umumiy va statik chidamliligini oshirish, turli murakkab harakatlarni tez va aniq bajarish, chaqqonlik, chidamlilikni o‘stiriadi; talabalarda diqqatni bir joyga jamlay olish sifatini, tezkor fikr yuritish, iroda sifatlari - maqsadga intilish, intizomlilik, tashabbuskorlik, qat’iylik, o‘zini tuta bilish kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish talabalar shaxsiy fikrlash doirasini rivojlantirib, ularning qaddi-qomatini takomillashadi. Shuningdek, morfologik va funksional o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, tana tuzilishi, vazni, mushak kuchi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi ko‘krak qafasi aylanasi yaqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi, aqliy, axloqiy sifatlari tarbiyalanadi. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida talabalarga o‘qituvchi-murabbiylar tomonidan milliy va xalq harakatli o‘yinlarini tashkil qilish va o‘tkazishni rejalashtirish bo‘yicha ko‘nikma va malakalar beriladi va mustaqil ishlash ushun adabiyotlarni tavsiya qiladi.

Talabalarga milliy harakatli o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazishda pedagogik mahoratni shakllantirish ushun o‘qituvchi-murabbiy tomonidan quyidagi jihatlarga e’tibor beriladi: harakatli o‘yinlarni o‘tkazishning metodik asoslari yuzasidan bilim ko‘nikma va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

malakalar bilan qurollantiriladi; to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yinlar sog‘likni mustahkamlaydi, ochiq havolarda tashkil etish esa organizmni chiniqtiradi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlarining jismoniy madaniyatini rivojlantirish, har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayishlarida jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda yangicha yondashuv asosida ta’lim berish zarurati dolzarb vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. Jismoniy madaniyat boshqa madaniyat shakllari kabi shaxsning kompleks rivojlantiruvshi tizimning bir qismi sifatida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018yil 23dekabr.
2. Usmonxodjayev T. va bosh. “Harakatli o‘yinlar”. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – Toshkent, “O‘QITUVCHI”, 1992, B. 48-52.
3. Usmonxodjayev T., va bosh. “101 o‘yin”. Toshkent Ibn Sino nomidagi nashryot, 1990, B. 280-286.
4. Usmonxodjayev T.S. va bosh. 500 mashq va harakatli o‘yinlar 1- qism. - Toshkent.1999, B. 4-14.
5. Mahkamdjanov K., Salamov R., Ikromov I., Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi.–Toshkent.:Iqtisod-moliya,2008.–B.14-26.
6. Физическая культура как составная часть общей культуры человека / Черешнева А.Ю., Шлемова М.В., Чернышева И.В., Липовцев С.П. // Международный журнал экспериментального образования. - 2014. - № 7 (часть 2). С. 88-89.
7. Харламов И.Ф. Формирование личностных качеств в процессе воспитания// Педагогика. – М., 2003.- № 3. – С.52-59.
8. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теория и методика. М.:Академия, 2002. – 420 с.
9. Халилова Ш.Т. Жаҳон тилларини ўрганиш жараёнида талабаларда ахлоқий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори. … дисс. – Т., 2008. – 310 б. 151-б.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ilyasov Baxtiyar Xabipnazarovich,** Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti, [**Ильясов Бахтияр Хабипназарович**, ассистент, Каракалпакского государственного университета], [**Bakhtiyar Kh. Ilyasov**, assistant of Karakalpak State University]; manzil: Qoraqalpog‘iston, Nukus sh, Sh. Abdirov ko‘chasi 14-uy, [Адрес: Каракалпакстан, г. Нукус, ул. ул. Абдирова, 14],[Address: Karakalpakstan, Nukus city, Sh. Abdirov Street, 14]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

© G'B. Avazov[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning professional malakasi va shaxsiy kompetentsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir. Kreativ kompetentsiya o'qituvchilarga innovatsion metodlar qo'llash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu maqolada, kelajakdagi texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentsiyani rivojlantirish metodlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentsiyani rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: m mazkur tadqiqotda bo'lajak maktab biologiya o o'qituvchilarning raqamli ta'lim muhitida darslarini tashkil etish yo'llari jarayonini o'rganishda zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarga asoslangan metodologik usullar qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: O'qituvchilarning emotsional barqarorligini oshirish, stressni boshqarish, ijobiy munosabatlarni shakllantirish va samarali muloqotni o'rnatish ularning professional faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bunday psixologik qo'llab-quvvatlash o'qituvchilarning kasbiy o'sishida va kreativ yondashuvlarni qo'llashda ularga yordam beradi. O'qituvchilarning individual yondashuvi, ya'ni har bir o'quvchining qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashgan o'quv rejalarini ishlab chiqish, ularning o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish va ularga maksimal darajada yordam berish imkonini yaratadi.

XULOSA: individual yondashuv va innovatsion pedagogik yondashuvlar ham yuqori darajada korrelyatsiyaga ega bo'lib, o'qituvchilarning shaxsiy yondashuvlari va innovatsion metodlarni qo'llashlari kreativ kompetentsiyaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu natijalar, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularni yangi metodlar bilan tanishtirish va motivatsiyasini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kreativ kompetentsiya, Texnologiya fani o'qituvchisi, Innovatsion pedagogika, Aktiv o'quv metodlari, Dizayn fikrlash, Loyiha asosidagi o'rganish, Emotsional intellect

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Iqtibos uchun: Avazov G‘.B. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.50-57.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

© Г.Б. Авазов[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в современной системе образования большое значение имеет профессиональная квалификация и личностная компетентность педагогов. В частности, развитие творческой компетентности учителей технологии необходимо для их успеха в профессиональной деятельности. Творческая компетентность позволяет педагогам использовать инновационные методы, эффективно организовывать учебный процесс, развивать способность учащихся творчески мыслить. В данной статье анализируются педагогические и психологические возможности методов развития творческой компетентности при подготовке будущих учителей технологии к профессиональной деятельности.

ЦЕЛЬ: развитие творческой компетентности является одной из важнейших задач при подготовке будущих преподавателей технических дисциплин к профессиональной деятельности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании применены методологические методы, основанные на современных педагогических и психологических подходах к изучению процесса организации уроков будущих школьных учителей биологии о в цифровой образовательной среде.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: повышение эмоциональной устойчивости учителей, управление стрессом, формирование позитивных отношений и установление эффективного общения имеют важное значение в их профессиональной деятельности. Такая психологическая поддержка помогает педагогам в их профессиональном росте и применении творческих подходов. Индивидуальный подход учителей, то есть разработка учебных планов, адаптированных к способностям и интересам каждого ученика, позволяет им удовлетворять потребности учащихся и оказывать им максимальную помощь.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: индивидуальный подход и инновационные педагогические подходы также имеют высокую степень корреляции, причем личностные подходы учителей и применение инновационных методов оказывают значительное влияние на развитие творческой компетентности. Эти результаты свидетельствуют о необходимости поддержки личностного развития педагогов в образовательных учреждениях, приобщения их к новым методикам и повышения их мотивации.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ключевые слова: творческая компетентность, Учитель технологии, Инновационная педагогика, Активные методы обучения, Дизайн-мышление, Проектное обучение, Эмоциональный интеллект.

Для цитирования: Г.Б. Авазов. Педагогические и психологические возможности метода развития творческой компетентности в подготовке будущих учителей технологии к профессиональной деятельности. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 50-57.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF CREATIVE COMPETENCE DEVELOPMENT METHODS IN PREPARING FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS FOR THEIR PROFESSIONAL ACTIVITY

© G'oyibnazar B. Avazov[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the modern education system, the professional qualification and personal competence of teachers are of great importance. In particular, the development of creative competence of technology teachers is necessary for their success in their professional activities. Creative competence allows teachers to use innovative methods, effectively organize the educational process, and develop students' ability to think creatively. This article analyzes the pedagogical and psychological possibilities of creative competence development methods in the preparation of future technology teachers for professional activities.

AIM: the development of creative competence is one of the most important tasks in preparing future teachers of technical disciplines for professional activity.

Materials and methods: m This study uses methodological methods based on modern pedagogical and psychological approaches to studying the process of organizing lessons for future school teachers of biology in a digital educational environment.

DISCUSSION AND RESULTS: improving teachers' emotional stability, stress management, forming positive relationships and establishing effective communication are important in their professional activities. Such psychological support helps teachers in their professional growth and the application of creative approaches. The individual approach of teachers, that is, the development of curricula adapted to the abilities and interests of each student, allows them to meet the needs of students and provide them with maximum assistance.

CONCLUSION: the individual approach and innovative pedagogical approaches also have a high degree of correlation, and the personal approaches of teachers and the use of innovative methods have a significant impact on the development of creative competence. These results indicate the need to support the personal development of

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

teachers in educational institutions, introduce them to new methods and increase their motivation.

Key words: creative competence, Technology teacher, Innovative pedagogy, Active teaching methods, Design thinking, Project-based learning, Emotional intelligence.

For citation: G'oyibnazar B. Avazov. (2024) 'Pedagogical-psychological possibilities of creative competence development methods in preparing future technology teachers for their professional activity', Inter education & global study, (10), pp. 50-57. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim tizimida global miqyosda o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va zamonaviy o'qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiya fanining o'qitilishi, faqatgina nazariy bilimlar yetkazish emas, balki o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda zamonaviy muammolarni yechish uchun zarur bo'lgan innovatsion yondashuvlarni shakllantirishni talab qiladi.

Kreativ kompetentsiya - bu shaxsning muammolarni yechishda ijodkorlik bilan yondashishi, yangilik yaratish va samarali usullarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Zamonaviy texnologiyalar va ularning ta'limdagi qo'llanilishi sharoitida, o'qituvchilardan faqatgina bilimli bo'lish emas, balki o'z bilimi va tajribasini ijodiy tarzda tatbiq eta olish ham talab qilinadi. Bunda pedagogik-psixologik yondashuvlar va innovatsion metodlarning ahamiyati katta. Ta'lim jarayonida kreativ kompetentsiyani rivojlantirish o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish bilan birga, ularning muammoli vaziyatlarni hal qilishda o'ziga xos va samarali yondashuvlarni ishlab chiqishiga xizmat qiladi. Bu esa, texnologiya fani o'qituvchilarining nafaqat kasbiy mahoratini oshiradi, balki ularning o'quvchilar bilan samarali pedagogik munosabatlarini shakllantiradi. Ushbu maqola bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan metodlarning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kreativ yondashuvlar va o'quv jarayonida ijodiy usullardan foydalanishning afzalliklari va ularning o'qituvchilar faoliyatidagi o'rni keng yoritiladi. O'z navbatida, ta'limda kreativ kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasiga milliy va xalqaro tajriba asosida yondashib, bo'lajak o'qituvchilarning professional va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan tavsiyalar beriladi. Shu bilan birga, kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar va yondashuvlarning psixologik asoslari ham chuqur tahlil qilinadi.

Kelajakdagi texnologiya fani o'qituvchilarini kreativ kompetentsiyani rivojlantirish masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar turli pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. Ushbu tahlil jarayonida mavzuga oid adabiyotlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'rganamiz:

Guilford (1950) ijodiylikni shaxsning muhim psixologik sifati sifatida ta'riflab, uni yangi g'oyalar yaratish va muammolarni noan'anaviy usullar bilan hal qilish qobiliyati sifatida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ko‘rsatgan. Uning tadqiqotlari kreativ fikrlashning komponentlarini, masalan, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik va fluensiyani aniqlashga qaratilgan.

Runco va Jaeger (2012) kreativlikni zamonaviy ta’lim jarayonida asosiy kompetentsiyalardan biri deb hisoblaydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentsiyaga ega o‘qituvchilar o‘quvchilarda yangi bilimlarni izlashga qiziqish uyg‘otadi.

O‘zbekistonlik olimlar orasida Gulomov (2020) kreativ kompetentsiyaning o‘quv jarayonidagi ahamiyatini o‘rganib, uni pedagogik jarayonning ajralmas qismi deb ta'kidlagan. Uning tadqiqotlarida kreativ kompetentsiya o‘qituvchilarning innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatlarini ochib beruvchi sifat sifatida qaraladi.

Vygotskiy (1978) o‘quv jarayonida ijodiylikni rivojlantirishga alohida urg‘u bergan va shaxsning ijtimoiy muhit bilan muloqoti ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan.

Miller (2015) texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida loyiha asosida o‘qitish va dizayn fikrlash metodologiyasini qo‘llash ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda samarador ekanligini ko‘rsatgan.

Islomova (2018) texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning o‘rnini o‘rgangan. U, ayniqsa, texnologik loyihalash va gamifikatsiyaning o‘quv jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini qayd etgan.

Ushbu tadqiqot kelajakdagi texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga tayyorlanish jarayonida kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish metodlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullarni birlashtirgan kombinatsiyalangan metodologiya qo‘llanildi, bu esa natijalar ishonchliligi va to‘liqligini ta'minlashga imkon berdi. Tadqiqot dizayni eksperimental asosda tashkil etilib, o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini baholash uchun keng qamrovli ma'lumotlarni yig‘ishga imkon yaratdi. Miqdoriy tadqiqot qismi uchun 150 ta texnologiya fani o‘qituvchisi o‘rtasida standartlashtirilgan anketalar o‘tkazildi. Anketa savollari kreativ kompetentsiyaning turli komponentlarini baholashga qaratilgan bo‘lib, ularda innovatsion fikrlash, muammolarni yechim topish qobiliyati, ijodiy metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish kabi aspektlar mavjud edi. Likert shkali yordamida baholash tizimi (1 - juda past, 5 - juda yuqori) qo‘llanildi, bu orqali o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasi darajasi aniq ko‘rsatilishi mumkin bo‘ldi.

Sifatli tadqiqot qismi uchun esa, miqdoriy tadqiqotdan keyin 20 ta o‘qituvchi bilan chuqur intervyular olib borildi. Intervyularning maqsadi anketalarda olingan natijalarni yanada chuqurroq tahlil qilish, o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda duch keladigan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlarni aniqlash edi. Intervyu savollari ochiq bo‘lib, o‘qituvchilarning shaxsiy tajribalari, qo‘llagan metodlari, motivatsiya va pedagogik-psixologik omillar haqida ma'lumot olishga yo‘naltirilgan edi. Tadqiqotning nazariy qismi mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va ilg‘or tajribalarni tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Bu orqali kreativ kompetentsiyaning nazariy asoslari, uning ahamiyati va rivojlantirish metodlari haqida chuqur tushuncha hosil qilindi. Tadqiqotda qatnashuvchi sifatida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

O‘zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan texnologiya fani o‘qituvchilari tanlandi. Anketalash uchun 150 ta o‘qituvchi tanlab olindi, ular orasida maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ishlovchi o‘qituvchilar bo‘ldi. Intervyu uchun esa 20 ta o‘qituvchi tasodifiy tanlandi, ular anketada yuqori va o‘rta darajadagi kreativ kompetentsiya ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi ta'minlandi.

Zamonaviy ta'lim tizimi tez sur'atlar bilan o‘zgarib bormoqda, ayniqsa texnologiya fanlari sohasida yangiliklar va innovatsiyalar doimiy ravishda joriy etilmoqda. Bu jarayon o‘qituvchilardan nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki ularni o‘quv jarayonida samarali va ijodiy tarzda qo‘llay olish qobiliyatini ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kelajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentsiyaning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ kompetentsiya – bu shaxsning yangi va innovatsion g‘oyalar yaratish, ularni amalga oshirish, muammolarni yechim topishda ijodiy yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatidir. Texnologiya fanlari o‘qituvchilari uchun bu kompetentsiya, o‘z navbatida, darslarni interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etish, o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish va ularni kelajakdagi texnologik talablarga tayyorlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta'lim jarayonida keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ularning ehtiyojlari va qobiliyatlari ham, shuningdek, o‘qituvchilarning malakasi ham bu o‘zgarishlarga moslashishni talab qiladi. Texnologiya fani o‘qituvchilari o‘zlarining pedagogik va psixologik kompetentsiyalarini doimiy ravishda yangilab borishlari, innovatsion metodlarni o‘zlashtirishlari va ularni amaliyotda qo‘llashlari zarur. Shuningdek, globalizatsiya jarayonlari va 4 sanoat inqilobi ta'lim tizimida yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bu talablar o‘qituvchilardan yanada yuqori darajadagi ijodiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatini, hamda o‘zaro muloqot va hamkorlikda ishlash qobiliyatini talab qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning emotsional intellekti va motivatsiyasi ularning professional o‘sishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentsiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga yanada faol ishtirok etishlariga, ularda mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, anketalar asosida o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘qituvchilarning 30% i yuqori darajada, 50% i o‘rta darajada va 20% i past darajada kreativ kompetentsiyaga ega ekanligi aniqlangan. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘qituvchilar kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash va metodik yordamga muhtoj. Tadqiqot davomida loyihaviy o‘rganish va dizayn fikrlash metodlari eng yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Loyiha asosidagi o‘rganish metodi 85% samaradorlik bilan, dizayn fikrlash esa 80% samaradorlik bilan o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda eng samarali usullar sifatida tan olindi. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil ishlashini, jamoaviy ish ko‘nikmalarini va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Brainstorming va o‘yin asosidagi o‘qitish metodlari ham o‘zlarining samaradorligini namoyish etdi, ular mos

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ravishda 75% va 65% samaradorlik ko‘rsatdi. Bu metodlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va darslarni interaktiv tarzda o'tkazishga yordam beradi.

Pedagogik-psixologik imkoniyatlar esa o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Emotsional intellekt va motivatsiya kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda eng kuchli ta'sir ko‘rsatadigan omillar sifatida aniqlangan. Anketalarda emotsional intellektning kreativ kompetentsiya bilan korrelatsiya koeffitsienti 0.72, motivatsiyaning esa 0.68 bo‘lib, ular o‘qituvchilarning o‘z ishiga bo‘lgan munosabati va ichki motivatsiyasining yuqori darajada bo‘lishi kreativ kompetentsiyani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Individual yondashuv va innovatsion pedagogik yondashuvlar ham yuqori darajada korrelyatsiyaga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning shaxsiy yondashuvlari va innovatsion metodlarni qo‘llashlari kreativ kompetentsiyaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Bu natijalar ta'lim muassasalarida o‘qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni yangi metodlar bilan tanishtirish va motivatsiyasini oshirishning zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik-psixologik imkoniyatlarni kuchaytirish o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Grafik va jadval ma'lumotlari asosida, loyihaviy o‘rganish va dizayn fikrlash metodlari o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda eng yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu metodlar o‘qituvchilarga innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, muammolarni tizimli tahlil qilish va ijodiy yechimlar topishda yordam beradi. Bundan tashqari, o‘yin asosidagi o‘qitish metodlari ham o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va darslarga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatiladi. Pedagogik-psixologik imkoniyatlarni kuchaytirish orqali o‘qituvchilar o‘zlarining professional o‘sishini ta'minlashlari va kreativ kompetentsiyalarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

Tadqiqot natijalari kelajakdagi texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlarning samaradorligini chuqur o‘rganishga imkon berdi. Bu jarayonda loyiha asosidagi o‘rganish va dizayn fikrlash metodlari eng yuqori samaradorlik ko‘rsatdi, bu esa ularning o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Loyiha asosidagi o‘rganish metodi 85% samaradorlik bilan, dizayn fikrlash esa 80% samaradorlik bilan o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini oshirishda eng samarali usullar sifatida ajralib turadi. Bu metodlar o‘qituvchilarga nafaqat o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash, balki ularni innovatsion tarzda qo‘llash imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy talablarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Brainstorming va o‘yin asosidagi o‘qitish metodlari ham ijobiy natijalarga erishdi, ularning samaradorligi mos ravishda 75% va 65% bo‘lib, bu metodlarning o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va darslarni interaktiv tarzda o'tkazishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Bu natijalar, o‘qituvchilarning dars jarayonini qiziqarli va faol o'tkazishlari orqali o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishlari mumkinligini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

isbotlaydi. Pedagogik-psixologik imkoniyatlar, ayniqsa emotsional intellekt va motivatsiya, o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlangan. Emotsional intellektning kreativ kompetentsiya bilan yuqori korrelatsiya koeffitsienti (0.72) va motivatsiyaning (0.68) bu boradagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchilarning o‘z ishiga bo‘lgan ijobiy munosabati va ichki motivatsiyasi ularning kreativ qobiliyatlarini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Gulomov, A. (2020). Kreativ Kompetentsiya: Nazariy va Amaliy Yondashuvlar. Toshkent: O‘zbek Davlat Universiteti Nashriyoti.
2. Islomova, M. (2018). Texnologiya Fanini O‘qitishda Innovatsion Metodlar. Samarqand: Samarkand State University Publishing.
3. Rahimov, B. (2019). Pedagogik Psixologiya Asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Universiteti Nashriyoti.
4. Nurmatov, D. (2021). O‘yin Asosidagi O‘qitish va Uning Ta’limdagi O‘rni. Toshkent: Ta'lim NDTU.
5. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The Standard Definition of Creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92-96.
6. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444-454.
7. Avazov, G’. B. (2024). “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi.”So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 7-jild 1-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali
8. Avazov, G’. B. (2023). “Bo'lajak texnologiya fani o'tituvchilarining kreativ kompetentligi” "Innovative Academy RSC".

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Avazov G'oyibnazar Berdiyevich**, texnologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi, [**Авазов Гейбназар Бердиевич,** преподаватель кафедры технологии и географии], [**G'oyibnazar B. Avazov**, Lecturer at the Department of Technology and Geography]; manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, «Yangiobod» MFY, At-Termiziy ko‘chasi 1 A-uy Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111],], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP «Yangiabad», At-Termizy street 1 A-uy Postal code: 190111].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

KREDIT-MODUL TIZIMIDA FALSAFA FANINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI VA METODIKASI

© K.M. Ismadiyorov[1]✉

[1]Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada falsafa fanini oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan. Kredit-modul tizimida falsafa fani o‘quv jarayonining ta’lim shakllari – ma’ruza, seminar, mustaqil ta’limning tashkiliy formasi hamda ta’lim modelining xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, Falsafani kredit-modul tizimida o‘qitish metodikasini takomillashtirishning metodik ta’minoti va muhim ahamiyati hamda fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

MAQSAD: falsafa fanini kredit-modul tizimida o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda metodik ta’minotini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa fanini o‘qitish jarayonining har qanday tashkiliy shakli ta’lim maqsadi, mazmuni va boshqa elementlarni o‘z ichiga olgan ta’lim modelini belgilab beradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Kredit-modul tizimida falsafa fanining o‘quv jarayoni, asosan, o‘quv mashg‘ulotlari va nazorat jarayonlaridan tashkil topadi. O‘quv mashg‘ulotlari barcha turdagi akademik mashg‘ulotlarni, talabalarning mustaqil ta’limi va malakaviy amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Nazorat jarayonlari talabalarning ta’lim dasturini qay darajada o‘zlashtirganligini ko‘rsatadi. Ta’limning tashkiliy formasi ta’lim modelining mohiyatini ochib beradi. Falsafa fanini o‘qitishning asosiy shakllari sifatida ma’ruza, seminar, mustaqil ta’lim kabi ta’lim shakllari hamda interfaol metodlarning ahamiyatiga doir tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: falsafa fanini o‘qitish jarayonining har qanday tashkiliy shakli ta’lim maqsadi, mazmuni va boshqa elementlarni o‘z ichiga olgan ta’lim modelini belgilab beradi. Falsafa fanini o‘qitishning turli ta’lim shakllaridan foydalanish talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va hayot qarashlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Falsafa ta’limida ta’limning tashkiliy shakllaridan qaysi birini tanlash professor-o‘qituvchidan metodik mahoratni talab qiladi.

XULOSA: chuqur tahliliy va tanqidiy tafakkura ega, mustaqil qarorlar chiqarishga, mustaqil baholash salohiyatiga hamda falsafiy dunyoqarash ega bo‘lgan mutaxasis kadrlarni tayyorlash mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarining bosh mezonlari hamda jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omili

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

sifatida qaralmoqda. Talabalarning ijtimoiy faolliklarini oshirish, vatan taqdiriga mas'ullik hissini yuksaltirish, ijtimoiy fanlar, ayniqsa, falsafa fanini o'qitishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Falsafa fanini o'qitishda talabalarni fanga, bilimga, mutaxasislik sirlarini bilishga qiziqishni uyg'otish hamda ilmiy tadqiqotga bo'lgan rag'batni shakllantirish muhim hisoblanadi. Falsafa ta'limida talabalarda nafaqat falsafiy dunyoqarash, balki shaxsiy yetuklik, mustaqillik, estetik va axloqiy sifatlar ham shakllanadi.

Kalit so'zlar: kredit-modul, ECTS, ma'ruza, seminar, mustaqil ta'lim, to'garak, ta'lim shakli, onlayn-o'qitish, SWOT.

Iqtibos uchun: Ismadiyorov K.M. Kredit-modul tizimida falsafa fanini o'qitishning pedagogik xususiyatlari va metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №10 B.58-64.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

© К.М. Исмадиеров[1]✉
[1]Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье изложены мнения по совершенствованию технологий преподавания философии в высших учебных заведениях в кредитно-модульной системе. Рассматриваются формы учебного процесса по философии в кредитно-модульной системе - лекции, семинары, организационная форма самостоятельного обучения, а также особенности образовательной модели. Также выдвинуты предложения по методическому обеспечению и подчеркнута важность совершенствования методики преподавания философии в кредитно-модульной системе.

ЦЕЛЬ: совершенствование методики преподавания философии в кредитно-модульной системе и укрепление методического обеспечения имеет важное значение. Любая организационная форма процесса преподавания философии определяет образовательную модель, включающую в себя цель, содержание и другие элементы обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В кредитно-модульной системе учебный процесс по философии состоит в основном из учебных занятий и контрольных процессов. Учебные занятия включают в себя все виды академических занятий, самостоятельное обучение студентов и квалификационные практики. Контрольные процессы показывают степень освоения студентами образовательной программы. Организационная форма обучения раскрывает сущность образовательной модели. Разработаны рекомендации по важности таких форм обучения, как лекции, семинары, самостоятельное обучение, а также интерактивных методов как основных форм преподавания философии.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Любая организационная форма процесса преподавания философии определяет образовательную модель, включающую в себя цель, содержание и другие элементы обучения. Использование различных форм обучения философии должно быть направлено на углубление знаний студентов, развитие их способности к самостоятельному мышлению и формированию жизненных взглядов. Выбор той или иной организационной формы обучения в философском образовании требует от профессора-преподавателя методического мастерства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подготовка специалистов с глубоким аналитическим и критическим мышлением, способностью к самостоятельному принятию решений, потенциалом самостоятельной оценки и философским мировоззрением рассматривается как главный критерий реформ, проводимых сегодня в системе высшего образования нашей страны, а также важный фактор, обеспечивающий развитие общества. Повышение социальной активности студентов, развитие чувства ответственности за судьбу Родины является одной из важных задач преподавания социальных наук, особенно философии. При преподавании философии важно пробудить у студентов интерес к науке, знаниям, познанию тонкостей специальности, а также сформировать мотивацию к научным исследованиям. В философском образовании у студентов формируется не только философское мировоззрение, но и личностная зрелость, самостоятельность, эстетические и нравственные качества.

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, ECTS, лекция, семинар, самостоятельное обучение, кружок, форма обучения, онлайн-обучение, SWOT.

Для цитирования: Исмадиеров К.М. Педагогические особенности и методика преподавания философии в кредитно-модульной системе. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 58-64.

PEDAGOGICAL FEATURES AND METHODOLOGY OF TEACHING PHILOSOPHY IN THE CREDIT-MODULAR SYSTEM

© Komil M. Ismadiyorov[1]✉
[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article presents opinions on improving the technology of teaching philosophy in higher education institutions within the credit-modular system. It examines the forms of the philosophy educational process in the credit-modular system - lectures, seminars, the organizational form of independent learning, as well as the features of the educational model. Proposals are also made for methodological support, and the importance of improving the methodology of teaching philosophy in the credit-modular system is emphasized.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

AIM: improving the methodology of teaching philosophy in the credit-modular system and strengthening methodological support is of great importance. Any organizational form of the philosophy teaching process defines an educational model that includes the goal, content, and other elements of learning.

MATERIALS AND METHODS: in the credit-modular system, the educational process in philosophy consists mainly of learning activities and assessment processes. Educational activities include all types of academic classes, student self-study, and qualification practices. The assessment processes demonstrate the level of students' mastery of the educational program. The organizational form of learning reveals the essence of the educational model. Recommendations have been developed regarding the importance of such forms of teaching as lectures, seminars, self-study, as well as interactive methods as the main forms of teaching philosophy.

DISCUSSION AND RESULTS: any organizational form of the philosophy teaching process defines an educational model that includes the goal, content, and other elements of learning. The use of various forms of philosophical education should aim to deepen students' knowledge, develop their ability to think independently, and shape their life views. The choice of a particular organizational form of teaching in philosophical education requires methodological mastery from the professor-teacher.

CONCLUSION: training specialists with deep analytical and critical thinking, the ability to make independent decisions, the potential for independent assessment, and a philosophical worldview is considered the main criterion of the reforms being carried out today in the higher education system of our country, as well as an important factor ensuring the development of society. Increasing the social activity of students and developing a sense of responsibility for the fate of the Motherland is one of the important tasks of teaching social sciences, especially philosophy. When teaching philosophy, it is important to awaken students' interest in science, knowledge, and understanding of the subtleties of the specialty, as well as to foster motivation for scientific research. In philosophical education, students develop not only a philosophical worldview but also personal maturity, independence, and aesthetic and moral qualities.

Key words: credit-modular system, ECTS, lecture, seminar, self-study, club, learning form, online learning, SWOT.

For citation: Komil M. Ismadiyorov. (2024) ‘Pedagogical features and methodology of teaching philosophy in the credit-modular system’, Inter education & global study, (10), pp. 58-64. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta’lim sohasida 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” [1] asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni jahon fani va ta’lim tizimi erishgan eng ilg‘or yutuqlar hamda milliy o‘zlikni shakllantirish asosida milliy taraqqiyotimizni ta’minlab beradigan ta’lim tizimini yaratishdan iborat bo‘lmoqda. Xususan, milliy falsafiy qadriyatlar asosida yoshlarda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

falsafiy tafakkurni shakllantirish falsafa fanini o‘qitishning bosh mezonlaridan bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrda falsafani o‘qitishda o‘qituvchi duch keladigan eng xarakterli shart-sharoit shundaki, falsafa shakllanganidan buyon to hozirgacha uning asliy predmetida ham, uni o‘rganuvchilarning tabiatida ham, uni o‘rganishning tashkillash shakllarida ham tinimsiz va katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni” [1] bilan tasdiqlangan konsepsiyaga muvofiq mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalari ECTS kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o‘tishi belgilab berilgan. “Kredit-modulli tizim sharoitida har bir modul o‘quv dasturining tugallangan segmentini aks ettirishi kerak, uning rivojlanishi natijasida talaba ma’lum kompetensiyalarga ega bo‘ladi. Bu kompetensiyalar, albatta, tekshirilishi va baholanishi kerak. Kompetensiyalar yetarlicha uzoq vaqt davomida (kamida bir semestrda) shakllanishi aniq. Semestr ichidagi nisbiy tugallangan ta’lim segmentlarini aniqlash uchun “bo‘lim”, “kichik bo‘lim”, “mavzu” tushunchalari ko‘proq mos keladi, ammo modul emas. Modul ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida o‘zlashtirilgan bir nechta o‘quv mavzularini birlashtirgan o‘quv kursining alohida qismi, tematik blok sifatida tushunish mumkin” [2, 8].

Falsafa fanini o‘qitishning turli shakllari mavjud bo‘lib, ular talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va hayot qarashlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Falsafa fanini o‘qitishning asosiy shakllaridan biri bu ma’ruzadir.

Ma’ruza – leksiya o‘qituvchining ma’ruzasi bo‘lib, unda falsafa fanining asosiy tushunchalari va g‘oyalari taqdim etiladi. Leksiyalar talabalarning bilimlarini kengaytirish va ularning falsafiy dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi. “Ma’ruzalar akademik potoklarga, ya’ni mutaxassisligi yaqin bo‘lgan bir nechta guruhlarga o‘qiladi. Auditoriyadagi talabalar soni lektorning malakasidan va auditoriyaning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi” [3, 50]. Kredit ta’lim tizimining joriy etilishi ushbu jarayonda professor-o‘qituvchilarning rolini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Ma’ruzachi sifatida professorlar yoki dotsentlar safidan malakali o‘qituvchilar tayinlanadi. Ulardan esa o‘z navbatida ma’ruza darslarini yuqori ilmiy-uslubiy darajada olib borish talab etiladi. Falsafadan ma’ruzalar talabalarda falsafiy dunyoqarashni shakllantirish bilan bir qatorda umumkasbiy kompetensiya va kreativlikning yuksalishiga xizmat qiladi.

Seminar – seminar talabalarning faol ishtirokida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘uloti bo‘lib, unda falsafa fani bo‘yicha muhokamalar va diskussiyalar o‘tkaziladi. Seminarlar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularning o‘zlarining fikrlarini ifodalash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, falsafadan seminar mashg‘ulotida turli interfaol metodlar qo‘llaniladi. Falsafaning bahs mavzulari keng muhokama qilinib, kategoriyalar va qonuniyatlar yuzasidan tahliliy fikr va qarashlar shakllanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Kredit-modul tizimida fanlar (modullar) bo‘yicha kredit to‘plash uchun o‘quv rejasiga muvofiq ma’lum miqdorda o‘qish yuklamasini bajarish talab etiladi Kredit-modul tizimida o‘qish soatlari nisbati o‘rtacha 40 % auditoriya soatlari va 60 % mustaqil ta’lim soatlari bo‘lib, bunda talaba muayyan fan bo‘yicha belgilangan har bir soat dars uchun unga darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o‘qishi hamda tayyorlanishi uchun vaqt zarur bo‘ladi.

Mustaqil ta’lim – mustaqil ta’lim talabalarning mustaqil mashg‘ulotlari bo‘lib, unda falsafa fani bo‘yicha turli xil topshiriqlar va mashqlar bajariladi. Mustaqil ta’lim talabalarning bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqil ishlash, bu – talabaning muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni auditoriyadan tashqarida ta’lim beruvchining rahbarligida yoki individual-ijodiy ravishda o‘zlashtirish hamda oshirish uchun yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatidir. Mustaqil ishlashdan asosiy maqsad talabada nafaqat muayyan fan sohasida didaktik topshiriqlarni mustaqil bajarish, bilimlarni oshirish, balki mantiqiy
fikrlash, ijodiy faollik, o‘quv materialini o‘zlashtirishda kreativ yondashuv kabi kasbiy kompetentlikni shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriq va vazifalarni bajarishdir [4].

Falsafa fanini o‘qitishda talabalarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularning ijodiy salohiyatini oshishga xizmat qiladigan to‘garak, amaliy qo‘shimcha dars va onlayn-o‘qitish kabi o‘quv mashg‘ulotlaridan ham foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, falsafa faniga qiziquvchi talabalar uchun to‘garak talabalarda ularning dunyoqarashini kengaytirish mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllanishiga xizmat qiladi.

Amaliy qo‘shimcha ta’lim esa talabalarning turli xil fikrlarni muhokama qilish va o‘zlarining fikrlarini asoslash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Falsafiy-ilmiy loyihalar talabalarning mustaqil tadqiqotlar olib borish va o‘zlarining bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Falsafiy qonuniyatlar va kategoriyalarning mazmun-mohiyatini ilmiy asoslashni shakllantiradi.

Onlayn o‘qitish talabalarning uzoqdan o‘qish imkonini beradi va o‘quv jarayonida eng muhimi uzurli sabablarga ko‘ra dars qoldirgan talabalar uchun talabalar uchun kredit miqdorini to‘plash imkonini ham beradi.

Falsafa fanini o‘qitishda SWOT tahliliy metodidan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda bu strategik rivojlantirish usulu hisoblanib, S va W ichki omillarni, O va T esa tashqi omillarni aniqlashga qaratiladi. Ushbu metod “baholash” ni nazarda tutadi. Baholash esa falsafa fanida asosiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, baholash falsafaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan aksiologiyani o‘rganishda ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, qadriyatlarni belgilash uchun ham ushbu metoddan foydalanish mumkin. Qadriyat tushunchasini ham aniqlash falsafaning asosini tashkil etadi. SWOT tahliliy metodining mohiyati quyidagicha:

1. S – obyekt yoki tushunchaning kuchli tomonlari.
2. W – obyekt yoki tushunchaning zaif tomonlari.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

3. I – obyekt yoki tushunchaning imkoniyatlari.
4. T – obyekt yoki tushuncha uchun tahdid va xavflar.

Masalan, inson tushunchasi. Insoninng o‘zi qadriyat. Boshqa barcha qadriyatlar uning atrofida shakllanadi.

Inson
S – yaratuvchan.
W – hissiyotga beriluvchan.
O – barcha ko‘ngilsiz voqealarni oldini olishi mumkin.
T – yakson qiluvchi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-289-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/uz/docs/-6079561.
2. Zaripov L., Xayitov N., Tuxtayeva M. Kredit-modul tizimi bo‘yicha xorij tajribasi. Metodik qo‘llanma – Toshkent: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 y. 32 b.
3. Usmonov B.SH., Xabibullaev R.A.. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma – Toshkent:“Tafakkur” nashriyoti, 2020 y.120 bet.
4. Boltaboyev S.A. “Ta’lim jarayonida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish mexanizmlari”, “Zamonaviy ta’lim” jurnali, №7 (80) 2019 yil.
5. Esonov M. Oliy ta’limni kredit-modul asosida tashkil etish metodikasi. Metodik qo‘llanma – Toshkent: “Sano-Standart” nashriyoti, 2023 y. 28 b.
6. Muxtarov U. Oliy ta’limda kredit-modul tizimi: xorijiy tajriba va amaliyot. Metodik qo‘llanma – Toshkent: “ILM-ZIYO-ZAKOVAT” nashriyoti, 2022 y. 92 bet.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ismadiyorov Komil Maxamadiyorovich,** erkin tadqiqotchi [**Исмадиёров Комил Махамадиёрович,** независимый исследователь], [**Komil M. Ismadiyorov**, independent researcher]; Manzil: Andijon viloyati, Marhamat tumani, Ko‘tarma MFY, Yangi hayot 54-uy; [адрес: Андижанская область, Мархаматский район, махалля Котарма, Янги хаёт 54]; [adres: Andijan Region, Marhamat district, Kotarma neighborhood, Yangi hayot 54]; ORCID: https://orcid.org/0009-0003-4613-4741.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREATIVLIK TUSHUNCHASINING TERMINOLOGIK TAHLILI

© S.K. Abduraimova[1]✉

[1]Guliston davlat universiteti, Guliston, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida "kreativlik" tushunchasining mohiyati, uning ilmiy-adabiy manbalardagi talqinlari va amaliy ahamiyati o'rganiladi va terminologik tahlil etildi. Bugungi kun ta'limida kreativ yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik o'quvchilarning o'ziga xos fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy mezonlardan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi- tadqiqotimizning kontseptual g'oyalari "kreativ", "kreativlik", "ijod", "ijodiy", "ijodiylik", "ijodiy tafakkur", "qobiliyat" kabi terminlarining izohlarini falsafiy, pedagogik, psixologik yondashuv asosida tahlil etish, shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uni ilmiy-adabiy manbalardagi talqinlarini tahlil qilish hamda o'quv jarayonida kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlarini belgilashdan iborat.

MATERIAL VA METODLAR: mazkur tadqiqotda analitik, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda kreativlikka oid falsafiy, pedagogik, psixologik lug'atlar tahlil qilindi va ulardagi "kreativlik" tushunchasi atroflicha o'rganildi.

MUHOKAZA VA NATIJALAR: tahlil natijalari ko'rsatdiki, kreativlik tushunchasi boshlang'ich ta'limda nafaqat ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, balki muammoli vaziyatlarni hal qilish, erkin fikrlashni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Shuningdek, kreativlikka oid qarashlar turlicha bo'lib, ularning barchasi "yaratuvchanlik"ni ifodalaydi. Tadqiqot davomida kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchi yondashuvining ahamiyati va o'quv jarayonida innovatsion usullarning qo'llanishi haqida tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA: boshlang'ich ta'limda kreativlik tushunchasini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayoniga kreativ metodlarni integratsiya qilish va o'qituvchilarning malakasini oshirish bu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: "kreativ", "kreativlik", "ijod", "ijodiy", "ijodiylik", "ijodiy tafakkur", "qobiliyat" , boshlang'ich ta'lim, terminologik tahlil.

Iqtibos uchun: Abduraimova S.K. Boshlang'ich ta'limda kreativlik tushunchasining terminologik tahlili. // Inter education & global study. 2024. №10 B.65-75.

ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ КРЕАТИВНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

© С.К. Абдураимова[1]✉
[1]Гулистанский государственный университет, Гулистан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье исследуется сущность понятия "креативность" в контексте начального образования, его интерпретации в научно-литературных источниках и практическое значение через терминологический анализ. В современном образовании формирование и развитие креативного подхода имеют важное значение. Креативность рассматривается как один из ключевых критериев развития уникального мышления учащихся.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — анализ концептуальных идей терминов, таких как «креатив», «креативность», «творчество», «творческий», «творческое мышление», «способность», с философской, педагогической и психологической точек зрения. Кроме того, исследование направлено на определение сущности креативности в начальном образовании, анализ её интерпретаций в научно-литературных источниках и определение возможностей развития креативности в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы аналитический, сравнительный и обобщающий методы. Также были проанализированы философские, педагогические и психологические словари, связанные с креативностью, что позволило провести всестороннее изучение понятия "креативность".

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты анализа показали, что понятие креативности в начальном образовании играет важную роль не только в развитии творческих способностей, но и в решении проблемных ситуаций, а также в формировании независимого мышления. Разные подходы к понятию креативности сходятся в её определении как способности к созданию чего-то нового. В ходе исследования были разработаны рекомендации по развитию креативности, подчеркнута важность подхода учителей и внедрения инновационных методов в образовательный процесс.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие понятия креативности в начальном образовании положительно влияет на прогресс общества. Интеграция креативных методов в образовательный процесс и повышение квалификации учителей способствует повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: «креатив», «креативность», «творчество», «творческий», «творческое мышление», «способность», начальное образование, терминологический анализ.

Для цитирования: Абдураимова С.К. Терминологический анализ понятия креативности в начальном образовании. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 65-75.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

TERMINOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CREATIVITY IN PRIMARY EDUCATION

© Sohiba K. Abduraimova [1]✉
[1]Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the essence of the concept of "creativity" in the context of primary education, its interpretations in scientific and literary sources, and its practical significance through a terminological analysis. In today's education system, forming and developing a creative approach is of critical importance. Creativity is considered one of the key criteria for developing students' unique thinking abilities.

AIM: The main goal of this research is to analyze the conceptual ideas of terms such as "creative," "creativity," "creation," "creative thinking," and "ability" from philosophical, pedagogical, and psychological perspectives. Additionally, it aims to define the essence of creativity in primary education, analyze its interpretations in scientific and literary sources, and determine the opportunities for fostering creativity within the educational process.

MATERIALS AND METHODS: this study employs analytical, comparative, and generalization methods. Furthermore, philosophical, pedagogical, and psychological dictionaries related to creativity were analyzed, providing an in-depth study of the concept of "creativity."

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis revealed that the concept of creativity in primary education plays a vital role not only in developing creative abilities but also in solving complex situations and fostering independent thinking. The various perspectives on creativity all converge on the notion of "creativity" as innovation and originality. During the study, recommendations were developed emphasizing the importance of teachers' approaches to enhancing creativity and the implementation of innovative methods in the educational process.

CONCLUSION: developing the concept of creativity in primary education positively impacts societal progress. Integrating creative methods into the educational process and improving teachers' qualifications contribute to enhancing the efficiency of this process.

Keywords: "creative," "creativity," "creation," "creative thinking," "ability," primary education, terminological analysis.

For citation: Sohiba K. Abduraimova. (2024) 'Terminological analysis of the concept of creativity in primary education', Inter education & global study, (10), pp. 65-75. (In Uzbek).

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sifatini oshirish, ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilarning aqliy salohiyatini oshirish, kreativ fikrlovchi yoshlar safini kengaytirish ustuvor vazifalardan etib belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari qatoriga “...oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash” vazifalari kiritilgan. Shuningdek, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha “...oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo‘nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san’at va matematika) rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish; individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish; mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish...” tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan[2].

Avvalo, tadqiqotimizning kontseptual g’oyalari “kreativ”, “kreativlik”, “ijod”, “ijodiy”, “ijodiylik”, “ijodiy tafakkur”, “qobiliyat” kabi terminlarining izohlarini keltirib o’tsak maqsadga muvofiq bo’lar edi. Dastlab, turli lug’atlarda ushbu atamalarning berilgan ta’riflarini o’rganib chiqdik.

A.Madvaliyev tahriri, T.Mirzayev rahbarligida yaratilgan “O’zbek tilining izohli lug’ati” da (2006) “Ijod” arabcha so’z bo’lib yaratish, kashf etish, vujudga keltirish degan ma’noni anglatishi va “badiiy, ilmiy, san’atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish, yaratuvchilik faoliyati, shuningdek, yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi” ekanligi, “Ijodiy” so’zi esa “ijod, yaratuvchilik bilan bog’liq bo’lgan, ijodiy faoliyat, ijodiy mehnat”ni anglatishi, “Ijodkorlik - Ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat; yaratuvchilik” ekanligi yorotilgan. Ammo “Kreativlik” atamasining izohi keltirilmagan. “Qobiliyat” so’zi esa arabcha so’z ekanligi va “bilim, ko’nikma, malakadan farqli o’laroq, shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyati” deb izohlangan[23].

“O’zbekiston milliy entsiklopediyasi”da (2000-2005) esa “Ijod — insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo’ladi. Ijod

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko'rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko'riladi, noto'g'ri bo'lsa yangilanadi va h.k. Izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va boshqalar) yuzaga chiqadi. Uni jamiyat e'tirof etsagina haqiqiy, to'liq ijod bo'ladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi. Ijodni shartli ravishda 2 ga: ilmiy va badiiy ijodga bo'lish mumkin. Olimlar faoliyati ilmiy ijodga, san'atkorlar, yozuvchilar faoliyati badiiy ijodga qaratilgan"ligi e'tirof etilgan. Ammo ensiklopediyada ham "Kreativlik"ka ta'rif berilmagan. "Qobiliyat" esa " insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyatdeganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, ob'ektdan u yoki bu alomatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, Qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqalar orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholik namoyon bo'ladi" deya ta'riflangan[24].

Falsafiy qarashlarga ko'ra esa "Ijod (arabcha yaratish, kashf etish, vujudga keltirish) — badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish, mohiyatan, yaratuvchilik faoliyati bo'lib, inson ma'naviyatining amaldagi ko'rinishini ifoda etadi. Ijod inson faoliyatining shunday o'ziga xos turiki, bunda his-tuyg'u, bilim va tafakkur uyg'unligi asosida moddiy yoki ma'naviy boylik yaratiladi. Bu jarayonda inson ilm- fan va ijod olamida shu paytga qadar ma'lum bo'lmagan qonunlarni kashf etishi, yangi usul yoki qoida, andoza yoki model ixtiro qilishi, original ilmiy, badiiy asar yaratishi mumkin. Ijod badiiy tafakkur bilan bog'liq bo'lsa - badiiy ijod, ilmiy tafakkurga oid bo'lsa — ilmiy ijod, texnik faoliyat bilan bog'liq bo'lsa — texnik ijod deb ataladi. Yaratuvchanlik faoliyatining samarasi, ya'ni insonning badiiy, ilmiy, texnik tafakkuri mahsuli bo'lgan ilmiy va badiiy asarlar, ishlanmalar,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ratsionalizatorlik ishlari ham ijod deyiladi. Ijod murakkab ruhiy jarayon bo'lib, unda shaxs ruhiyatining barcha qatlamlari ishtirok etadi.

Ijodiy tafakkur - esa erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyili ustuvor bo'lgan tafakkur shakli. Tafakkur arab. "fikr" so'zidan yasalgan bo'lib o'ylash, fikr-mulohaza yuritish degan ma'nolarni bildiradi. Ijodiy tafakkur esa voqea-hodisalarni qiyoslash, taqqoslash, tahlil etish asosida fikrni rivojlantirish, uning yangi-yangi qirralarini ochish shu tariqa bilim va tasavvur dunyosini boyitib borishni anglatadi. Ijodiy tafakkur-insonga xos eng muhim xususiyatlardan biridir. Bu xususiyatdan mahrum bo'lgan inson bamisoli hamma ishni ko'r-ko'rona bajaradigan qulga aylanib qoladi. Ijodiy tafakkur sohibi o'z mustaqil fikriga ega bo'ladi. U hayotga, odamlarga erkin muomalada bo'lib, har qanday voqea-hodisa yuzasidan o'z fikrini erkin ifoda qila oladi. Ijodiy tafakkur -jamiyatni ma'naviy yangilash, odamlarning ong-u tafakkurini yuksaltirish, ezgu g'oyalar tantanasini ta'minlashning muhim shartidir. Shuning uchun hozirgi vaqtda mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida ijodiy tafakkur rivojiga alohida e'tibor berilmoqda. Mutafakkir so'zining o'zagi ham fikrdir. Lekin fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlarning hammasini ham mutafakkir deb bo'lmaydi. Yuksak teran va qudratli tafakkur sohibi, milliy va umumbashariy qadriyatlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ijodkorlar, alloma va aziz avliyolar mutafakkir deb atashga munosibdir"[16].

A.Madvaliyevning muallifligidagi "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati"da (2021) faqat qobiliyat terminiga ta'rif berilgan: "Qobiliyat (arabcha - mayl, qiziqish; sodiqlik, tarafdorlik; layoqat, qobillik, qodirlik) Bilim, ko'nikma, malakalardan farqli olaroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishni uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari"[12].

A.Madvaliyev va boshqalar tomonidan yaratilgan "Xalqaro termin elementlarning izohli-illyustrativ lug'ati"da (2023) "KREAT... *(lot.* creatio - yaratish) – o'zlashma-yasama so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, yaratish ma'nosini ifodalaydi" deya aytib o'tilgan[25].

Pedagogik lug'atlarda esa ushbu atamalar turlicha talqin etilgan. Misol uchun, R.X.Jo'rayev va boshqalar muallifligida yaratilgan "Pedagogik atamalar lug'ati"da (2008): ijod - o'quvchi va talabaning yaratuvchiligi, kashfiyoti; ijodiy izlanish - pedagog boshchiligida qo'yilgan muammolar, masalalarni yechish yo'llarini faol izlashni tashkil etishga xizmat qiladigan usuli; ijodkor - mustaqil yaratuvchilik xususiyatiga ega bo'lgan o'quvchi yoki talaba; ijodkorlik - yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish bilan natijalanadigan faoliyat turi; kreativlik (ijodiylik) - qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; qobiliyat - o'quvchi yoki talabaning individual saloxiyati, imkoniyatlari ifodasi; qobiliyat bilimdan keskin farqdanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, deya ta'rif berilgan[18].

J.Hasanboyev, X.To'raqulov, M.Haydarov, O.Hasanboyevalar yaratgan "Pedagogika fanidan izohli lug'at"da (2008) Ijod avvalo insonning tasavvurida paydo bo'lishi, keyinchalik ijodga taalluqli masalada izlanishlar olib borilishi aytilgan. Shuningdek, " Ijod

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

— fan va texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi. Ijodiyot - esa inson aql zakovatining barcha ijobiy jifatlarini o'zida mujassamlashtirgan, yangilik yaratish bilan bog'lik, bo'lgan alohida faollik va mustaqil faoliyat turi. Ijodiyot fan, texnika, madaniyat, san'at va ishlab chiqarish safarida namoyon bo'ladi". "Ijodkorlik — bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi inson tafakkuri va ruxiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq; uziga xos fikrlash modeli. Ijodkorlik — bu insoniyatni bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne'mati bo'lib, bugungi kunda insoniyat yaratayotgan barcha moddiy hamda ma'naviy boyliklar esa ana shu oliy ne'matning u yoki bu ko'rinishidir, ya'ni mahsulidir. Fanlar ko'p asrlar mobaynida to'plangan bilimlarning yozma namunasi bo'lib, u bashariyatning tabiatini uz ehtiyojlari yo'lida faol suratda o'zlashtirishi va o'zgartirishi natijasida vujudga kelgan. Kreativ — bu tadqiqotchilik xususiyagiga ega. O'quvchilarda ijodiy tafakkurni jadal (maqsadga yo'naltirilgan) ravishda rivojlantirish ta'limi".

Qobiliyat-bu insonning biror bir xususiyatining o'zigina emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezidan iboratdir. Bu insonning ham individual saloxiyati va imkoniyati hamdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyaglaridan biri — bu narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir.

Qobiliyat quyidagicha umumiy va maxsus turlarga bo'linadi: umumiy qobiliyat — bunda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. U tabiiy razishda shakllanishi mumkin; maxsus qobiliyat bu muayyan reja asosida rivojlantiriladi. Kobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohiida yondashishni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va shu kabi yo'llar bilan rivojlantirish mumkin.

Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon buladi:Qobiliyat — bu kishining u yoki bu faoliyatiga tayyorligi, yaroqliligi va shu kabi imkoniyatlari majmui. Azaldan qobiliyat kishining jismoniy, nasliy xususiyatlari bilan bog'liq deb hisoblanadi.

-qobiliyat — shaxsning induvidual xususiyati bulib, u yoki bu mahsuldor faoliyatni muvaffaqqiyatli amalga oshirish shartidir. (R.Dekart, G.V.Leybnits)

-qobiliyat alohida olingan bilimlarni ham yangi usullarini egallashga tayyor bo'lishni o'z ichiga oladi. (M.N.Skatkin)" kabi izohlangan[19].

O.Musurmonova boshchiligida yozilgan "Maktabgacha va boshlangach ta'lim atamalarining izohli lug'ati"da (2011): "Ijod - Sifat jihatdan butkul yangilik bo'lgan, ilgari mavjud bo'lmagan hamda ijtimoiy-tarixiy qimmatga ega bo'lgan biron nimani yaratadigan inson faoliyati. Bu nuqtai nazarga izoh berar ekan L.S.Vigotskiy shunday degan edi: "Ijod ayrim saralangan odamlar, daholar, iste'dodlar, ya'ni buyuk badiiy asarlar yaratganlar, ulkan ilmiy kashfiyotlarni ochganlar yoki texnika sohasida sifat jihatdan yangi ixtirolarga erishganlarning nasibasidir". Ijod insonning har qanday nazariy va amaliy faoliyati bo'lib, u bilan shug'ullanish jarayonida yangi (har holda faoliyat subyektining o'zi uchun)

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

tajribalarga erishiladi (bilimlar, yechimlar, harakat usullari, moddiy mahsulot). Ijodiy tafakkur - esa erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyili ustuvor bo'lgan tafakkur shaklidir. Kreativlik - shaxsning nisbatan barqaror xarakteristikasini tashkil qiladigan ijodiy iste'dodlik darajasi, ijod qilishga bo'lgan qobiliyati. Dastlab kreativlik intellekt funktsiyasi sifatida olib qaralar, intellekt kreativlik darajasiga tenglashtirilar edi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, intellekt darajasi kreativlik bilan ma'lum chegaragacha korrelyatsiya qilinar ekan, o'ta yuqori intellekt esa kreativlikka to'sqinlik qilar ekan" deya fikr bildirilgan[15].

Q.Abdurahimov, J.Yusubov, J.Yusubovlar muallifligidagi "Oliy ta'lim muassasalarida foydalaniladigan asosiy tushuncha va atamalar izohi"da (2020) "Ijod (arab. «yaratish», «kashf etish», «vujudga keltirish») - badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish. Ijod mohiyatan yaratuvchilik faoliyati bo'lib, inson ma'naviyatining amaldagi ko'rinishini ifoda etadi. Ijod inson faoliyatini shunday o'ziga xos turiki, bunda his-tuyg'u, bilim va tafakkur uyg'unligi asosida moddiy yoki ma'naviy boylik yaratiladi" deyilgan. Boshqa atamalarga izoh berilmagan[13].

Mualliflar B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimovlar qalamiga mansub "Pedagogika. Izohli lug'at"ida (2020) zamonaviy talqinda faqat kreativlikka izoh berilgan. "Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi". Shu bilan birga "Kreativ pedagogika – shaxs (o'quvchi, talaba)ni o'qishga, ta'lim olishga ijodiy yondashish, o'zining va o'z kelajagining yaratuvchisi bo'lishga o'rgatish maqsadini ilgari suradigan fan" deya izohlangan[20].

Falsafiy tadqiqotlarda kreativlik va ijodiy tafakkur muammosi qadimdan o'rganilib kelingan. Platon, Arestotel, Muso Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy va boshqa buyuk allomalar o'z asarlarida ijodiy tafakkur muammosini o'rganishgan. So'ngra G.S. Altshuller, A. Osborn va boshqalar yurtimizda esa N.M. Abdullayeva, Z.D. Davronov, L.A. Qurbonova va boshqa olimlar ilmiy ijodning ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liqligi, ilmiy ijod metodologiyasi, ijodiy tafakkurning falsafiy-metodologik tahlili bilan shug'ullanishgan.

Falsafada ijod inson faoliyatining jarayoni sifatida talqin qilinadi, bu jarayon sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratadi. Ijod turlari ijodiy faoliyat xarakteri bilan belgilanadi: ixtirochilik; tashkilotchilik; ilmiy; badiiy va h.k [7].

G.S. Altshuller: "ijodiy tafakkur, ijtimoiy hamda ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, insoniyatning taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangiliklarni paydo qilishga qaratilgan tafakkur shaklidir" deya hisoblaydi[8]. Yana uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, ijod ham boshqa har qanday faoliyat singari o'rganilishi mumkin, bundan tashqari, ijodiy faoliyatga hamma o'rganishi kerak[9]. Shu fikrni Lerner I. ham qo'llab-quvvatlaydi, u ijodni uch yo'nalishda o'rgatish mumkinligiga ishonadi: intellektual operatsiyalarni o'rgatish; mijodiy faoliyat

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

protseduralarini o'rgatish; ijodga nisbatan qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish[14].

A.Osborn esa "ilmiy ijodni ta'riflashda "breynstorling"-ya'ni "aqliy hujum" atamasini qo'llagan. Uning mazmuni muammoni yechayotgan odam yoki jamoaning vaziyatga o'ziga xos, takrorlanmas ta'siridan iborat. A.Osborn yakka urinishlarning natijasida xal etilmagan muammolarning "aqliy hujum" vaqtida muvaffaqiyatli yechilganini aytadi[17].

M.N.Abdullayeva ijodni shaxsning qobiliyati, insonning maqsadlari tomon intiluvchanlik qobiliyati, hamda ijtimoiy psixologik muhitga bog'laydi[6].

L.A.Qurbonova ijodiy tafakkurning falsafiy-metodologik tahlili mavzusida izanish olib borib, ijodiy taffakurni insonning bilish qobiliyati asosida uning intellektual salohiyati va tasavvurlari,shuningdek, uning obrozlar haqidagi tushunchalari tizimi, jonli mushohada va aqliy faoliyatda namoyon bo'lishini ta'kidlagan. Ijodiy tafakkur ijtimoiy hamda tabbiy dunyoni insonning ehtiyoj va maqsadlariga muvofiq borliqning obyektiv qonunlari asosida, qayta o'zlashtirishga qaratilgan ratsional faoliyat sifatida tushunilishi mumkin[22].

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son. 23.09.2020 yil. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4545884
3. Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.-B.152.;
4. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. –T.: O'qituvchi, 1992. –B.42.
5. Ал-Хоразми Муҳаммад Ибн Муса. Математические трактати. –Т.: Фан, 1983.-С.29.;
6. Абдуллайева М.Н. Научное творчество и идея националной независимости. //Ж. Фалсафа ва ҳуқуқ, - Тошкент, 2005.-Н 4-Б. 17-19.
7. Андреев А.А. Солдаткин В.И. Прикладная философия открытого образования: педагогический аспект. // М.: РИЦ Альфа МГОПУ, 2002. -168с.
8. Алътшуллер Г.С. Найти идею. –Новосибирск: Наука, 1991.- С. 59.
9. Альтшуллер Г.С. Как стать гением: жизненная стратегия творческой личности / Г. С. Альтшуллер, Н. М. Вертны. - Минск: Беларусь, 1994. - 479 с.
10. Арестотелъ. Органон. –М.Наука, 1957.-С.350.
11. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. –T.: Iqtisod-moliya, 2007. -216 b.
12. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati [Matn]: lug'at/A. Madvaliyev [va boshq.]. - Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2021. - 304 b.
13. Lug'at: oliy ta'lim muassasalarida foydalaniladigan asosiy tushuncha va atamalar izohi / Tuzuvchilar: Abdurahimov Q. A., Yusubov J.Q.,Yusubov J.Q. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. - 168 b.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

14. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. –М.: 1989. -311с.
15. Maktabgacha va boshlangach ta'lim atamalarining izohli lug'ati. Tuzuvchilar: O.Musurmonova [va bosh.] - T.: Bekinmachoq-Plyus, 2011. - 260 b.
16. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. [Matn: lug'at. //Q. Nazarov va b. - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2022. - 728 b.
17. Осборн А. Поиск новых идей: от озарения к технологии. –М.: АСТ, 2000.-С.29.
18. Pedagogik atamalar lug'ati. R.X.Djuraev va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. «Fan» nashriyoti. Toshkent-2008. 199 bet.
19. Pedagogika fanidan izohli lug'at.J.Hasanboyev, X.To'raqulov, M.Haydarov, O.Hasanboyeva. T.,"Fan va texnologiya". 2008, 480 bet.
20. Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva, O'.Asqarova, F.Ehsonova, S.Hakimov – Toshkent: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020.– 283 bet.
21. Платон. Диалоги.-М.: Наука, 1959.-260 с.;
22. Qurbonova L.A. Ijodiy tafakkurning falsafiy-metodologik tahlili. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2007. 170 bet.
23. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. Il. E – M. Tahrir hay'ati: T. Mirzaev (rahbar) va bosh q.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-672 b.
24. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. I harfi.«O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2000-2005yy. 492 bet.
25. Xalqaro termin elementlarning izohli-illyustrativ lug'ati [Matn]: lug'at / A.Madvaliyev [va boshq.]. - Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. - 432 b.
26. Abduraimova, S. (2024). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MATHEMATICAL CREATIVITY IN EDUCATION. *Modern Science and Research*, *3*(11), 575-579.
27. Abduraimova, S. (2024). THE ESSENCE OF DEVELOPING CREATIVITY SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS: A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS. Science and innovation, 3(B5), 298-301.
28. Qizi, A. S. K. (2024). TA'LIM TIZIMIDA KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID YONDOSHUVLAR. Science and innovation, 3(Special Issue 16), 370-372.
29. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. Science and innovation, 2(B11), 540-543.
30. Taniberdiyev, A., & Abduraimova, S. (2024). DEVELOPING CREATIVITY IN THE MATHEMATICS TEACHING PROCESS: CONTENT AND ESSENCE. *Modern Science and Research*, *3*(11), 278-281.
31. Taniberdiyev, A., & Maxsudova, S. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Modern Science and Research, 2(12), 466-472.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

32. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Models and methods in modern science, 2(5), 50-53.
33. Maxsudova, S., & Omonqulova, F. (2023). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IQTIDORINI OSHIRISH UCHUN HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH. Академические исследования в современной науке, 2(12), 69-73.
34. Maxsudova, S. (2023). Boshlang'ich sinf darslarida xorijiy tajribalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi (Darsliklar misolida). In INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sohiba Abduraimova Karimkul qizi,** tayanch doktorant [**Сохиба Абдураимова Каримкул кизи,** докторант], [**Sohiba K. Abduraimova,** PhD student]; manzil: Sirdaryo viloyati, Xovos tumani, Sohibkor mahallasi, 10 [адрес: Сырдарьинская область, Хавастский район, махалля Сохибкор, дом 10], [address: Sohibkor Neighborhood, 10, Khavast District, Syrdarya Region]; [ORCID: https://orcid.org/0009-0000-4695-764X]; E-mail: abduraimova.sohiba1@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TALABALAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH

© S.M. Karimova[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika institute, Termiz, O'zbekiston

KIRISH: hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishi inson omilini rivojlantirishga qaratilgan. Inson – barcha boyliklarni saqlovchi, yaratuvchi va takomillashtiruvchi shaxs sifatida, uning har tomonlama rivojlanishi, imkoniyatlarining kengayishi va yashash shart-sharoitlarining yaxshilanishi butun jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy shartidir. Ayni paytda, inson salomatligiga alohida e'tibor qaratish, bu borada samarali choralar ishlab chiqish va mavjud muammolarni o'rganish zarur. Jismoniy tarbiya va sport salomatlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston ushbu sohada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda, shu jumladan malakali kadrlarni tayyorlashni sifatli amalga oshirishga intilmoqda. Aytish joizki, malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha qator muhim qarorlar qabul qilingan.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonida jismoniy tarbiya darslarida talabalar faoliyatini samarali tashkillashtirishning muhim ahamiyatini tushuntirishdir. Jismoniy tarbiya darslari nafaqat talabalar jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki ularning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maqsadga erishish uchun, maqolada talabalar faoliyatini samarali tashkil etishda foydalaniladigan metodlar va usullar, shu jumladan, harakat faoliyatining boshqarilishi, guruhlar bilan ishlash, individual mashqlarni bajarish va aylanib yurib mashq qilish kabi turli uslublar yoritiladi. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari, dars davomida yuqori intensivlikni saqlab qolish, talabalarni birlashtirish va har birining jismoniy tayyorgarligini hisobga olishda qanday yondashuvlar ishlatilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, talabalarni jismoniy faoliyatga faol jalb qilish va ularga sport turlariga bo'lgan qiziqishni oshirish, jismoniy tarbiya metodlarini o'qitishda yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llashga alohida e'tibor qaratiladi.

MUHOKAZA VA NATIJALAR: jismoniy tarbiya va sportni keng tarqatish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida o'z o'rnini topishini ta'minlash maqsadida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF5368-sonli farmonida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda mavjud tizimli muammolar va kamchiliklar haqida gapirilgan, bu esa davlat siyosatini samarali olib borish va mamlakatning sport salohiyatini to'liq foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazilishiga to'sqinlik qilmoqda. Jumladan,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

iqtidorli sportchilarni tanlashda, seleksiya tizimi va sport zaxirasini shakllantirishda mavjud muammolarni hal etishning ahamiyati ta'kidlangan.[5].

XULOSA: yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilarning faoliyatini tashkillashtirishda yuqorida qayd etilgan usullarni amaliyotda qo'llash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni zamonaviy metod va usullarni tadqiq etish, amaliyotga joriy etish va ilmiy-amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalarni bajarishlari kerak. Bunda, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari o'z zimmasiga katta mas'uliyatni oladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, ommaviy sport, sog'lomlashtirish, mashg'ulot, salomatlik, sog'lom turmush tarzi.

Iqtibos uchun: S.M. Karimova. Ta'lim-tarbiya jarayonida jismoniy tarbiya darslarida talabalar faoliyatini tashkillashtirish. // Inter education & global study. 2024. №10 B. 76-83.

ОРГАНИЗАЦИЯ СТУДЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ЗАНЯТИЯХ ФИЗКУЛЬТУРОЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© С.М. Каримова[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: на сегодняшний день основным направлением проводимых в нашей стране реформ является развитие человеческого фактора. Человек как личность, сохраняющая, создающая и совершенствующая все богатства, занимает центральное место в этом процессе. Его всестороннее развитие, расширение возможностей и улучшение условий жизни являются основными условиями успешного выполнения всех реформ. В это же время необходимо уделять особое внимание здоровью человека, разрабатывать эффективные меры и изучать существующие проблемы. Физическое воспитание и спорт играют важную роль в обеспечении здоровья. В Узбекистане уделяется большое внимание развитию физического воспитания и спорта, в том числе качественной подготовке квалифицированных кадров. Следует отметить, что по данному направлению были приняты важные решения.

ЦЕЛЬ: цель данной статьи заключается в объяснении важности эффективной организации деятельности студентов на занятиях по физическому воспитанию в образовательном процессе. Занятия по физическому воспитанию способствуют не только укреплению физического здоровья студентов, но также оказывают положительное влияние на их психологическое и социальное развитие. Для достижения этой цели в статье рассматриваются методы и подходы, используемые для эффективной организации занятий, включая управление двигательной активностью, работу с группами, выполнение индивидуальных упражнений и

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

круговые тренировки. Описываются преимущества каждого метода, подходы к поддержанию высокой интенсивности занятий, объединению студентов и учёту их физической подготовленности. Также акцентируется внимание на активном вовлечении студентов в физическую активность, повышении их интереса к различным видам спорта, а также на внедрении новых педагогических подходов и технологий в процесс преподавания физического воспитания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подводя итоги, можно сказать, что учителя физического воспитания в процессе обучения и воспитания должны применять вышеуказанные методы, исследовать и внедрять передовые педагогические технологии, разрабатывать научно-практические рекомендации и внедрять их в практику. При этом специалисты в области физического воспитания и спорта несут большую ответственность.

Ключевые слова: физическое воспитание, массовый спорт, оздоровление, занятия, здоровье, здоровый образ жизни.

Для цитирования: Каримова С.М. Организация студенческой деятельности на занятиях физкультурой в образовательном процессе. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 76-83.

ORGANIZATION OF STUDENT ACTIVITIES DURING PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

© Sadoqat M. Karimova[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: currently, the main focus of the reforms being implemented in our country is the development of the human factor. As the custodian, creator, and enhancer of all wealth, a person's comprehensive development, expanded opportunities, and improved living conditions are essential for the successful implementation of the entire process. In this context, paying special attention to health, developing effective measures, and studying current problems are necessary. Physical education and sports play a vital role in ensuring health. Uzbekistan pays great attention to the development of physical education and sports, including striving to provide quality training for skilled professionals. Notably, several significant decisions have been made regarding the preparation of qualified specialists.

AIM: the purpose of this article is to emphasize the critical importance of effectively organizing student activities during physical education lessons in the educational process. Physical education classes not only strengthen students' physical health but also positively influence their psychological and social development. To achieve this goal, the article highlights methods and approaches used to organize student activities effectively. These include managing motor activity, working with groups, performing individual exercises, and

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

using circuit training. The unique advantages of each method, such as maintaining high intensity during lessons, fostering student cohesion, and considering individual physical preparedness, are discussed. Attention is also given to engaging students actively in physical activities, increasing their interest in sports, and implementing new pedagogical approaches and technologies in teaching physical education methods.

CONCLUSION: in conclusion, physical education teachers must employ the above-mentioned methods in organizing student activities, explore modern pedagogical technologies and methods, implement them in practice, and develop scientific and practical methodological recommendations. Physical education and sports specialists bear significant responsibility in this regard.

Keywords: physical education, mass sports, health improvement, sessions, health, healthy lifestyle.

For citation: Sadoqat M. Karimova. (2024) 'Organization of student activities during physical education lessons in the educational process', Inter education & global study, (10), pp. 76-83. (In Uzbek).

Yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shahar va qishloqlarda zamonaviy sport inshootlarini qurish, bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etish, ularni zarur uskunalar bilan ta'minlash va yoshlarni sportga jalb qilish uchun sharoit yaratish orqali sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishga erishilmoqda. Bu esa sportning ommaviylashishini ta'minlab, yoshlarning salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Har qanday jamiyatda sog'lom va barkamol avlod ko'p bo'lsa, xalqaro sport maydonlaridagi yutuqlar ham yuqori bo'ladi. Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari kabi xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishayotgan sportchilarni tayyorlashda maktablardagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'zining muhim rolini o'ynaydi.

Inson muntazam kasb bilan shug'ullanayotganda, bu faoliyatning o'ziga xos jihatlari, og'irliklar, zararli moddalar va boshqa omillar tufayli organizmda ba'zi kasalliklar yuzaga keladi. Fan-texnika taraqqiyotiga parallelda, jismoniy mehnatning o'rnini intellektual faoliyat egallay boshladi, mushak faoliyati esa cheklanyapti. Bugungi kunda ko'p insonlar gipodinamiya (kamharakatlik) sababli kasalliklardan aziyat chekmoqda. Uzoq vaqt davomida harakatsiz holatda bo'lish, moddalar almashinuvi va qon aylanishining susayishiga olib keladi. Bunday holatlar, ayniqsa, kam harakatlanadigan kasb egalarida bosh og'rishi kabi alomatlar bilan namoyon bo'ladi.

Zamonaviy davrda aqliy va jismoniy yuklamalarni oqilona taqsimlash, sog'lom turmush tarzini yuritish va jismoniy mashqlarni muntazam bajarish har bir odamning muvaffaqiyatli hayoti uchun zarurdir. Afsuski, ko'plab kishilar salomatliklari jiddiy tarzda buzilganidan keyin jismoniy mashqlarga e'tibor berishni boshlaydilar. Ammo oddiy jismoniy mashqlarni doimiy ravishda bajarish salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida jamiyatda olib borilgan islohotlar ishlab chiqarishni boshqarish va xodimlar salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilmoqda. Biroq, ba'zi mehnat jamoalarida bu jarayonlar samarali tashkil etilmagan. Shuning uchun, bugungi kunda mehnat jamoalarining asosiy vazifalari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

quyidagilardan iborat: sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali mehnat samaradorligini oshirish; gipodinamiya tufayli yuzaga keladigan kasalliklardan jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini qo‘llash orqali himoya qilish; sport va jismoniy tarbiya kundalik ish jarayonining ajralmas qismiga aylanishi uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish.

Inson biror kasb bilan doimiy shug‘ullanar ekan, bu faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, og‘irliklar, zararli moddalar va boshqa omillar natijasida organizmda ba’zi kasalliklar yuzaga kelishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ish jarayonida tik turish zarur bo‘lgan kasblarda venalarning varikoz kengayishi tez-tez uchraydi. Bunday kasallik yoshlar o‘rtasida ham tarqalib, o‘rtacha chalinish yoshi 35-40 atrofida bo‘lishi kuzatilmoqda. Aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar esa ko‘proq umurtqa pog‘onasi bilan bog‘liq kasalliklardan aziyat chekadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 65 foiz aqliy mehnat bilan ishlovchilar umurtqa pog‘onasida og‘riqni his qilishadi. Hatto o‘tirish uchun eng qulay kursilar ham umurtqaga ortiqcha yuk beradi va bu oyoq bo‘g‘imlariga ham salbiy ta’sir qiladi. XXI asrda keng tarqalgan kasb kasalliklaridan biri osteoxondroz bo‘lib, umurtqa pog‘onasiga ortiqcha yuk tushishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu xastalik dunyo aholisining qariyb yarmini tahdid qilmoqda.[9]

Idora xizmatchilari, haydovchilar va yuk tashuvchilar kabi kasblarda ishlovchi odamlar muntazam ravishda bir xil holatda bo‘lishlari, uzoq vaqt davomida jismoniy faollikni kamaytirishlari sababli kasalliklar rivojlanish xavfini oshiradi. Ayniqsa, idora xizmatchilari ish kuni davomida harakatsiz o‘tirgan holda ishlashadi, bu esa osteoxondroz va boshqa umurtqa pog‘onasi bilan bog‘liq kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shunday kasalliklarni oldini olish uchun xodimlar gimnastikasi jismoniy faollikni oshirishga va organizmni mustahkamlashga yordam beradi. Bu gimnastika oddiy mashqlardan iborat bo‘lib, har kuni ish vaqtida bajarilishi lozim. U ishning birinchi yarmida ikki soat o‘tgach, ikkinchi yarmida esa tushlikdan ikki soat keyin amalga oshirilishi muvofiqdir. Mashqlar ish joyida o‘tkazilishi va ish kiyimida bajarilishi mumkin [1].

Sport tanaffuslari, ya’ni qisqa jismoniy mashqlar bilan charchoqni kamaytirish va ish qobiliyatini tiklash uchun ajoyib vosita hisoblanadi. Ushbu tanaffuslar 5-7 daqiqani tashkil etadi va odatda ishning ikkinchi yarmida o‘tkaziladi. Mashqlar xavfsiz va gigiena talablariga javob beradigan joyda bajarilishi kerak. Mashqlar turli mushak guruhlarini rivojlantirish, orqa mushaklarni mustahkamlash, bo‘ynidagi tuzlarni parchalash va qorin pressini kuchaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Agar mashq qilish davomida o‘zini yomon his qilgan shaxs bo‘lsa, mashqlarni to‘xtatib, shifokorga murojaat qilish zarur.

Korxona va tashkilotlarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun “Salomatlik posbonlari” guruhi tashkil etilishi muhimdir. Bu guruh davlat organlari tomonidan boshqarilib, sport murabbiylari, malakali sportchilar, shifokorlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda ishlaydi. Xodimlar gimnastikasining muntazam bajarilishi osteoxondroz, gipertoniya, qandli diabet, semizlik kabi kasalliklarning rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, bu mashqlar ish unumdorligini oshiradi, yurak qon-tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmdagi energiya balansini tiklaydi va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

stressga qarshi turg‘unlikni oshiradi. Mashqlar muntazam ravishda o‘tkazilishi ishchilarning umumiy salomatligini yaxshilaydi va ularni kasalliklardan saqlaydi.[9]

Maktab yoshidagi bolalar o‘sish davrida organizmda assimilyatsiya jarayoni dissimilyatsiyadan ustun bo‘ladi. Bu jarayon natijasida bolaning bo‘yi o‘sib, tana massasi ortadi. O‘sish jarayoni bilan birga rivojlanish ham proporsional tarzda amalga oshadi. Bolaning organizmiga turli omillar ta’sir qiladi va bu omillarning har biri uning o‘sish va rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar uchun jismoniy tarbiya va sportning o‘rni katta, chunki ular organizmning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy sifatlar, masalan, mushaklarning kuchi, moslashuvchanlik va bo‘g‘imlarning harakatchanligi ma’lum yosh davrlarida o‘zgaradi va rivojlanadi.[5]

Yengil atletika mashqlariga e’tibor qaratish yosh organizmni mustahkamlashga yordam beradi. Ular yurak-qon tomir tizimini kuchaytiradi, nafas olish tizimini yaxshilaydi, mushaklarning hamonikli rivojlanishini ta’minlaydi, bo‘g‘imlarning harakatchanligini oshiradi va asab-mushak koordinatsiyasini yaxshilaydi. Bu esa natijada harakat aktining kengligini oshiradi va sport natijalarining ijobiy o‘sishini ta’minlaydi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini yaxshilashga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar katta ahamiyatga ega. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida jismoniy tarbiya o‘qitish muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu o‘quvchilarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bilimlari, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya ta’limi nafaqat jismoniy mashqlarni bajarishga o‘rgatadi, balki bu jarayonda o‘quvchilarda nazariy bilimlar ham shakllanadi. Harakat faoliyatini o‘rganish va unga doir bilimlarni o‘zlashtirish mashq qilish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, jismoniy tarbiya ta’limida o‘quvchilarni ma’lum bir harakatni bajarishga o‘rgatish va shu harakatni to‘g‘ri bajarishni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Umumiy ta’lim maktablarida o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning faoliyati o‘qituvchi tomonidan boshqariladi. Boshqarish jarayonida mashg‘ulot rejasiga muvofiq jismoniy mashqlarni bajarishni tashkillashtirish usullari qo‘llaniladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarning faoliyatini turli uslubiyatlarda tashkil etadilar: frontal, guruhlarga ajratish, yakkama-yakka mashq qilish va aylanib yurib mashq bajarish kabi usullar orqali. Bu usullar o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshiradi va ta’lim jarayonini samarali qiladi.

Frontal uslubiyat. O‘quvchi faoliyatini frontal usulda tashkillashtirishda guruhdagi barcha o‘quvchilar bir vaqtda o‘qituvchi bilan birgalikda bir xil vazifani hal qilish uchun mashqni bajaradilar. Ushbu uslubiyatning afzalligi shundaki, barcha o‘quvchilar teng ravishda mashg‘ulotda ishtirok etib, darsda yuqori zichlikka erishiladi. Bu usulda yuklamaning intensivligi va me’yori barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘ladi. Asosan darsning tayyorlov va yakunlov qismlarida, yangi materialni o‘rganishda va takomillashtirish jarayonlarida, shuningdek kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazishda keng qo‘llaniladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Uzluksiz-ulab tashkillashtirish uslubiyatı. Bu usulda mashqni bajarish tartibi tushuntirilmasdan, harakatni ritmiga mos ravishda, xatolarni tuzatmay, guruhni to‘xtatmasdan amalga oshiriladi. Yuklama intensivligi va hajmi barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘lishi ta’minlanadi. Bu uslubiyat o‘quvchilarning o‘z jismoniy tayyorgarligini baholashga, o‘z harakat imkoniyatlarini boshqa tengdoshlar bilan taqqoslashga imkon beradi. Asosan darsning tayyorlov, yakunlov qismlari va yangi materialni o‘rganish jarayonining asosiy qismida ishlatiladi.

Guruhga ajratish uslubiyatı. Bu usulda o‘quvchilar jismoniy rivojlanish darajasi, tayyorgarligi va vazifalar murakkabligiga qarab kichik guruhlarga ajratiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, har bir guruh o‘zining maxsus vazifasini bajaradi, bu esa o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlari va vaqtni tejashga imkon beradi. Har bir guruhga maxsus topshiriqlar berilib, ular mustaqil ravishda bajarishga yo‘naltiriladi. Bu uslubiyat ta’lim jarayonida jismoniy imkoniyatlar va tayyorgarlikni hisobga olib shug‘ullanishni ta’minlaydi.

Yakkama-yakka tashkillashtirish uslubiyatı. Ushbu usul, odatda, o‘quv yilining yoki choragining yakunida, o‘qitilgan materialni takrorlashda ishlatiladi. Yakkama-yakka mashq qilishda o‘quvchilar texnik jihatdan nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini va guruhdoshi xavfsizligini ta’minlashni bilishi, mashqni to‘g‘ri ko‘rsatishni o‘rganishi kerak. Bu usulda o‘quvchilarga oldindan o‘rgatilgan texnikalar, tanishtirilayotgan material bo‘lishi zarur, bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Qolaversa, ayrim darslarda har bir o‘quvchiga o‘quv yilida o‘zlashtira olmagan mavzular yoki mashqlar bo‘yicha alohida vazifalar beriladi. Ushbu uslubiyat, asosan, o‘rta va katta maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan darslarda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim jarayonini optimallashtirishga yordam beradi va ularning o‘zlashtirish darajasini yaxshilashni ta’minlaydi.

O‘quvchi faoliyatini aylanib yurib mashq bajarish usuliyati orqali tashkillashtirish, asosan, yuqori sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan darslarda qo‘llanadi. Bu uslubiyatda rejalashtirilgan o‘quv materiali o‘rganilgach, mashqdan mashqga o‘tish, o‘qituvchining signali yoki belgisiz mashqni bajarib, o‘rin almashtirish maqsadida boshqa jihozga o‘tish tartibida tashkil etiladi. Ushbu usuliyatning samaradorligi, vaqtni tejashga, barcha o‘quvchilarni birvarakayiga band qilishga va ularda mustaqil shug‘ullanish va instruktorlik malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. F.Sh.Axmedov, V.G‘.Aliboeva. Malakali dzyudochilar bellashuv faoliyati ko‘rsatkichlari. Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar.
2. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi maqolalari to‘plami. 1-qism, Toshkent-2018. 159-161.
3. Muxametov A.M. (2021) Stages and Methods of Teaching Children to Play in Badminton International Journal of Development and Public Policy.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

4. Toshboeva M.B. (2021) Innovative Pedagogical Activity: Content and Structure, european journal of life safety and stability.
5. Xamroeva Z.B. (2021) Current Issues of Forecasting in Physical Education and Sports today, european journal of life safety and stability.
6. Sadullaev B.B. Igrы. Motiviruyuщie uchenikov k aktivnыm zanyatiyamna urokax fizicheskoy kulturы i sporta//Nuka i obrazovanie segodnya. Nauchno-teoreticheskiy jurnal. Rossiya, №12 (59), 2020. 77-79 st
7. Sadullayev.B.B. Theoretical foundation of the use of games in the formation of friendly atmosphere and social partnership skills in learnes. Volume 10, Issue 04, Pages: 407-413
8. Tashpulatov Farhad Alisherovich (2021) Formation Of Universal Training Activities In The Implementation Of Homework At Physical Training Lessons, The American Journal of Social Science and Education Innovations
9. Shermatov G‘.Q. (2021) Dynamics of physical development of students with one and two time compulsory lessons, World Economics & Finance Bulletin (WEFB)
10. Laurentiu Bocioaca. Technical and Tactical Optimization Factors in Judo. Procedia Social and Behavioral Sciences. 117 (2014) 389-394. DOI. 10.1016/j.sbspro.2014.02.233.
11. F.Q.Axmedov, F.Sh.Axmedov. Malakali dzyudochilar bellashuv faoliyatining texnik tavsifiy tahlili. Tafakkur ziyosi. 2/2018. 80-81.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Karimova Sadoqat Mamaraimovna**, Jismoniy madaniyat kafedrasi o`qituvchisi, [**Каримова Садокат Мамараимовна,** преподаватель кафедры физической культуры], [**Sadoqat M. Karimova,** Lecturer, Department of Physical Education]; manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, «Yangiobod» MFY, At-Termiziy ko‘chasi 1 A-uy Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP «Yangiabad», At-Termizy street 1 A-uy Postal code: 190111].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

РАБОТА С ТЕКСТОМ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: МЕТОДЫ АНАЛИЗА И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ

© А.А. Умаров[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: работа с текстом занимает ключевое место в процессе обучения русскому языку, так как именно текст служит основой для развития речевой, языковой и коммуникативной компетенций учащихся. Тексты на уроках русского языка выполняют не только образовательную, но и воспитательную функцию, помогая формировать у школьников эстетическое восприятие и критическое мышление.

Современная методика преподавания ставит перед учителями задачу не просто научить школьников понимать содержание текста, но и развивать умение глубоко анализировать его с различных точек зрения: лексической, грамматической, стилевой, контекстуальной. Кроме того, важным аспектом работы с текстом является интерпретация, предполагающая выявление подтекста, эмоциональных и ценностных аспектов произведения.

Данная статья посвящена рассмотрению методов анализа и интерпретации текстов, которые могут быть успешно использованы на уроках русского языка. Особое внимание уделяется практическим приемам, направленным на развитие языковой интуиции и способности учащихся самостоятельно выявлять смысловые слои текста.

ЦЕЛЬ: целью статьи является разработка и внедрение эффективных методов анализа и интерпретации текстов, применяемых на уроках русского языка, с целью повышения языковых и речевых компетенций учащихся, а также формирования у них навыков критического мышления и глубокого понимания текстов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование базируется на анализе методов работы с текстами, представленных в статье, с акцентом на их практическую применимость в процессе обучения русскому языку. Основными материалами исследования послужили: тексты, используемые на уроках русского языка, включая художественные, публицистические и научные произведения; задания и упражнения, направленные на развитие навыков лексического, грамматического, стилевого и контекстуального анализа; методические рекомендации, предлагаемые для учителей с целью совершенствования процесса обучения.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Методы исследования включают: исследование базируется на анализе методов работы с текстами, представленных в статье, с акцентом на их практическую применимость в процессе обучения русскому языку. Основными материалами исследования послужили тексты, используемые на уроках русского языка, включая художественные, публицистические и научные произведения, а также задания и упражнения, направленные на развитие навыков лексического, грамматического, стилевого и контекстуального анализа. Методические рекомендации, предлагаемые для учителей, используются для совершенствования процесса обучения.

Методы исследования включают изучение структуры словарного запаса, семантических групп и стилистических характеристик слов для выявления ключевых тем и тональности текста; исследование морфологических и синтаксических конструкций для понимания структуры и выразительности текста; определение стиля текста, его функций и особенностей, таких как использование метафор, эпитетов и риторических фигур; рассмотрение исторического и культурного фона произведения для глубокой интерпретации текста; акцент на субъективных переживаниях учащихся, вызванных текстом, и их связи с личным опытом. Также применяются дискуссионные методы, включая постановку вопросов, стимулирующих аналитическое и критическое мышление, и обсуждение альтернативных трактовок текста.

Используемые методы направлены на развитие языковой интуиции, критического мышления и способности учащихся самостоятельно анализировать и интерпретировать тексты. Такой комплексный подход позволяет не только овладеть языковыми навыками, но и способствует личностному росту и формированию уважения к культурному наследию.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования выявлено, что эффективная работа с текстами на уроках русского языка требует комплексного подхода, включающего лексический, грамматический, стилевой и контекстуальный анализ, а также использование эмоционально-ценностных подходов к интерпретации. Эти методы позволяют не только углубить понимание текста, но и способствуют развитию критического мышления, языковой интуиции и личностного роста учащихся.

Анализ текстов показал, что лексический и грамматический аспекты помогают учащимся освоить структуру языка и его выразительные средства. Лексический анализ позволяет классифицировать слова по их семантическим группам, выделять стилистические особенности и определять тональность текста. Грамматический анализ, в свою очередь, фокусируется на морфологических и синтаксических элементах, способствуя лучшему пониманию построения текста и его выразительности.

Стилевой и контекстуальный анализ дают возможность рассматривать текст в более широком культурно-историческом контексте. Определение стиля текста,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

выявление функций стилистических средств и анализ культурных аллюзий помогают учащимся глубже понять авторский замысел и оценить текст как часть культурного наследия.

Использование эмоционально-ценностных подходов и дискуссионных методов подтвердило их значимость в развитии личной связи учащихся с текстом. Вовлечение в дискуссии, постановка интерпретативных вопросов и обсуждение этических тем способствуют формированию аналитического мышления, уважения к различным точкам зрения и способности аргументировать свои позиции.

Результаты исследования показали, что комплексное использование перечисленных методов на уроках русского языка позволяет достигать следующих образовательных и воспитательных целей: повышение языковой компетенции учащихся; развитие навыков анализа, критического мышления и интерпретации текста; формирование уважения к литературе как к важной части культурного наследия; создание условий для личностного роста учащихся, их интеллектуального и -культурного развития.

Таким образом, разработанные и предложенные методы работы с текстами могут успешно применяться в образовательной практике для достижения более глубокого и многогранного подхода к изучению русского языка.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: работа с текстом занимает центральное место в обучении русскому языку, поскольку позволяет учащимся не только овладеть языковыми навыками, но и глубже понять культурные и литературные аспекты. В статье были рассмотрены методы анализа и интерпретации текста, которые способствуют формированию у учащихся комплексного подхода к изучению произведений.

Анализ текста через изучение его лексической и грамматической структуры, стиля и контекста раскрывает перед учащимися внутреннюю логику построения произведения и авторский замысел. Интерпретация, в свою очередь, направлена на выявление глубоких смыслов текста, на формирование эмоциональной связи с произведением и на развитие критического мышления.

Использование методов анализа и интерпретации текста позволяет достигать следующих результатов: развитие языковой компетенции и навыков аналитического мышления; осмысление культурного и исторического контекста произведения; формирование уважения к литературе как к важной части культурного наследия.

Преподавателям рекомендуется активно включать методы анализа и интерпретации в процесс обучения, учитывая уровень подготовки учащихся и специфику изучаемых текстов. Разнообразие подходов, таких как эмоционально-ценностной анализ, использование вопросов и дискуссий, помогает сделать уроки более насыщенными, интересными и продуктивными.

Таким образом, работа с текстом, основанная на осмысленном и творческом подходе, способствует не только языковому развитию, но и личностному росту учащихся, формируя их как полноценных участников культурного и общественного процесса.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ключевые слова: работа с текстом, анализ текста, интерпретация текста, лексический анализ, грамматический анализ, стилевой анализ, контекстуальный анализ, обучение русскому языку, эмоционально-ценностный подход, методы преподавания.

Для цитирования: Умаров А.А. Работа с текстом на уроках русского языка: методы анализа и интерпретации текстов. // Inter education & global study. 2024. №10 В.84-95.

RUS TILI DARSLARIDA MATN BILAN ISHLASH: MATNLARNI TAHLIL QILISH VA TALQIN QILISH USULLARI

© A.A. Umarov[1]✉
[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston,

Annotatsiya

KIRISH: matn bilan ishlash rus tilini o'qitish jarayonida asosiy o'rinni egallaydi, chunki matn talabalarning nutq, til va kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rus tili darslaridagi matnlar nafaqat ta'lim, balki tarbiyaviy funktsiyani ham bajaradi, maktab o'quvchilarida estetik idrok va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy o'qitish metodikasi o'qituvchilar oldiga nafaqat maktab o'quvchilarini matn mazmunini tushunishga o'rgatish, balki uni turli nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish vazifasini qo'yadi: leksik, grammatik, stilistik, kontekstual. Bundan tashqari, matn bilan ishlashning muhim jihati asarning subteksti, hissiy va qadriyat jihatlarini aniqlashni o'z ichiga olgan talqindir.

Ushbu maqola rus tili darslarida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin bo'lgan matnlarni tahlil qilish va talqin qilish usullarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Til sezgisini va o‘quvchilarning matnning semantik qatlamlarini mustaqil aniqlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy usullarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

MAQSAD: Maqolaning maqsadi talabalarning til va nutq kompetensiyalarini oshirish, shuningdek, tanqidiy fikrlash va chuqur tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida rus tili darslarida qo'llaniladigan matnlarni tahlil qilish va talqin qilishning samarali usullarini ishlab chiqish va joriy etishdan iborat. matnlar.

MATERIALLAR VA USULLAR: tadqiqot maqolada keltirilgan matnlar bilan ishlash usullarini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ularning rus tilini o'qitish jarayonida amaliy qo'llanilishiga urg'u beradi. Tadqiqotning asosiy materiallari quyidagilardan iborat edi: rus tili darslarida qo'llaniladigan matnlar, shu jumladan badiiy, publitsistik va ilmiy ishlar; leksik, grammatik, stilistik va kontekstual tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar va mashqlar; o'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida o'qituvchilarga taqdim etiladigan uslubiy tavsiyalar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Tadqiqot usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: tadqiqot maqolada keltirilgan matnlar bilan ishlash usullarini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ularning rus tilini o'qitish jarayonida amaliy qo'llanilishiga urg'u beradi. Tadqiqotning asosiy materiallari rus tili darslarida qo'llaniladigan matnlar, shu jumladan badiiy, publitsistik va ilmiy ishlar, shuningdek, leksik, grammatik, stilistik va kontekstual tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar va mashqlar edi. O'qituvchilar uchun tavsiya etilgan uslubiy tavsiyalar o'quv jarayonini takomillashtirish uchun ishlatiladi.

Tadqiqot usullari matnning asosiy mavzulari va ohangini aniqlash uchun lug'at tuzilishini, semantik guruhlarni va so'zlarning stilistik xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi; matnning tuzilishi va ifodaliligini tushunish uchun morfologik va sintaktik tuzilmalarni o'rganish; matn uslubini, uning funktsiyalari va xususiyatlarini, masalan, metafora, epitet va ritorik figuralardan foydalanishni aniqlash; matnni chuqur talqin qilish uchun asarning tarixiy va madaniy fonini ko'rib chiqish; matndan kelib chiqqan talabalarning sub'ektiv tajribalariga va ularning shaxsiy tajriba bilan aloqalariga urg'u berish. Muhokama usullari, jumladan, analitik va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan savollarni ko'tarish va matnning muqobil talqinlarini muhokama qilish ham qo'llaniladi.

Amaldagi usullar til sezgi, tanqidiy fikrlash va talabalarning matnlarni mustaqil tahlil qilish va sharhlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu kompleks yondashuv nafaqat til ko'nikmalarini egallashga imkon beradi, balki shaxsiy o'sishga va madaniy merosga hurmatni rivojlantirishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR tadqiqot shuni ko'rsatdiki, rus tili darslarida matnlar bilan samarali ishlash leksik, grammatik, stilistik va kontekstual tahlilni, shuningdek, talqin qilishda hissiy-qiymatli yondashuvlardan foydalanishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu usullar nafaqat matnni tushunishni chuqurlashtirish, balki tanqidiy fikrlash, til sezgi va o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Matnlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, leksik va grammatik jihatlar o‘quvchilarga til tuzilishi va uning ifoda vositalarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Leksik tahlil so'zlarni semantik guruhlariga ko'ra tasniflash, stilistik xususiyatlarni aniqlash va matnning ohangini aniqlash imkonini beradi. Grammatik tahlil, o'z navbatida, morfologik va sintaktik elementlarga e'tibor qaratadi, matnning tuzilishi va uning ekspressivligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Uslub va kontekstual tahlil matnni kengroq madaniy va tarixiy kontekstda ko'rish imkonini beradi. Matn uslubini aniqlash, stilistik vositalarning funktsiyalarini aniqlash va madaniy ishoralarni tahlil qilish talabalarga muallifning niyatini chuqurroq tushunishga va matnni madaniy merosning bir qismi sifatida baholashga yordam beradi.

Hissiy qadriyat yondashuvlari va muhokama usullaridan foydalanish ularning talabalar va matn o'rtasidagi shaxsiy aloqani rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqladi. Munozaraga jalb qilish, izohli savollar berish va axloqiy mavzularni muhokama qilish analitik fikrlashni, turli nuqtai nazarlarni hurmat qilishni va o'z pozitsiyalarini muhokama qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rus tili darslarida sanab o'tilgan usullardan kompleks foydalanish quyidagi ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishga imkon beradi: o'quvchilarning til kompetentsiyasini oshirish; matnni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; adabiyotga madaniy merosning muhim qismi sifatida hurmatni shakllantirish; talabalarning shaxsiy o'sishi, intellektual va madaniy rivojlanishi uchun sharoit yaratish.

Shunday qilib, rus tilini o'rganishga chuqurroq va ko'p qirrali yondashuvga erishish uchun matnlar bilan ishlashning ishlab chiqilgan va taklif qilingan usullari o'quv amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

XULOSA: matn bilan ishlash rus tilini o'qitishda markaziy o'rin tutadi, chunki u talabalarga nafaqat til ko'nikmalarini egallash, balki madaniy va adabiy jihatlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Maqolada o'quvchilarda asarlarni o'rganishga kompleks yondashuvni shakllantirishga yordam beradigan matnni tahlil qilish va talqin qilish usullari muhokama qilindi.

Matnni uning leksik va grammatik tuzilishi, uslubi va kontekstini o‘rganish orqali tahlil qilish o‘quvchilarga asar qurishning ichki mantig‘i va muallifning niyatini ochib beradi. Tarjima, o‘z navbatida, matnning chuqur ma’nolarini aniqlash, asar bilan hissiy aloqani shakllantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Matnni tahlil qilish va talqin qilish usullaridan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi: lingvistik kompetentsiya va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish; asarning madaniy va tarixiy kontekstini tushunish; madaniy merosning muhim qismi sifatida adabiyotga hurmatni shakllantirish.

O‘qituvchilarga o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va o‘rganilayotgan matnlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayoniga tahlil va talqin usullarini faol kiritish tavsiya etiladi. Hissiy qiymat tahlili, savollar va munozaralardan foydalanish kabi yondashuvlarning xilma-xilligi darslarni yanada boy, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Shunday qilib, mazmunli va ijodiy yondashuvga asoslangan matn bilan ishlash nafaqat til rivojlanishiga, balki talabalarning shaxsiy o'sishiga ham hissa qo'shadi, ularni madaniy va ijtimoiy jarayonning to'la huquqli ishtirokchilari sifatida shakllantiradi.

Kalit so'zlar: matn bilan ishlash, matn tahlili, matn talqini, leksik tahlil, grammatik tahlil, stilistik tahlil, kontekstual tahlil, rus tilini o'qitish, hissiy-qiymatli yondashuv, o'qitish usullari.

Iqtibos uchun: Umarov A.A. Rus tili darslarida matn bilan ishlash: matnlarni tahlil qilish va talqin qilish usullari. // Inter education & global study. 2024. №10. C. 84-95.

WORKING WITH TEXTS IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS: METHODS OF TEXT ANALYSIS AND INTERPRETATION

© Aziz A. Umarov[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ma'nosini biladigan emas, balki uni kognitiv va pragmatik sathlarda tahlil eta oladigan matnxonlarni tarbiyalashni anglatadi. Misol uchun, ananaviy darslar doirasida agar o‘quvchi matnda yangi so‘zga duch kelsa, tarjima lug‘atlardan uning ma'nosini qidirib, so‘z ma'nosini yod olishi aytiladi, lekin zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bunday holatga yangicha yondashuvni taklif etadi. Unga ko‘ra, agarda o‘quvchi ma'nosi noma'lum so‘zga duch kelsa matn konteksidan foydalanmog‘i lozim. Mazkur so‘zning boshqa so‘zlar bilan bog‘liqlikda qo‘llanishi va mazmuniy hamda mantiqiy ishoralardan xulosa qilgan holda siz ma'nosini taxmin qila olmog‘i lozim. Konteksidan foydalanib noma’lum so‘zlar ma'nosini taxmin qilish qobiliyati ham tizimli mashg‘ulotlar va amaliyot natijasida yuzaga chiquvchi ko‘nikma sanaladi. Shuni eslatib o‘tmog‘imiz lozimki, ba'zi holatlarda matndagi kontekslar ham ma'lum til birliklarini (so‘z birikmalari, iboralar) ma'nosini anglab olish uchun yetarli bo‘lmaydi. Masalan,

We bought a different house because by the time we decided on the other one, that ship had already sailed.

Mazkur gapda qo‘llangan konteksda the ship and sail so‘zlarining leksik ma'nosiga e'tibor bersak, kemaning suzib ketganligi tushunishimiz mumkin. Lekin mazkur birikma ko‘chma ma'noda qo‘llangan ibora bo‘lib, imkoniyatni qo‘ldan boy berilganligini anglatadi. Mana shunday matn ustida ishlash davomida yuzaga keluvchi muommolarni hal etish uchun ham to‘lri tanlangan pedagogik metodlar va texnologiyalar qo‘l keladi. Bunday holatda ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni konteksidan anglab olish ko‘nikmasi, turli madaniyatlarga oid bilimlar va turli tillarda mavjud frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil eta olish qobiliyati o‘quvchilarga singdirib borilmog‘i lozim.

Shuningdek, matn bilan ishlash jarayonida pragmatik tahlillarning ham o‘rni beqiyosdir, chunki matnda ishtirok etgan so‘zlarning leksik ma'nosi orqali konteksda ifodalangan asl ma'noni ilg‘ab olish imkonsizdir. Quyidagi misol orqali fikrimizni isbotlab o‘tamiz.

A: Do you have any plans tonight?

B: I have a book I've been meaning to read.

Birinchi so‘roq gapda so‘zlovchi tinglovchidan kechki payt uchun bo‘sh vaqti bormi yoki yo‘qligini so‘ramoqda. Lekin tinglovchining javobida esa u kitob o‘qimoqchi ekanligini aytib o‘tish orqali bo‘sh vaqti yo‘qligi haqida so‘zlovchiga xushmuomalalik bilan bo‘sh vaqti yo‘qligini bildirib o‘tmoqda. Bu pragmatikada "ishora qilish" (conversational implicature) deb nomlanadi.

Fikrimizni yana bir misol orqali dalillab o‘tamiz:

A couple of housemates are getting ready to go to a party; one of them asks the other:

'Are you going to be much longer?'

To which the other replies:

'You can mix yourself another drink.'

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Mazkur konteksda ham so‘zlovchi tinglovchini bayramga kech qolishlari mumkinligi haqida ogohlantirmoqda, tinglovchi esa unga javoban yana bir ichimlik ichib turishi mumkinligini aytish orqali hali tayyor bo‘lmaganligiga ishora qilmoqda. Yuqorida ko‘rsatilgan misollar orqali xulosa qilishimiz mumkinki, matn bilan ishlash jarayonida faqatgina so‘zlarning leksik ma'nosini bilish yetarli emas, balki matnxondan pragmatik jihatdan tahlil qila olish talab etiladi. Bunday ko‘nikmalar pedagoglar tomonidan dars mashg‘ulotlari davomida turli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali shakllantirilib boriladi.

Pragmatika sohasida matnlar doirasida yana bir hodisa yuz beradiki, bu hodisani tilshunoslar xulosa chiqarish (inference) deb nomlaydilar. Xulosa chiqarish suhbat davomida tinglovchi tomonidan so‘zlovchi tomonidan aytilgan ma'lumoyga qo‘shimcha tarzda boshqa ma'lumotlarni ilg‘ab olish jarayoni hisoblanadi. Misol uchun,

Andy: I just forwarded you that email about the meeting next week.

Beth: Got it.

Yuqoridagi suhbatda so‘zlovchi tinglovchiga majlis haqida xabar yuborgani haqida ma'lumot bermoqda. Tinglovchi esa "oldim" deb javob berdi. Ayni shu qisqa javobdan tinglovchi quyidagi qo‘shimcha ma'nolarni anglab olishi zarur:

a) "got" so‘zi qaysi ma'noda qo‘llanyapti (qabul qilib olmoqmi yoki tushunmoqmi?);

b) mazkur javobda ishtirok etgan it so‘zi qaysi so‘zga ishora qilyapti;

c) xabarni kim qabul qilib oladi?

d) tinglovchi xabarni qachon qabul qilib olgan?

Pragmatikaning keyingi muhim hodisalaridan biri fahmlash (presupposition) deb ataladi. Fahmlash bu so‘zlovchi bu haqida aytib o‘tmagsn bo‘lsada, u konteksda qo‘llagan ma'lum bir ishora orqali qo‘shimcha ma'noni anglab olishdir. Masalan,

The dog no longer barks at the mailman.

Bu gap orqali tinglovchi kuchukning tegirmon atrofida ilgari xuriganligini fahmlab olmog‘i zarur.

Tilshunos M. Hakimov pragmatikada xos bunday hodisalarni quyidagi misol orqali izohlab o‘tadi:

- Saodat- dedim

Qaradi.

-Eshitdingmi? - dedim. Uni ortiqcha uyaltirmaslik uchun eshikka qarab yura boshladim-da: -Maylimi? - deb so‘radim. Javob o‘rniga:

-Osh yemay ketasizmi? - dedi. Bu uning ikkinchi turlik qilib aytilgan "mayli" javobi edi (A. Qodiriy)

Alining Saodatga qaratilgan "biz unashtirildik, maylimi?" tipidagi so‘roq aktiga Saodat o‘ziga xos tarzda javob beradi. Saodat "mayli javobining o‘rniga "Osh yemay ketasizmi?" so‘rog‘i bilan usta Alimga yanada yaqinligini ko‘rsatadi va bu bilan rozilik alomati anglashiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Yuqoridagi matnda ishora qilish ("conversational implicature") va xulosa chiqarish ("inference") kabi pragmatik xodisalar yuz bermoqda.

Matn bilan ishlash darslarida o‘quvchilar turli shakldagi test topshiriqlarini bajarishlari talab etiladi, bunday test topshiriqlari qatoriga biz umumiy tushunganlik darajasini aniqlovchi savollar, matndagi asosiy nuqtalarga oid testlar, matn strukturasi va leksik boyligiga oid testlar, muallifning fikri va maqsadiga oid savollar, xulosa chiqarishga oid test topshiriqlari, alohida paragraflarning mazmuniga qaratilgan savollarni kiritishimiz mumkin. Bunday test topshiriqlariga to‘g‘ri javoblarni topish uchun marnxon to‘g‘ri metod va strategiyalardan foydalana olishi lozim, bunday metod va strategiyalardan foydalanish ko‘nikmasi esa albatta pedagog tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni darsda o‘rinli tadbiq etish natijasida o‘quvchilarda shakllanishi mumkin.

Matn bilan ishlash davomida o‘quvchilarga o‘rganilayotgan tilga oid madaniyat borasida ham bilimlar zarurdir. Dars davomida o‘qilayotgan konteksni to‘liq tushunish uchun turli madaniyatlar haqida o‘quvchilarga pedagog tomonidan bilimlar berib borilmog‘i lozim. Bu muommo matnshunoslik va lingvokulturologiya sohalarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Masalan, quyidagi konteksni tushunish uchun o‘quvchilarda Shotlandiya madaniyati haqida tasavvurlar mavjud bo‘lmog‘i lozim.

A lot of the men opted for kilts, cumberbands and tie-less looks.

Ko'pgina erkaklar yubkalar, bog'ichlar va galstuksiz ko'rinishni tanladilar.

Mazkur gapda "kilt" (Shotlandiyada erkaklar kiyadigan yupka) so‘zini to‘liq anglab yetish uchun o‘quvchiarga pedagog matn bilan tanishishdan avval tushunchalar berib bormog‘i kerak.

Matn bilan ishlash murakkab kognitiv va mental jarayon bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchilardan fonetik, morfologik, sintaktik va pragmatik bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘quvchilar matnni yuzaki tahlil qilish bilan cheklanib, chuqur tushunish darajasiga yetishmaydilar. Bu holatni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo‘llashlari lozim.

Matnni tushunishda so‘zlarning kontekstual, pragmatik va stilistik jihatlarini tahlil qilish, shuningdek, madaniy va lingvistik bilimlarni o‘quvchilarga singdirish muhim hisoblanadi. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun interaktiv dars mashg‘ulotlari, innovatsion texnologiyalar, test topshiriqlari va madaniyatlararo bilimlarni uyg‘unlashtirish zarur.

Natijada, matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar so‘zlarning chuqur ma'nosini tushunib, pragmatik tahlil qila oladigan, xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan, madaniy kontekstni e'tiborga oladigan puxta matnxonlar bo‘lib shakllanadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

1. Glenberg, A. M., & Epstein, W. (1985). The Process of Understanding Texts. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior.
2. Otero, J., & Kintsch, W. (1992). Failing to Understand Text: What Readers Think They Know and What They Actually Learn. Journal of Educational Psychology.
3. Graesser, A. C., & Jackson, G. T. (2003). AutoTutor and the Integration of Knowledge. Interactive Learning Environments.
4. Hakimov, M. (2000). Pragmatik Lingvistika. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Qodiriy, A. (1926). O‘tkan Kunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
6. Lingvokulturologiya bo‘yicha tadqiqot materiallari.
7. Matnshunoslik va pragmatika fanlari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar.
8. M. Hakimov “O‘zbek pragmalingvistik asoslari”. “Akademnashr” nashriyoti. T.:-2013
9. Z. Xolmanova. “Tilshunoslik nazariyasi”. Toshkent-2020.
10. Sh. Safarov. “Kognitiv tilshunoslik”. “Sangzor nashriyoti”, Jizzax-2006.
11. R. Rasulov. “Umumiy tilshunoslik”. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent-2007.
12. Z. Maksetova. “Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning tasnifi” – ilmiy maqola. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi**, Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti [**Юсупова Нодирахон Эркинжон кизи,** докторант Андижанского государственного университета], [**Nodiraxon E. Yusupova**, Basic doctoral student at Andijan State University]; manzil: O‘zbekiston, Andijon sh., Kamolot ko'chasi, 10-uy [адрес: Узбекистан, ул. Камолот, 10, г. Андижан], [address: Uzbekistan, 10, Kamolot st., Andijan city]; yusupovanodiraxon1998@gmail.com.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA QO‘SHIMCHA TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNING BOLALAR SHAXSIYATI RIVOJLANISHIGA TA’SIRI TAHLILI

© R.R. Zulfiqorov[1]✉

[1]Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maktabgacha ta’lim tizimida qo‘shimcha ta’lim xizmatlarining innovatsion metodlari va ularning ta’lim sifatini boshqarishdagi o‘rni haqida so‘nggi yillarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, individuallashtirilgan yondashuvlar va pedagogik kompetensiyaning ahamiyati va Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarishda yangi yondashuvlar va innovatsion metodlarning qo‘llanilishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

MAQSAD: ushbu tadqiqotni asosiy maqsadi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim tizimining rivojlanishi va uning bolalar shaxsiyati rivojlanishiga ta’siri tahlili hamda innovatsion metodlar ahamiyati.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida innovatsion texnologiyalar va metodlar, hamda Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rivojlanish bosqichlari keltirib o‘tildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bolalar uchun qo‘shimcha ta’lim sohasida qo‘shimcha xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi, qo‘shimcha ta’limning hududning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun ahamiyatiga e’tibor qaratadi.

XULOSA: maktabgacha ta’lim tizimida qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini innovatsion usullar bilan tashkil etish ta’lim sifatini boshqarishda muhim o‘rin tutadi. Innovatsion texnologiyalar va metodlarning qo‘llanilishi, bolalarning kompetensiyasini oshirish, va individual yondashuvlar orqali ta’lim jarayoni samarali va sifatli bo‘lishi mumkin. Kelajakda maktabgacha ta’lim tizimini raqamli rivojlantirish, ta’lim sifatini boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratib, bolalarga yanada yuqori ta’lim ko‘rsatish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, qo‘shimcha ta’lim xizmatlari, individuallashtirilgan yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar, pedagogik kompetensiya, ta’lim sifatini boshqarish.

Iqtibos uchun: Zulfiqorov R.R. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim tizimining rivojlanishi va uning bolalar shaxsiyati rivojlanishiga ta’siri tahlili. // Inter education & global study. 2024. №10 B. 148-154.

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ И ЕГО ВЛИЯНИЯ НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ ДЕТЕЙ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

© Р.Р. Зульфикоров[1]✉
[1]Институт переподготовки директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций и повышения их квалификации, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в последние годы проводятся исследования инновационных методов дополнительных образовательных услуг в системе дошкольного образования и их роли в управлении качеством образования. Внедрение современных технологий в образовательный процесс, важность индивидуализированных подходов и педагогической компетентности, использование новых подходов и инновационных методов в управлении качеством образования в системе дошкольного образования служат повышению качества образования.

ЦЕЛЬ: основной целью исследования является развитие системы дополнительного образования в дошкольных образовательных организациях и анализ ее влияния на развитие личности детей, а также значение инновационных методов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования были упомянуты инновационные технологии и методы, а также этапы развития дошкольных образовательных организаций.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: способствует разработке теоретических и практических аспектов организации и реализации дополнительных услуг в сфере дополнительного образования детей, акцентирует внимание на значении дополнительного образования для социокультурного развития региона.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: организация дополнительных образовательных услуг в системе дошкольного образования инновационными методами играет важную роль в управлении качеством образования. Образовательный процесс может быть эффективным и качественным за счет использования инновационных технологий и методов, повышения компетентности детей, индивидуального подхода. В будущем цифровое развитие системы дошкольного образования создаст новые возможности в управлении качеством образования, позволит детям получать высшее образование.

Ключевые слова: дошкольное образование, дополнительные образовательные услуги, индивидуализированный подход, современные технологии, инновационные методы, педагогическая компетентность, управление качеством образования.

Для цитирования: Зульфикоров Р.Р. Анализ развития системы дополнительного образования в дошкольных образовательных организациях и его влияния на развитие личности детей. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 148-154.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE ADDITIONAL EDUCATION SYSTEM IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND ITS IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S PERSONALITY

© Rustam R. Zulfiqorov[1]✉
[1]Institute for Retraining and Advanced Training of Directors and Specialists of Preschool Educational Organizations, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: recently, research has been conducted on innovative methods of additional educational services in the preschool education system and their role in managing the quality of education. The introduction of modern technologies in the educational process, the importance of individualized approaches and pedagogical competence, and the use of new approaches and innovative methods in managing the quality of education in the preschool education system serve to improve the quality of education.

AIM: the main purpose of this study is to analyze the development of the additional education system in preschool educational organizations and its impact on the development of children's personalities, as well as the importance of innovative methods.

MATERIALS AND METHODS: innovative technologies and methods, as well as the stages of development of preschool educational organizations, were considered in the research process.

DISCUSSION AND RESULTS: contributes to the development of theoretical and practical aspects of the organization and implementation of additional services in the field of additional education for children, draws attention to the importance of additional education for the socio-cultural development of the region.

CONCLUSION: the organization of additional educational services in the preschool education system using innovative methods plays an important role in managing the quality of education. The educational process can be effective and high-quality through the use of innovative technologies and methods, increasing the competence of children, and individual approaches. In the future, the digital development of the preschool education system will create new opportunities for managing the quality of education and will allow children to receive a higher education.

Keywords: preschool education, additional educational services, individualized approach, modern technologies, innovative methods, pedagogical competence, education quality management.

For citation: Rustam R. Zulfiqorov. (2024) 'Analysis of the development of the additional education system in preschool educational organizations and its impact on the development of children's personality', Inter education & global study, (10), pp. 148-154. (In Uzbek).

Keyingi o'n yilliklarda psixologik-pedagogik fanlar va o'qitish texnologiyalarining rivojlanishi bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim tobora kengroq

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

yo‘nalish va shakllarni o‘z ichiga ola boshladi. Bugungi kunda bu nafaqat an’anaviy musiqiy, badiiy va jismoniy rivojlanish, balki chet tillari, informatika, ekologiya, robototexnika va boshqa ko‘plab sohalardagi darslardir.

Zamonaviy amaliyotda har bir bola rivojlanishining individual xususiyatlarini o‘rganish natijasida mumkin bo‘lgan ta’lim va tarbiyani individuallashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat bolalarni ijtimoiylashtirish va jamiyatga integratsiya qilish muammolarini yanada samarali hal qilishga imkon beradi, balki ularning qobiliyatlari va iste’dodlarini erta aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’limning tarixiy rivojlanishi bolalarni tarbiyalash va o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlarning o‘zgarishini, shuningdek, maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalari to‘g‘risidagi jamoatchilik g‘oyalarini aks ettiradi. Bugungi kunda ushbu yo‘nalish bolaning shaxsiyatini uyg‘un va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimining ajralmas qismidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim-bu asosiy ta’lim dasturidan tashqarida turli xil ta’lim dasturlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy, ijodiy, jismoniy va intellektual fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim faoliyati sohasi.

Rivojlanishning dastlabki bosqichi (XIX-XX asr boshlari)

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo‘shimcha ta’limning birinchi shakllari Yevropa va Shimoliy Amerikada kuzatilishi mumkin, bu yerda bolalar bog‘chalari va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tushunchalari rivojlana boshlaydi. Rossiyada maktabgacha ta’lim kontsepsiyasi XIX asrda shakllana boshladi va asosiy e’tibor musiqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasiga qaratildi.

Sovet davri (1917-1990-yillarning boshlari)

1917-yildan keyin Sovet Ittifoqida maktabgacha ta’lim tizimining faol rivojlanishi boshlandi. Ushbu tizimning muhim qismi jismoniy ko‘nikmalarni, mehnat ta’limi va badiiy va estetik ta’limni rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha ta’limdir. Ixtisoslashtirilgan to‘garaklar va seksiyalar, masalan, musiqa, raqs, tasviriy san’at bo‘yicha tashkil etiladi.

1990-yillardan XXI asr boshlarigacha bo‘lgan davr

Sovet Ittifoqining qulashi va postsovet hududidagi mamlakatlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar bilan maktabgacha ta’lim sohasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ko‘proq xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ular bilan birga qo‘shimcha ta’limning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Ushbu davrda dasturlarning xilma-xilligi va bolalarni o‘qitish va rivojlantirishga yondashuvni individuallashtirishga e’tibor qaratiladi.

Rivojlanishning zamonaviy bosqichi

XXI asrda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim raqamli texnologiyalar, o‘yin texnikasi va xalqaro ta’lim amaliyotlari integratsiyasi tufayli yangi rivojlanishga erishdi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga e’tibor kuchaymoqda. Ushbu bosqich, shuningdek, inklyuziv ta’limga e’tiborni kuchaytirish va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash bilan tavsiflanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’limning rivojlanishining tarixiy tahlili uning bolaning shaxsini shakllantirish, maktabga tayyorgarlik va ijtimoiylashuvdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu ta’lim sohasining evolyutsiyasi jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari, ilmiy-pedagogik qarashlari va texnologik rivojlanishidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Olga Dmitrievna Apurinaning “Bolalarning maktabda o‘qishga tayyorligiga qo‘shimcha ta’lim xizmatlarining ta’sirining tashkiliy-pedagogik shartlari (“Bolalar bog‘chasi – maktab” majmuasi misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasida qo‘shimcha xizmatlarni joriy etishning ahamiyati va samaradorligi ko‘rib chiqiladi. maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarni maktabga tayyorlash darajasini oshirish. Tadqiqotda maktabga borish arafasida bolaning yanada chuqurroq va har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan tashkiliy-pedagogik sharoitlarning muhimligi ta’kidlangan. Muallif qo‘shimcha ta’lim xizmatlari, jumladan, turli to‘garaklar, bo‘limlar va individual darslar bolalarning ijtimoiy moslashuviga, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, jismoniy rivojlanishiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishini batafsil tahlil qiladi. Apurina O.D. bolalarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar bog‘chalarida qo‘shimcha xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar beradi, bu muallifning fikriga ko‘ra, maktab ta’limiga muvaffaqiyatli tayyorgarlikning asosiy omilidir. Ushbu tadqiqot maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish orqali bolalarni maktabga tayyorlash sifatini oshirishga intilayotgan ta’lim dasturlari va usullarini ishlab chiquvchilar uchun qimmatli tushunchalar berib, pedagogika faniga katta hissa qo‘shadi.

Ekaterina Yuryevna Smirnovaning "Sankt-Peterburg misolida umumiy va maktabgacha ta’lim xizmatlari tizimini rivojlantirishni boshqarish" dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarini boshqarishga kompleks yondashuvning ahamiyati batafsil ko‘rib chiqiladi. Bolalarni maktabga tayyorlash sifatini oshirish vositasi sifatida qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini joriy etish va moslashtirish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Muallif maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarkibiga qo‘shimcha ta’lim dasturlarini integratsiyalashgan holda bolalarni maktabga chuqurroq va har tomonlama tayyorlashga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhimligiga e’tibor qaratadi. Ishda, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlarining qulayligi va sifatini oshirishga qaratilgan boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Smirnova E.Yu tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari. qo‘shimcha ta’lim xizmatlari turlarini kengaytirish va sifatini oshirishga qaratilgan maktabgacha ta’limni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Lyubov Nikolayevna Buylovaning "Zamonaviy Rossiyada bolalarning qo‘shimcha ta’limini shakllantirish va rivojlantirishning tarixiy konteksti" nomli ilmiy ishi rus ta’lim tizimi kontekstida bolalarning qo‘shimcha ta’lim tizimini tahlil qilish va rivojlantirishga bag‘ishlangan monografiyadir. Ishning asosiy yo‘nalishi ushbu tizimning shakllanishi va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

evolyutsiyasi tarixiga, uning o‘quv jarayonidagi roliga va bolaning shaxsiyatining rivojlanishiga ta’siriga qaratilgan. Muallif zamonaviy ta’lim sohasidagi ahamiyatini ta’kidlab, qo‘shimcha ta’lim tizimiga qiziqishni rivojlantirishning yangi bosqichiga e’tibor qaratadi. Qo‘shimcha ta’limni yaratish va rivojlantirishning tarixiy jihatlari, uning maktabdan tashqari ta’lim bilan aloqasi va Rossiya federatsiyasi hukumati tomonidan qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qo‘shgan hissasi ko‘rib chiqiladi. "Bolalarning qo‘shimcha ta’limi" atamasini, uning ta’lim tizimidagi o‘rni va rolini, shuningdek, Rossiya ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida qo‘shimcha ta’limni rivojlantirish muammolari va istiqbollarini tushunishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Monografiya qo‘shimcha ta’limni aniqlashning turli yondashuvlarini tahlil qilishni, zamonaviy olimlar va amaliyotchilarning me’yoriy-huquqiy bazasini va tajribasini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Buylova qo‘shimcha ta’lim tushunchasining ko‘p qirraliligi va ko‘p qirraliligini ta’kidlaydi, uni talqin qilishdagi qiyinchiliklarni va uning mohiyati va tuzilishini aniqlash uchun chuqur tahlil zarurligini ko‘rsatadi. Muallif ijtimoiy va ilmiy nutqda "bolalarning qo‘shimcha ta’limi" tushunchasining beqarorligiga e’tibor qaratadi, ilmiy va amaliy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun uni tahlil qilish va aniq aniqlash zarurligini ta’kidlaydi. Asarda qo‘shimcha ta’lim fenomenini aniqlashga kontseptual yondashuvlar va uning bir nechta talqinlari keltirilgan, bu uning tuzilishi va idrok etishidagi qiyinchiliklarni ko‘rsatadi.

Monografiyaning mazmuni uchta asosiy bobga bo‘lingan:

1. Rossiyada bolalar uchun qo‘shimcha ta’limning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy konteksti.

2. Bolalar uchun qo‘shimcha ta’limning hodisa sifatida ko‘p qirraliligi va uning tushunchalarining noaniqligi.

3. Rossiya ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida bolalar uchun qo‘shimcha ta’limni rivojlantirishning zamonaviy muammolari.

Muallif ushbu tadqiqot tadqiqotchilar, ma’murlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va amaliyotchilarni bolalar uchun qo‘shimcha ta’limning muhim xususiyatlari va imkoniyatlariga yaxshiroq yo‘naltirishga, ularga uning imkoniyatlarini har tomonlama tushunishga yordam beradi, deb umid qiladi.

Kostin Aleksandr Konstantinovich ilmiy ishida mintaqaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi sharoitida bolalarning qo‘shimcha ta’lim tizimini o‘rganadi. Muallif zamonaviy jamiyatda ijtimoiylashuv, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va bola shaxsini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qo‘shimcha ta’limning dolzarbligini ta’kidlaydi. Rossiyada qo‘shimcha ta’lim tizimining rivojlanishini va uning mintaqaviy ijtimoiy-madaniy makon uchun ahamiyatini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqot zamonaviy qo‘shimcha ta’lim tizimining muammolari va qarama-qarshiliklarini ochib beradi, masalan, mintaqaviy qo‘shimcha ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilmiy asoslashning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va ta’lim xizmatlariga talabning ortishi. Kostin mintaqaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga muvofiq qo‘shimcha ta’limning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

samarali ishlashi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan mintaqaviy qo‘shimcha ta’lim tizimining integral-prognostik modelini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Muallif qo‘shimcha ta’lim tizimining tarixiy rivojlanishini tahlil qilish, uning ijtimoiy-madaniy imkoniyatlarini aniqlash, qo‘shimcha ta’limning mintaqaviy tizimi modelini ishlab chiqish va uning rivojlanishini ta’minlaydigan tashkiliy va pedagogik sharoitlarni aniqlashga qaratilgan bir qator vazifalarni taklif etadi. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, bolalarning qo‘shimcha ta’limining mintaqaviy tizimining sifatli ishlashi va rivojlanishi asosiy va qo‘shimcha ta’limning o‘zaro ta’sirini ta’minlash, qo‘shimcha ta’limning o‘zgaruvchan modellarini ishlab chiqish, mintaqaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olish va tizim faoliyatini monitoring qilish bilan mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Апурина Ольга Дмитриевна. Организационно-педагогические условия влияния дополнительных образовательных услуг на готовность детей к обучению в школе (На примере комплекса "детский сад — школа") : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 : Ставрополь, 2003 253 с. РГБ ОД, 61:03-13/2129-7
2. Смирнова Екатерина Юрьевна. Управление развитием системы услуг общего и дошкольного образования : на примере г. Санкт-Петербурга : диссертация ... кандидата экономических наук : 08.00.05. — Санкт-Петербург, 2007. — 149 с. : ил. РГБ ОД, 61:07-8/3008
3. Буйлова, Любовь Николаевна. Исторический контекст становления и пути развития дополнительного образования детей в современной России / Л.Н. Буйлова. – Москва: ООО "Новое образование", 2013. – 130 с. (Библиотечка для учреждений дополнительного образования детей; №1 2013).
4. https://www.elibrary.ru/download/elibrary_20886078_36445138.pdf

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zulfiqorov Rustam Raxmiddinovich**, mustaqil izlanuvchisi, [**Зулфикоров Рустам Рахмиддинович**, независимый исследователь], [**Rustam R. Zulfiqorov**, researcher]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent shaxar chilonzor tumani qatortol 38A uy, Toshkent shaxridagi Puchon universiteti [адрес: Узбекистан, город Ташкент Чиланзарский район катартол 38а дом, университет Пучон в Ташкенте], [address: Uzbekistan, Tashkent city Chilanzar district katartal 38 and the house, Puchon University in Tashkent].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

BO'LAJAK MAKTAB BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA DARSLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH YO'LLARI

© S.T. Raxmatova[1]✉, N.M.Choriyeva[2]✉
[1,2]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada bo'lajak biologiya o'qituvchilari darslarida fanni o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish bo'yicha tajribalar, uning didaktik xususiyatlari va ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

MAQSAD: amaliyotda o'quv faoliyatining yuqori natijadorlikka ega modellari chegaralangan holda tarqalgan. Ularni ta'lim muassasalarining kundalik faoliyatiga joriy etish ishi amaldagi mavjud me'yorlar tufayli juda ham qiyin kechmoqda. Mazkur holatni tuzatish uchun o'qitishning amaldagi modelini kengaytirish talab etiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: mazkur tadqiqotda bo'lajak maktab biologiya o o'qituvchilarning raqamli ta'lim muhitida darslarini tashkil etish yo'llari jarayonini o'rganishda zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarga asoslangan metodologik usullar qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ta'limni axborotlashtirish va raqamlashtirish muammosi sohasidagi ilmiy yondashuvlar tahlili, raqamli texnologiyalar mohiyati faqatgina o'zlashtirish vositasi sifatida yondashilmasligini ta'kidlaydi. Axborot asrida ta'limni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirish uchun maxsus muhit yaratish –ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar beradi, o'qitishning mobilligi (o'qitish vaqti va joyini variativligi), butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish imkoniyati, tinglovchilarga individual ta'lim muhitini loyihalash, kasbiy qayta tayyorlash, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va qo'llash, foydalanish imkoniyatini beradi.

XULOSA: ta'limning raqamli transformatsiyasi jarayonida biologiya o'qituvchilarning kasbiy rivojlantirishning muhim omili – bu o'qituvchilarning raqamli ta'lim muhitida uzluksiz kasbiy rivojlantirish modelini takomillashtirish, pedagogik faoliyatni tashkil etishning zamonaviy metodikalari bilan tanishish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: axborot texnologiya, elektron resurslar, elektron darsliklar, elektron ta"lim, kasbiy kompetentsiya, interaktiv ta'lim vositalari, multimedia, elektron test.

Iqtibos uchun: Raxmatova S.T., Choriyeva N.M. Bo'lajak maktab biologiya o'qituvchilarining raqamli ta'lim muhitida darslarini mazmunli tashkil etish yo'llari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.155-163.

СПОСОБЫ ОСМЫСЛЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ БУДУЩИХ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

© С.Т. Рахматова[2]✉, Н.М.Чориева[1]✉
[1,2]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье представлена информация об опыте использования средств информационных технологий при преподавании естественных наук на занятиях будущих учителей биологии, их дидактических особенностях и методике использования в учебном процессе.

ЦЕЛЬ: на практике модели учебной деятельности с высокой результативностью разбросаны ограниченно. Работа по внедрению их в повседневную деятельность образовательных учреждений затруднена из-за действующих действующих норм. Чтобы исправить эту ситуацию, необходимо расширить существующую модель обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании использованы методологические приемы, основанные на современных педагогических и психологических подходах к изучению процесса организации уроков будущих школьных учителей биологии о в цифровой образовательной среде.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ научных подходов в области проблемы информатизации и цифровизации образования подчеркивает, что сущность цифровых технологий рассматривается не только как средство освоения. Создание специальной среды для осуществления обучения с использованием цифровых технологий в информационный век дает новые возможности для осуществления образовательной деятельности, мобильность обучения (вариативность времени и места обучения), возможность непрерывного обучения на протяжении всей жизни, позволяет обучающимся разрабатывать индивидуальную образовательную среду, профессиональную переподготовку, разрабатывать и применять ресурсы электронного обучения, предоставлять доступ к дает.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в процессе цифровой трансформации образования важным фактором профессионального развития педагогов является биология, которая заключается в совершенствовании модели непрерывного профессионального развития педагогов в цифровой образовательной среде, в предоставлении им возможности ознакомиться с современными методиками организации педагогической деятельности.

Ключевые слова: информационные технологии, электронные ресурсы, электронные учебники, электронное образование, профессиональная компетентность, интерактивные средства обучения, мультимедиа, электронный тест.

Для цитирования: С.Т. Рахматова, Н.М.Чориева. Способы осмысленной организации уроков будущих школьных учителей биологии в цифровой образовательной среде. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 155-163.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

WAYS TO MEANINGFULLY ORGANIZE THE LESSONS OF FUTURE SCHOOL BIOLOGY TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

© Salima T. Raxmatova[2]✉, Nargiza M. Choriyeva[1]✉
[1,2]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article provides information on the experiences of the use of information technology tools in the teaching of science in the classes of future biology teachers, its didactic features and the methodology of its use in the educational process.

AIM: in practice, models of high-performance learning activities are scattered to a limited extent. Work on their implementation in the daily activities of educational institutions is difficult due to the current regulations. To remedy this situation, it is necessary to expand the existing learning model.

MATERIALS AND METHODS: this study uses methodological techniques based on modern pedagogical and psychological approaches to studying the process of organizing lessons for future school teachers of biology in a digital educational environment.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis of scientific approaches in the field of informatization and digitalization of education emphasizes that the essence of digital technologies is considered not only as a means of mastering. The creation of a special environment for learning using digital technologies in the information age provides new opportunities for educational activities, learning mobility (variability of time and place of study), the possibility of lifelong learning, allows students to develop an individual educational environment, professional retraining, develop and apply e-learning resources, provide access to.

CONCLUSION: in the process of digital transformation of education, biology is an important factor in the professional development of teachers, which consists in improving the model of continuous professional development of teachers in the digital educational environment, providing them with the opportunity to familiarize themselves with modern methods of organizing pedagogical activities.

Key words: information technology, electronic resources, electronic textbooks, electronic education, professional competence, interactive educational tools, multimedia, electronic test.

For citation: Salima T. Raxmatova**,** Nargiza M. Choriyeva. (2024) 'Ways to meaningfully organize the lessons of future school biology teachers in a digital educational environment', Inter education & global study, (10), pp. 155-163. (In Uzbek).

O'tgan yarim asr ichida raqamli ta'lim sifat jihatidan salmoqli darajada o'zgardi. Hozirda har bir smartfoni bor kishi o'sha davr olimlari orzu qila olmaydigan hisob–kitob resursariga egadirlar. Raqamli ta'lim laboratoriya chegarasidan tashqariga chiqqan holda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ommaviy tarzda maktab o‘quvchilari foydalana oladigan kundalik vositaga aylandi, ularning ta’lim jarayonini takomillashtirish borasidagi salohiyati anchayin o‘sdi. Texnik taraqqiyot kompyuter ta’limi tashabbuskorlarida yangi orzularni uyg‘otdi.

Biroq yangi texnik imkoniyatlar o‘zlarining jozibadorligiga qaramasdan maktab o‘quvchilarining ta’limiy yutuqlariga ta’siri sezilarli darajada kam. Masalan, PISA xalqaro tadqiqotlar ma’lumotiga ko‘ra, maktablarning kompyuterlar bilan jihozlanish darajasi o‘quv faoliyati samaradorligi bilan aloqadorligi juda hama sust ekanligi aniqlandi (2015). Kompyuterlardan cheklangan holda foydalanish ta’limiy natijadorlikni yaxshilaydi, biroq o‘qituvchi ish faoliyatiga RTni majburiy ravishda kiritishga doir urinishlar o‘quvchilar bilim darajasini pasayishiga olib kelishi mumkin. RTdan foydalanish orqali o‘quvchilar bilim darajasini oshirishga erishish faqatgina ayrim hollarda sodir bo‘lishi mumkin. Mazkur xulosa pedagogik innovatika Xalqaro tadqiqotlar xulosalari bilan mos keladi. U bir necha mamlakatlarda, jumladan Rossiyada ham o‘tkazildi va RT o‘quv faoliyatining aynan yangicha yuqori samaradorlikka ega metodlarni qo‘llab quvvatlash uchun ham yaxshigina vosita sifatida xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatdi. O‘quvchilarda 21-asr kompetensiyalari muvaffaqiyatli shakllanishi uchun ular o‘zlarining o‘quv faoliyatlarini amalga oshirishlari hamda ish natijalari – esse, ijodiy ishlar, prezentatsiyalar tayyorlash, veb–saytlar va texnologik qurilmalar yaratish va hokazolarni namoyish etishlari uchun RTlardan unumli foydalanishlari lozim.

Ta’limning raqamli transformasiyasi jarayonida sodir bo‘ladigan eng muhim jihati – bu kompyuter sinflarini tashkil etish va Internetga ulashdan iborat emas, balki ta’lim muassasalari ish faoliyatining yangi modelini shakllantirish va tarqatishdan iborat. Ularning negizida quyidagilarning sintezi yotadi: raqamli ta’lim muhitida muvaffaqiyatli joriy qilinadigan yangi yuksak natijaviy pedagogik amaliyotlar va RTlardan foydalanishga tayanadi; pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi; yangi raqamli vositalar, axborot manbalari va xizmatlari; zarur o‘zgarishlarni (ta’lim muassasalari, rahbarlari va ta’sischilarini ota–onalar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, jamoada muvofiq iqlimni shakllantirish, pedagoglarni yangi rollarni va ish metodlarini o‘zlashtirishlari jarayonida qo‘llab quvvatlanishini hisobga olgan holda) amalga oshirish uchun tashkiliy va infratuzilmaviy sharoitlar yaratish.

Malaka oshirish tizimida ta’limning raqamli transformatsiyasi mazmun–mohiyati zarur ta’limiy natijalarga erishish hamda RTlardan foydalanish asosida ta’lim jarayonini indiivduallashtirishga intilishdan iborat. Raqamli texnologiyalar chindan ham yangi pedagogik amaliyotlardan (o‘quv faoliyatini shakllantirish va o‘tkazishning yangi modellari) foydalanishga yordam beradi.


Bunday turdagi ishlar aksariyat rivojlangan mamlakatlarda keng qamrovli davlat dasturlari doirasida amalga oshirib kelinmoqda. Garchi uni hamma vaqt ham ta’limning raqamli transformatsiyasi deb nomlanmasada, u mazmun–mohiyati jihatidan radikal mazmunga ega bo‘lib, ta’lim jarayonini tashkil etishni o‘zgartirish bilan bog‘liq. Masalan, besh yil oldin AQShda Race to the Top prezidentlik dasturi doirasida yuzdan ortiq maktab okruglari o‘zlarining faoliyati natijadorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

foydalanish orqali ta’lim jarayonini tashkil etish natijasiga qaratilgan individuallikni o‘zlashtirish uchun 350 mln dollardan ko‘proq mablag‘ olishgan. Mazkur ish olingan natijalarni baholashga ko‘maklashovchi pedagogik tadqiqotlar orqali kuzatildi. Loyiha juda ham muvaffaqiyatli amalga oshgan edi. Yakunida ta’lim muassasalarini raqamli transformatsiyalash yuzasidan amaliy tajriba orttirildi, yuzaga kelgan muammolar aniqlandi.

Namoyish maydonchalari tashkil etildi va unda ta’lim sohasidagi xodimlar mazkur ish jarayoni bilan tanishish, uning natijalariga baho berish hamda o‘zlarining savollariga javob olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ta’lim jarayonini individual tarzda shakllantirishni qo‘llab quvvatlovchi axborot tizimlari va raqamli platformalar rivojlanib takomillashib bormoqda. Raqamli o‘quv–metodik materiallar va vositalar bozori kengaydi, ularning sifati va amaliy ahamiyati esa, oshdi. Metodik yo‘riqnomalar tayyorlandi hamda mazkur ishni rejalashtirish va amalga oshirishda tashkiliy–metodik jihatdan ko‘maklashishga tayyor bo‘lgan markazlar tarmog‘i kengaydi. Bularning barchasi ta’lim jarayonining individuallashgan shaklini keng tarqalishi shart–sharoitlar yaratmoqda. Ta’kidlash joizki, malaka oshirish markazlarida fan modullari asosida kurslar faoliyati jarayonini tashkil etishning maqsad va vazifalari hamda mazmuni mashg‘ulot shakli turlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘qitish tarkibi mazkur shakl turlarini belgilab beradi. Dasturni amalga oshirishning samaradorligi maqsad va vazifalarning qay darajada to‘g‘ri qo‘yilganligiga bog‘liq. Biologiya kurslari malaka oshirish tizimining to‘liq funksional jarayonini yaratish uchun ilmiy-metodik va tashkiliy-texnologik tamoyillarni ishlab chiqish hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni ta’minlash lozim (1-rasm).



1-rasm. Malaka oshirish kurslarida o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish tamoyillari.

Albatta, uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi orqali malaka oshirish kasbiy rivojlanishni tashkil etishning yagona shakli emas, ishdan ajralgan holda bevosita malaka oshirish ta’lim muassasalarida an’anaviy tarzda yoki ishdan ajralmagan holda (o‘quvchilar ta’tillari, o‘qituvchilarning metodika kunlari va darsdan bo‘sh vaqtlarida) tashkil qilingan malaka

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

oshirish kurslarida o‘qish imkoniyatlari ham saqlab qolingan. Ushbu malaka oshirish kurslari ham 30–36 soatlik dasturlar asosida tashkil etilib, belgilangan kreditlarni to‘plagan xodimlarga malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikatlar taqdim etiladi. Mazkur sertifikatlarni ham shakllantirish va xodimlarga taqdim etish elektron platforma orqali amalga oshiriladi.

Yangi raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot kadrlar tayyorlash tizimi oldiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Bugungi raqamli avlod pedagoglarning kasbiy rivojlantirish sohasida raqamli transformasiya sharoitlarga moslashtirish, raqamli metodikalarni egallash ehtiyojini yuzaga keltirdi. Bir vaqtning o‘zida ijtimoiy–siyosiy hayotimizda “raqamli texnologiyalari” (RT) termini keng o‘rin egallab bormoqda. Hozirgi vaqtda u iqtisodiyot va ta’limni raqamli transformatsiyalash dasturlariga muvofiq ravishda maxsus jarangdorlikka ega bo‘lmoqda va barchaning e’tiborini tortmoqda[1,2].

Misol tariqasida Facebook korproratsiyasi tomonidan qo‘llab–quvvatlangan Summit Learning loyihasi xizmat qilishi mumkin. Mazkur loyiha doirasida hozirgi vaqtda AQShdagi bir necha yuzlab umumta’lim maktablar Kaliforniyada jamlangan individuallashgan ta’limga o‘tish tajribasiga o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Facebook mutaxassislari mazkur maktablar individuallashgan ta’limdan foydalanishari uchun portal yaratishga ko‘maklashdilar[6,7,11].

Hozirgi kunda yangi raqamli ta’lim resurslari tobora ko‘payib bormoqda. Ulardan foydalanish darsga tayyorgarlik ko‘rish vaqtini tejash, yangi mavzuni to‘liq tushunadigan materialni tanlash, tekshirish va mustahkamlashni diversifikatsiya qilish imkonini beradi [15, 16].


Extreme Networks co‘rovnomasiga ko‘ra, 22% o‘qituvchilar o‘zlarining maktablarida individuallashgan ta’lim modeli bo‘yicha faoliyat yuritganlar, yana 20%i yaqin ikki yil ichida mazkur modelga o‘tishni rejalashtirganlar, 12%i undan foydalanishni istamadi (2–rasm). o‘zlashtirilgan bo‘lib, uni aksariyat kishilar o‘zlashtirish arafasida.

Atigi 2% gina kishi individuallashgan ta’limni yaqin yillarda o‘tib ketadigan navbatdagi moda deb kutishdi. Shunday qilib, innovatsiyaning diffuzli tarqalish modeliga ko‘ra, (2010) individuallashgan ta’lim “novatorlar” tomonidan allaqachon Yevropa mamlakatlarida ham individuallashgan ta’lim “novatorlar” tomonidan o‘zlashtirilgan (2011), yetaks hi ekspertlar esa, uning kelajagi porloq ekanligiga ishonch bildirganlar. Biroq uning keng tarqalishi endi boshlanmoqda.

Asosiy rolni maktablarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ishlariga ko‘maklashish uchun yangi vositaning sinovli versiyasini ishga tushirgan Yevropa komisssiyasi o‘z bo‘yniga oldi (2017) [12. 28–54-b]. Raqamli texnologiyalar ta’limni yaxshilash uchun qator imkoniyatlar eshigini ochadi. Biroq, ularning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi oson kechmaydi. Ta’lim muassasalarini RTlar bilan ta’minlash ta’lim natijalarining salmoqli darajada oshib ketishiga olib kelmaydi. Yangi SELFIE vositasi pedagogik jamoaga RTlar tomonidan qo‘llab–quvvatlangan ta’lim jarayonini shakllantirish borasidagi o‘zgarishlar ta’lim faoliyati qay darajada yaxshilanishiga guvoh bo‘lishiga yordam beradi. Mazkur vosita maktab faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha aniq

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

qadamlar tashlash rejasini tuzish hamda o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun RT qulayliklaridan maksimal darajada foydalanish imkoniyatini beradi.



2—rasm. AQShda individuallashgan ta’lim bilan tanish bo‘lgan ta’lim xodimlari ulushi (%).

Bizning mamlakatimizda ta’lim jarayonini individuallashtirish va natijadorlik asosida tashkil etish imkoniyatlarini amaliy jihatdan o‘rganish hozircha atigi ayrim tashabbuskorlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Mavjud bo‘lgan ishlar ham barmoq bilan sanagulik bo‘lib, ayrim pedagoglarning o‘quv faoliyati natijadorligin oshirishga oid intilishlariga tayanadi. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, u davomli va mashshaqatli jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun rivojlangan raqamli muhit, pedagogik jamoaning o‘zgarishlarga doimiy ravishda tayyor bo‘lishlari, o‘quvchilarning shayligi, ota–onalar va mahalliy hamjamiyatning har tomonlama qo‘llab–quvvatlashlari lozim.

Raqamli iqtisodiyot sharoitlariga tayyor bo‘lish uchun har bir tinglovchi nafaqat bilim yig‘ib borishi, ta’lim olish layoqatini rivojlantirib borishi va 21–asrning boshqa kompetensiyalarini egallab borishi kerak, balki mazkur oson bo‘lmagan ishdan qoniqishi va bahra olishi ham lozim. Va bu borada ta’lim jarayonini an’anaviy shaklda tashkil etish yetarli bo‘lmay qoladi va individuallashgan natijador ta’lim (INT) almashishi lozim. U tinglovchilarda to‘laqonli o‘quv faoliyatini shakllantirish va kasbiy rivojlantirish uchun qulay shart–sharoitlar yaratib beradi, o‘qitishning faol metodlaridan maksimal darajada foydalanish hamda 21–asr kompetensiyalarini shakllantirish jarayonlarini yengillashtiradi, kutilgan ta’limiy natijalarga erishishni kafolatlaydi. O‘quv jarayoni ongli ijodiy ishga aylanadi, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq bilan uyg‘unlashib ketadi, o‘zgarishlarga shaylik hamda global chaqiriqlarni (masalalarni) anglash va idrok etishga olib keladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

RT va raqamli vositalar rivojlanishi, ulardan ta'lim jarayonini boshqarishda hamda cheklanmagan, son–sanoqsiz raqamli o'quv va metodik materiallardan foydalanish, moslashuvchan mexanizmlar va raqamli o'quv muhitidan foydalanish, ijodkorlik uchun maydonni kengaytirish – bularning hammasi ta'lim muassasalarining tabiiy ravishda INT modeliga o'tishini ta'minlaydi.Bunda aniq ta'limiy masalalarni yecha olish imkoniyatini beruvchi tayyor raqamli o'quv materiallar kutubxonasidan foydalanish pedagog uchun kerakli materiallarni tanlab olish, sayoz materiallarni yaxshisidan ajratib olish, aniq vaziyatlarda ularning samaradorligini oshirish maqsadida o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, zarurat bo'lganda o'zlarining raqamli resurslarini ishlab chiqish imkoniyatidan mahrum etmaydi.

Raqamli ta'lim muhiti har bir tinglovchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish va nazorat qilishga yordam beradi. Natijada, uning uzluksiz kasbiy rivojlanish borasidagi mas'uliyati oshadi. Pedagogik dizayn talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan multimediyali o'quv materiallaridan keng foydalanish pedagoglarning tashkiliy–pedagogik va tarbiyaviy faoliyat jarayonida "o'quv material mazmunini yetkazib berish" mas'uliyatini ancha kamaytiradi.

Raqamli ta'lim muhitida biologiya o'qituvchilarning malaka oshirish tizimi Milliy dastur talablariga muvofiq hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalariga muvofiq xalqaro talablar asosida takomillashtirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Артюхиной.А.И. Педагогика и методика преподавания в высшей школе: учебно–методическое пособие/ Под ред– Волгоград, 2016. –246с.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. doktori. diss. – Toshkent: 2007. – 250 b.
3. Begimkulov U.Sh., Djuraev R.X., Icyanov R.G., Sharipov Sh.C., Adashboev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariyaci va amaliyot. –Toshkent: 2011. – 75 b.
4. Бабешко В.Н. Система оценки качества программных комплексов для дистанционного обучения. - М.: ЦДО МИЭМ, 2004. - 210 с.
5. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2002. 352 с.
6. Sh..S.Sharipov, M.Aripov, U.Sh.Begimqulov va boshq. Bilim olishnning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti" Monografiya. "Fan nashriyoti" Toshkent 2011. 72-b.
7. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. М.: Изд-во МОО ВПП YuНЕСКО «Информация для всех», 2007. 616 с

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

8. G.S.Ergasheva, M. Fayzieva. Biologiyada axborot-kommunikatsion texnologiyalar. Elektron darslik. № DGU 03058. Toshkent 24.02.2015 y.
9. Федоров А.В. Медиаобразование: творческие задания для студентов и школьников//Инновация в образовании. 2006. № 4. С.175-228
10. G.S.Ergasheva, M. Fayzieva. Biologiyada axborot-kommunikatsion texnologiyalar. Elektron darslik. № DGU 03058. Toshkent 24.02.2015 y.
11. Raxmatova S.T. Raqamli ta'lim muhitida biologiya o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish (malaka oshirish tizimi misolida). ped. fal.fan. dok. diss. - Toshkent: TDPU, 2023. -43 b.
12. Rakhmatova S.T. Problems of professional and methodical training of biology teachers in the system of professional development / The 11th International scientific and practical conference "Science, innovations and education: problems and prospects". – Tokyo, Japan, 2022. June 1-3. CPN Publishing Group. – R. 450-454.
13. Raxmatova S.T. Raqamli ta'lim muhitida biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini orttirish mazmuni va sharoitlari // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio' ilmiy-metodikalıq jurnali. – Qaraqalpaq, 2020. – № 6/1. – B. 30-34 (13.00.00. № 20).
14. Raxmatova S.T. Malaka oshirish tizimida biologiya o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini takomillashtirish –dolzarb pedagogik muammo sifatida // "Uzluksiz ta'lim" jurnali. Maxsus son. – Toshkent, 2021. – B. 109-113 (13.00.00. № 15).
15. Тогаймурадовна Р.С. Роль иммерсивных технологий в совершенствовании профессионально-методической подготовки учителей биологии //Техасский журнал мультидисциплинарных исследований. – 2024. – Т. 28. – С. 1-3.
16. Раҳматова С. Биология фан ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятга методик тайёргарлигини таъминлашнинг айрим масалалари //Academic research in educational sciences. – 2021Т. 2. – №. 11. – С.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Raxmatova Salima Togaymuradovna**, "Kimyo-biologiya" kafedrasi p.f.f.d. (PhD), [**Рахматова Салима Тогаймурадовна,** профессор кафедры **"**Химио-биология" **(PhD)**], [**Salima T. Raxmatova**, PhD, Professor of the Department of Chemical Biology]; manzil: O'zbekiston, Termiz tumani, «Yangiobod» MFY, At-Termiziy ko'chasi 1 A-uy Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP «Yangiabad», At-Termizy street 1 A-uy Postal code: 190111].

✉**Choriyeva Nargiza Mamarajabovna**, "Kimyo-biologiya" kafedrasi p.f.f.d. (PhD), [**Чориева Наргиза Мамараджабовна,** профессор кафедры **"**Химио-биология" **(PhD)**], [**Nargiza M. Choriyeva**, PhD, Professor of the Department of Chemical Biology]; manzil: O'zbekiston, Termiz tumani, «Yangiobod» MFY, At-Termiziy ko'chasi 1 A-uy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Pochta index: 190111 [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФУ «Янгиабад», улица Ат-Термизы 1 А-уй Почтовый индекс: 190111], [address: Uzbekistan, Termez district, MFP «Yangiabad», At-Termizy street 1 A-uy Postal code: 190111].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

BIOLOGIYA, FIZIKA VA MEDIA VOSITALAR INTEGRATSIYASINING SAMARADORLIGI

© G.I. G‘aniyeva[1]✉
[1]Termiz Davlat Universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni samarali amalga oshirish o‘quvchilarni yangi o‘quv materiallarini qabul qilishga tayyorlash, fanlararo, mavzulararo bog‘lanishni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida interfaol ta’lim jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish yo‘llari, afzalliklari, hamda yutuqlari, pedagogik tajriba-sinov natijalari, haqida ma’lumotlar berilgan.

MAQSAD: bugungi globallashuv sharoitida umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida biologiya fanlarni o‘qitishda mediata’limdan foydalanish masalasi muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Zamonaviy dasturlar, o‘qitish usullari, metodlari, telekommunikatsiya vositalari hamda OAV jadal tezlikda rivojlanmoqda. Shu sababli ham biologiyani fizika bilan media vositasida o‘qitishdagi metodika, umuman olganda, barcha o‘qitish metodikalar sohasidagi mediama’lumotlar, dasturiy–pedagogik vositalar va multimediali o‘quv qo‘llanmalarni ta’limga integratsiya qilishning didaktik talablarini aniqlash, biologiya fanlarni o‘qitishda mediata’lim va axborot texnologiyalarini qo‘llash usullarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

MATERIALLAR VA METODLAR: biologiyani fizika bilan bog‘lab o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanib tashkil etilishi quyidagi bir nechta xulosalarning asosli ekanligini ko‘rsatadi: o‘quvchilarga biologiya fani materiallarini puxta o‘zlashtirishlariga o‘z shaxsiy tajribalari asosida yondashishlariga imkon beradi hamda talab etilgan bilim, ko‘nikma va malakalar yetarli darajada o‘zlashtiriladi; pedagog tomonidan o‘quvchilarning ta’lim olish vositalarini faol qo‘llab-quvvatlay olinsa, ular fanni juda yaxshi o‘zlashtiradilar; pedagog o‘quvchilarni imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bilimlarni egallashning samarali vositalarini to‘g‘ri tanlay olsa, shuningdek o‘quvchilarni fikri garchi o‘zlarining qarashlariga to‘g‘ri kelmasada, ularni inobatga olsa, o‘quvchilar fanni puxta o‘zlashtiradilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot ishida o‘tkazilgan PTSI ning yakunlariga ko‘ra, VII sinflarda biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishda tematika bilan mediata’limni bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar qarashiga oid kompetensiyalari quyidagicha shakllandi: ilmiy, hissiy va madaniy yondashuvlar birligi ta’minlandi; o‘quvchilarning mediasavodxonlik ijobiy yo‘nalishlari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

kuchaydi;tabiatga bo‘lgan hissiy munosabatni uyg‘otish va amaliy faoliyatga jalb etish vositasida bilimlar barqarorligi, biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy mediasavodxonligi shakllanishiga erishildi.

XULOSA: biologiyani fizika bilan bog‘lab o‘qitishda media vositalaridan foydalanishda asosiy e’tibor ilmiy adabiyotlar bilan ishlash va internetda axborot izlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda mustaqillik va manbalarni baholash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: integratsiya, media vositalar, fizika, biologiya, telekommunikatsiya, mediata’lim, interfaol.

Iqtibos uchun: G‘aniyeva G.I. Biologiya, fizika va media vositalar integratsiyasining samaradorligi. // Inter education & global study. 2024. №10 B.165-173.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕГРАЦИИ БИОЛОГИИ, ФИЗИКИ И МЕДИА

© Г.И. Ганиева[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается эффективная реализация межпредметной коммуникации в ходе урока, подготовка учащихся к восприятию новых учебных материалов, реализация межпредметных и межтематических связей, создание проблемных ситуаций, интерактивный образовательный процесс на основе средств массовой информации. соединяя биологию с физикой, содержит полную информацию о способах реализации, преимуществах и достижениях, результатах педагогического эксперимента-проверки.

ЦЕЛЬ: в условиях сегодняшней глобализации вопрос использования медиаобразования в преподавании биологических наук в старших классах общеобразовательных школ является важным и актуальным. Современные программы, методы обучения, методы, телекоммуникации, а также средства массовой информации развиваются быстрыми темпами. По этой причине методика преподавания биологии с физикой в средствах массовой информации в целом определяет дидактические требования интеграции в образование медиаинформации, программно–педагогических средств и мультимедийных средств обучения во всех областях методики обучения, анализ методов применения медиаобразования и информационных технологий в преподавании биологических наук.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: организация биологии с использованием интерактивных методов в процессе обучения, связанного с физикой,показывает обоснованность следующих нескольких выводов: позволяет учащимся подходить к усвоению материалов биологической науки на основе собственного личного опыта и адекватно усваивать необходимые знания, умения и навыки; при активной поддержке педагогом средств обучения учащихся, они очень хорошо овладевают

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

наукой; педагог может грамотно подбирать эффективные средства приобретения знаний, исходя из возможностей учащихся, а также учитывать мнение учащихся, даже если оно не совпадает с их собственным видением, учащиеся усваивают предмет в совершенстве.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: по итогам проведенной исследовательской работы ПТСИ по совершенствованию методики преподавания биологии в VII классе на основе средств массовой информации, связывающих биологию с физикой, сформировались компетенции учащихся в области видения при обучении, связывающем медиаобразование с тематикой, следующим образом: обеспечено единство научного, эмоционального и культурного подходов; усилились позитивные ориентации учащихся на медиаграмотность;достигнута устойчивость знаний посредством пробуждения эмоционального отношения к природе и вовлечения в практическую деятельность, формирование научной медиаграмотности учащихся в обучении на основе медиаинструментов, связывающих биологию с физикой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: при использовании средств массовой информации в преподавании биологии в сочетании с физикой основное внимание уделяется формированию навыков работы с научной литературой и поиска информации в интернете. Этот процесс помогает учащимся развить независимость и способность оценивать ресурсы.

Ключевые слова: интеграция**,** медиа, физика, биология, телекоммуникации, медиаобразование, интерактив.

Для цитирования: Ганиева Г.И. Эффективность интеграции биологии, физики и медиа. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 165-173.

THE EFFECTIVENESS OF THE INTEGRATION OF BIOLOGY, PHYSICS AND MEDIA

© Gulrukhsor I. Ganieva[1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekista

Annotation

INTRODUCTION: this article provides information on the ways, advantages, and achievements of effective implementation of interdisciplinary connections in the lesson process, preparing students to accept new educational materials, implementing interdisciplinary and inter-thematic connections, creating problem situations, and linking biology with physics and establishing an interactive educational process based on media tools.

AIM: in the context of today's globalization, the issue of using media education in teaching biological sciences in high schools is important and relevant. Modern programs, teaching methods, methods, telecommunications, as well as mass media are developing rapidly. For this reason, the methodology of teaching biology and physics in the mass

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

media generally defines the didactic requirements for integrating media information, software and pedagogical tools and multimedia teaching tools into education in all areas of teaching methodology, analysis of methods of applying media education and information technology in teaching biological sciences.

MATERIALS AND METHODS: the organization of biology using interactive methods in the learning process related to physics shows the validity of the following several conclusions: it allows students to approach the assimilation of biological science materials based on their own personal experience and adequately assimilate the necessary knowledge, skills; with the active support of the teacher of the means of teaching students, they master science very well; A teacher can competently select effective means of acquiring knowledge based on the capabilities of students, as well as take into account the opinion of students, even if it does not coincide with their own vision, students master the subject perfectly.

DISCUSSION AND RESULTS: based on the results of the research carried out by the PTSI to improve the methodology of teaching biology in the seventh grade on the basis of mass media linking biology with physics, the competencies of students in the field of vision in teaching linking media education with the subject were formed as follows: the unity of scientific, emotional and cultural approaches was ensured; The positive orientation of students towards media literacy has increased; the sustainability of knowledge has been achieved through awakening an emotional attitude to nature and involvement in practical activities, the formation of scientific media literacy of students in teaching based on media tools linking biology with physics.

CONCLUSION: when using mass media in teaching biology in combination with physics, the main focus is on developing skills in working with scientific literature and searching for information on the Internet. This process helps students develop independence and the ability to evaluate resources.

Key words: integration, media, physics, biology, telecommunications, media education, interactive.

For citation: Gulrukhsor I. Ganieva. (2024) 'The effectiveness of the integration of biology, physics and media', Inter education & global study, (10), pp. 165-173. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tendensiyalariga muvofiq kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim-tarbiyaviy jarayonda biologiya va fizika o'quv fanlari o'rtasida fanlararo bog'lanishni media ta'lim vositalariga asoslanib amalga oshirish o'quvchilarning faktlarni tahlil qilish, hodisa va jarayonlarni o'rganishda sabab-oqibat bog'lanishlari mohiyatini tushunish, biologiya va fizika o'quv fanlari bo'yicha avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini ongli o'zlashtirishga erishishga zamin tayyorlaydi. Shuningdek, tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni kuzatish, ularning mohiyatini anglash,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

mavzuga doir muammoli savol-topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712–son farmoni [1], 2022–yil 28–yanvardagi “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60–son farmoni [2] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni samarali amalga oshirish o‘quvchilarni yangi o‘quv materiallarini qabul qilishga tayyorlash, fanlararo, mavzulararo bog‘lanishni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, shuningdek, har bir darsni rejalashtirish va ularni mohirona o‘tkazish o‘qituvchidan chuqur va puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida dars samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Akademik I.D. Zverev tabiatni muhofaza qilishning nazariy pedagogik asoslarini o‘z monografik asarlarida [8,16-19; 9,18-20] yoritib berishga uringan. I.D. Zverev qarashlarida fanlararo bog‘lanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqilligini oshiradi. Shuningdek, ularning fanlarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish bilan birga mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga katta yordam beradi. I.T. Suravegina [7,21] biologiya darslarida fanlararo bog‘lanishni qo‘llash orqali biologiyani o‘qitish jarayonini faollashtirish, o‘quvchilarning biologiya va boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishini orttirishni tadqiq qilgan. Olimaning nuqtai nazarida biologiyani boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘lamasdan o‘qitishni tasavvur qilish qiyin. Fanlararo bog‘lanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va undan mohirlik bilan foydalanish o‘quvchilarning tabiat haqidagi bilimlari tizimini shakllantirishga xizmat qiladi deb ta’kidlaydi.

Biologiyani fizika bilan bog‘lab o‘qitishda interfaol ta’lim jarayonni o‘quvchi uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasini baholash, yutuq va kamchiliklami aniqlashga ham imkoniyat yaratadi. Interfaol ta’lim jarayonining yana bir qancha afzalliklari mavjud bo‘lib, bular quyidagilar: o‘quvchilarda o‘z shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish; o‘quvchilarning o‘z qarashlarini himoya qilish; tengdoshlarining fikrini tinglay olish, ularni umumlashtirish, bildirilgan fikrlar orasidan eng to‘g‘ri, mukammal va haqiqatga yaqinlarini ajratish va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish; interfaol ta’lim metodlaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini oshirishdir.

Buning natijasida ta’lim-tarbiyaviy jarayonga mahorat bilan yondashib, ushbu jarayonni o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos holda, tashkil etish har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazishning kafolatidir [10, 135; 11,104].

Shuningdek, biologiyani fizika fani bilan bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri.

Interfaol o‘qitish usullarining ma’nosi shundan iboratki, bunda barcha o‘quvchilar bilim olish jarayoniga va o‘quv-ma’lumotlarni faol o‘zlashtirishga jalb qilishdir. Ushbu jarayonlarning internet texnologiyalari orqali samarali amalga oshirish mumkin. Unda o‘quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratiladi: o‘quv jarayonini yuqori estetik va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

emotsional bosqichga chiqaradi; differensiallashni ta'minlaydi; darsda bajarilgan ish hajmini sezilarli darajada oshiradi; bilim darajasini baholashni va nazorat qilishni takomillashtiradi; dars samaradorligini oshiradi [4; 175-180-b, 12; 112-b.].

Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida interfaol o'qitish usullaridan foydalanish, fanga oid didaktik materiallarni va elektron axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarining sifat-samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, AQSH maktablarida elektron ta'lim rivojlangan bo'lib, unda o'quvchilar masofadan turib ta'lim olish va o'zini- o'zi mustaqil ravishda tarmoq orqali onlayn standart va nostandart testlari yordamida baholash imkoniyatiga ega. Shuningdek, ota-onalari farzandlarini fanlardan o'zlashtirgan bilimlarini onlayn kuzatib, tahlil qilib borish imkoniyati yaratilgan [3,12]. AQSH ta'limi statistikasi milliy markazining ma'lumotiga ko'ra, hozirgi vaqtda 77% ta'lim muassasalari Internet tarmog'idagi axborot texnologiyalaridan keng foydalanadi.

Janubiy Koreyada maktablar uchun E-learning o'qitish tizimi yaratilgan bo'lib, hozirda undan samarali foydalanib kelinmoqda. 2005 yilda "Bir o'quvchiga 1 ta kompyuter" loyihasi amalga oshirilgan. 2013 yilda esa barcha maktablarda onlayn shaklda elektron ta'lim resurslardan foydalanish va *o'z* bilimini mustaqil ravishda baholash imkoniyati yaratilgan [5,11].

Buyuk Britaniyada maktab o'quvchilari o'quv jarayonida internet va kompyuterdan foydalanish 41% ni, Finlandiya 19 % ni, Ruminiya va Vengiyada esa 53 % dan yuqori. Ushbu davlatlaming 12-17 yoshli o'quvchilarini barchasi uy vazifalari va mustaqil ishlarini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib bajaradi. Avstraliyada esa mediata'lim 1-sinfdan majburiy predmetga aylantirilgan [6,146-152].

ijodiy vazifalarning xilma-xilligi va ularni hal qilish yo'llari, shuningdek, media-mahsulot tayyorlashda insonning shaxsiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi muhimligi ijodiy rivojlanish yo'llarining xilma-xilligiga hissa qo'shishini tasdiqladilar. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy muvaffaqiyat mezoni sifatida o'z-o'zini namoyon qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Tajribali o'qitish olib borilgan maktablarining VII sinflarida tayanch tajriba sinflaridagi natijalar, nazorat sinflardan olingan natijalar bilan solishtirib borish lozim topildi.

Quyidagi jadval va rasmda VII-sinflarida biologiyani fizika bilan bog'lab media vositalari asosida o'qitish darajalari bo'yicha o'tkazilgan uchinchi bosqich PTSI natijalari keltirilgan (1–jadval, 2– diagramma)


1–jadval

Uchinchi bosqich pedagogik tajriba–sinov natijalari

O'quv yili	O'quvchilar soni		Tajriba/nazorat sinflari o'quvchilarining olgan baholari				
	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	A'lo, "5"	Yaxshi, "4"	Qoniqarli"3"	Qoniqarsi "2"	$T_{kri}<T_{kuz}$
2020-2021	361	360	57/76	95/116	180/149	29/19	$T_{kuz}=9,8$

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

2021-2022	359	362	87/70	146/121	112/149	14/22	T_{kuz}= 11,2
2022-2023	364	357	123/100	149/126	84/116	8/15	T_{kuz}= 12,3



2–diagramma. VII–sinflarda biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘qitish darajalarining diagrammasi.

Eksperimental ish natijalari to‘g‘risida to‘liqroq ma’lumot olish uchun biz individual chuqurlashtirilgan suhbatlar usulidan foydalandik. Maktab o‘quvchilari ommaviy axborot vositalari faoliyati natijalariga o‘zlarining subyektiv baholarini bildirdilar. Ular taklif etilayotgan ijodiy vazifalarning xilma-xilligi va ularni hal qilish yo‘llari, shuningdek, media-mahsulot tayyorlashda insonning shaxsiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasi muhimligi ijodiy rivojlanish yo‘llarining xilma-xilligiga hissa qo‘shishini tasdiqladilar. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy muvaffaqiyat mezoni sifatida o‘z-o‘zini namoyon qilish muhimligini ta’kidlaydi.

Maktab o‘quvchilarining ta’kidlashicha, mas’uliyatli ish tajribasi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ularning o‘ziga bo‘lgan hurmati va o‘ziga ishonchi ortishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishning muhim omili media-mahsulot taqdimoti va uni, ayniqsa, ekspertlar va o‘qituvchilar jamoasi tomonidan baholashdir. Suhbat ishtirokchilari ta’kidlaganidek, bu ularning ish sifatini aniqlashda, shuningdek, umumiy mahsulotga qo‘shgan hissasining ahamiyatini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba sinfidagi o‘zlashtirish nazorat sinfidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, VII sinflarda biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan o‘tkazilgan tajriba–sinov ishlari ilmiy asoslandi.

Tadqiqot ishida o‘tkazilgan PTSI ning yakunlariga ko‘ra, VII-sinflarda biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishda tematika bilan mediata’limni bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar qarashiga oid kompetensiyalari quyidagicha shakllandi:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

– ilmiy, hissiy va madaniy yondashuvlar birligi ta’minlandi;

–o‘quvchilarning mediasavodxonlik ijobiy yo‘nalishlari kuchaydi;

–tabiatga bo‘lgan hissiy munosabatni uyg‘otish va amaliy faoliyatga jalb etish vositasida bilimlar barqarorligi, biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy mediasavodxonligi shakllanishiga erishildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari tajriba sinflarida olingan yozma-nazorat ishlarining didaktik samaradorligi Pirsonning χ^2 (xi-kvadrat) matematik-statistik metodi yordamida tekshirib ko‘rildi.

Tadqiqot ishlari uchun kritik qiymatni topish $T_{krit.}$ = 0,95 = 95% ga mos keladi. Xulosalarning ishonchlilik ehtimoli esa – a = 1-T; a = 1-0,95 = 0,05 (5%) deb qabul qilindi. Aniqlik darajasi – a = 0,05 va erkinlik darajasi –v = 4-1 = 3. Kritik qiymatlar jadvalidan a = 0,05, v = 3 qiymatlar uchun statistik kritik qiymat T = 7,815 ga to‘g‘ri keladi. Agar $T_{kuz.} > T_{krit.}$ tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda ilgari surilgan ishchi faraz to‘g‘ri, aks holda ilgari surilgan ishchi faraz rad etiladi.

$T_{kuz.}$ qiymati

$$T_{kuz} = \frac{1}{T_S N_S}\left[\frac{(T_S \cdot N_5 - N_S \cdot T_5)^2}{T_5 + N_5} + \frac{(T_S \cdot N_4 - N_S \cdot T_4)^2}{T_4 + N_4} + \frac{(T_S \cdot N_3 - N_S \cdot T_3)^2}{T_3 + N_3} + \frac{(T_S \cdot N_2 - N_S \cdot T_2)^2}{T_2 + N_2}\right]$$

Shu asosda, boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni takomillashtirish o‘quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishda samaradorlikka erishishda xulosalar qilishimizga asos borligini ko‘rsatdi.

VII sinflarda biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘rganish media madaniyatini shakllantirishda samarali bo‘ldi. Media ma’lumotlarini talqin qilish va o‘zgartirish bo‘yicha o‘tkazilgan mashg‘ulotlar ommaviy kommunikatsiya asoslarini o‘zlashtirishga va mediaga nisbatan tanqidiy munosabatni bartaraf etishga yordam berdi, axborot vositalarini iste’mol qilishni cheklash va uni rejalashtirish bo‘yicha mashqlar o‘quvchilarda media makonida xatti-harakatlarni o‘z-o‘zini tartibga solishga yordam berdi.

PTSI jarayonida biologiyani fizika bilan bog‘lab media vositalari asosida o‘rganish maqsadida tanlangan tajriba va nazorat sinflariga ajratildi, tajriba sinflari o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat sinflari o‘quvchilarining o‘zlashtirishiga nisbatan 10,7% yuqori ekanligi matematik-statistik metod yordamida ilmiy asoslandi.

Biologiya, fizika va mediata’limni integratsiyalashda o‘quvchilarda har qanday mediaxabarni tanqidiy tahlil qilish va ulardan o‘quvchilarning biologiya, fizika fanlariga oid tushunchalar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish uchun foydalanishda uning funksional jihatlariga e’tibor qaratish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni. 2019 yil 29 aprel.
2. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
3. Abduqodirdv A., Pardayev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiy. - Toshkent, 2009. -146 b.
4. Ergasheva G.S. Biologiya fani ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish vosita va usullari // Maktabda biologiya fani jurnali. - № 4. - Toshkent,2009-B. 10-14.
5. Ergashev SH.T., Mo‘minov S.M. Ta’lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etishda xorijiy davlatlar tajribalari // Fizika, matematika va informatika. -Toshkent, 2016.-№3.-B. 3-11.
6. Никитина Е.Ю., Милютина А.А. Формирование медиакомпетенции младших школьников на уроках русского языка. (2-часть). Монография.- М., 2015.-202 с.
7. Suravegina I. Teoriya i raktika formirovaniya otvetstvennogo otnosheniya shkolnikov k prirode v protsesse obucheniya biologii: Avtoref. – M, 1986. – 35 s.
8. Zverev I.D. Ekolglasnost i obrazovanie // Sovetskaya pedagogika. – 1971. №1,
9. Zverev I.D. Chto takoe ekologicheskaya kultura shkolnikov// Semya i shkola.–979. №10. –S.
10. G‘aniyeva G.I. // Biologiyaning baliqlar bo'limini fizika bilan bog‘lab o‘tishda integratsiyaning afzalliklari// Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi –12/3-2023
11. Fozilov S., Ziyodova M. Maktablarda steam texnologiyasini joriy etishning xususiyatlari va afzalliklari //Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 819-821.
12. Baxriddinovna R. U., Musurmonovich F. S. Oziq zanjiri va oziq to ‘ri tuzish //nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 264-267

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**G‘aniyeva Guliruxsor Islamovna**, botanika kafedrasi o‘qituvchisi, [**Ганиева Гулирухсор Исламовна,** преподаватель кафедры ботаники], [**Gulrukhsor I. Ganieva,** lecturer at the Department of Botany]; manzil: O‘zbekiston, Surxondaryo viloyati Termiz shahar Ibn Sino ko‘chasi 53-uy [адрес: Узбекистан, 117036, Узбекистан, Сурхандарьинская область, город Термез, улица Ибн Сины, дом 53], [address: Uzbekistan, Surkhandarya region, Termez city, 53 Ibn Sina Street] ganiyevaruxsora82@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

AXLOQIY QADRIYATLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

© D.I. Raxmatova[1]✉

[1]Andijon davlat pedagogika institute, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada axloqiy qadriyatlarning o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Axloqiy qadriyatlar nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki jamiyatda faol ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotda o‘quvchilarning axloqiy ongini shakllantirish, ularni hayotiy vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qilishga tayyorlash, o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligi orqali o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Maqolada axloqiy tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlar va uslublar tavsiya etiladi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – axloqiy qadriyatlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqot o‘quvchilar shaxsiyati va ijtimoiy faollik darajasini rivojlantirishda axloqiy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlash, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik usullarni joriy qilish orqali axloqiy tarbiyaning amaliyotdagi samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini axloqiy qadriyatlar orqali shakllantirishga oid pedagogik jarayonlarni o‘rganish va takomillashtirish maqsadida bir qator metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axloqiy qadriyatlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni joriy etish orqali o‘quvchilarni nafaqat jamiyatning faol a’zolariga aylantirish, balki ularning individual rivojlanishini ta’minlash ham mumkin.

XULOSA: mazkur tadqiqot axloqiy qadriyatlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishi ekanligini isbotladi. Ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni singdirish nafaqat shaxsiy kamolotga, balki jamiyatda faol, mas’uliyatli va hamkorlikka tayyor avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, pedagogik muammo, axloqiy tarbiya, innovatsion yondashuv, ijtimoiylashuv, o‘quvchi shaxsiyati.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Iqtibos uchun: Raxmatova D.I. Axloqiy qadriyatlar vositasida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida. // Inter education & global study. 2024. №10 B.174-180.

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ НРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

© Д.И. Рахматова[1]✉
[1]Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье описывается педагогическое значение нравственных ценностей в формировании социальной активности учащихся. Моральные ценности помогают развивать не только личностное развитие, но и социальные качества, необходимые для активного участия в жизни общества. В ходе исследования изучались вопросы формирования нравственного сознания учащихся, подготовки их к принятию нравственных решений в жизненных ситуациях, развития социальной активности учащихся посредством сотрудничества учителей и родителей. В статье рекомендуются инновационные педагогические подходы и методы повышения эффективности процесса нравственного воспитания.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является изучение теоретических и практических основ процесса формирования социальной активности студентов через нравственные ценности, разработка педагогических подходов, направленных на повышение ее эффективности. При этом исследование направлено на определение роли и значения нравственных ценностей в развитии личности и уровня социальной активности учащихся, а также на повышение эффективности нравственного воспитания на практике за счет внедрения инновационных педагогических методов в образовательную деятельность. процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе использован ряд методических подходов с целью изучения и совершенствования педагогических процессов, связанных с формированием социальной активности учащихся через нравственные ценности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты настоящего исследования показывают, что нравственные ценности являются решающим фактором формирования социальной активности студентов. внедряя нравственные ценности в образовательный процесс, можно не только превратить учащихся в активных членов общества, но и обеспечить их индивидуальное развитие.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: проведенное исследование доказало, что формирование социальной активности учащихся через нравственные ценности является важным направлением педагогического процесса. Впитывание моральных ценностей в образовательный процесс служит не только развитию личности, но и формированию активного, ответственного и отзывчивого поколения в обществе.

Ключевые слова: нравственные ценности, социальная активность, педагогическая проблема, нравственное воспитание, инновационный подход, социализация, личность студента.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Для цитирования: Рахматова Д.И. Формирование социальной активности студентов через нравственные ценности как педагогическая проблема. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 174-180.

FORMATION OF STUDENTS' SOCIAL ACTIVITY THROUGH MORAL VALUES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

© Dinora I. Rakhmatova[1]✉
[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article describes the pedagogical importance of moral values in the formation of social activity of students. Moral values help to develop not only personal development, but also social qualities necessary for active participation in society. In the study, the issues of forming the moral consciousness of students, preparing them to make moral decisions in life situations, and developing social activity in students through the cooperation of teachers and parents were studied. The article recommends innovative pedagogical approaches and methods to increase the effectiveness of the moral education process.

AIM: the main purpose of this study is to study the theoretical and practical foundations of the process of forming the social activity of students through moral values, to develop pedagogical approaches aimed at increasing its effectiveness. At the same time, the research aims to determine the role and importance of moral values in the development of students' personality and level of social activity, and to increase the effectiveness of moral education in practice by introducing innovative pedagogical methods into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: in this study, a number of methodological approaches were used in order to study and improve pedagogical processes related to the formation of social activity of students through moral values.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of this study show that moral values are a decisive factor in the formation of social activity of students. By introducing moral values in the educational process, it is possible not only to turn students into active members of society, but also to ensure their individual development.

CONCLUSION: this study proved that the formation of social activity of students through moral values is an important direction of the pedagogical process. Imbibing moral values in the educational process serves not only personal development, but also the formation of an active, responsible and cooperative generation in society.

Key words: moral values, social activity, pedagogical problem, moral education, innovative approach, socialization, student's personality.

For citation: Dinora I. Rakhmatova. (2024) 'Formation of students' social activity through moral values as a pedagogical problem', Inter education & global study, (10), pp. 174-180. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Bugungi kunda jamiyatda shaxslarning ijtimoiy faolligini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlash va faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga yo‘naltirish dolzarb pedagogik masala sifatida e’tirof etilmoqda. Bu jarayonda axloqiy qadriyatlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy qadriyatlar nafaqat shaxsning ruhiy-ma’naviy rivojlanishini, balki uning jamiyat bilan o‘zaro aloqalarini uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni singdirish orqali o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, empatiya, hamkorlik va faol fuqarolik fazilatlarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv va axborot texnologiyalari davrida o‘quvchilarning ijtimoiy muhitda mustahkam pozitsiyaga ega bo‘lishlari uchun ularning axloqiy ongini shakllantirish va ijtimoiy faolligini rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Mazkur tadqiqot axloqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, ularning o‘quvchilar ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyatini aniqlash hamda bu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan uslub va vositalarni ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonida dolzarb pedagogik masalalardan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etish va insonparvar jamiyatni shakllantirish uchun shaxsning axloqiy fazilatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlar faqatgina individual xarakter shakllantirish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarni jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, mas'uliyat hissi, empatiya va madaniy o‘zaro aloqalarni tushunishga ham yo‘naltiradi. Bugungi globallashuv va madaniyatlararo aloqalar davrida o‘quvchilarni nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, balki ularni ma'naviy jihatdan barkamol, jamiyatda faol fuqarolar sifatida shakllantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Axloqiy qadriyatlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi pedagogik jarayonda yangi metod va yondashuvlarni talab qiladi.

Pedagogik ta'lim jarayonida bu masalaning dolzarbligi, bir tomondan, yosh avlodni globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy ta'sirlariga tayyorlash zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, shaxsning axloqiy tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish orqali jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, ta'lim tizimida axloqiy qadriyatlar vositasida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishni takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini axloqiy qadriyatlar orqali shakllantirishga oid pedagogik jarayonlarni o‘rganish va takomillashtirish maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlar, axloqiy tarbiya va ijtimoiy faollik masalalariga oid pedagogik va psixologik tadqiqotlar tahlil qilindi. Ushbu jarayon axloqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini aniqlash, ularning o‘quvchilarda shakllanish omillari va bosqichlarini belgilashga yordam berdi. O‘quvchilarning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy faollik darajasini o‘lchash uchun maxsus diagnostik usullar va so‘rovnomalar qo‘llanildi. Bu usullar o‘quvchilarning hozirgi holatini aniqlash va pedagogik ta’sir usullarining samaradorligini baholashga imkon

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

berdi. O‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning axloqiy qadriyatlar asosidagi xulq-atvorlari va ijtimoiy faolligi kuzatildi. Bu usul orqali axloqiy tarbiya jarayonining amaliy jihatlari o‘rganilib, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi. O‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan maxsus darslar, sinfdan tashqari faoliyatlar va loyihalar tashkil etildi. Bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari statistik usullar yordamida qayta ishlanib, axloqiy tarbiya va ijtimoiy faollikni rivojlantirishdagi pedagogik yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

Mazkur metodologiya orqali axloqiy qadriyatlar asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o‘rganish va uning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy faollik masalalari zamonaviy pedagogika va psixologiyada muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy adabiyotlar, klassik pedagogik meros va zamonaviy ilmiy manbalar chuqur tahlil qilindi.

Axloqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyati haqida nazariy manbalar: Sharq mutafakkirlari (Al-Farobiy [1, 79], Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib [11] va boshqalar) axloqiy tarbiya va shaxsning ma'naviy yuksalishi haqida ko‘plab asarlar yaratgan. Ularning qarashlari o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda hali ham dolzarbligini saqlab qolgan. Zamonaviy tadqiqotlarda, masalan, A. N. Leontyev [8; 17], V. V. Davidov [6, 156] kabi psixologlar axloqiy tarbiyaning insonning ijtimoiylashuvi va faoliyatidagi roli haqida ta’kidlashadi.

Ijtimoiy faollikni shakllantirishga oid tadqiqotlar: B. G. Ananyev [3, 261] va L. S. Vigotskiy [7] kabi olimlar ijtimoiy faollikni shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi va faoliyatidagi asosiy mezon sifatida belgilashgan. Tadqiqotlarda ijtimoiy faollikni axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq ravishda rivojlantirish usullari keng yoritilgan.

Mahalliy manbalar: O‘zbek olimlari (A. Abduqodirov[2, 39], I. Nishonov[9, 21], R. Yusupov[10, 78]) ta’lim-tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan asarlarida xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlarning o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi o‘rnini ta’kidlaganlar. O‘zbekistonning ta’lim islohotlari axloqiy tarbiyaga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi.

Innovatsion yondashuvlarga oid manbalar: Zamonaviy ilmiy izlanishlar (J. Dewey [5, 147], A. Bandura [4, 361]) axloqiy qadriyatlar asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda interaktiv usullar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini ko‘rsatmoqda. Bu usullar orqali o‘quvchilarni muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqiladi. Tahlil qilingan adabiyotlar axloqiy qadriyatlarning o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishda va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari esa milliy ta’lim tizimida axloqiy qadriyatlar asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga oid yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axloqiy qadriyatlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni joriy etish orqali o‘quvchilarni nafaqat jamiyatning faol a’zolariga aylantirish, balki ularning individual rivojlanishini ta’minlash ham mumkin. Muhokama davomida quyidagi masalalar chuqur tahlil qilindi: O‘quvchilarning axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasi ularning jamiyatdagi roli va ijtimoiy faolligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, o‘quv jarayonida axloqiy qadriyatlar asosida olib borilgan ishlar o‘quvchilarda mas’uliyat, empatiya va jamoatchilik bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning axloqiy ongini rivojlantirishda samarali ekanligi isbotlandi. Jumladan, muammoli ta’lim, interaktiv metodlar va loyihaviy yondashuvlar axloqiy qadriyatlarni amaliyotda mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda ota-onalar, o‘qituvchilar va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun o‘quvchilarga hayotiy muammolarni hal qilishda amaliy tajriba yaratish, ularni jamiyatdagi turli loyihalarga jalb etish samarali usul bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, axloqiy tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalar va axborot resurslarining to‘liq integratsiya qilinmagani, ba’zi holatlarda milliy va umumiy axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi nomutanosiblik kabi masalalar mavjud. Shunga qaramay, ta’lim jarayoniga axloqiy qadriyatlar asosida innovatsion yondashuvlarni joriy etish katta imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqot natijalari axloqiy qadriyatlarning o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyatini tasdiqladi. Ta’lim jarayoniga axloqiy qadriyatlarni singdirish, innovatsion metodlarni qo‘llash va ota-ona hamda jamiyat bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkinligi aniqlandi. Ushbu yondashuv zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolarini hal etishda muhim o‘rin egallaydi. Mazkur tadqiqot axloqiy qadriyatlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishi ekanligini isbotladi. Ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni singdirish nafaqat shaxsiy kamolotga, balki jamiyatda faol, mas’uliyatli va hamkorlikka tayyor avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Axloqiy qadriyatlar o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirishda, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi va faol ishtirokini ta’minlashda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali o‘quvchilarda empatiya, mas’uliyat va jamiyat oldidagi burchni anglash shakllanadi. Tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar (muammoli ta’lim, interaktiv metodlar, loyiha faoliyati) axloqiy tarbiya jarayonini takomillashtirishda samarali ekanligi aniqlandi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligi rivojlanadi. Axloqiy qadriyatlarni singdirish jarayonida o‘qituvchi, ota-ona va jamiyatning hamkorligi katta ahamiyatga ega. Ushbu uch omil o‘quvchilarning tarbiyasini yaxlit tizimga aylantiradi va ularning ijtimoiylashuv jarayonini muvaffaqiyatli amalga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

oshirishni ta’minlaydi. Axloqiy tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zarur. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va resurslarni kengroq joriy etish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish lozim.

Tavsiyalar: axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan maxsus dars va tadbirlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish; o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish; o‘qituvchilar va ota-onalar uchun axloqiy tarbiya bo‘yicha qo‘llanmalar va treninglar tashkil etish; o‘quvchilarni jamoat ishlari va ijtimoiy loyihalarga faol jalb etish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish.

Mazkur tadqiqot natijalari axloqiy qadriyatlar asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi va zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining dolzarb muammolarini hal qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Al-Farabi. The Virtuous City. – Translated by R. Walzer. Oxford: Clarendon Press, 1985.
Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) roli tobora ortib bormoqda. Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. AKT vositalari yordamida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali muloqotni tashkil etish, masofaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va interaktiv darslarni o'tkazish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli platformalar o'quv materiallarini ishlab chiqish va tarqatishda, shuningdek, talabalar bilimini baholashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oliy ta'limda AKT dan foydalanishning metodik imkoniyatlari o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga, o'qitish sifatini yaxshilashga va talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqola AKT vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rnini tahlil qilish, ulardan samarali foydalanish metodikasi va imkoniyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi zamonaviy ta'limning globallashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ta'lim jarayonining raqamli transformatsiya talablariga javob berish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqot AKT vositalaridan samarali foydalanish orqali oliy ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlarini o'rganishda quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

AKT vositalaridan foydalanish bo‘yicha ilg‘or ilmiy ishlanmalar, pedagogik va didaktik yondashuvlar o‘rganildi. Ushbu texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan konsepsiyalar va metodik materiallar tahlil qilindi. Metodik yondashuvlar o‘quv jarayonida AKT dan foydalanishning o‘quvchilarning bilim olish samaradorligiga, dars sifatiga va interfaol ta’limni rivojlantirishga ta’sirini aniqlashga yo‘naltirildi. Shuningdek, tadqiqot davomida ta’lim jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Oliy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi bo‘yicha tanlangan adabiyotlar AKT vositalarining nazariy asoslari, ularning ta’lim jarayoniga integratsiyasi, metodik imkoniyatlari va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha turli yondashuvlarni qamrab oladi.

Q. Abdurahmonov [2, 61] tomonidan yozilgan "Innovasion texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish asoslari" asari, ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari va metodlarini ko‘rsatib beradi. Ushbu asar, AKT vositalarining dars jarayonidagi interaktiv usullarni rivojlantirishdagi ahamiyatini keng ko‘rib chiqadi.

H. Mamotov [4, 17] tomonidan yozilgan "Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va ta'lim jarayoni" asarida AKT dan foydalanishning o‘quv jarayonidagi imkoniyatlari va o‘qituvchi-talimchi o‘rtasidagi muloqotni yaxshilashdagi roli yoritilgan. Bu asar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish uchun metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

UNESCO ning "ICT in Education: A Global Perspective"[5] nomli hisobotida global darajadagi tajribalar va tendensiyalar o‘rganilib, AKT vositalarining ta’lim tizimiga kiritilishi bilan bog‘liq muvaffaqiyatlar va muammolar keng tahlil qilingan. Bu manba xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

V.N. Shapovalning [10, 214] asari AKT vositalarini ta’lim jarayonida samarali boshqarishning zamonaviy usullari haqida fikr yuritadi. Asarda AKTning o‘quv jarayonidagi integratsion xususiyatlari, raqamli transformatsiya jarayonlari va pedagogik jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilingan.

N. Norqobilov [6, 39] tomonidan chop etilgan "Ta’limda innovatsion yondashuvlar va AKT vositalari" kitobi, AKT vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganadi. Ayniqsa, masofaviy ta’limni tashkil etish bo‘yicha yondashuvlar batafsil bayon etilgan.

A. Ahmadaliyev [3, 98] asarida masofaviy ta’lim texnologiyalari va ulardan foydalanishning imkoniyatlari keng yoritilgan. Ushbu manba, ayniqsa, pandemiya sharoitida masofaviy ta’limni rivojlantirishdagi dolzarb masalalarni yoritish bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yildagi PQ-3245 qarori[1] AKT vositalarining ta’lim jarayonida keng ko‘lamli qo‘llanilishini qo‘llab-quvvatlash uchun normativ-huquqiy asoslar yaratgan va oliy ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga rag‘batlantiruvchi dasturlarni taqdim etgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Bu adabiyotlar oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarishda AKT vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ko‘rsatmalarini yoritish bilan birga, global va milliy tajribani o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Shuningdek, ular tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi.

Oliy ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini boshqarishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, AKT vositalari ta’lim sifatini oshirish, interfaol darslar tashkil etish, masofaviy ta’limni samarali yo‘lga qo‘yish va o‘quv jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ushbu texnologiyalardan foydalanish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud.

AKT vositalarining ta’lim jarayonidagi ijobiy ta’siri: Ta’limning shaxsiylashtirilishi: AKT vositalari orqali har bir talaba o‘zining bilim darajasiga mos ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu shaxsiy yondashuvni kuchaytiradi va o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi;

Masofaviy ta’limning rivojlanishi: Raqamli platformalar yordamida talabalar geografik joylashuvdan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

Resurslarga qulay kirish: AKT vositalari o‘quv materiallari, ma’lumotlar bazalari va ilmiy adabiyotlarga tez va oson kirishni ta’minlaydi; o‘quv jarayonining boshqaruv samaradorligi: AKT vositalari yordamida o‘quv jarayonini kuzatish va boshqarish osonlashadi, talabalar bilimini baholash avtomatlashtiriladi; oliy ta’lim muassasalarida AKT vositalarini samarali joriy etish uchun texnik bazani mustahkamlash va pedagoglar uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish zarur; ta’lim tizimida innovatsion platformalar, masalan, virtual sinflar va interaktiv dasturlarni kengaytirish lozim; talabalar va o‘qituvchilar uchun raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan trening va seminarlarni yo‘lga qo‘yish kerak; AKT dan foydalanish bo‘yicha milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish orqali yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

Mazkur muhokama shuni ko‘rsatadiki, AKT vositalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonining innovatsion transformatsiyasini ta’minlaydi. Biroq, bu jarayon texnologik, pedagogik va tashkiliy jihatlarni birlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalari AKT vositalaridan foydalanishning yangi imkoniyatlarini izlashda doimiy ravishda izlanishda bo‘lishlari zarur. Oliy ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini boshqarishning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, AKT vositalari ta’limning shaxsiylashtirilishi, interfaol metodlar joriy etilishi va masofaviy ta’limning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu vositalar yordamida ta’lim jarayoni zamonaviy talablar va standartlarga moslashtirilmoqda.

Biroq, ushbu texnologiyalardan foydalanishda texnik infratuzilmaning yetishmasligi, pedagog kadrlarning malakasi va texnologik savodxonlik kabi muammolar kuzatilmoqda. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish tavsiya etiladi: Oliy ta’lim muassasalarida texnik bazani modernizatsiya qilish va zamonaviy AKT vositalarini joriy etish, O‘qituvchilar va talabalar uchun raqamli savodxonlikni oshirish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

bo‘yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish, Innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va AKT vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AKT vositalarini to‘g‘ri va samarali qo‘llash ta’lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, oliy ta’lim tizimi AKTdan foydalanishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqishi va ularni keng joriy etishi zarur. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, shuningdek, global raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.08.2017 yildagi PQ-3245-son https://lex.uz/docs/-3324016
2. Abdurahmonov, Q. (2019). Innovasion texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish asoslari. Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti.
3. Ahmadaliev, A. (2022). Masofaviy ta’lim texnologiyalari: imkoniyatlar va samaradorlik. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
4. Mamatov, H. (2018). Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va ta'lim jarayoni. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. UNESCO. (2020). ICT in Education: A Global Perspective. Retrieved from https://unesco.org.
6. Norqobilov, N. (2021). Ta’limda innovatsion yondashuvlar va AKT vositalari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti.
7. Khudoynazarov, D. (2022). Issues of introducing digital technologies into the activities of courts. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(01), 1-6.
8. Xudoynazarov, E. M. (2019). Didaktic possibilities of oral exercises in forning initial classes pupils' mathematical thinking activity. Eastern European Scientific Journal, Ausgabe. Germany, (1-2019), 249.
9. Madraximovich, X. E., & Urazboyevna, U. N. (2023). O ‘quvchilar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda sinfdan tashqari ustoz-shogird munosabatlarining ahamiyati. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 564-566.
10. Shapoval, V.N. (2021). Metodi upravleniya obrazovatel'nim prosessom v usloviyax sifrovoy transformasii. Sankt-Peterburg: NIU VShE.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Habibullayev Muxammad Habibulla o‘g‘li,** Urganch davlat universiteti assistant o‘qituvchisi, [**Хабибуллаев Мухаммад Хабибуллаевич,** Ассистент преподавателя Ургенчского государственного университета], [**Khabibullayev Kh. Mukhammad,** Assistant teacher of Urgench State University]; manzil: O‘zbekiston, Urganch sh., Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Ҳамид Олимжон, 14], [address: Uzbekistan, 14, Khamid Alimjan st., Urgench city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA “FASTMEAN” DASTURIDAN FOYDALANISH METODIKASI

© Sh.I. Abdullayeva[1]✉, T.A. Djalalov[2]✉

[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, Toshkent, O‘zbekiston
[2]Moskva muhandislik fizikasi instituti” Milliy tadqiqot yadro universiteti Toshkent filiali, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada fizika darslarini o‘tkazishning uslubiy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan. Texnika ta’lim yo‘nalishlaridagi mutaxassislarni tayyorlashda fizika fanining o‘rni va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Axborot texnologiyalari sohasida zamonaviy kadrlarni tayyorlashda fizika fanining o‘rni va fizika fanini o‘qitishda “Fastmean” dasturidan foydalanishning imkoniyatlari yoritib berilgan. Turli darajali murakkablikdagi sxemalarni amalga oshirishda dasturning ichki imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga fizika darslarini o‘tkazishning uslubiy yondashuvlari, texnika ta’lim yo‘nalishlaridagi talabalarga fizika fanini o‘qitishda modellashtirish imkoniyatlari tahlil qiligan.

MAQSAD: zamonaviy ta’lim tizimidagi tabiiy fanlarning ahamiyatini o’rganish: Maqola, ta’limning sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlashdagi rolini yoritib beradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada tadqiqot uchun sifatli tahlil metodi qo‘llanilgan. Xorijiy tajribalar tahlil qilinib, har bir mamlakatning boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llaniladigan strategiyalar, metodlar va amaliyotlar o‘rganildi. Boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlar, ularning ta’lim natijalariga ta’siri tahlil qilindi. Maqola ilmiy manbalar va mavjud tadqiqotlarga asoslanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: FASTMEAN dasturi yodamida algoritmlar o‘tish jarayonini hisoblashning aniqligi yoki tezligini sezilarli darajada oshirishi, diskret usullarning ma’lum standart algoritmlarinin tekshirish, asosiy qurilmalarning keng sinfining modellarini aniqlash mumkin. FASTMEAN dasturining standart dasturlardan farqli jihatlari hisoblashning oqilona vaqtini tanlash, raqamli barqarorlikni ta’minlash, talablari bilan cheklanmaydi jarayon yoki uning aniqligi, lekin o‘rganilayotgan vazifaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan keng funksiyalari va imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

XULOSA: shunda ekan ta’lim jarayoniga zamonoviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’limning sifat va samaradorligini oshirishimiz mumkin.Texnika oliy ta’lim muassasalarida maxsus fanlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Fundamental nazariyalariga asosan maxsus fanlar materiallari to‘g‘ri va yagona sistemaga keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fastmean, dastur, ta’lim tizimi, metodlar, modellashtirish, fizik model, elektrotexnik zanjir.

Iqtibos uchun: Abdullayeva Sh.I., Djalalov T.A. Fizika fanini o‘qitishda “fastmean” dasturidan foydalanish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №10 B.202-210.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММЫ “FASTMEAN” В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

© Ш.И. Абдуллаева[1]✉, Т.А. Джалалов[2]✉
[1]Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, Ташкент, Узбекистан
[2] Ташкентский филиал НИЯУ МИФИ, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья рассматривает методы педагогического ведения уроков по физике, особенно в контексте подготовки специалистов в техническом образовании. В ней высказывается мнение о значимости и месте физики в подготовке специалистов по техническим направлениям, а также о возможностях использования программы "Fastmean" в обучении информационным технологиям для подготовки современных кадров. Особое внимание уделено внутренним возможностям программы при реализации сложных схем. Вместе с тем, статья проанализировала методы моделирования при проведении уроков по физике для студентов технических специальностей.

FASTMEAN программы алгоритмов с использованием предоставляет значительное увеличение точности или скорости вычисления процесса, проверки известных стандартных алгоритмов дискретных методов, возможно определение моделей широкого класса основных устройств. FASTMEAN программы отличаются от стандартных программ в том, что выбор времени выполнения расчета осуществляется на основе его интеллектуальной возможности обеспечения цифровой стабильности, а не его точность, хотя процесс или его точность не проверяются с требованиями, но показаны широкие функциональные возможности и возможности, основанные на особенностях задачи, которую выполняет пользователь.

ЦЕЛЬ: изучить значение естественных наук в современной системе образования: в статье освещается роль естественнонаучных дисциплин в повышении качества образования, развитии способности учащихся к самостоятельному мышлению по естественным наукам и подготовке их к решению жизненных задач.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье использован метод качественного анализа для исследования. Анализируются зарубежные практики, рассматриваются стратегии, методы и практики, применяемые в системе начального образования каждой страны. Оценено влияние инновационных подходов, используемых в других странах, и их влияние на образовательные результаты. Статья основана на научных источниках и существующих исследованиях.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: с помощью программы fastmean алгоритмы могут значительно повысить точность или скорость вычислений переходного процесса, проверить определенные стандартные алгоритмы дискретных методов, определить модели широкого класса основных устройств. Отличия программы FASTMEAN от стандартных программ не ограничиваются выбором рационального времени вычислений, обеспечением цифровой стабильности, требованиями к процессу или его точности, но указывают на широкий спектр функций и возможностей, реализуемых Пользователем в зависимости от особенностей изучаемой задачи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: получается, что, применяя современные технологии в образовательном процессе, мы можем повысить качество и эффективность обучения. Технические специальные дисциплины в высших учебных заведениях имеют очень богатые возможности для формирования научного мировоззрения. Материалы специальных наук, основанные на их фундаментальных теориях, приведены в правильную и единую систему.

Ключевые слова: Fastmean, программа, образовательная система, методы, моделирование, физическая модель, электрическая схема.

Для цитирования: Абдуллаева Ш.И., Джалалов Т.А. Методика использования программы “fastmean” в преподавании физики. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 202-210.

THE METHODOLOGY OF USING THE “FASTMEAN” PROGRAM IN TEACHING PHYSICS

© Shoira I. Abdullayeva[1]✉, Temur A. Djalalov[2]✉
[1]Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Tashkent, Uzbekistan
[2]Tashkent branch of National Research Nuclear University MEPhI (Moscow Engineering Physics Institute), Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses methods of pedagogical conducting of physics lessons, particularly in the context of preparing specialists in technical education. It expresses an opinion on the importance and place of physics in the preparation of specialists in technical fields, as well as the opportunities for using the "Fastmean" program

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

in teaching information technology to train modern personnel. Special attention is given to the internal capabilities of the program in implementing complex schemes. Additionally, the article analyzes modeling methods in conducting physics lessons for students of technical specialties.

The FASTMEAN program of algorithms provides a significant increase in the accuracy or speed of the calculation process, checks known standard algorithms of discrete methods, and possibly determines models of a wide class of basic devices. FASTMEAN programs differ from standard programs in that the choice of calculation execution time is based on its intellectual ability to ensure digital stability, rather than its accuracy, although the process or its accuracy are not checked against requirements, but wide functional capabilities and possibilities are shown based on the characteristics of the task that the user performs.

AIM: to study the importance of natural sciences in the modern education system: the article highlights the role of natural science disciplines in improving the quality of education, developing students' ability to think independently in natural sciences and preparing them to solve life problems.

MATERIALS AND METHODS: the article uses qualitative analysis methods for the research. The foreign experiences are analyzed, examining the strategies, methods, and practices applied in each country's primary education system. The impact of innovative approaches used in other countries and their influence on educational outcomes is assessed. The article is based on scientific sources and existing research.

DISCUSSION AND RESULTS: using the fastmean program, algorithms can significantly improve the accuracy or speed of transient calculations, test certain standard algorithms of discrete methods, and identify models of a wide class of basic devices. The differences between the FASTMEAN program and standard programs are not limited to the choice of rational calculation time, ensuring digital stability, process requirements or its accuracy, but indicate a wide range of functions and capabilities implemented by the User, depending on the characteristics of the task under study.

CONCLUSION: it turns out that by applying modern technologies in the educational process, we can improve the quality and effectiveness of learning.Technical special disciplines in higher education institutions have very rich opportunities for the formation of a scientific worldview. The materials of the special sciences, based on their fundamental theories, are brought into a correct and unified system.

Key words: Fastmean, program, educational system, methods, modeling, physical model, electrical circuit.

For citation: Shoira I. Abdullayeva, Temur A. Djalalov (2024) 'The methodology of using the "fastmean" program in teaching physics', Inter education & global study, (10), pp. 202-210. (In Uzbek).

Bugungi kunda fan, texnika va internet jadal rivojlanishi jamiyatning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

axborotlashishiga olib kelmoqda. Axborot texnologiyalari hayotimizning turli jabhalariga keng va jadal kirib borishi, axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. Axborotlashgan jamiyatning tashkiliy-texnologik asosini global tarmoq -internet tashkil etadi. Axborotlashgan jamiyat talablariga to‘liq javob beradigan zamonoviy o‘qitish texnologiyalaridan to‘liq foydalangan holda dars o‘tish, bugungi kundagi oliy ta’limda yetuk mutaxasislar tayyorlashda muhum o‘rin egallaydi.

Axborot - kommunikasion texnologiyalarini ta’lim jarayoniga qo‘llash hozirgi vaqtdagi eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda, sababi har bir sohada o‘rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo‘ladi. Shuning uchun bog‘chadan tortib to yuqori saviyadagi ishlarni o‘rganishda hozir yangi axborot - kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir [1-5]. Fizika fanini o‘qitish borasida talabalar ongida nazariy modelning tasavvurlarini shakllantirish, hodisalar va jarayonlar bilan tanishtirishning samarali metodlarini ishlab chiqish muhimdir. Fizika fanini o‘qitishda jarayonlarini kompyuterda modellashtirish uchun axborot texnologiyalari bilimlaridan keng foydalaniladi. Ayniqsa kelajakdagi kasbiy faoliyatida kerak bo‘ladigan bilimlar ega axborot texnologiyalar sohasida kadrlarni tayyorlashda fizika fanining o‘rni va ahamiyati katta. Shunday ekan fizika fanini o‘qitishda “Fastmean” dasturidan foydalanib darslarni amalga oshirish darslarning sifat va samaradorligini oshiradi. Muxandislik ta’limining rivojlanish bosqichidan boshlab, fizika darslari muxandis-texniklarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bakalavriaturada fizika kursi talabalarning mustaqil yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini shakllantirish muammolarini hal etishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Mutaxassislik uchun zarur qobiliyatlar - bu izchil va mantiqiy fikrlash, ishni rejalashtirish va tashkil etish, qurilmalar va texnikalar bilan ishlash, ko‘nikmalarni kelajakdagi mehnat faoliyatida qo‘llash jarayonidir [6].

Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish uchun maxsus dasturiy ta’minotlar bo‘lishi kerak. Ta’lim tizimida multimediyali elektron o‘quv adabiyotlar, ma’ruzalar, virtual labaratoriya ishlari, har xil animasion dasturlar va yana boshqa ishlarni yaratishda kerak bo‘ladigan maxsus dasturlar mavjud. Bu jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlarga: Phet, Origin, MathCad, MatLab, Maple, Crocodile Physics, Electronics, Workbench, Interactive Physics va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Kompyuterda modellashtirilgan ishlarini bajarishning afzalliklari juda ko‘p: talabalarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; talabalarning ishlash sur’ati jadallashadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida talaba ta’lim sub’yektiga aylanadi; talabalar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo‘ladi [8-9]. Har bir darsni qiziqarli va esda qolarli o‘tishida har bir pedagog o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlarini internet muhitida vebga yo‘naltirilgan ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan turli hil vedio roliklar, interfaol dasturlar va virtual ishlarni talabalar bilan birgalikda bajarib, tushuntirib berilganda talabalar har tomonlama bilimga ega bo‘lishadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Bugungi kunda o‘qitishning ananaviy ko‘rinishidan farq qiladigan zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qitishni tashkil etish yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Fizika fanini o‘qitish borasida talabalar ongida nazariy modelning tasavvurlarini shakllantirish, hodisalar va jarayonlar bilan tanishtirishning samarali metodlarini ishlab chiqish muhimdir [10]. Bunday maxsus dasturiy ta’minotlardan talabalarning keng foydalana olmasligi sabablari quyidagilar: muammoni tizimli tahlil qila olmasligi; ko‘nikmalarining shakllanmaganligi; mustaqil fikrlash qobiliyatining kamligi; kasbiy kompotentlikni shakllantirishga qaratilgan texnologiyadan foydalana olmasligi.

Bilamizki bugungi kungacha barcha bilim yurtlarida klassik usulda darslarni amalga oshirish “talaba va professor-o‘qituvchi to‘g‘ridan – to‘g‘ri savol – javob orqali muammoli vaziyatlarga yechim topishga qaratilgan.

FASTMEAN – chiziqli va chiziqli bo‘lmagan elementlarni o‘z ichiga olgan sxemalar uchun o‘tish jarayonini, signal spektrlarini, chastota xarakteristikasini hisoblash imkonini beradigan elektr zanjirlarini modellashtiruvchi dasturi. Zamonaviy elektrotexnika va elektron qurilmalarni ishlab chiqish jarayonida nazariy va eksperimental tadqiqotlar bilan bir qatorda sxematik modellashtirish keng qo‘llaniladi. Axborot texnologiyalari sohasida tahsil olayotgan talabalarga fizikani o‘qitishda sxematik modellashtirish o‘quv jarayonining muhim qismini tashkil qiladi. FASTMEAN dasturi elektr zanjirlarini tahlil qilish uchun bir qator zamonaviy dasturiy paketlar orasida muhim o‘rinni egallaydi. FASTMEAN dasturi elektr zanjirlar uchun tenglamalarni yechish uchun yangi algoritmlardan foydalanadi.

Barcha elementlar guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhda asboblar panelida tegishli tugma mavjud (1-rasm).



1-rasm.

Har qanday guruh elementlarini ko‘rsatish uchun tegishli tugmani bosing. Uning ostida elementlar bilan oyna paydo bo‘ladi. Sichqoncha ko‘rsatgichini elementni joylashtirmoqchi bo‘lgan diagramma ustiga olib boring va sichqonchaning chap tugmasi bilan bir marta bosing. Xuddi shu elementni diagrammadagi boshqa joyga qo‘shish uchun sichqonchani o‘sha joyga olib boring va yana chap tugmasini bosing. Buni bir necha marta qilish mumkin. Elementni qo‘shishni tugatish uchun sichqonchaning o‘ng tugmachasini bosing.

Agar siz yangi elementni simga qo‘ysangiz, dastur uni ulashga harakat qiladi. Agar ekranda yetarli joy bo‘lmasa, diagramma varag‘ining bo‘sh qismini ko‘rsatish uchun aylantirish satrlaridan foydalaning yoki diagramma → kattalashtirish menyusi buyrug‘i yordamida kattalashtiring (yoki asboblar panelidagi minus obyektiv tugmasidan foydalaning).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Elementni siljitish uchun sichqonchani ustiga suring, sichqonchaning chap tugmachasini bosib ushlab turing, elementni yangi joyga torting, sichqonchaning chap tugmachasini qo‘yib yuboring.

Bir nechta elementlarni ko‘chirish uchun avval ularni sichqoncha bilan tanlashingiz kerak. Elementlarni tanlagandan so‘ng, ularni ko‘chirish mumkin.

Elementlarning yo‘nalishini o‘zgartirish uchun (aylantirish, ko‘rsatish) ularni tanlang, so‘ngra asboblar panelidagi kerakli tugmani bosing yoki elementni o‘ng tugmasini bosing va kontekst menyusidan kerakli elementni tanlang.


Elementlarni ulash uchun sichqonchani qora nuqta bilan belgilash kerak bo‘lgan kontaktlardan biriga olib boring, sichqonchaning chap tugmachasini bosing va ushlab turing, kursorni boshqa kontaktga o‘tkazing, u ham qora nuqta bilan belgilanishi kerak.

Elementlarni olib tashlash uchun avval ularni tanlash kerak.

Tanlangan elementlarni olib tashlashning bir necha yo‘li mavjud: a) klaviaturadagi Delete tugmasini bosing; b) “tahrirlash” → “o‘chirish” menyusini tanlang; c) elementni o‘ng tugmasini bosing va kontekst menyusidan o‘chirishni tanlang.

Agar siz sxemadagi so‘nggi o‘zgarishlarni bekor qilmoqchi bo‘lsangiz, tahrirlash → bekor qilish menyusini tanlang. Oxirgi variantga qaytish uchun tahrirlash → qayta tayinlash menyusini tanlang. Fastmean so‘nggi 100 ta o‘zgarishlarni qayta tiklay oladi.

Sxemani yaratilgandan so‘ng (elementlar joylashtiriladi va bir-biriga ulanadi) uni saqlash mantiqan to‘g‘ri keladi (2-rasm).



2-rasm. FASTMEAN dasturining umumiy ko‘rinishi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Bu dastur yordamida o‘rganuvchi talabalar istalgan paytda fizik jarayonlarni to‘xtatib qo‘yishi, orqaga qaytarishi hamda dastlabki parametrlarni o‘zgartirib jarayonning ishtirokchisidek his qilishi mumkin. Tabiatdagi bu jarayonni o‘rganish albatta ma’lum bir model, ya’ni mazkur jarayonning mavhumlashtirilgan, soddalashtirilgan obrazi asosida olib boriladi. Real bunday jarayonning immitasion kompyuter modelini yaratishda ma’lum bir model asos qilib olinadi. Shuningdek modellashtirishning o‘ziga xos muhim tomonlari shundaki, turli xil laboratoriya qurilma va asboblar tayyorlash shart emas, hodisalarni jonli va tabiiy ko‘rinishda tasvirlanishi, tajribani oz fursat ichida istalgan marta takrorlash mumkinligi, kuzatish qiyin bo‘lgan yoki umuman kuzatilishi mumkin bo‘lmagan jarayonlarni ham namoyish eta olish imkoniyatiga egaligi. O‘qituvchiga bu pedagogik dasturiy vositalar kompyuter monitorida shuningdek, multimedia proyektori yordamida ko‘pgina fizik effektlarni namoyish etishning hamda yangi noan’anaviy o‘qitish turini takomillashtirishning imkonini beradi. Bugungi kunga kelib informasion texnologiyalardan foydalanish ko‘zga ko‘rinmas, tez yoki sekin o‘tuvchi jarayonlarning, murakkab hodisalarning mexanizmlarni animatsiya qilish imkonini yaratadi.

Shunda ekan ta’lim jarayoniga zamonoviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’limning sifat va samaradorligini oshirishimiz mumkin.Texnika oliy ta’lim muassasalarida maxsus fanlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Fundamental nazariyalariga asosan maxsus fanlar materiallari to‘g‘ri va yagona sistemaga keltirilgan. Bu esa fan olamidagi barcha ilmiy yo‘nalishlarning g‘oyalari asosidagi ilmiy bilimlar talabalarning ilmiy fikrlashini shakllantirish uchun asos bo‘ladi, degan xulosaga olib keladi. Maxsus fanlarning rivojlanishi oqibatida texnologik taraqqiyot ham rivojlanib boradi. Bundan oqilona fikrlash tuyg‘usi shakllanadi, bu esa muhandislik mentalitetiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Э.З.Имамов Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов. // “Science and innovation” international scientific journal. 2022. № 5. -С. 479-482.
2. B.B.Turdiqulov, O‘S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // Atom va molekulalarning yorug‘likni yutishi va nurlanishi // 2022. –C. 1252-1258.
3. Э.З. Имамов, Х.Н.Каримов, А.Э.Имамов. // Янги Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергия манбаларини жорий этиш билан боғлиқ муаммолар. // “Science and innovation” international scientific journal. 2022. № 3. -С. 367-372.
4. X.N.Karimov. //Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish.// “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. –P. 102-104.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

5. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov. // Development of creative thinking in higher education.// “Science and innovation” international scientific journal. 2023. №3. -C. 359-361.
6. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies. // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233.
7. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies. // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -C. 471–475.
8. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. // Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o‘qitishni rivojlantirish.// “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. 2023. –P. 113-115.
9. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov, S.S.Xalilov, A.E.Imamov. //The future belongs to learning with an active process of self-education of students // // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 2022. -C. 479-482.
10. E.Imamov, X.Karimov. //Kredit tizimi sharoitida fizika fanining elektromagnitizm bo‘limidan laboratoriya ishlarini tashkil etish muammo va uning yechimlari// “Ta’lim va innavatsion tadqiqotlari” jurnali. №12. 2022. –B. 154-158.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullayeva Shoira Isajanovna**, assistant [**Абдуллаева Шоира Исажановна,** ассистент], [**Abdullayeva Sh. Isajanovna**, assistant] manzil: Toshkent 100084, Amir Temur shox ko‘chasi 108 uy [адрес: Tashkent 100084, Amir Temur Avenue 108], [address: Ташкент 100084, проспект Амира Темура 108]

✉**Djalalov Temur Asfandiyarovich**, PhD, dotsent, [**Джалалов Темур Асфандиярович**, PhD, доцент], [**Temur A. Djalalov**, PhD, Associate Professor]; manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo-Ulug‘bek tumani, Ulug'bek shaharchasi, Xuroson ko'chasi, 1-uy [адрес: Республика Узбекистан, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, город Улугбек, улица Хорасан, дом1], [address: Republic of Uzbekistan, Tashkent, Mirzo-Ulugbek district, Ulugbek city, Khorasan street, house 1]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA TOLERANTLIK TAFAKKURI VA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

© M.M. Yuldasheva[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada global o‘zgarishlar muhitida, globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida hamda davlatlararo xalqaro munosabatlarning noziklashib borishi vaziyatida har bir mamlakat, xususan, O‘zbekiston yoshlarining huquqiy bilimi, siyosiy dunyoqarashi, mustahakam fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy barqarorlikni, millatlar va davlatlararo totuvlikni ta’minlovchi muhim omil bo‘lishi jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning yangicha yo‘llari va mexanizmlarini yaratish zaruratini orttirishi, ijtimoiy barqarorlikni, millatlar va davlatlararo totuvlikni ta’minlovchi muhim omil bo‘lishi jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish va xorij tajribasi tadqiq etilganligi yoritilgani bayon etilgan.

MAQSAD: maqolada maqsad qilib O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik zarurati, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik jarayonning mavjud holati, rivojlantirish istiqbollari, yoshlarning huquqiy bilimi, siyosiy dunyoqarashi, mustahakam fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy barqarorlikni, millatlar va davlatlararo totuvlikni ta’minlovchi muhim omil bo‘lishi jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish va xorij tajribasi tadqiq etilganligi yoritilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada talabalar fuqarolik pozitsiyasinini takomillashtirishda ta’limning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish uchun ilmiy-tadqiqot ishlari o‘rganildi, ta’lim tizimi jamiyat va talaba integratsiyasining pedagogik mexanizmi sifatida yoritildi, adabiyotlar qiyosiy-tanqidiy o‘rganildi, tahlil qilindi, pedagogik kuzatish olib borildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning muhim omili ularda ma’naviy jasoratni tarbiyalash ekanligi yoritilgan.

XULOSA: fuqarolik pozitsiyasii yuksak intellektual kompetensiyasi, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy va siyosiy saviya va bilim, kompetensiyasi asosida shaklananadi.

Kalit so‘zlar: tolerantlik tafakkuri, dunyoqarash, qadriyatli yondashuv, fuqarolik pozitsiyasi, takomillashtirish, huquqiy bilim, ijtimoiy barqarorlik, davlatlararo totuvlik.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Iqtibos uchun: Yuldasheva M.M. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.211-219.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ И ГРАЖДАНСКОГО ПОЗИЦИОНИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТНО-ОРИЕНТИРОВОЧНОГО ПОДХОДА

© М.М. Юлдашева[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются обеспечение социальной стабильности, национального и межгосударственного согласия, являясь важным фактором, усиливает необходимость создания новых путей и механизмов развития активной гражданской позиции в обществе, социальной стабильности, национальной и международной, в условиях глобализации и интеграции, а также в ситуации ослабления межгосударственных международных отношений, правовые знания, политическое мировоззрение и гражданственность молодежи каждой страны, в частности, Узбекистана. Утверждается, что развитие активной гражданского позиционирования в обществе и исследование зарубежного опыта является важным фактором, обеспечивающим согласие.

ЦЕЛЬ: цель статьи – представить педагогическую необходимость развития активной гражданской позиции студентов на новом этапе развития Узбекистана, современное состояние педагогического процесса, направленного на укрепление гражданской позиции, перспективы развития, правовую Знания молодежи, политическое мировоззрение, сильная гражданская позиция способствуют социальной стабильности, национальному и межгосударственному согласию. Подчеркивается, что важным способствующим фактором является развитие активной гражданской позиции в обществе и изучение зарубежного опыта.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье изучены научно-исследовательские работы по изучению педагогических возможностей образования в повышении гражданской позиции студентов, а также выделена система образования как педагогический механизм интеграции общества и студентов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основе ценностного подхода выделено, что важным фактором повышения толерантности и гражданственности у студентов является воспитание у них морального мужества.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: позиция гражданина формируется на основе высокой интеллектуальной компетентности, широкого кругозора и глубокого мышления, правового и политического уровня и знаний, компетентности.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ключевые слова: толерантное мышление, мировоззрение, ценностный подход, гражданская позиция, совершенствование, правовые знания, социальная стабильность, межгосударственное согласие.

Для цитирования: Юлдашева М.М. Теоретические основы совершенствования толерантного мышления и гражданского позиционирования у студентов на основе ценностно-ориентировочного подхода. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 211-219.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF IMPROVEMENT OF TOLERANCE THINKING AND CITIZENSHIP POSITION IN STUDENTS BASED ON THE VALUE APPROACH

© Yuldasheva M. Mashkhura[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, in the context of global changes, in the context of globalization and integration, as well as in the situation of weakening interstate international relations, legal knowledge, political outlook and strong citizenship of the youth of each country, in particular, Uzbekistan, ensuring social stability, national and interstate harmony, being an important factor, increases the need to create new ways and mechanisms for the development of an active civic position in society, social stability, national and international. It is argued that the development of an active civic position in society and the study of foreign experience is an important factor in ensuring harmony.

AIM: the purpose of the article is to present the pedagogical necessity of developing active civic position of students at the new stage of development of Uzbekistan, the current state of the pedagogical process aimed at strengthening civic position, development prospects, legal knowledge of young people, political outlook, strong civic position contribute to social stability, national and interstate harmony. It is emphasized that an important contributing factor is the development of active civic position in society and the study of foreign experience.

MATERIALS AND METHODS: the article examines research papers on the study of pedagogical possibilities of education in increasing the civic position of students, and also highlights the education system as a pedagogical mechanism for integrating society and students.

DISCUSSION AND RESULTS: based on the value approach, it is highlighted that an important factor in increasing tolerance and citizenship in students is the education of moral courage in them.

CONCLUSION: the position of a citizen is formed on the basis of high intellectual competence, broad outlook and deep thinking, legal and political level and knowledge, competence.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Key words: tolerance mindset, worldview, value approach, citizenship position, improvement, legal knowledge, social stability, interstate harmony.

For citation: Yuldasheva M. Mashkhura. (2024) 'Theoretical foundations of improvement of tolerance thinking and citizenship position in students based on the value approach', Inter education & global study, (10), pp. 211-219. (In Uzbek).

Jahonda global raqobat muhitida yoshlarning huquqiy bilimini va siyosiy dunyoqarashini rivojlantirish orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham salmoqli o'zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda hamda jamiyatning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar faolligini oshirishning ijtimoiy-huquqiy, ilmiy-pedagogik asoslarini va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda azmu shijoatli yoshlarimizning o'rni va ta'siri tobora ortib borayotgani hammamizni quvontiradi». Biroq jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faoliyatida yoshlarni shunchaki ishtirokchi sifatida emas, islohotlarni, keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshiruvchi, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida harakatlanuvchi qatlamga aylantirish bugunning talabidir. Bu borada davlatimiz rahbari quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlagan edilar: «hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida, Vatan himoyasidek sharafli vazifani ado etishda milionlab yoshlarimiz sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilmoqda. Siyosiy saviyasi yetuk, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yuzlab yigit-qizlar parlamentimiz va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining a'zosi sifatida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat idoralarida rahbarlik lovozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda». Shunday ekan, global o'zgarishlar muhitida, globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida hamda davlatlararo xalqaro munosabatlarning noziklashib borishi vaziyatida har bir mamlakat, xususan, O'zbekiston yoshlarining huquqiy bilimi, siyosiy dunyoqarashi, mustahakam fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy barqarorlikni, millatlar va davlatlararo totuvlikni ta'minlovchi muhim omil bo'lishi jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning yangicha yo'llari va mexanizmlarini yaratish zaruratini ortirmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyatni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirishda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish, fuqarolik pozitsiyasiini qaror toptirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Fuqarolik pozitsiyasii yuksak intellektual kompetensiyasi, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy va siyosiy saviya va bilim, kompetensiyasi asosida shaklananadi. Shuningdek, fuqarolik pozitsiyasiini rivojlantirishdagi muhim omil so'z erkinligi qadrldanadigan, qonun usuvor bo'lgan va fikrlar-xilma xilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur. Mazkur vazifalar asosida so'ngi yillarda mamlakatimizda yangi tizimi yaratildi va yangicha munosabat shakllandi. Fuqarolik pozitsiyasini namoyish etish uchun so'z erkinligi ta'minlanmoqda va fuqarolarning huquq va erkinlilarini kafolatlanmoqda. Zero, «keyingi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

paytda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgani, o‘g‘il-qizlarimizning ijtimoiy-faolligi, vatan va xalq taqdiriga dahldorlik hissini kuchayib borayotgani, zamonaviy, demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etishda navqiron avlodimizni munosib ishtirok etayotgani» ham jamiyatdagi fuqarolik pozitsiyasiini shakllanayotganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarning yechimini topish uchun quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi: falsafiy, ijtimoiy, tarixiy, pedagogik, psixologik adabiyotlar qiyosiy-tanqidiy o‘rganildi, tahlil qilindi, pedagogik kuzatish, sotsiometrik, tajriba-sinov (suhbat, anketa, test, intervyu), matematik-statistik tahlil natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va respublika olimlaridan V.Bespalko, M.Klarin, V.Slastyonin, G.Selevko, B.Lixachyov, B.Farberman, N.Sayidaxmedov, M.Ochilov, K.Zaripov, B.Xodjaev, Sh.Olimov, O‘.Tolibov, M.Usmonboeva, D. Ro‘zieva, R.Ishmuxamedov, A.Golich, N.Avliyoqulov, A.Shomuxamedov, Z.Ismoilovalarning tadqiqotlaridan foydalanildi.

Xorijiy davlatlar olimlaridan Ch.Lokxart, N.Ekstayna, G.Almond, S.Verb, S.Heller, E.Shilz, M.Xokeymerlar tadqiqot muammosi doirasida olib borgan izlanishlarda o‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasiini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish –har bir talabada o‘z xalqining tarixi, ma’naviy qadriyatlari, vatanning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o‘z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to‘laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir.

Tadqiqotchi A.Akramova fikricha, fuqarolik tushunchasi keng mazmun-mohiyatga ega bo‘lib, jamiyat a’zolarining siyosiy, ijtimoiy huquqlarini anglatadi. Fuqarolik tarbiyasi har tomonlama fidoyi, jamiyatga foyda keltiradigan, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni bajarishga layoqatli shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Davlat siyosatining asosini fuqaro hamda davlatning o‘zaro munosabatlari tashkil etadi. Uning mohiyati o‘zaro aloqador bo‘lgan burch va mas’uliyatlarni anglashdadir. Shuning uchun ham fuqarolik shaxsning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyasii ko‘rsatkichi sifatida tarkib topadi». Bu esa, «fuqarolik dunyoqarashining asosini bo‘lajak mutaxassisning o‘z haq-huquqlari va erkinligini anglashi hamda uni himoya qilishga tayyorligi tashkil etadi.

Tadqiqotchi A.Akramova fikricha, oliy ta’lim muassasalarining talabalari fuqarolik dunyoqarashiga ega bo‘lishlari uchun o‘zlarida muayyan sifatlarning tarbiyalanishiga erishishlari talab etiladi.

Faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yaxlit pedagogik jarayonning asosini tashkil etib, mazkur jarayonda talabaning qiziqishlari, ehtiyojlarini huquqiy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi. Ta’lim tizimi jamiyat va talaba integratsiyasining pedagogik mexanizmi hisoblanadi. Zero, «bugungi notinch va tahlikali zamonda yoshlarning ongi va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

qalbini egallashga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ularga qarshi kurashishda xalqimizning boy tarixi va kompetensiyasii, buyuk ajdodlarimiz jasorati, jonajon O‘zbekistonimizning milliy manfaatlari biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi». Buning uchun jamiyatimiz yoshlaridan daxldorlik tuyg‘usi va kuchli ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish talab etiladi.

Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlash uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning muhim omili ularda ma’naviy jasoratni tarbiyalash ekanligi kelib chiqmoqda.

Oliy ta’limda talabalarning fuqarolik dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyat integrallashgan axborotlarni taqdim etish jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayonda shakllantirilgan sifatlar, birinchi navbatda, talabalarning ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni siyosiy faollikka undaydi. Rivojlanish tendensiyalari va rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashganlik, intellektual, ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik va faol fuqarolik dunyoqarashi kabi sifatlar bugungi talaba-yoshlarga xos bo‘lishi lozim.

Oliy ta’limda yaratilgan erkin ijtimoiy muhit qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish erkinligi, so‘z erkinligi, siyosiy munosabatlarda ishtirok etish erkinligi jamiyatidagi siyosiy, iqtisodiy holat haqidagi turli-tuman nuqtai nazarlarni bir-biri bilan yaqinlashtiradi.Buning natijasida talaba-yoshlar jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-siyosiy faollik ularning huquqiy kompetensiyasiini ham rivojlantiradi. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni o‘zini-o‘zi anglash, ijtimoiy-g‘oyaviy yetuklik, vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, fuqarolik faolligi, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas’uliyati, fidoyilik sifatlarini shaklantirishga xizmat qiladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga yo‘naltirilishi lozim.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10



1-rasm. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish sifatlari.

Demak, talabalarning fuqarolik pozitsiyasi ularning axloqiy-siyosiy va ijtimoiy bilimlari oshishi orqali kechadi. OTM talabalari fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishlari uchun o‘zlarida muayyan sifatlarning ham shakllanishiga erishishlari talab etiladi. Nazariy o‘rganish, ijtimoiy faoliyatini kuzatish, oliy ta’lim mazmuni bilan tanishish orqali yetuk fuqaro bo‘lib shakllanish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishlari zarur.

OTM talabalarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarga ta’lim-tarbiya jarayonidagi saviyasizlik va ota-onalarning mas’uliyatsizligini keltirish mumkin. Bugungi ota-ona farzandi uchun namuna bo‘la olmayotgani va hayotiy vaziyatlarda o‘rnak bo‘la oladigan darajada bilimga va tajribaga ega emasligi asosiy omillardan biridir. Chunki yoshlarning dastlabki hayotiy ko‘nikmalari va ijtimoiy munosabatlarga kirishishi oiladan, ota-onaning yo‘naltirishi orqali kechadi. Ijtimoiy munosabatlarga yo‘naltira olmagan, fuqarolik mas’uliyatini singdira olmagan ota-ona va saviyasiz ta’lim tizimi yoshlarda ijtimoiy faollikni shakllanishiga to‘siq bo‘luvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida ham erkinlikning yo‘qligi va qolipga solingan informatsiyani singdirishga harakat qilish o‘qituvchilarda ijtimoiy faollikni namoyon qilishga undovchi sifatlarni shakllantirmaydi. Chunki ijtimoiy faollik ichki quvvatning namoyon bo‘lishi va bu erkinlikda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan birinchi navbatda, talabalarga ilm olishda erkinlik, fikrlashda, tafakkur qilishda erkinlik, tanlovlarda erkinlikni berish, erkin ta’lim olish muhitini shakllantirish talab etiladi. So‘ngi yillarda bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirildi va umuman olganda, ta’limga yondashuv tubdan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

o‘zgardi, oliy ta’limda akademik erkinlikni shakllana borishi bilan talabalarning hayotiy va fuqarolik pozitsiyalarida ham o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Mehnat bozorida ham yetarlicha muammolarning mavjudligi talabalarning ijtimoiy faolligini va faol fuqarolik pozitsiyasini yuqori saviyada ko‘rsatib berish imkonini bermaydi. Mehnat bozori talabaning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi makon hisoblanadi. Chunki mehnat bozori talablarining yuqoriligi, unda ijtimoiy adolatning ta’minlanishi bo‘lajak kadrlarning ijtimoiy faolligiga ta’sir ko‘rsatadi, ularni bilim olishga, o‘z ustida ishlashga, kerakli ko‘nikma va malakalarni egallashlarini talab etadi. Bu esa Bo‘lajak o‘qituvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllanishini tezlashtiradi. Bugungi bilimsiz, maqsadsiz va ijtimoiy qiziqishlarsiz talabalarning fuqarolik pozitsiyasi ham past, ijtimoiy faolligi ham qoniqarli emas.

Bugungi kunda oliy ta’limda talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali ularni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoyalash, diniy ekstrimizm, terrorizm, giyohvandlik va ommaviy kompetensiyasi kabi ideologik tajovuzlarga qarshi turish kompetensiyasini ham mustahkamlash talab etilmoqda. Buning uchun «xalqimizga xos bag‘rikenglik, kechirimlilik va olijanoblik fazilatlaridan kelib chiqib, bilib-bilmay jinoyatga qo‘l urgan, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan, o‘z qilmishidan chin dildan pushaymon bo‘lgan yoshlarni kechirish va tinch hayotga qaytarishga yurtimizda katta e’tibor qaratilmoqda». Shunday ekan, yoshlarni faol ijtimoiy hayotga yo‘llash, ularni qo‘llab-quvvatlash va tarbiyaviy ijtimoiy muhitni shaklantirish orqali ularni turli tahdidlardan himoyalash, faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash vazifalari ham yuzaga chiqmoqda.

Oliy ta’limda talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda huquqiy kompetensiyasi bilan birga g‘oyaviy tarbiya ham muhim ahamityaga ega hisoblanadi. Bo‘lajak kadrlarda ijtimoiy faollikni oshirish, ularda ijtimoiy mas’uliyatni, jamiyatga dahldorlik tuyg‘usini shakllantirishda ijtimoiy ong shakllari bo‘lgan fan, din, falsafa, san’at, badiiy adabiyot, axloq va huquq g‘oyaviy tarbiyaning manbalari va asosi hisoblanadi. Shu bois talabalarni kuchli mutaxassis, raqobatbardosh kadr bo‘lish bilan birga faol fuqaro, erkin, ozod va keng fikrli inson qilib tarbiyalash, dunyoqarashi va tafakkuri teran kadr sifatida yetishtirish davr talabidir va bugungi islohotlarning bosh maqsadidir. Shuningdek, olib borilayotgan ta’lim va tarbiya jarayonlari talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini dunyoviy, ilmiy bilimlar bilan boyitishga yo‘naltirilgach, bu ularning faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishlariga ko‘maklashadi.

Fuqarolik tarbiyasi, fuqarorlik dunyoqarashini shakllantirish barkamol avlodni tarbiyalashning markaziy masalasi hisoblanadi. Fuqarolik fidoyilik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning eng yuqori nuqtasi sifatda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fidoyi yoshlarni tarbiyalash uchun dastlab ularda fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish lozim. Fuqarolik pozitsiyasii yuksak intellektual kompetensiyasi, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy va siyosiy saviya va bilim, kompetensiyasi asosida shaklananadi. Shuningdek, fuqarolik pozitsiyasiini rivojlantirishdagi muhim omil so‘z erkinligi qadrldanadigan, qonun usuvor bo‘lgan va fikrlar xilma- xilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

pozitsiyasini takomillashtirish – har bir talabada o‘z xalqining tarixi, ma’naviy qadriyatlari, vatanning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o‘z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to‘laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.496.,489.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. -B. 386.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.440.
4. Akramova A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilar fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni o‘rni. // Zamonaviy ta'lim. 2017. № 4. –B. 56.
5. Akramova A.A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozisiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish. // Doktorlik dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016. – B.78.
6. Yuldasheva M.M. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish texnologiyasi
7. Yuldasheva M.M. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkurini takomillashtirish texnologiyasi.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yuldasheva Mashxura Muzafarovna**, Buxoro davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), [**Юлдашева Машхура Музафаровна**, старший преподаватель Бухарского государственного педагогического института, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)], [**Yuldasheva M. Mashkhura**, Senior Lecturer of the Bukhara State Pedagogical Institute,Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)]; [manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh., Buxoro sh., Piri Dastgir ko'chasi, 2-uy], [адрес: Узбекистан, г.Бухара, ул. Пири Дастгир, 2], [address: Uzbekistan, Piri Dastgir st. 2, Bukhara city]; https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-4048-2775;mashhurayuldasheva1973@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

O‘ZBEKISTON MUSIQIY TA’LIM TIZIMIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MUAMMOLARI (XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBALARI MISOLIDA)

© D. Payzieva[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada kompyuter texnologiyalarini musiqiy ta'limga joriy etish masalalari xorij mamlakatlari tajribasini o‘rganish orqali ko‘rib chiqiladi. Xamda O‘zbeksiton musiqiy ta'limida yuzaga kelayotgan ba’zi muammolarga samarali yechim sifatida takliflar taqdim etiladi.

MAQSAD: O‘zbekiston musiqiy ta’lim tizimida kompyuter texnologiyalarini joriy etish muammolariNI tadqiq qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: O‘zbek maqomlari, folklor, zamonaviy musiqalar, musiqa ta’limi dasturlari va mustaqillik davri musiqiy loyihalari. Tarixiy va komparativ tahlil, empirik tadqiqot, san’atkorlar bilan suhbatlar va musiqiy loyihalarni o‘rganish. O‘zbek musiqasi ma’naviyat va madaniy uyg‘onishni yuksaltirib, uchinchi renessans asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: musiqa bilim yurtiga kelayotgan o‘quvchilar infokommunikatsiya jamiyatiga tegishli ekanini yoddan chiqarmaslik muhimdir. Shu qatorda komp'yuter, ahborot texnologiyalari ularni kundalik turmush tarzini tashkil etishi, hamda ularda ma'lumotni elektron manbaalardan olish ko‘nikmasi shakllanganligi pedagoglar tomonidan e'tiborga olinishi zarurdir. Shu sababli ham KT larini sol'fedjio xonalarida paydo bo‘lishi o‘quvchilarni fanga nisbatan qiziqishini va motivatsiyasini kuchaytirishi extimoli kattadir.

XULOSA: milliy musiqiy merosimizni o‘qitishga qaratilgan “Maqom alifbosi”, “Maqom musiqasi tarixi” kabi fanlarda o‘quvchilarni o‘zbek an'anaviy musiqa merosi zamirida tarbiyalashda KT lari katta ahamiyat kasb etadi. Biz pedagoglarga ma'lumki, maqomning yetuk va badiiy tafakkuri juda murakkab bo‘lib, maktab yoshidagi o‘quvchilarga uni o‘qitish va singdirish bir muncha murakkab jarayondir. Lekin mavzularni o‘qitishda KT larining prezentatsiya shaklidan foydalanish, mavzuga doir video lavhalar ko‘rsatish orqali o‘quvchilarda fanga qiziqish uyg‘otilganligi amaliyotimiz davomida o‘z aksini topib kelmoqda.

Kalit so'zlar: musiqiy ta'lim, komp'yuter texnologiyalari, musiqashunoslik, musiqiy savod, musiqa nazariyasi, sol'fedjio, maqom alifbosi.

Iqtibos uchun: Payzieva D. O‘zbekiston musiqiy ta’lim tizimida kompyuter texnologiyalarini joriy etish muammolari (xorij mamlakatlari tajribalari misolida). // Inter education & global study. 2024. №10 B.220-226.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМУ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА (НА ПРИМЕРЕ ОПЫТА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН)

© Д. Пайзиева[1]✉
[1]Государственная консерватория Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются вопросы внедрения компьютерных технологий в музыкальное образование путем изучения опыта зарубежных стран. И как эффективное решение некоторых проблем, возникающих в музыкальном образовании Узбекистана.

ЦЕЛЬ: исследование проблем внедрения компьютерных технологий в системе музыкального образования Узбекистана.

Материалы и методы: узбекские статусы, фольклор, современная музыка, музыкальные образовательные программы и музыкальные проекты периода независимости. Исторический и компаративный анализ, эмпирическое исследование, интервью с артистами и изучение музыкальных проектов. Узбекская музыка занимает важное место в формировании основ третьего возрождения, возвышая духовность и культурное пробуждение.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: важно помнить, что учащиеся, поступающие в музыкальное учебное заведение, принадлежат к инфокоммуникационному обществу. Педагоги должны учитывать, что компьютеры, информационные технологии составляют их повседневный образ жизни, а также то, что у них сформированы навыки получения информации из электронных источников. По этой причине вполне вероятно, что появление компьютерной томографии в комнатах sol'fedgio повысит интерес и мотивацию учащихся к науке.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в таких дисциплинах, как “азбука статуса”, “история музыки статуса”, направленных на изучение нашего национального музыкального наследия, КТ играют важную роль в воспитании учащихся на основе наследия узбекской традиционной музыки. Мы, педагоги, знаем, что зрелое и художественное мышление статуса очень сложное, и его обучение и привитие учащимся школьного возраста является несколько сложным процессом. Но использование формы презентации КТ в преподавании предметов, проявление интереса учащихся к предмету посредством демонстрации видеороликов по теме находит отражение и в нашей практике.

Ключевые слова: музыкальное образование, компьютерные технологии, музыковедение, музыкальная грамотность, теория музыки, сольфеджио, алфавит статуса.

Для цитирования: Пайзиева Д. Проблемы внедрения компьютерных технологий в систему музыкального образования Узбекистана (на примере опыта зарубежных стран). // Inter education & global study. 2024. №10. С. 220-226.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

PROBLEMS OF INTRODUCING COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE MUSIC EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN (USING THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES)

© Dilnoza Payzieva[1]✉
[1]State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: This article discusses the implementation of computer technology in music education by studying the experience of foreign countries. And as an effective solution to some of the problems that arise in music education in Uzbekistan.

AIM: to study the problems of computer technology implementation in the music education system of Uzbekistan.

MATERIALS AND METHODS: Uzbek statuses, folklore, modern music, musical educational programs and musical projects of the independence period. Historical and comparative analysis, empirical research, interviews with artists and the study of musical projects. Uzbek music plays an important role in shaping the foundations of the third renaissance, elevating spirituality and cultural awakening.

DISCUSSION AND RESULTS: It is important to remember that students entering a music educational institution belong to an information and communication society. Teachers should take into account that computers and information technology make up their daily lifestyle, as well as the fact that they have developed the skills to obtain information from electronic sources. For this reason, it is likely that the advent of CT scans in sol'fedgio rooms will increase students' interest and motivation in science.

CONCLUSION: in disciplines such as the ABC of Status and the history of music of status, aimed at studying our national musical heritage, CT plays an important role in educating students based on the legacy of Uzbek traditional music. We, teachers, know that mature and artistic thinking of status is very complex, and its teaching and instilling in school-age students is a somewhat difficult process. But the use of the CT presentation form in teaching subjects, the manifestation of students' interest in the subject through the demonstration of videos on the topic is reflected in our practice.

Key words: music education, computer technology, musicology, musical literacy, music theory, solfeggio, alphabet of status.

For citation: Dilnoza Payzieva. (2024) 'Problems of introducing computer technologies in the music education system of Uzbekistan (using the experience of foreign countries)', Inter education & global study, (10), pp. 220-226. (In Uzbek).

XXI asrga kelib pedagogika fani butun dunyo bo'ylab yangicha talqinga ega bo'la boshladi. Bunday o'zgarishlarga albatta fan va texnikaning uyg'unlashuvi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jaxon iqtisodiyoti va ilm fandagi keskin o'zgarishlar ma'lum tizimlarda yangi strategiyalar va innovatsion texnalogiyalarni ishlab chiqilishiga va shu bilan bir qatorda pedagogika ilmida xam yangi yo'nalishlarni paydo bo'lishiga olib keldi. Ta'lim tizimida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

komp'yuter texnologiyalari atamasining paydo bo‘lishi ham pedagogikada yangi vazifalar, maqsadlar, vositalar va ta'lim shakllarining paydo bo‘lishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunga kelib ta'lim tizimining barcha bosqichlarida komp'yuter texnologiyalari muhim o‘rin egallagani ma'lumdir. Shuningdek dunyoning qator oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'limni komp'yuterlashtirishning nazariy va amaliy muammolari ustida izlanishlari olib borilayotganini kuzatish mumkin. Shu qatorda musiqa ta'limi yo‘nalishi ham bundan mustasno emas. Maqolada xorij mamlakatlari tajribasi asosida O‘zbekistonda musiqiy ta'lim tizimiga KT larini joriy etish masalalari va uning ta'limga ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

Musiqiy ta'limga KT larini kirib kelishi o‘z navbatida kompozitorlik ijodida elektron musiqa yo‘nalishlarining paydo bo‘lishi hamda EXM larni yaratilishi bilan bog‘liqdir.

Musiqiy ta'limga oid birinchi komp'yuter dasturlari Dj. JI. Evans, R. Gleyzer va JI. Ye. Xomm hamkorligida musiqashunoslik va musiqa nazariyasi asosida ishlab chiqilgan “Musiqashunoslik asoslari” va “Musiqa asarlarini idrok etish” hisoblanib, yetarlicha grafik va audial imkoniyatlarga ega bo‘lmagan. Yuqorida keltirilgan ishlar asosan tovushning fizik xususiyatlari, musiqaning algoritmik tabiatiga asoslanib, uni komp'yuter yordamida modellashtirishga qaratilgan edi. [6]

Fizik-matematik hamda musiqachi R. X. Zaripov tomonidan yaratilgan garmoniya masalalarini tekshiruvchi ekzamenator-dasturi ko‘pgina mutahassislar e'tiborini jalb etadi. Undan tashqari muallif kibernetika va musiqa [4], ma'lum musiqiy uslubdagi kompozitsiyalarni komp'yuter orqali modellashtirish, musiqiy amaliyotda EHM larini qo‘llash muammolariga [5] qator ilmiy ishlarini bag‘ishlaydi. Keltirilgan manbaalardan ma'lumki KT lari ustida tadqiqot ishlari oliy musiqiy ta'lim muassasalarida olib borilib asosan talabalarni o‘qitishga qaratilgan edi.

Texnik mukammallashuv zamirida va shaxsiy komp'yuterlarning ixtirosi ortidan KT tushunchasi yangi bosqichga ko‘tariladi. Bu davrda ta'lim tizimida innovatsiyalar alohida maxsus tadqiqot ob'ektiga aylana boshladi. Musiqani komp'yuter yordamida o‘qitish yangi – pedagogik texnologiya sifatida qabul qilinadi. Mazkur davrda ko‘pgina davlatlarning yuqori ta'lim muassasalari MKT larini qo‘llash usullari va vazifalari ustida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni yo‘lga qo‘yadi. Musiqashunoslar tomonidan EHM davrida bosib o‘tilgan tajribalar natijasini hulosalash va komp'yuterlarni musiqiy ta'limga berishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni ilmiy taxlil va tahmin etish orqali yangi ilmiy muammolar ajratib olinadi [7]: musiqa yaratishga moslashtiril-gan dasturlarni ishlab chiqish; musiqa nazariyasi va musiqa tarihini o‘qitishga hizmat qiluvchi komp'yuter kurslarini yaratish; musiqiy idrokni shakllantiruvchi universal musiqiy komp'yuter vositalarini yaratish; KT ni ta'limda qo‘llashning psixologo-pedagogik masalalari; musiqiy ta'limda komp'ter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kurslar va lektsiyalar tashkil etish; musiqiy informatika masalalari.

Musiqiy ta'limni kompyuterlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosan 1980-yillardan boshlab dolzarb hisoblanib, konservatoriyalar, institut va musiqa laboratoriyalarida tadqiq etila boshlandi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Rossiya davlatining 80-yillik tadqiqotlarga asoslangan malakasi KT larini musiqiy ta'limga tadbiq etishga asoslangan bir qator ilmiy tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etishga sharoit yaratdi. M. I. Glinka nomidagi Novosibirsk davlat konservatoriyasining “Musiqiy ta'limni komp'yuterlash” kafedrasi, P.I. Chaykovskiy nomidagi Moskva Davlat Koservatoriyasida “Hisoblash markazi”, G.R. Taraeva tomonidan 2005 yil Rostov Davlat konservatoriyasida tashkil etilgan “innovatsion musiqiy pedagogika” kafedrasi, A.I. Gertsen nomidagi pedagogika univesitetida I. S. Garbunova tomonidan tashkil etilgan MKT – ilmiy-amaliy laboratoriyalari faoliyati – musiqiy KT larini mamlakat miqyosida joriy etishni tizimlashtiriga xizmat qilib: musiqiy ta'limni komp'yuterlashni tizimlashtirish; kadrlarni tayyorlashda musiqiy komp'yuter texnologiyalari savodiga o‘qitish (yuqori ta'lim muassasalarida “Musiqa va informatika” fakultetlari, kurslarining shakllanishi); ta'lim muassasalarini oxirgi rusumdagi elektron-mobil sozlamalar bilan jihozlash va uni dasturiy ta'minotini mukammallashtirish; musiqiy komp'yuter texnologiyalari yordamida o‘qitishning psixolo-pedagogik tamoyillarini ilmiy tadqiqot unsuriga aylantirish, uni uslubiyotini ishlab chiqish; mamlakatda ta'lim uzluksizligini ta'minlash, shu qatorda masofaviy ta'lim muammolarini o‘rganish kabi qator yutuqlarga erishdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda musiqiy ta'limga KT larini kirib kelishi 1990-yillarda O‘zbekiston Davlat konservatoriyasini personal komp'yuterlar bilan jihozlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ilk nota nashrlash dasturlari esa atoqli kompozitor F. M. Yanov-Yanovskiyning musiqiy informatika vositalariga qiziqishi va nota nashrlash dasturlarini o‘rganish tashabbusi bilan olib kirilgan. [9] Xozirda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi “Musiqiy ovoz rejissurasi va informatikasi” fakultetida ovoz rejissurasining akustik asoslari, elektron va komp'yuter musiqasi, ovoz yozish texnikalari va boshqa shu kabi yo‘nalishlar xaqida bilim berib kelinmoqda. Shu qatorda musiqiy ta'limda KT larining nazariy va amaliy muammolari yoritilgan ilmiy maqolalar e'tiborga loyiqdir. Musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitishda komp'yuterni qo‘llash usullari Yu. Kats va Z. Xodieva, musiqiy informatika va nota nashrlash dasturlari bilan ishlash masalalari esa Sh. Gafurova, M. Shamaxmudova kabi mualliflarning maqolalarida yoritilgan. Mazkur maqolalarda asosan yuqori musiqiy ta'lim bosqichlarida musiqiy nazariy fanlarni o‘qitishda komp'yuterdan foydalanish, nota nashrlash savodi va musiqiy informatika bilimini shakllantirish kabi muammolarga e'tibor qaratiladi.

Qayd etish joizki, davlatimizning birinchi prezidenti I. A. Karimov tomonidan qabul qilingan 2010-yildagi “2014 yilga qadar san'at va musiqa maktablariga alohida e'tibor qaratish” xaqidagi farmoni ostida musiqa va san'at maktablari elektron musiqiy doskalar va boshqa texnik vositalar bilan ta'minlanadi. Shular qatorida aytish joizki musiqiy nazariy va tarixiy fanlarni o‘qitish xonalari elektron musiqiy doska bilan ta'minlansada, o‘qituvchilarga uni ishlatish bo‘yicha qo‘llanma va ko‘rsatmalarni berilmasligi, umuman elektron vositalarni qo‘llagan holda dars olib borish tajribalarini sustligi sabab ulardan deyarli foydalanilmaganiga guvoh bo‘lindi. Aynan shu tajribamiz natijasida aytish mumkinki musiqiy ta'limga biriktiriladigan xar qanday vosita, sozlama va texnologiyalar ularni qo‘llashning nazariy va amaliy asoslanganligi hamda fan va tizimning maqsadidan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

kelib chiqishi lozim. Bu esa aynan biz musiqashunos-pedagoglarni mazkur muammolarga e'tiborni qaratishga undaydi.

KT larini musiqiy ta'limning barcha bosqichlarida samarador ekani xorij musiqashunos olimlarning tajribalarida tasdiqlanadi. Musiqiy ta'limda KT laridan foydalanish ko'proq pedagog-komp'yuter-o'quvchi o'zaro aloqasi funktsiyalariga asoslanadi [6]. Ya'ni komp'yuter o'quv jarayonida o'qituvchi faoliyatini yengillashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lsa, komp'yuterning qayta aloqaga chiqish xususiyati tufayli o'quvchiga mustaqil o'z ustida ishlash imkonini yaratadi. Yuqoridagi fikrlarni batafsil yoritadigan bo'lsak, ma'lum fanni o'qitish davomida o'qituvchining mavzuni tushuntirish, olingan bilim ko'nikmalarini hosil qilish va nazorat qilish kabi vazifalarini komp'yuter zimmasiga yuklatish mumkin. Fanga doir ko'nikmalar ustida ishlash va olingan bilimni testlash esa aynan komp'yuter va o'quvchi qayta aloqalariga tayanadi. Pedagog esa bu vaziyatda maslahatchi va jarayonni nazoratlovchi sifatida gavdalanadi. KT larining aynan shu xususiyatidan samarali foydalanish musiqiy nazariy va tarixiy fanlarni o'qitishda quylaylik va ijobiy natijalarni ko'rsatganini qator musiqashunoslik ishlarida ko'rish mumkin [1,2,3,8].

Bizga ma'lumki yetuk musiqachini tarbiyalashda uni musiqa savodini va eshitish qobiliyatini shakllantirish ijrochilik mahoratini tarbiyalashdek muhim jarayon hisoblanadi. Afsuski aynan mazkur jarayonga yo'naltirilgan musiqiy-nazariy fanlar xozirgi kunda ayanchli ahvolda deb aytish mumkin. Bunga esa o'z navbatida musiqa nazariyasi va sol'fedjio fanlarini o'qitish bo'yicha mavjud metodikalarni deyarli yo'qolib ketgani va ayni damda samara beruvchi metodikalarni mavjud emasligi; mazkur fanlarni ijrochilik amaliyoti va kompozitorlik ijodidan uzoqlashgan holda, "quruq" tarzda o'tilishi sabab bo'lib kelmoqda. Buning oqibatida birinchi navbatda musiqiy-nazariy fanlarga ajratilgan soatlarning qisqarib ketishi hamda o'quvchilarning mazkur fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini sustlashib ketishiga oshlib kelayapti. O'zbekistonda KT larini musiqa maktablarida musiqiy-nazariy fanlar kesimida qo'llash yuqorida keltirilgan muammolarga ma'lum darajada yechim bo'lishi kutiladi.

KT lari o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda qulay sharoit yaratadi. Musiqiy nazariy fanlar uchun ishlab chiqilgan mobil dasturlarda musiqa savodini oshirish ("Pomoshnik po teorii muziki", "Teoriya muziki", "My music Theory"), eshitish qobiliyatini testlash ("Absolyutniy slux", "Ear master"), musiqa bastalash ("Music Writer", "Finale", "Score; Cornelius Composer"), berilgan kuyni turli asboblar tembrida tinglab ko'rish, uni aranjirovka qilish o'quvchilarda ijodiy salohiyatni o'stirishi shubhasizdir.

Misol uchun "maqom cholg'u asboblari" mavzusini o'tishda maqom ustalarining ijrosidagi video lavhalarini ko'rish orqali o'quvchilarda yaxlit bilim hosil qilish imkoni yuzaga keladi. Ya'ni birgina video lavhada o'quvchilar milliy cholg'ularning tuzilishi, unda ijro etish texnikalari, maqom ijrochiligida ovoz imkoniyatlari va xususiyatlari, maqomni ijro etish madaniyati, milliy liboslarimiz haqida ma'lumotni qabul qiladilar.

Bir tomondan KT lari orqali o'quvchilarda motivatsiyani yuzaga keltirib olinsa, ikknchi tomondan musiqashunos-pedagoglar zimmasiga uning dasturiy ta'minoti algoritmini, KT

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

larini qo‘llash metodikasini ishlab chiqish vazifasini yuklaydi. Xorij mamlakatlari tajribasiga tayangan holda O‘zbekiston musiqiy ta'lim tizimiga KT joriy etish masalalari quyidagi bir qator muammolarda aks etadi: musiqiy ta'limni komp'yuterlashni tizimlashtirish; musiqachi pedagog kadrlarni tayyorlashda musiqiy komp'yuter texnologiyalari savodiga o‘qitish; musiqiy komp'yuter texnologiyalari yordamida o‘qitishning psixologik va pedagogik tamoyillarini ilmiy tadqiqot unsuriga aylantirish, uni uslubiyotini ishlab chiqish;mamlakatda ta'lim uzluksizligini ta'minlash, shu qatorda masofaviy ta'lim muammolarini o‘rganish; ta'lim muassasalarini oxirgi rusumdagi elektron-mobil sozlamalar bilan jihozlash va uni dasturiy ta'minotini yaratish.

O‘zbekiston musiqiy ta'lim sharoitida MKT larni jarayonga singdirish, o‘z navbatida oliy bilim yurtlari, tadqiqot institutlari tomonidan ilmiy darajada o‘rganishni va tadbiq etishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Matjaž Debevc, Jernej Weiss, Andrej Šorgo, Ines Kožuh. Solfeggio learning and the influence of a mobile application based on visual, auditory and tactile modalities.// British Journal of Educational Technology (BJET), Volume51, Issue1
2. Горбунова И. Б. Феномен музыкально-компьютерных технологий как новая образовательная творческая среда // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2004. №9. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/fenomen-muzykalno-kompyuternyh-tehnologiy-kak-novaya-obrazovatelnaya-tvorcheskaya-sreda
3. Дядченко М. С. Инновационные технологии в музыкальном обучении: тестирование слуховых навыков. Дисс. на соис. уч. степени кандидата искусствоведения. Р. на-Дону, 2006.
4. Зарипов Р. Х. Кибернетика ва музыка. М., 1971 й.
5. Зарипов Р.Х. Проблемы применения ЭВМ в музыкальной практике//ЭВМ и проблемы музыкальной науки. Новосибирск, 1988.
6. Полозов С. П “Обучающие компьютерные технологии в музыкальном образовании”. Дисс. на соис. уч. степени кандидата искусствоведения. Новосибирск, 2000.
7. Пучков С. В. Музыкальные компьютерные технологии как новый инструментарий современного творчество. Дисс. на соис. уч. степени кандидата искусствоведения. С. П., 2002
8. Тараева Г. Р. Информационная технологии и музыкальная педагогика // Инноватика в музыкальном образовании. Проблемы музыкальной науки / Music Scholarship, 2(1), 214–220.
9. Умуров. Н. К. Музыкальные информационные технологии в сфере развития музыкального искусства // Электронный журнал: Наука, техника и образования. 2018

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Пайзиева Дилноза,** mustaqil izlanuvchi, [**Пайзиева Дилноза,** соискатель]**, [Payzieva Dilnoza**, Independent Researcher] manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Almazar 1, Узбекистан, г. Ташкент, Шайхантахурский район, Алмазарский 1, Uzbekistan, Tashkent city, Shaykhantakhur district, Almazar 1

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

BO‘LG‘USI MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

© X.N. Bazarov[1]✉

[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirishning ijtimoiy va pedagogik zaruriyatlari yoritilgan. Kasbiy ident tushunchasi, uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, o‘qituvchi shaxsining shakllanishida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning o‘rni tahlil qilingan. Milliy madaniyatni saqlash va targ‘ib qilishda musiqa ta’limining ahamiyati, jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi roli hamda milliy va xalqaro tajribaning integratsiyasi yoritilgan.

MAQSAD: maqola musiqa ta’limi sifatini oshirish va milliy madaniyatni boyitishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan. Mazkur maqolada bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirishning ijtimoiy va pedagogik zaruratlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy ta’lim tizimida bu jarayonni amalga oshirishning samarali usullari va xorijiy tajribalari ham o‘rganiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda miqdoriy va sifat ma'lumotlaridan foydalangan holda aralash usullar qo'llaniladi. Bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirish bo'yicha qo'llanmalar, o'quv tadqiqot maqolalari va uslubiy o'quv dasturlarida qatnashgan o'qituvchilarning so'rov ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Usullar so'rovlar, suhbatlar, sinfda kuzatishlar va talabalar faoliyati ma'lumotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Miqdoriy ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi, sifatli ma'lumotlar esa mavzuli kodlash va hikoya tahlili orqali tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida ta'lim tizimining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon, nafaqat o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash, balki jamiyatning madaniy va ma'naviy boyligini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu jarayonning asosiy jihatlari yoritiladi. Bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarining kasbiy identi rivojlanishi nafaqat ularning shaxsiy o‘sishi, balki milliy musiqa ta’limining sifatini oshirishga, yosh avlodning madaniy va ma’naviy tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA: milliy musiqa madaniyatini jahon miqyosida targ‘ib qilish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish va musiqa ta’limini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishga imkon beradi. Shu sababli, kasbiy identni rivojlantirish ta’lim tizimining barcha darajalarida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Faqat shunda biz

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

madaniy boyliklarni asrab-avaylash va ularni yangi avlodga etkazish orqali madaniy taraqqiyotga erisha olamiz.

Kalit so'zlar: kasbiy ident, musiqa o‘qituvchilari, milliy madaniyat, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar, ijodkorlik, integratsiya, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar.

Iqtibos uchun: Bazarov X.N. Bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati. // Inter education & global study. 2024. №10 B.227-235.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

© Х.Н. Базаров[1]✉
[1]Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье описаны социально-педагогические потребности развития профессиональной идентичности будущих учителей музыки. Анализируется понятие профессиональной идентичности, ее значение в педагогической деятельности, роль современных технологий и инновационных подходов в формировании личности педагога. Подчеркивается значение музыкального образования в сохранении и развитии национальной культуры, его роль в удовлетворении потребностей общества, интеграции отечественного и международного опыта.

ЦЕЛЬ: статья обогащена практическими рекомендациями, направленными на повышение качества музыкального образования и обогащения национальной культуры. В данной статье анализируются социально-педагогические потребности в развитии профессиональной идентичности будущих учителей музыки. Также изучаются эффективные методы реализации этого процесса в национальной системе образования и зарубежный опыт.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используются смешанные методы с использованием количественных и качественных данных. Включает руководства по развитию профессиональной идентичности у будущих учителей музыки, исследовательские статьи по обучению и данные опросов учителей, участвовавших в методических программах. Методы включают опросы, интервью, наблюдения в классе и анализ данных об успеваемости учащихся. Количественные данные анализируются с использованием статистических методов, тогда как качественные данные анализируются с помощью тематического кодирования и анализа историй.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Развитие профессиональной идентичности у будущих учителей музыки как социально-педагогическая необходимость является одним из стратегических направлений системы образования. Этот процесс служит не только обеспечению личного и профессионального развития учителя, но и

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

сохранению и развитию культурного и духовного богатства общества. Ниже освещаются основные аспекты этого процесса.

Развитие профессиональной идентичности будущих учителей музыки служит не только их личностному росту, но и повышению качества национального музыкального образования, укреплению культурного и духовного воспитания молодого поколения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: этот процесс позволяет продвигать национальную музыкальную культуру в мировом масштабе, развивать творческий потенциал и обогащать музыкальное образование инновационными подходами. Поэтому развитие профессиональной идентичности должно быть приоритетом на всех уровнях системы образования и поддерживаться государством. Только в этом случае мы сможем добиться культурного прогресса, сохраняя культурные ценности и передавая их новым поколениям.

Ключевые слова: профессиональная идентичность, учителя музыки, национальная культура, современные технологии, педагогические подходы, творчество, интеграция, современные технологии, инновационные подходы.

Для цитирования: Базаров Х.Н. Социально-педагогическая необходимость развития профессиональной идентичности у будущих учителей музыки. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 227-235.

THE SOCIO-PEDAGOGICAL NEED FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE MUSIC TEACHERS

© Bazarov N. Hayatbek[1]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article describes the social and pedagogical needs of professional identity development in future music teachers. The concept of professional identity, its importance in pedagogical activity, the role of modern technologies and innovative approaches in the formation of a teacher's personality are analyzed. The importance of music education in preserving and promoting national culture, its role in meeting the needs of society, and the integration of national and international experience are highlighted.

AIM: The article is enriched with practical recommendations aimed at improving the quality of music education and enriching national culture. This article analyzes the social and pedagogical needs for the development of professional identity in future music teachers. Effective methods of implementing this process in the national education system and foreign experiences are also studied.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods using quantitative and qualitative data. It includes guides on the development of professional identity for future music teachers, research articles on teaching and data from surveys of teachers who participated in methodological programs. The methods include surveys, interviews, classroom observations, and analysis of student performance data. Quantitative data is analyzed using statistical methods, whereas qualitative data is analyzed using thematic coding and story analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the development of professional identity among future music teachers as a socio-pedagogical necessity is one of the strategic directions of the education system. This process serves not only to ensure the personal and professional development of the teacher, but also to preserve and develop the cultural and spiritual wealth of society. The main aspects of this process are highlighted below.

the development of the professional identity of future music teachers serves not only their personal growth, but also to improve the quality of national music education, strengthen the cultural and spiritual education of the younger generation.

CONCLUSION: this process makes it possible to promote national musical culture on a global scale, develop creative potential and enrich musical education with innovative approaches. Therefore, the development of professional identity should be a priority at all levels of the education system and supported by the state. Only in this case will we be able to achieve cultural progress by preserving cultural values and passing them on to new generations.

Key words: professional identity, music teachers, national culture, modern technologies, pedagogical approaches, creativity, integration, modern technologies, innovative approaches.

For citation: Bazarov N. Hayatbek. (2024) 'The socio-pedagogical need for the development of professional identity in future music teachers', Inter education & global study, (10), pp. 227-235. (In Uzbek).

Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularning milliy madaniyatni rivojlantirishdagi o'rnini yoritishdir. Shu orqali musiqa ta'limi tizimida ijodiy va professional o'qituvchilarni tayyorlashga hissa qo'shishdir. Musiqa ta'limi har qanday jamiyatning madaniy va ma'naviy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Uning vositasida insonlar madaniyatni anglash, estetik tuyg'ularni rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida milliy madaniyatni asrab-avaylash va uni yangi avlodga etkazish muhim vazifalardan biri bo'lib, bu jarayonda musiqa o'qituvchilarining roli beqiyosdir. Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarining kasbiy identini rivojlantirish masalasi, bir tomondan, shaxs sifatida ularning o'ziga xosligini va kasbiy malakasini oshirishni, boshqa tomondan esa, milliy musiqa madaniyatini saqlash va rivojlantirish uchun zaruriy kadrlarni tayyorlashni talab qiladi. Kasbiy ident – bu shaxsning o'zini kasbiy faoliyatda anglash,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

jamiyatga o‘z kasbiy qobiliyatlari orqali hissa qo‘shish, shuningdek, o‘z vazifasiga mas’uliyatli yondashish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy identning mohiyati shundaki, u o‘qituvchining kasbiy hayoti davomida rivojlanib boradigan dinamik jarayon bo‘lib, ta’lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, musiqa o‘qituvchilarining shaxsiy identifikatsiyasi jarayonida ularning ijodiy va didaktik qobiliyatlari, shuningdek, pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va o‘ziga xos pedagogik yondashuvlarni shakllantirish orqali xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda. Shu sababli, musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi faqatgina bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni emas, balki ularning ijtimoiy va shaxsiy mas’uliyatlarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Kasbiy ident — bu shaxsning o‘zini kasbiy faoliyat orqali anglash va o‘z qobiliyatlarini jamiyatga namoyon etish jarayonidir. Ushbu tushuncha shaxsning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ifodalaydi hamda uning jamiyatdagi ijtimoiy o‘rnini belgilaydi. Kasbiy ident jarayonida shaxs o‘z kasbiy maqsadlarini anglaydi, o‘ziga xosliklarini rivojlantiradi va tanlagan kasbiy yo‘nalishiga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Kasbiy identning mohiyati shaxsning o‘zini jamiyatning muayyan sohasida foydali deb his qilishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon, ayniqsa, pedagogik faoliyat sohasida dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki o‘qituvchi nafaqat o‘z kasbiy bilimlarini, balki shaxsiy xususiyatlarini ham ta’lim jarayonida ifoda etadi[4].

Kasbiy identning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati. Etakchi o‘rin tutishi: O‘qituvchining kasbiy identi uning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantiradi. Kasbiy ident pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asosiy omil bo‘lib, shaxsning kasbiy maqsadlari va qadriyatlarini aniqlaydi.

O‘z-o‘zini anglash va motivatsiya**:** O‘qituvchi o‘z kasbiy identini anglagan holda o‘z faoliyatini maqsadli va samarali tashkil etadi. Kasbiy ident shaxsning ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, bu esa uning faoliyat sifatini yuqori darajaga olib chiqadi[3].

Musiqa ta’limidagi o‘rni**:** Musiqa o‘qituvchisining kasbiy identi uning ijodiy qobiliyatlari, didaktik uslublari va talabalar bilan o‘zaro aloqasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday o‘qituvchilar ta’lim jarayonida o‘quvchilarda milliy musiqa madaniyatiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi va ularning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘zbekistonda mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim sohasida milliy qadriyatlarni rivojlantirish asosiy maqsadlarga aylandi. Milliy musiqa madaniyati va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni jamiyatning ma’naviy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan musiqa o‘qituvchilarining kasbiy identi ularning quyidagi faoliyatlarida aks etadi:

- Milliy qadriyatlarni asrash: O‘quvchilarga milliy musiqa an’analarini o‘rgatish va uni yangi avlodga etkazish;
- Ijodiy jarayonni rag‘batlantirish: Talabalarni ijodiy fikrlashga, yangi musiqa asarlarini yaratishga undash;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

- Musiqa madaniyatini targ‘ib qilish: Jamiyatda milliy musiqa madaniyatining ahamiyatini oshirish[1].

Kasbiy identni rivojlantirish yo‘nalishlari.

Shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish**:** O‘qituvchilar o‘zlarining ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uzluksiz o‘qish va treninglarda ishtirok etishlari kerak. Kasbiy kompetensiyalarni oshirish orqali o‘z sohasida muvaffaqiyatga erishish. Ta’lim tizimidagi yondashuvlar**:** Zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish orqali kasbiy o‘sishni ta’minlash. Ijodkorlik va innovatsion yondashuvlarni ta’lim jarayonida qo‘llash. Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish**:** Jamiyatning musiqa ta’limiga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olish. Milliy va xalqaro hamkorlikda tajriba almashish orqali musiqiy ta’limni yangi darajaga olib chiqish. Kasbiy ident musiqa o‘qituvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu jarayon shaxsning o‘ziga ishonchini oshirish, ijodiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatning madaniy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqil O‘zbekiston sharoitida kasbiy identni rivojlantirish orqali milliy musiqa madaniyati yangi bosqichga ko‘tariladi va bu jarayon yosh avlodning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Kasbiy identni rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati **-** bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirish ijtimoiy va pedagogik jihatdan muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonning zaruriyati milliy madaniyatni saqlash, ta'lim tizimi sifatini oshirish va shaxsiy rivojlanish orqali jamiyat talablariga mos mutaxassislar tayyorlashda namoyon bo‘ladi.

Jamiyat ehtiyojlari - musiqa o‘qituvchilari milliy madaniyatni saqlash va targ‘ib qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Ular jamiyatda quyidagi asosiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi:

- milliy o‘zlikni anglash: milliy madaniyat jamiyatning ma'naviy asosidir. musiqa o‘qituvchilari orqali yosh avlod milliy musiqa an’analarini o‘zlashtiradi va ular orqali o‘zligini anglashga yordam beradi.
- madaniy merosni avlodlarga etkazish: musiqa o‘qituvchilari xalq qo‘shiqlari, mumtoz kuylar va zamonaviy musiqa orqali jamiyatning musiqiy merosini yangi avlodlarga etkazadilar.
- estetik tarbiya: musiqa orqali o‘quvchilar estetik did va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi [2].

Kasbiy identni rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati. Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish: Musiqa o‘qituvchilari orqali milliy madaniyatni yoshlarga etkazish va uni boyitish jarayonida uzluksizlik ta'minlanadi. Bu nafaqat musiqiy merosni saqlash, balki yangi ijodiy asarlarni yaratish va ular orqali milliy o‘zlikni mustahkamlashga yordam beradi. Musiqa ta’limi orqali o‘quvchilarga milliy qadriyatlar, xalq kuy va maqomlarining ahamiyatini chuqur anglash imkoniyati beriladi.

O‘zbekistonda madaniy merosning jahon miqyosida tan olinishi: Bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarining kasbiy identi rivojlangan sari milliy musiqa jahon sahnasiga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘z navbatida xalqaro miqyosda O‘zbekistonning madaniy imijini oshiradi. Xalqaro musiqiy loyihalarda ishtirok etish va global musiqiy jarayonlarga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

qo‘shilish imkoniyatlari kengayadi. Jamiyatning ehtiyojlarini qondirish: Musiqa ta’limining samaradorligi oshgani sari, jamiyat musiqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan, madaniy qadriyatlarni qadrlaydigan avlodni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Musiqa o‘qituvchilarining faoliyati jamiyatda madaniy birlikni saqlash va mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ta'lim tizimi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yondashuvlar va islohotlarga bog‘liq. Bu rolda quyidagi omillar alohida ajralib turadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish: Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish musiqa o‘qituvchilarining o‘z kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, raqamli platformalar va musiqa dasturlari orqali ta'lim berish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki talabalarning qiziqishini ham kuchaytiradi. Amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish: Musiqa darslarida amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, talabalarni ijodiy jarayonlarga jalb qilish ularning kasbiy identini mustahkamlaydi. Qobiliyatlarni rivojlantirish: Ta'lim tizimi musiqa o‘qituvchilarida ijodiy, kommunikativ va texnologik qobiliyatlarni shakllantiradigan imkoniyatlar yaratishi lozim. Bu nafaqat o‘quvchilar bilan ishlashni, balki ularning musiqiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni ta'minlaydi. Milliy o‘ziga xosli- milliy o‘ziga xoslikni saqlash va uni yangi avlodga etkazish musiqa ta'limining eng asosiy vazifalaridan biridir. Bu bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Madaniy va tarixiy merosning ahamiyati: O‘zbekistonning boy musiqa merosi – mumtoz kuylar, maqomlar, xalq qo‘shiqlari va an’anaviy cholg‘u asboblari yoshlarda milliy o‘zlikni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Milliy g‘oyani shakllantirish: Musiqa o‘qituvchilari milliy g‘oyani targ‘ib qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Milliy musiqa orqali yoshlarda Vatanga sadoqat, o‘z milliy qadriyatlariga hurmat kabi tuyg‘ular rivojlanadi. Globalizatsiya sharoitida milliy madaniyatni saqlash: Bugungi globallashuv sharoitida milliy musiqa an’analarini targ‘ib qilish va yoshlar orasida ommalashtirish orqali madaniy xilma-xillikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati milliy madaniyatni saqlash, ta'lim sifatini oshirish va jamiyat talablariga javob beradigan ijodkor shaxslarni tayyorlash bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayon nafaqat o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishini, balki milliy va global musiqiy merosni boyitish orqali jamiyatning madaniy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Pedagogik yondashuvlarning o‘rni - bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida kasbiy identni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ular orqali o‘qituvchilar o‘z faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtiradi, shaxsiy va professional rivojlanishni ta’minlaydi va talabalarning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Quyida bu yondashuvlarning asosiy yo‘nalishlari va ular natijalari batafsil bayon etiladi. Kasbiy identni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati o‘qituvchi shaxsini kompleks rivojlantirish: Kasbiy ident o‘qituvchi shaxsini faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanmagan holda, balki uning shaxsiy, ma'naviy va ijodiy fazilatlarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘z faoliyatini takomillashtiradi. Kasbiy identni shakllantirish jarayonida o‘qituvchi darslarni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

samarali tashkil etish, talabalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish va ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha samarali metodlarni qo‘llaydi. Pedagogik yondashuvlar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib, ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. Ta’lim tizimini rivojlantirishga oid normativ hujjatlar to‘plami. Toshkent: Adolat, 2023.
2. Kolb, D. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
3. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
4. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Elliot, D. (1995). Music Matters: A New Philosophy of Music Education. New York: Oxford University Press.
6. Назаров, Х. (2018). Ўзбекистонда миллий мусиқа таълими тизими ва унинг ривожланиши. Тошкент: Ўқитувчи.
7. Каримов, Ш. (2020). Таълимда инновацион технологиялардан фойдаланишнинг самарали усуллари. Тошкент: Илм-зиё.
8. Yusufova, D. (2022). Musiqa ta’limida raqamli texnologiyalarni joriy etish. Toshkent: Innovatsion pedagogika jurnalining maxsus soni, 3(7), 25–29.
9. Hallam, S. (2010). The Power of Music: Its Impact on the Intellectual, Social and Personal Development of Children and Young People. International Journal of Music Education, 28(3), 269–289.
10. Жумаев, Р. (2021). Ўзбекистонда халқ мусиқий анъаналарини ўрганишнинг долзарб масалалари. Самарқанд: СамДУ нашриёти.
11. Hashimova, R. (2019). Musiqa pedagogikasi va ijodkorlikni rivojlantirish masalalari. Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi.
12. MacIntyre, P., & Potter, G. (2013). The Role of Motivation in Music Performance and Learning. Psychology of Music, 41(3), 301–323.
13. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2023). Milliy ta’lim dasturi: Musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnoma. Toshkent: Ta’lim bosma uyi.
14. Бердиқулов, Б. (2017). Миллий маданиятни сақлашда таълимнинг ўрни. Тошкент: Ёшлик.
15. UNESCO. (2019**).** Music Education: Global Perspectives and Challenges in the 21st Century. Paris: UNESCO Publishing.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

✉**Bazarov Xayotbek Ne'matovich,** katta o'qituvchi [**Базаров Хаётбек Неъматович**. старшего преподавател] [**Khayotbek N**. **Bazarov** Senior lecturer] Manzil: O'zbekiston Andijon shahri Universitet ko'chasi, 129- uy address Узбекистан город Андижан, улица Университетская, дом 129, address Uzbekistan, Andijan city, University street, 129

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

TA’LIM JARAYONIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

© N.N. Musayeva[1]✉, N.A. Musayeva[2]✉, M.A. Xamdamova[3]✉
[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
[2,3]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Didaktik o‘yinlar — o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik metod sifatida taqdim etiladi. Maqolada ushbu o‘yinlarning mohiyati, turlari va ta'limdagi amaliy ahamiyati haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, didaktik o‘yinlarni muvaffaqiyatli qo‘llash bo‘yicha muhim tavsiyalar keltirilgan.

MAQSAD: didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni oson o‘zlashtirish va mustahkamlashga imkoniyatlarini aniqlash, didaktik o‘yinlarning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati, ularning asosiy turlari hamda samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishjlsb chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: didaktik o‘yinlar ta'lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni qiziqtirish vositasi sifatida tadqiqotning metodologiyasi keng qamrovli tahlil, tarkibni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, empirik tadqiqot usullari va boshqalardan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dars mazmuniga mos va puxta rejalashtirilgan didaktik o‘yinlar nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar asosida o‘qituvchilar dars jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

XULOSA: didaktik o‘yinlar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: didaktik o‘yinlar, ta’lim metodlari, qiziqishni uyg‘otish, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash, o‘quvchilar faolligi, ta’lim samaradorligi.

Iqtibos uchun: Musayeva N.N., Musayeva N.A., Xamdamova M.A. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №10 B.236-242.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© Н.Н. Мусаева[1]✉, Н.А.Мусаева[2]✉, М.А. Хамдамова[3]✉
[1]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан
[2,3]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье освещается роль и значение дидактических игр в образовательном процессе. Дидактические игры-представлены как эффективный педагогический метод, служащий повышению интереса учащихся, закреплению знаний, развитию творческого и критического мышления, а также формированию навыков командной работы. В статье подробно рассказывается о характере, видах и практическом значении этих игр в воспитании. Также приведены важные рекомендации по успешному применению дидактических игр.

ЦЕЛЬ: повысить интерес учащихся к дидактическим играм, выявить возможности легкого усвоения и закрепления знаний, изучить роль и значение дидактических игр в обучении, их основные виды и рекомендации по эффективному применению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: дидактические игры как средство активизации учащихся в образовательном процессе, закрепления знаний и их заинтересованности методика исследования состоит из комплексного анализа, контент-анализа, сравнительного анализа, эмпирических методов исследования и др.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показывает, что соответствующие содержанию урока и тщательно спланированные дидактические игры не только повышают эффективность обучения, но и положительно влияют на личностное развитие учащихся. Основываясь на рекомендациях, изложенных в этой статье, учителя смогут сделать процесс урока более увлекательным и интерактивным.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: дидактические игры являются неотъемлемой частью современного образовательного процесса, делают познавательную деятельность учащихся интересной и эффективной. Эти игры служат для повышения интереса учащихся, развития навыков творческого и критического мышления, а также для формирования навыков командной работы.

Ключевые слова: дидактические игры, методы обучения, пробуждение интереса, творческое мышление, критическое мышление, командная работа, активность учащихся, эффективность обучения.

Для цитирования: Мусаева Н.Н., Мусаева Н.А., Хамдамова М.А. Роль и значение дидактических игр в образовательном процессе. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 236-242.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIDACTIC GAMES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

© Nodira N. Musayeva[1]✉, Nafisa A. Musayeva[2]✉, Madina A. Khamdamova[3]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
[2,3]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the role and importance of didactic games in the educational process. Didactic games are presented as an effective pedagogical method that increases students' interest, consolidates knowledge, develops creative and critical thinking, and forms teamwork skills. The article describes in detail the nature, types, and practical significance of these games in education. Important recommendations for the successful use of didactic games are also provided.

AIM: to increase students' interest in didactic games, to identify opportunities for easy assimilation and consolidation of knowledge, to study the role and importance of didactic games in learning, their main types and recommendations for effective use.

MATERIALS AND METHODS: didactic games as a means of activating students in the educational process, consolidating knowledge and their interest the research methodology consists of a comprehensive analysis, content analysis, comparative analysis, empirical research methods, etc.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis shows that appropriate lesson content and carefully planned didactic games not only increase the effectiveness of learning, but also have a positive effect on the personal development of students. Based on the recommendations outlined in this article, teachers will be able to make the lesson process more fun and interactive.

CONCLUSION: didactic games are an integral part of the modern educational process, making students' cognitive activity interesting and effective. These games serve to increase student interest, develop creative and critical thinking skills, and build teamwork skills.

Key words: didactic games, teaching methods, arousing interest, creative thinking, critical thinking, teamwork, student activity, learning effectiveness.

For citation: Nodira N. Musayeva, Nafisa A. Musayeva, Madina A. Khamdamova (2024) 'The role and importance of didactic games in the educational process', Inter education & global study, (10), pp. 236-242. (In Uzbek).

Ta'lim jarayoni doimiy rivojlanish va yangilanishni talab qiladi. Bugungi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biri — ta'lim jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qilishdir. Shu maqsadda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini faollashtirish va uni qiziqarli hamda samarali qilish maqsadida turli metod va yondashuvlardan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

foydalaniladi. Ushbu metodlar orasida didaktik o‘yinlar alohida o‘rin tutadi. Didaktik o‘yinlar ta'lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni qiziqtirish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi.

Didaktik o‘yinlarning mohiyati. Didaktik o‘yin — bu ma’lum maqsadga qaratilgan, qoidalar bilan chegaralangan, o‘quv jarayonida bilim olishni o‘yin shaklida tashkil etishga imkon beruvchi metod hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshirishga, balki ularda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o‘yinlarning turlari. Didaktik o‘yinlar turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ulardan foydalanish darsning maqsadi, mazmuni va bosqichiga bog‘liq. Asosiy turlaridan ayrimlarini qo‘rib chiqamiz: ma'lumotli o‘yinlar. bu o‘yinlar bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. masalan, viktorinalar, jumboqlar yoki savol-javob o‘yinlari; rolli o‘yinlar. o‘quvchilar muayyan rollarni bajarish orqali o‘rganayotgan mavzuni chuqurroq tushunadilar. masalan, tarixiy voqealarni sahnalashtirish; mantiqiy o‘yinlar. mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga mo‘ljallangan. masalan, krossvordlar, topishmoqlar; harakatli o‘yinlar. ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda qo‘llanilib, jismoniy faollik bilan birga bilim berishni maqsad qiladi.

Ma'lumotli o‘yinlar haqida gap yuritadigan bo’lsak ular o‘quvchilarning mavjud bilimlarini mustahkamlash va yangi ma'lumotlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan didaktik o‘yinlarning bir turidir. Bu turdagi o‘yinlar, odatda, savol-javoblar, viktorinalar, jumboqlar yoki ma'lumotlarni sinashga qaratilgan topshiriqlar orqali tashkil etiladi. Ma'lumotli o‘yinlar quyidagi afzalliklarga ega: qiziqarli o‘qitish. ushbu o‘yinlar dars jarayonini jonlantirib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi; mustahkamlash. ma'lumotli o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. masalan, til o‘rgatishda so‘z boyligini oshirish uchun so‘z o‘yinlari, matematikada esa sonli masalalarni yechish orqali bilganlarini mustahkamlash mumkin. o‘yin jarayonida bilimlar qayta tiklanadi va ko‘nikmalar rivojlanadi; ko‘p sonli ishtirokchilarni jalb qilish. guruhli yoki jamoaviy o‘yinlar barcha o‘quvchilarni jarayonga jalb etish uchun samarali usuldir. bu usul o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, birgalikda muammolarni hal qilishga va bir-birlaridan o‘rganishga imkon yaratadi. misol uchun, "javobni top o‘yini" yoki "jamoaviy viktorina" kabi mashqlar guruhni birlashtirishda foydalidir; mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. jumboqlar, savol-javoblar va masalalar yordamida o‘quvchilar o‘z mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. masalan, matematik mantiq jumboqlari yoki algoritmlarni tuzishga qaratilgan mashqlar orqali bolalar analitik fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. bu o‘yinlar nafaqat bilimlarni, balki muammoni hal qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Masalan, "Kim tezroq javob beradi?" nomli o‘yin o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha savollar berib, ularning tez va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, tarixiy mavzularda "Tarixiy sanalarni toping" kabi viktorinalar o‘quvchilarning faktlarni eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu o‘yinlar ta'limning ko‘plab sohalarida, xususan, til o‘rganish, matematika va tarix fanlarida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Didaktik o‘yinlarning ahamiyati:

o‘quvchilarning qiziqishini oshirish. didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otib, ularni dars jarayonida faol qatnashishga undaydi. o‘yin davomida o‘quvchilar mavzuni qiziqarli shaklda o‘zlashtiradilar va o‘z bilimlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. masalan, til o‘rgatishda "so‘z topish" o‘yini yoki matematikada "savol-javob" mashqlari qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi;

bilimlarni mustahkamlash. o‘yin shaklidagi topshiriqlar orqali o‘quvchilar darsda olgan bilimlarini takrorlaydilar va amaliyotda qo‘llaydilar. bunday o‘yinlar bilimlarning mustahkamlanishiga, ular orasidagi bog‘lanishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. masalan, tarix fanida viktorinalar yoki kimyo fanida tajribalar orqali bilimlar mustahkamlanadi;

ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. didaktik o‘yinlar o‘quvchilarga muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalarni taklif qilish va ularni amalga oshirishda ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. masalan, "rol o‘yinlari" yoki "muammo hal qilish" mashqlari ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi;

jamoaviy ishlash ko‘nikmasini shakllantirish. didaktik o‘yinlarning ko‘pchiligi guruhda amalga oshirilgani sababli, o‘quvchilar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, fikr almashishni va o‘zaro hurmat qilishni o‘rganadilar. masalan, "jamoa bilan yechim topish" o‘yini orqali hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. bu ko‘nikmalar nafaqat darsda, balki hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

dars mavzusiga mos o‘yin tanlash. o‘yin dars mazmuniga mos bo‘lishi va belgilangan maqsadga xizmat qilishi zarur. masalan, matematikaga oid mavzuda matematik masalalarni yechishga mo‘ljallangan o‘yin tanlash samaradorlikni oshiradi;

oddiy qoidalarni belgilash. o‘yin qoidalari o‘quvchilarga tushunarli va sodda bo‘lishi lozim. murakkab qoidalar o‘quvchilarning qiziqishini pasaytirishi va vaqtni behuda sarflashga olib kelishi mumkin. shuning uchun o‘yin boshlanishidan oldin qoidalar aniq tushuntirilishi lozim;

faoliyatni muvozanatlashtirish. o‘yin davomida barcha o‘quvchilar teng ishtirok etishi ta'minlanishi kerak. guruhdagi barcha ishtirokchilarni jarayonga jalb qilish uchun rollarni teng taqsimlash muhim. masalan, "savol-javob" o‘yinida savollarni navbat bilan berish orqali har bir o‘quvchi qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

tahlil va baholash. o‘yin yakunida natijalar muhokama qilinib, xulosa chiqarilishi lozim. bu jarayon o‘quvchilarning o‘z xatolarini tahlil qilishlari, ulardan saboq olishlari va kelgusida yaxshiroq natijalarga erishishlariga yordam beradi;

o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish. har bir o‘quvchi individual xususiyatlarga ega. didaktik o‘yinlarni tanlash va o‘tkazishda o‘quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishlariga mos keladigan usullarni qo‘llash zarur. masalan, kichik sinf o‘quvchilari uchun ko‘proq vizual va interaktiv elementlarga boy o‘yinlar samarali bo‘lsa, yuqori sinf o‘quvchilari uchun analitik va muammolarni hal qilishga asoslangan o‘yinlar foydalidir;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

vaqtni samarali taqsimlash. didaktik o‘yinlar dars vaqtining muayyan qismini egallashi kerak. o‘yin davomida asosiy maqsad – mavzuni o‘zlashtirish ekanligini unutmaslik lozim. shuning uchun o‘yin uchun belgilangan vaqtni aniq belgilash va uni nazorat qilish muhimdir. masalan, qisqa vaqtga mo‘ljallangan "blits-so‘rov" yoki "tezlikka javob ber" kabi o‘yinlar darsning asosiy qismini buzmaydi;

innovatsion texnologiyalardan foydalanish. zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘yin jarayonini yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. masalan, interaktiv doska, mobil ilovalar yoki onlayn platformalarda o‘tkaziladigan o‘yinlar orqali darslar qiziqarliroq bo‘ladi. masalan, matematik masalalarni hal qilish uchun "kahoot!" yoki "quizizz" kabi platformalar juda samarali;

o‘quvchilarni rag‘batlantirish. didaktik o‘yinlar davomida rag‘batlantirish vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. g‘oliblarni maqtash, ularga kichik sovg‘alar yoki baholar berish motivatsiyani kuchaytiradi. rag‘batlantirish natijasida o‘quvchilarda yanada faol ishtirok etish istagi paydo bo‘ladi.

Ushbu tavsiyalar orqali didaktik o‘yinlarni samarali o‘tkazish va ta’lim sifatini oshirish mumkin. O‘qituvchilar mazkur usullardan foydalanib, o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiradilar va ta’lim jarayonining qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydilar.

Didaktik o‘yinlarni ta’limda kengroq qo‘llash va ularni turli fanlar bo‘yicha moslashtirish zarur. Bu o‘quvchilarning nafaqat bilimi, balki qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayev F. Pedagogikada didaktik o‘yinlar: nazariya va amaliyot / F. Abdullayev. — Toshkent: Fan, 2012. — 220 b.
2. Davlatov A. Didaktik o‘yinlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni / A. Davlatov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018. — 180 b.
3. Yuldashev A. Ta’limda interaktiv metodlar: didaktik o‘yinlar va ularning o‘rni / A. Yuldashev. — Toshkent: Universitet, 2015. — 150 b.
4. Tursunov S. Bolalar ta’limida didaktik o‘yinlar va ularning samaradorligi / S. Tursunov. — Samarkand: Samarqand universiteti, 2020. — 210 b.
5. Mammadov I. Didaktik o‘yinlar: o‘quvchi faolligini oshirishning usuli sifatida / I. Mammadov. — Baku: Elm, 2014. — 190 b.
6. Sharipov A. O‘quv jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni va pedagogik ahamiyati / A. Sharipov. — Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti, 2016. — 200 b.
7. Ko‘chkarov B. Ta’lim metodikasi va didaktik o‘yinlar / B. Ko‘chkarov. — Toshkent: Akademiya, 2017. — 175 b.
8. Karimova G. Didaktik o‘yinlar: bolalar tarbiyasidagi o‘rni / G. Karimova. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019. — 160 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

9. Sattarov M. O‘qitish metodlari va didaktik o‘yinlar: tajribalar va tahlillar / M. Sattarov. — Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2013. — 250 b.
10. Буронова Г. Ё., Атаева Г. И. Преимущества использования метода учебного проекта в процессе обучения //Проблемы науки. – 2020. – №. 8 (56). – С. 39-40.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Musayeva Nodira Nizomovna**, p.f.d. (DSc), Buxoro davlat universiteti professori [**Мусаева Нодира Низомовна,** д.п.н. (DSc), профессор Бухарского государственного университета], [**Musayeva N. Nodira**, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor at Bukhara State University]; manzil: O‘zbekiston, 100200, Buxoro shahri, M. Iqbol ko‘chasi, 11 [адрес: Узбекистан, 100200, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11], [address: Uzbekistan, 11 M. Iqbol str., Bukxara, 100200].

✉**Musayeva Nafisa Azimjonovna**, Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi [**Мусаева Нафиса Азимжоновна**, преподаватель Бухарского государственного педагогического института], [**Nafisa A. Musayeva,** teacher at the Bukhara State Pedagogical Institute]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahar Piridastgir ko`chasi 2-uy [адрес: Узбекистан, г.Бухара ул. Пиридастгир, д. 2], [address: Uzbekistan, Bukhara Pyridastgir str., 2] ; anvar.hikmatov@gmail.com

✉**Xamdamova Madina Abdullo qizi,** Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi [**Хамдамова Мадина Абдулло кизи,** студентка 3-го курса Бухарского государственного педагогического института направления специальности Педагогика (педагог дополнительного образования], [**Madina A. Khamdamova,** is a 3rd year student of the Bukhara State Pedagogical Institute specializing in Pedagogy (teacher of additional education)]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahar Piridastgir ko`chasi 2-uy [адрес: Узбекистан, г.Бухара ул. Пиридастгир, д. 2], [address: Uzbekistan, Bukhara Pyridastgir str., 2] ; anvar.hikmatov@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

KAHOOT, QUIZIZZ, PRODIGY KABI PLATFORMALAR YORDAMIDA MATEMATIKA DARSLARINI QIZIQARLI TASHKIL ETISH USULLARI

© G.S.Turdieva[1]✉, G.R. Ruziyeva[2]✉
[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O`zbekiston
[2]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O`zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: texnologiya va o'qitish usullarining rivojlanishi tufayli ta'lim yanada xilma-xil, qulay holatda o’rganilmoqda. Onlayn o'quv platformalari, interfaol vositalar va virtual sinflarning paydo bo'lishi o'quvchilarning ma'lumot bilan shug'ullanishi va ularni o'zlashtirishi uchun asosiy imkoniyat yaratmoqda. Ta’lim bugungi kunda talabalarni tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlashni maqsad qilgan.

Elektron doskalar, proyektorlar, kompyuterlar va noutbuklar kabi texnologik yutuqlar zamonaviy maktablarning kundalik hayotining bir qismiga aylandi. Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchilarni bo‘lajak darsga tayyorlashda, balki bevosita dars jarayonida ham qo‘llanilmoqda[2].

Hozirgi kunda ko'plab bolalar boshlang'ich maktab bosqichida elektron qurilmalardan foydalanishni yaxshi bilishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda aksariyat gadjetlar nafaqat o'yin-kulgi yoki muayyan funktsional operatsiyalarni bajarish, balki mashg'ulotlar uchun ham ishlatilishi mumkin. Ta'limda kompyuterlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish fanni o’zlashtirishda katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darsni turli ko’rgazmali o’zgartirishlar qilish, uni yanada qiziqarli va esda qolarli qilish imkonini beradi.

Raqamli platformalardan matematika darslarida foydalanish ularning o‘qitish va o‘rganishda ko‘p sonli afzalliklari tufayli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalar ko'pincha matematikani o'rganishni yanada qiziqarli qiladigan interfaol vositalar, o'yinlar va simulyatsiyalardan foydalanadi. Vizualizatsiya, animatsiya va zudlik bilan fikr-mulohaza bildirish kabi xususiyatlar o‘quvchilarni motivatsiya qiladi va ularga yordam beradi. Bu platformalardan foydalanishda hisoblash yoki ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish kabi murakkab g'oyalarni dinamik modellashtirish orqali yaxshiroq tushunish mumkin. Ko'pgina platformalarda muammolarni hamkorlikda hal qilish, jamoaviy ishlarni rag'batlantirish imkoniyati mavjud. Umumiy doskalar yoki munozara forumlari kabi vositalar tengdoshlarni o'rganish va o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatini osonlashtiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Raqamli platformalar o'quv qo'llanmalari, amaliyot mashqlari, videolar va matematikaning amaliy ilovalari kabi keng ko'lamli resurslarni taklif etadi. O'qituvchilar darslarni yaxshilash va qo'shimcha ta'minlash uchun multimedia kontentini birlashtirishi mumkin.

MAQSAD: darslarda zamonaviy elektron ta’lim resurslaridan foydalanish ta’lim jarayonini takomillashtirishga katta yordam bermoqda. Taqdidotni olib borishda o'quv jarayonida Kahoot, Quizizz, Pprodigy kabi platformalardan foydalanib matematika darslarini tashkil etish jarayonida fanni o’zlashtirish sifati, talabalarni darsdagi faol ishtiroki tahlil qilib chiqildi. Ushbu platformalar shaxsiy mashqlar va topshiriqlarni taklif qilish orqali individual qadamlar va o'rganish uslublariga moslasha olishi tabaqalashtirilgan ta'lim uchun imkoniyatlar yaratadi, o'qituvchilarga talabalarning turli ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. O’rganishlar natijasida ushbu platformalar o'zining analoglari bilan solishtirganda foydalanish uchun eng oson ekanligi, testlar, viktorinalar va baholashlarni yaratish yoki tayyorlash mumkinligi bilan ajralib turadi.

Kahoot - bu onlayn viktorinalar, testlar va so'rovlar yaratish uchun nisbatan yangi xizmat turi bo’lib hisoblanadi. Kahoot orqali o‘qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini takomillashtirishning muhim jihatlaridan biri bo‘lib, uning amaliy yo‘nalishini oshiradi, o‘quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘quv jarayonida o‘quvchilarning ishtiyoqini oshirishga yordam beradi.

Kahoot, quizizz platformalari juda rang-barang, buning natijasida qog'ozdagi topshiriqlarni odatiy bajarish o'yinga aylanadi, bu esa dars davomida talabaning psixologik stressini kamaytiradi. Vazifalarga rasmlar, grafiklar, formulalar qo'shish mumkin. Har bir topshiriq uchun bir nechta javob variantlari taklif etiladi.

Dars davomida quizizz platformasida ishni tugatgandan so'ng, o'qituvchi jarayonni nazorat qilish va har bir o'quvchi tomonidan topshiriqlarni bajarishini nazorat qilish imkoniyatiga ega. Agar kerak bo'lsa, barcha natijalar Excel jadvaliga eksport qilinishi mumkin. Bu platformalarni matematika darslaridq qo’llanilish o’quvchilarga matematik tushunchalar va formulalarni tez o’rganish va masalalarni mantiqan yechishga yordam beradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: a) mavzu doirasidagi o’rganishlar natijasida F.S. Abdullayeva, Sh.M. Fayzullayev va I.B. Salovlyovaning shu mavzudagi ilmiy maqolalari tahlil qilib chiqildi. Bunda asosiy e’tibot platformadan matematika darslarini tashkil etish jarayonlariga qaratildi. Platformalar o'yin rejimida talabalarni baholashni tashkil qilish imkoniyatini beradi. Shu sababli guruhlarga bo’lingan holda darsda foydalanish imkoniyati qulayroq ekanligi ta’kidlab o’tilgan.

Kahoot-dan foydalanishning ta'siri bo'yicha 93 ta tadqiqotning adabiyot sharhi 2020 yilda “Computers & Education” jurnalida nashr etilgan. Bu Kahootning sinfda o'rganishga qanday ta'sir qilishiga oid ko'plab nashr etilgan tadqiqotlarni (tajribalar, amaliy tadqiqotlar, so'rovlar va boshqalar) o'rganadigan birinchi adabiyot sharhidir [1].

b) Kahoot.com ta'lim platformasi darsni talabalar uchun qiziqarli qilishiga yordam beradi. O’rganishlar natijasida bu platformalarda har qanday mavzu bo'yicha ko'p tanlovli

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

viktorina yaratish va talabalarga kirishni ta'minlash, hamkorlikda ishlash mumkinligi kuzatishlar natijasida tekshirib chiqildi. Musobaqa elementi darsni yanada qiziqarli qiladi va bilimlarni baholashga yordam berishi o'rganib chiqildi. Maktab o'quvhcilari uchun tuzilgan topshiriqlar natijalari tahli qilindi.

Quizizz.com Kahoot-dan ko'ra ko'proq xususiyatlarga ega bo'lgan o'yinga asoslangan o'rganish uchun yana bir manba. Bu erda o'qituvchilar savollarning turli shakllaridan foydalangan holda testlar yaratishlari mumkin: moslashish, tartiblash variantlari, haqiqat va yolg'onni aniqlash. Bundan tashqari, resurs test topshiriqlarini birlashtirish mumkin bo'lgan slaydlar bilan interfaol darslarni yaratishga imkon beradi. Turli yosh xususiyatli o'quvchilar guruhi tanlanib, topshiriqlar Kahoot, Quizizz, Prodigy yordamida tshkil etildi va natijalar tahlil qilib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: platformalarni o'rganish jarayoni tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, matematika darslarida ishlatiladigan ushbu platformalar vaqtdan tejash, raqamli platformalar ko'pincha matematikani o'rganishni yanada qiziqarli qiladigan interfaol vositalar, o'yinlar va simulyatsiyalardan foydalanadi. Vizualizatsiya, animatsiya va zudlik bilan fikr-mulohaza bildirish kabi xususiyatlar o'quvchilarni rag'batlantiradi va faollashtiradi.Dars jarayonida ushbu platformalardan foydalanishning bir nechta usullari ishlab chiqildi. Sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalari tahlil qilib chiqildi.

XULOSA: dars jarayonlarini tashkil etishda interaktiv o'yinlarning ta'siri, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va bilim darajasini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

1. Motivatsiyani oshirish.

- Qiziqarli noodaiy muhit: Interaktiv o'yinlar yordamida darslar ko'ngilochar vaqiziqarli o'tadi, bu esa o'quvchilarning darsni tushunishini osonlashtiradi va qiziqishini oshiradi;
- Maqsadga erishish: o'quvchilar maqsadli vazifalarni o'yinlar orqali bajarganligi uchun ham ruhan ham jismonan ijobiy energiyalari oshadi.
- O'quvchilar orasida raqqobat ruhini shakllantirish: Interaktiv o'yinlarda raqqobat ruhi mavjud bo'lib, sinfda o'quvchilar yanada faol holatda drsda ishtirok etadilar.

2. O'quvchilarning bilim darajasini oshirish.

-Interaktiv o'yinlar orqali berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash mumkin, bu esa olingan bilimlarni yanada yaxshi tushunishga va esda saqlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Tezkor fikrlash oshirish: Turli xil o'yinlar tezkor fikrlash va tez qaror qabul qilishni talab qiladi.

- O'qituvchilar interaktiv o'yinlardan foydalanish orqali, dars jarayonida turli xil usullarni sinovdan o'tkazib ko'rishlari mumkin, bu esa dars jarayonini yanada tushunarli va samarali qiladi.

3. Hamkorlikda ishlash.

- Guruhlarda ishlash: Bir qancha interaktiv o'yinlar guruhlarga bo'lingan holda ishlanadi. Bu esa o'quvchilar orasida guruh bo'lib ishlash va hamjihat bo'lib ishlashga o'rgatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Interaktiv o'yinlar faqatgina dars jarayonini qiziqarli qilibgina qolmay, balki o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, nazorat qilishga ham katta hissa qo'shadi. Bu kabi o'yinlar yordamida dars jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Kalit so'zlar: Cloud Platform, ta'lim natijalari, Kahoot, Quizizz, Prodigy, texnologiya, o'yin, test, savol va viktorina.

Iqtibos uchun: Turdieva G.S., Ruziyeva G.R. Kahoot, quizizz, prodigy kabi platformalar yordamida matematika darslarini qiziqarli tashkil etish usullari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.243-255.

ИНТЕРЕСНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПЛАТФОРМ ТАКИХ KAHOOT, QUIZIZZ, PRODIGY

© Г.С.Турдиева[1]✉, Г.Р. Рузиева[2]✉
[1]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан
[2]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: благодаря развитию технологий и методов обучения образование изучается в более разнообразной и комфортной среде. Появление платформ онлайн-обучения, интерактивных инструментов и виртуальных классов создает для учащихся большие возможности для взаимодействия и усвоения информации. Сегодняшнее образование направлено на то, чтобы вооружить учащихся необходимыми навыками для достижения успеха в быстро меняющемся мире.

Технологические достижения, такие как электронные доски, проекторы, компьютеры и ноутбуки, стали частью повседневной жизни современных школ. В настоящее время современные информационные технологии используются не только при подготовке учителей и учащихся к предстоящему уроку, но и в ходе урока [2].

В настоящее время многие дети знакомы с использованием электронных устройств еще на уровне начальной школы. Следует отметить, что сегодня большинство гаджетов можно использовать не только для развлечения или выполнения тех или иных функциональных операций, но и для обучения. Использование компьютеров и других технических средств в образовании открывает большие возможности в освоении науки. Использование современных технологий дает возможность вносить в урок различные визуальные изменения, делая его более интересным и запоминающимся.

Использование цифровых платформ в математическом образовании приобретает все большее значение из-за их многочисленных преимуществ в преподавании и обучении. Цифровые платформы часто используют интерактивные инструменты, игры и симуляции, которые делают изучение математики более увлекательным. Такие функции, как визуализация, анимация и мгновенная обратная

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

связь, мотивируют и поддерживают учащихся. При использовании этих платформ сложные идеи, такие как вычисления или визуализация данных, можно лучше понять с помощью динамического моделирования. Многие платформы имеют возможность решать проблемы совместно, поощряя командную работу. Такие инструменты, как общественные советы или дискуссионные форумы, облегчают взаимное обучение и взаимодействие учителей и учеников.

Цифровые платформы предлагают широкий спектр ресурсов, таких как учебные пособия, практические упражнения, видео и практические применения математики. Учителя могут интегрировать мультимедийный контент для улучшения и дополнения уроков.

ЦЕЛЬ: использование современных электронных образовательных ресурсов на уроках во многом помогает улучшить учебный процесс. В ходе презентации было проанализировано качество освоения предмета и активное участие учащихся в уроке в процессе организации уроков математики с использованием таких платформ, как Kahoot, Quizizz, Pprodigy. Способность этих платформ адаптироваться к индивидуальному темпу и стилю обучения, предлагая персонализированные упражнения и задания, создает возможности для дифференцированного обучения, позволяя учителям удовлетворять разнообразные потребности учащихся. Исследования показали, что эти платформы проще всего использовать, создавать или готовить тесты, викторины и оценки по сравнению с их аналогами.

Kahoot — относительно новый вид сервиса для создания онлайн-викторин, тестов и опросов. Использование новых информационных технологий в обучении через Kahoot является одним из важных аспектов совершенствования образовательного процесса и повышает его практическую направленность у учащихся. способностей и способствует повышению энтузиазма учащихся в процессе обучения.

К слову, платформы викторин очень разнообразны, в результате чего обычное выполнение заданий на бумаге превращается в игру, что снижает психологическое напряжение ученика во время урока. К задачам можно добавлять картинки, графики, формулы. К каждому заданию предлагается несколько вариантов ответа.

После завершения работы на платформе викторины во время урока преподаватель имеет возможность контролировать процесс и контролировать выполнение заданий каждым учеником. При необходимости все результаты можно экспортировать в таблицу Excel. Использование этих платформ на уроках математики помогает учащимся быстро усваивать математические понятия и формулы и логически решать задачи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: а) в результате исследований по теме были проанализированы научные статьи Ф.С.Абдуллаевой, Ш.М.Файзуллаева и И.Б. Саловлевой по данной теме. Основное внимание было уделено процессам организации уроков математики с платформы. Платформы предоставляют

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

возможность организовать оценивание учащихся в игровом режиме. Поэтому отмечается, что их удобнее использовать на уроке, когда они разделены на группы.

Обзор литературы 93 исследований последствий использования Kahoot за 2020 год был опубликован в журнале Computers & Education. Это первый обзор литературы, в котором рассматриваются многочисленные опубликованные исследования (эксперименты, тематические исследования, опросы и т. д.) о том, как Kahoot влияет на обучение в классе [1].

б) образовательная платформа Kahoot.com помогает сделать урок интересным для учащихся. В результате исследований была проверена возможность создания викторин с несколькими вариантами ответов на любую тему и предоставления доступа к ним студентам, совместно работающим на этих платформах. Изучено, что элемент соревнования делает урок интереснее и помогает оценить знания. Проанализированы результаты выполнения заданий школьникам.

Quizizz.com — еще один ресурс для игрового обучения, имеющий больше возможностей, чем Kahoot. Здесь учителя могут создавать тесты, используя разные формы вопросов: на соответствие, варианты сортировки, обнаружение истины и лжи. Кроме того, ресурс позволяет создавать интерактивные уроки со слайдами, которые можно совмещать с тестовыми заданиями. Была отобрана группа учеников с разными возрастными особенностями, организованы задания с помощью Kahoot, Quizizz, Prodigy и проанализированы результаты.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования процесса обучения платформ показывают, что эти платформы, используемые на уроках математики, экономят время, цифровые платформы часто используют интерактивные инструменты, игры и симуляции, которые делают изучение математики более интересным. Такие функции, как визуализация, анимация и мгновенная обратная связь, мотивируют и привлекают учащихся. Было разработано несколько методов использования этих платформ в классе. Был проанализирован уровень обучения студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: влияние интерактивных игр в организации учебного процесса играет важную роль в повышении интереса учащихся к науке и повышении их уровня знаний.

1. Повысьте мотивацию.

- Интересная необычная обстановка: с помощью интерактивных игр уроки проходят весело и по-настоящему, что облегчает понимание урока учащимися и повышает их интерес.

- Достижение цели: по мере выполнения учащимися целевых задач посредством игр их положительная энергия увеличивается как умственно, так и физически.

- Формирование духа соперничества у учащихся: В интерактивных играх присутствует дух соперничества, а на уроках учащиеся более активно участвуют в уроках.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

2. Повышение уровня знаний учащихся.

- Теоретические знания, полученные посредством интерактивных игр, можно применить на практике, что помогает лучше понять полученные знания и развить способность к запоминанию.

Улучшите быстроту мышления. Различные игры требуют быстрого мышления и быстрого принятия решений.

- Используя интерактивные игры, учителя могут во время урока апробировать различные методы, что делает процесс урока более понятным и эффективным.

3. Работа в партнерстве.

- Работа в группах: в группах работают несколько интерактивных игр. Это учит учащихся работать в группе и работать вместе.

Интерактивные игры не только делают процесс обучения интересным, но и во многом способствуют совершенствованию знаний и контроля учащихся. С помощью таких игр можно сделать процесс обучения более эффективным.

Ключевые слова: облачная платформа, результаты обучения, Kahoot, Quizizz, Prodigy, технология, игра, тест, вопросы и викторины.

Для цитирования: Турдиева Г.С., Рузиева Г.Р. Интересные методы организации уроков математики с использованием платформ таких kahoot, quizizz, prodigy. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 243-255.

INTERESTING METHODS OF ORGANIZING MATHEMATICS LESSONS USING PLATFORMS SUCH AS KAHOOT, QUIZIZZ, PRODIGY

© Gavhar S. Turdieva[1]✉, Gulchiroy R. Ruzieva[2]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
[2]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: with the development of technology and teaching methods, education is studied in a more diverse and comfortable environment. The emergence of online learning platforms, interactive tools and virtual classrooms creates greater opportunities for students to interact and absorb information. Today's education is aimed at equipping students with the necessary skills to succeed in a rapidly changing world.

Technological advances such as electronic boards, projectors, computers and laptops have become part of the daily life of modern schools. Nowadays, modern information technologies are used not only in preparing teachers and students for the upcoming lesson, but also during the lesson [2].

At present, many children are familiar with the use of electronic devices even at the elementary school level. It should be noted that today most gadgets can be used not only for entertainment or performing certain functional operations, but also for learning. The use of computers and other technical means in education opens up great opportunities in

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

mastering science. The use of modern technology provides the opportunity to introduce various visual changes to the lesson, making it more interesting and memorable.

The use of digital platforms in mathematics education is becoming increasingly important due to their many benefits in teaching and learning. Digital platforms often use interactive tools, games, and simulations that make learning mathematics more fun. Features such as visualizations, animations, and instant feedback motivate and support students. When using these platforms, complex ideas such as calculations or data visualization can be better understood through dynamic simulations. Many platforms have the ability to solve problems collaboratively, encouraging teamwork. Tools such as community boards or discussion forums facilitate peer learning and interaction between teachers and students.

Digital platforms offer a wide range of resources such as tutorials, practice exercises, videos, and practical applications of mathematics. Teachers can integrate multimedia content to enhance and complement lessons.

AIM: the use of modern electronic educational resources in the classroom helps to improve the learning process in many ways. During the presentation, the quality of mastering the subject and active participation of students in the lesson were analyzed in the process of organizing mathematics lessons using platforms such as Kahoot, Quizizz, Pprodigy. The ability of these platforms to adapt to the individual pace and style of learning, offering personalized exercises and tasks, creates opportunities for differentiated learning, allowing teachers to meet the diverse needs of students. Research has shown that these platforms are the easiest to use, create or prepare tests, quizzes and assessments compared to their counterparts.

Kahoot is a relatively new type of service for creating online quizzes, tests and surveys. The use of new information technologies in teaching through Kahoot is one of the important aspects of improving the educational process and increases its practical focus in students. abilities and contributes to increasing the enthusiasm of students in the learning process. By the way, quiz platforms are very diverse, as a result of which the usual completion of tasks on paper turns into a game, which reduces the psychological stress of the student during the lesson. Pictures, graphs, formulas can be added to the tasks. Several answer options are offered for each task.

After completing the work on the quiz platform during the lesson, the teacher has the opportunity to control the process and monitor the completion of tasks by each student. If necessary, all results can be exported to an Excel table. Using these platforms in mathematics lessons helps students quickly learn mathematical concepts and formulas and logically solve problems.

MATERIALS AND METHODS: a) as a result of research on the topic, scientific articles by F.S. Abdullaeva, Sh.M. Faizullaev and I.B. Salovleva on this topic were analyzed. The main attention was paid to the processes of organizing mathematics lessons from the platform. The platforms provide an opportunity to organize the assessment of students in a game mode. Therefore, it is noted that they are more convenient to use in

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

the lesson when they are divided into groups. A literature review of 93 studies on the effects of Kahoot in 2020 was published in the journal Computers & Education. This is the first literature review to examine multiple published studies (experiments, case studies, surveys, etc.) on how Kahoot impacts classroom learning[1].

b) The Kahoot.com educational platform helps make lessons interesting for students. The research tested the possibility of creating multiple-choice quizzes on any topic and making them available to students working together on these platforms. It was found that the element of competition makes the lesson more interesting and helps assess knowledge. The results of students' assignments were analyzed.

Quizizz.com is another resource for game-based learning that has more features than Kahoot. Here, teachers can create tests using different question forms: matching, sorting options, detecting truth and lies. In addition, the resource allows you to create interactive lessons with slides that can be combined with test tasks. A group of students with different age characteristics was selected, tasks were organized using Kahoot, Quizizz, Prodigy and the results were analyzed.

Niderlandiya ta’limdagi innovatsiyalari va maktablarga o‘z ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda berilgan avtonomiya bilan tanilgan. Niderlandiya maktablariga o‘z o‘quv metodlarini mahalliy sharoitga moslashtirishda moslashuvchanlik berilgan, bu esa ijodkorlik va shaxsiylashtirilgan o‘qitishni rivojlantirishga imkon yaratadi. Ta’lim siyosatining markazlashmaganligi maktablarga ta’lim va o‘qitishni takomillashtirish uchun turli yondashuvlarni sinab ko‘rishga rag‘batlantiradi. Niderlandiya ta’lim tizimi, shuningdek, erta bolalik ta’limiga katta ahamiyat beradi, bu esa bolalarga boshlang‘ich maktabga mustahkam asosiy ko‘nikmalar bilan kirish imkonini taqdim etadi. Niderlandiyalik o‘qituvchilar yaxshi tayyorlangan bo‘lib, ular ta’lim sohasidagi yangi tendentsiyalarni kuzatib borish va o‘z bilimlarini oshirish uchun doimiy professional rivojlanish imkoniyatlariga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro ko‘rsatkichlar asosida integratsion yondashuv haqida ma’lumot berish, ta’lim tizimlarining zamonaviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Integratsion yondashuv — bu o‘quvchilarning turli fanlar va mavzular bo‘yicha bilimlarni birlashtirgan holda ta’lim olishlarini ta’minlaydigan usuldir. Xalqaro ko‘rsatkichlar, masalan, UNESCO, OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan metodologiyalar va ta’lim strategiyalari asosida boshlang‘ich ta’limda integratsion yondashuvni amalga oshirish quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ta’limda integratsiya. Integratsiya – bu bir nechta fanlarni birlashtirib, o‘quvchilarni bir nechta ko‘nikma va bilimlarni o‘zaro bog‘lashga undashdir. Masalan, tarix, geografiya va tabiatshunoslik kabi fanlarni birlashtirgan holda o‘quvchilarni dunyo va atrof-muhit haqida kengroq tasavvurga ega qilish mumkin. Integratsion yondashuv o‘quvchilarga nafaqat fanlar bo‘yicha, balki hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgan ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

2. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish. Xalqaro ta’lim standartlari, masalan, PISA (International Student Assessment Program) ko‘rsatkichlari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil o‘ylash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’kidlaydi. Integratsion yondashuv bu ko‘nikmalarni, o‘quvchilarga turli fanlar va mavzular orqali murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, yechimlarni izlash va o‘z fikrlarini asoslab berish imkoniyatlarini yaratadi.

3. Cross-culture ta’lim. Integratsion yondashuvda ko‘pincha kross-kultur elementlari ham qo‘llaniladi. Bu, o‘quvchilarga turli madaniyatlarni o‘rganish va tushunishni o‘rgatishga imkon beradi. Xalqaro ko‘rsatkichlar madaniy tushunish va hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlaydi, bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda muhim, chunki ular dunyoqarashini kengaytiradilar.

4. PISA va boshqa xalqaro baholash tizimlari. PISA testlari o‘quvchilarning matematik, ilmiy va o‘qish ko‘nikmalarini baholaydi. Integratsion yondashuv, o‘quvchilarga bu ko‘nikmalarni faqat alohida fanga oid bilimlar bilan emas, balki ular o‘rtasidagi aloqalarni anglash orqali rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, matematikadan olingan nazariy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

bilimlarni ilm-fan darslarida qo‘llash, yoki tabiatshunoslik fanini adabiyot bilan bog‘lash orqali.

5. Texnologiyalardan foydalanish. Integratsion ta’limda texnologiyalardan faol foydalanish ham muhim omil hisoblanadi. Xalqaro ta’lim ko‘rsatkichlari o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. O‘quvchilarni turli multimedia vositalari va interaktiv platformalar orqali ta’lim olishga jalb qilish, ularning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi va darslarni samarali qilishga yordam beradi.

6. Individual va guruhli ishlash. O‘quvchilarning individual va guruhli ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham integratsion yondashuvning muhim qismi hisoblanadi. Xalqaro baholash tizimlari o‘quvchilarning jamoaviy ishlash qobiliyatlarini baholashni talab qiladi, chunki jamoada ishlash o‘quvchilarga muammolarni birgalikda hal qilish, fikr almashish va hamkorlik qilish imkonini beradi.

7. O‘qituvchilarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash. Integratsion ta’limni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni muntazam ravishda xalqaro metodologiyalar asosida tayyorlash muhim. Ta’limda integratsiya va interaktiv yondashuvni o‘z ichiga olgan metodlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarni faollashtirish va samarali o‘rgatishda yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi xorijiy tajribalar o‘qituvchi sifatiga, kurrikulning qat’iyligiga, o‘quvchilarning farovonligiga va jamoatchilikning ishtirokiga katta e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Har bir mamlakatning o‘ziga xos strategiyalari bo‘lishiga qaramay, bu mamlakatlar barcha bolalar uchun teng va yuqori sifatli ta’lim berishga sodiqdir. Ushbu tajribalardan o‘rganish orqali, dunyo bo‘ylab mamlakatlar o‘zlarining boshlang‘ich ta’lim tizimlarini takomillashtirish va har bir bolaga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini ta’minlash uchun eng yaxshi amaliyotlarni qabul qilish va moslashtirishlari mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro ko‘rsatkichlar asosida integratsion yondashuvga yo‘naltirish, ta’limning sifatini oshirish va o‘quvchilarning turli ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Buning natijasida, ular nafaqat akademik bilimlarga ega bo‘lishadi, balki hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham egallashadi. Integratsion yondashuv, global ta’lim tizimining zarur talablariga mos ravishda, o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Shayxova, G. A., & Bozorov, A. T. (2023). Boshlang‘ich ta’lim tizimining samaradorligini oshirish: Xorijiy tajribalar va ularning O‘zbekistondagi amaliyoti. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchilarini Tayyorlash Milliy Markazi.
2. Yusupov, S. M. (2022). Innovatsion yondashuvlar va boshlang‘ich ta’limda ularning roli. Toshkent: “Ta’lim” nashriyoti.
3. Rahimov, D. A. (2024). Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya ta’lim tizimlari: Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda global tajribalar. Toshkent: “Zarafshan” nashriyoti.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

4. Xamidov, R. T. (2023). Ta'limda inklyuzivlik va ikki tillik ta'lim: Yangi yondashuvlar. Samarqand: "SamDPI" nashriyoti.
5. Khodjaev, M. B. (2023). Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar va pedagogik metodlar. Buxoro: Buxoro Davlat Pedagogika Instituti.
6. Ismoilov, A. K., & Mirzaev, R. T. (2023). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning farovonligi: Xorijiy amaliyotlar va O'zbekistondagi o'rganishlar. Toshkent: "O'zbekistan" nashriyoti.
7. Raxmonov, S. A. (2024). Yaponiya va Daniya ta'lim tizimlari: Boshlang'ich ta'lim samaradorligini ta'minlashda uslublar va strategiyalar. Andijon: Andijon Davlat Universiteti.
8. Tursunov, O. H. (2023). Ta'limda o'yin asosidagi metodlar va ularning boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
9. Sodiqova, R. F. (2022). Boshlang'ich ta'limdagi pedagogik yondashuvlar va metodologiyalar. Nukus: Nukus Davlat Pedagogika Instituti.
10. Sukhanov, M. K. (2023). Ta'lim tizimidagi avtonomiya: Niderlandiya modeli va uning O'zbekistonga tatbiqi. Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti.
11. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.
12. Tan, O. S. (2014). Teaching for Creativity: Towards Sustainable and Innovative Education. Springer.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Teshayeva Sarvinoz Jamshidovna**, Buxoro davlat pedagogika instituti, [**Тешаева Сарвиноз Жамшидовна,** Бухарский государственный педагогический институт], [**Sarvinoz J. Teshayeva**, Bukhara State Pedagogical Institute]; manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar Piridastgir ko`chasi 2-uy [адрес: Узбекистан, г.Бухара ул. Пиридастгир, д. 2], [address: Uzbekistan, Bukhara Pyridastgir str., 2].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O’RGATISH MUAMMOLARI

© O.D. Raximov[1]✉

[1]Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: jahon ta`lim tizimida zamonaviy fanlarning muammolaridan biri sifatida ta`limni rivojlantirish har bir bolaning ijodiy individualligini shakllantirishga qaratilmoqda.Bu boradagi psixologik va pedagogik tadqiqotlar natijasiga ko`ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tasvirlashga oid kompetensiyalarni shakllantirish,ularda ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng samarali vositalardan biri sifatida qaratilmoqda.Shuning uchun iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSH, Yaponiy, Janubiy Koreya, Rossiya Federasiyasi kabi mamlakatlar tajribasi maktabgacha ta`lim tizimini rivojlantirishga alohida e`tibor qaratilishi,jamiyat tomonidan moddiy va ma`naviy qo`llab-quvvatlanishi, soha rivojlanishini ta`minlashga yetakchi omil ekanligi bois qator ishlar amalga oshirilmoqda.

MAQSAD: maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarda tasviriy faoliyatni shakllantirishga oid bilimlar berish va amaliyotda qo’llash kompetenstiyalarini rivojlantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ta'lim tashkilotlarida ko'proq bolaning yoshini hisobga olishni unutmaslik kerak. Ularni oddiy, oson va vaqtni kam oladigan didaktik o'yinlar bilan shug'ullantirib, keyin asta-sekin murakkablashtirib borish yaxshi natija beradi. Bunday ish tutish, bir tomondan bolalarning dunyoqarashi va ongini kengaytirsa, boshqa tomondan, ularning bayon etish qobiliyatini kuchaytiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA: bolalarning rivojlanishida tafakkurning faol ishtirokisiz, idroki, tasavvuri va boshqa bilish jarayonlari rivojlanmaydi. O’quvchi tasviriy faoliyatda bir qator intellektual operatsiyalarni bajarishga majbur. Idrok etilgan ob'yektni fikrlash, chizmani ketma-ketlik bilan bajarish, ob'yekt bilan chizmani (rasmni) taqqoslash, rasm hismlarini solishtirish. Vazifani to’g’ri bajarish uchun bir qator aqliy harakatlar bajariladi analiz, sintez, rejalashtirish, solishtirish va boshqalar.

Kalit so'zlar: tasviriy faoliyat, aqliy faollik, pedagogik hamkorlik, psixologik yondashuv,oila va maktab, ta’lim jarayoni, intellektual rivojlanish, mustaqil fikrlash, interaktiv metodlar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Iqtibos uchun: Raximov O.D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish muammolari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.276-283.

ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

© О.Д. Рахимов[1]✉
[1]Навоийский государственный педагогический институт, Навои, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: развитие образования как одной из проблем современных дисциплин в мировой системе образования направлено на формирование творческой индивидуальности каждого ребенка.По результатам психолого-педагогических исследований в этой области формированию у дошкольников компетенций по творческому изображению уделяется внимание как одному из наиболее эффективных средств развития у них творческих способностей.Поэтому экономически развитые страны, в том числе США, Япония, Южная Корея, В связи с тем,что опыт таких стран, как Российская Федерация, уделяет особое внимание развитию системы дошкольного образования, оказывает материальную и духовную поддержку обществу, является ведущим фактором в обеспечении развития отрасли, проводится ряд работ.

ЦЕЛЬ: дошкольные образовательные организации состоят в развитии у воспитанников компетенций по передаче и применению на практике знаний, связанных с формированием изобразительной деятельности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы такие методы, как опрос, наблюдение и статистическая обработка полученных результатов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в образовательных организациях не следует забывать учитывать возраст ребенка. Лучше всего практиковать их с помощью простых, легких и менее трудоемких дидактических игр, а затем постепенно усложнять их. Такое поведение, с одной стороны, расширяет кругозор и сознание детей, а с другой-усиливает их выразительность, развивает навыки самостоятельной работы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: без активного участия мышления в развитии детей не развиваются восприятие, воображение и другие познавательные процессы. Читатель вынужден выполнять ряд интеллектуальных операций в изобразительной деятельности. Мышление воспринимаемого объекта, последовательное выполнение рисунка, сравнение рисунка (картины) с объектом, сравнение чувств рисунка. Для правильного выполнения задания выполняется ряд умственных действий, таких как анализ, синтез, планирование, сравнение и т. д.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ключевые слова: изобразительная деятельность, умственная деятельность, педагогическое сотрудничество, психологический подход,семья и школа, образовательный процесс, интеллектуальное развитие, самостоятельное мышление, интерактивные методы.

Для цитирования: Рахимов О.Д. Проблемы обучения детей изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 276-283.

PROBLEMS OF TEACHING CHILDREN VISUAL ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

© Otabek D. Raximov[1]✉
[1]Navoi State Pedagogical Institute, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the development of education as one of the problems of modern disciplines in the global education system is aimed at forming the creative individuality of each child.According to the results of psychological and pedagogical research in this area, attention is paid to the formation of creative image competencies among preschoolers as one of the most effective means of developing their creative abilities.Therefore, economically developed countries, including the USA, Japan, South Korea, Due to the fact that the experience of countries such as the Russian Federation, pays special attention to the development of the preschool education system, provides material and spiritual support to society, is a leading factor in ensuring the development of the industry, and a number of works are being carried out.

AIM: preschool educational organizations consist in the development of pupils' competencies in the transfer and practical application of knowledge related to the formation of visual activities.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the study, methods such as survey, observation and statistical processing of the results were used.

DISCUSSION AND RESULTS: educational organizations should not forget to take into account the age of the child. It is best to practice them with simple, easy and less time-consuming didactic games, and then gradually complicate them. Such behavior, on the one hand, broadens the horizons and consciousness of children, and on the other hand, enhances their expressiveness, develops independent work skills.

CONCLUSION: without the active participation of thinking in the development of children, perception, imagination and other cognitive processes do not develop. The reader is forced to perform a number of intellectual operations in visual activity. Thinking of the perceived object, consistent execution of the drawing, comparison of the drawing (picture) with the object, comparison of the feelings of the drawing. To complete the task correctly,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

a number of mental actions are performed, such as analysis, synthesis, planning, comparison, etc.

Key words: visual activity, mental activity, pedagogical cooperation, psychological approach,family and school, educational process, intellectual development, independent thinking, interactive methods.

For citation: Otabek D. Raximov. (2024) 'Problems of teaching children's visual activities in preschool educational organizations', Inter education & global study, (10), pp. 276-283.. (In Uzbek).

Jahonda maktabgacha ta`lim pedagogikasi va psixologiyasining nazariy va amaliy asosidagi pedagogik tizimning salmoqli komponentlaridan biri –tasviriy faoliyat metodikasining ilmiy asoslangan va sinab ko`rilgan mazmunini, komponentlarini, topshiriqlar tizimini va uning metodikalarini takomillashtirish shuningdek, tasviriy faoliyat metodikalari tushunchasiga pedagogik ta`rif berilib, ta`limning keying turi-boshlang`ich sinflarda muvaffaqiyatli ta`lim olishga yo`naltirish bilan bog`liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bolalarning rivojlanishida tafakkurning faol ishtirokisiz, idroki, tasavvuri va boshqa bilish jarayonlari rivojlanmaydi. O'quvchi tasviriy faoliyatda bir qator intellektual operatsiyalarni bajarishga majbur. Idrok etilgan ob'yektni fikrlash, chizmani ketma-ketlik bilan bajarish, ob'yekt bilan chizmani (rasmni) taqqoslash, rasm hismlarini solishtirish. Vazifani to'g'ri bajarish uchun bir qator aqliy harakatlar bajariladi analiz, sintez, rejalashtirish, solishtirish va boshqalar.

O'quvchilar taqqoslash jarayonida tayyor bo'lgan ob'yektning umumiy xajmiga va rangiga ahamiyat berishadi.

E.P.Neymanning e'tirof etishicha, karlik bilan tebranish sezgilari orasida uzviy bog'liqlik mavjud ekan. Maxsus korrektsion, kompensator imkoniyatlardan to'la foydalanilmasa, eshitish qobiliyati pasaygan shaxslar sezgilarini, ular asosida idroklarini bir muncha rivojlantirish mumkin emas.

Idrok etishda paypaslash sezgisida alohida ahamiyat kasb etadi. U kompleks xarakterga ega bo'lib, paypaslash sezgisi, odam biror predmetni qo'lxarakati yordamida ohista tegib ko'rishidan hosil bo'ladi. Paypaslash yordamida predmetning ko‟pgina hususiyatlari his etiladi, uning shakli, xajmi, material hususiyati (yumshoq, qattiq, o'tkir, tekis,…) qo'lteri sezgisi natijasida predmet qiyofasi hosil bo'ladi, bola predmetni to‟liq bilib oladi. Shunday qilib idrok – bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko‟plab, xilma-xil predmet va xodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo‟lgan ob'yektni xossa va hususiyat lari bilan yaxlit, bir butun tarzda aks ettirishimizni ta'minlaydi.

Bolalarning sensor tarbiyasida rang, kattalik munosabatlarini o'rgatishkatta o'rin egallaydi. Predmet va xodisalarni idrok etishda bolalar predmetni boshqasiga ko'ra kattaligini yoki kichikligini bilishlari kerak. Atrofdagi predmet va xodisalarni idrok etishda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

bolalar qog‟ozning o’ng, chap, yuqori va pastki tomonlarini bilishlari kerak. Bolalar qog’ozda real muhitni aks ettirishni tasavvur eta olishlari kerak.

Bolalar kattalarning qo’llari bilan bajarilgan predmetlarni idrok qilib va chizish orqali tasvirlab ko’rsatib bera olishga o’rgatishjuda zarur. Ta'lim jarayonida o’quvchilar kuzatishga, qo’l harakati bilan sezishga o’rgatishalohida ahamiyatga ega. Birinchi marta o’qituvchi bilan birgalikda predmetni qo’l sezgisi orqali kuzatiladi, bunda bolalar predmet xaqida alohida tasavvurga ega bo’ladilar. Qo’lbilan ushlab ko’rib kuzatish bolalarda qizihish va yengillik tug’diradi. O’quvchilar konturni qo’lbilan kuzatayotganlarida qo’lxarakati bilan birgalikda ko’ruv analizatori ham ishtirok etadi. Bunday kuzatish o’quvchilarning idrokini rivojlantirish bilan birga ko’ruv xarakat, sezish jarayonlari rivojlanadi va grafik obrazlariga ega bo’ladilar.

Tasavvur – bu oliy bilish jarayonidir. Tasavvur real olamdagi narsalarni qayta tiklangan obrazidir. Har bir tasavvur asosida ilgarigi sezgi va idrokning qayta tiklanishi yotadi. Predmet narsa xodisalarni qabul qilayotgan odam predmetning tuzilishi tasavvuriga ega bo’ladi, shu vaqtda bizning analizatorimizga ta’sir etayotgan ob'yekt obrazlari paydo bo’ladi. Bunday obrazlarni tasavvur obrazlari deyiladi.

Chizish jarayonida predmetni kuzatib chihishda tasavvurga ega bo‟lish, esda olib qolish, shaklini, katta-kichikligini, rangini, fazodagi joylashuvini bilishlarini o’quvchilar dars davomida asta-sekin egallaydilar. Dars davomida o’quvchilar predmetni kuzatishga qo’lxarakati bilan tekshirishga (sezishga) o’rgatishaloxida ahamiyatga ega. qo’l bilan ushlab ko’rib sezish orqali kuzatish bolalarda qizihish va yengillik tug’diradi. O’quvchilar konturni qo’lteri sezgisi bilan kuzatganlarida qo’l harakati bilan birgalikda, ko’ruv analizatori ham ishtirok etadi. Bunday kuzatish o’quvchilarning idrokini rivojlantirish bilan birga ko’ruv harakat sezish protsesslari rivojlanadi va predmetning grafik obraziga ega bo’ladilar. Tasviriy faoliyatda o’quvchilarni rivojlanishida asosan tushina olishga o’rgatiladi, masalan: katta-kichikligini, rangini, fazodagi joylashuvini bilashlari kerak. Bolalar shuni tushina olishlari kerakki qanday predmet, qaysi biri katta, qaysi biri kichkina, ikki predmetning joylashuv xolatini aytib bera olishi ya'ni biri yuqorida, biri pastda, o’ngda, chapda, rangi ochroq, rangi to`qroqligini o’quvchilar to’g’ri tushunib to’g’ri idrok qila olganlaridagina yuqoridagi tushunchalarga ega bo’ladilar.

Tasviriy faoliyatda o’quvchilarni tasavvur qilish orqali rasm chizishga o’rgatiladi, lekin bunday bolalarni tasavvur qilish har xil kechadi. Masalan: biror bir predmet dastlab chizilgan bo’lsa, bola keyin predmetning o’zini tasavvur qilmasdan, chizgan rasming grafik obrazini tasavvur qiladi. Tasavvur qilishning yana bir shakli predmetni yozma ravishda tushuntirilsa o’quvchilar qanday tushunsalar, shunday tasavvur qiladilar. O’quvchilarning tasavvurini shakllantirish bizning oldimizga darsning yangi shaklini qoyadi, ya'ni matn boyicha rasm chizish. Tasavvur qilish jarayonida bir tomondan bolalarni nutq boyliklari faollashtiriladi. Ikkinchi tomondan qanchalik nutq boyligiga ega ekanliklarini va qanday talaffuz etayotganliklarini nazorat qilinadi.

Tasviriy faoliyatda o’quvchidan o’z qobiliyatini har taraflama ko’rsatishga harakat qilishini talab etiladi. Biror bir predmetni chizishdan oldin, uni yaxshilab kuzatib, ko’rib

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

chiqiladi. Bundan tashqari shaklini, tuzilishini, rangini fazoviy joylashuvini aniqlanadi. Chizishdan oldin ob'yektni diqqat bilan kuzatib o`xshash tomonilarini ko'rsatib berishlari so`raladi. O'quvchilarni maqsadli rasm chizishga yo`naltirganda o'xshash, katta-kichik, har-xil, predmetni bo"laklarini, oldingi chizgan rasmlariga solishtirganda nisbatan yaxshiroq chiza boshlaydilar.

Rasm chizishda bolalarda analiz sintez fikrlash funktsiyalarining rivojlanishiga imkoniyat tug'diriladi.

Atoqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy o'quvchilarni o'qitishda shunday talab qoygan. Mavhum - abstrakt so'zlarni, ya'ni tushunchalarni, tanish so'zlarga tayangan xolda bevosita ta'lim berish zarurdir. Bolaning tafakkurini rivojlantirish uchun avvalom bor, kuzatish qobiliyatini shakllantirish lozim. "Chizilayotgan narsaning shaklini, bo'yog'ini, rangini, ovozini, sezish his qilish orqali fikrlash" didaktikaning asosiy talabidir.

Ko'rgazmali qurollar, predmetlar, ularning o`ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish bolalarni sensor tarbiyasini tarbiyalaydi. Bolalarni o'qitish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarini, kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Sensor tarbiyasini rivojlantirishga tasviriy faoliyat mashg`ulotlari va tasviriy san'at darslari samarali natija beradi. Tasviriy faoliyat ijod qilishga sharoit yaratadi, ob'yektning katta - kichikligi, rangi, shakli, fazoviy joylashishini o'quvchi taqqoslab ko'rib idrok etadi. Bunda ko'ruv analizatori mayda qo'l muskullari (matorikasi) sezgi analizatorlari ishtirok etadi. Dars davomida o'quvchilarning rasm chizish qobiliyatlari rivojlanib aniq, ravshan, konkret to`liq chiza boshlaydilar. Tasviriy faoliyat darslari to'g'ri tashkil etilsa, o'quvchilarning tasavvuri, ko'ruv xotirasi, fantaziyasi rivojlanadi. Ta'lim jarayonida ularning ko'pgina tasavvuridagi bilimlarini o'zlashtirishga aniqlik kiritiladi. Shuningdek o`rab turgan atrof olam haqida yanada keng bilimga ega bo'ladilar. Shuni ham aytib o'tish kerakligini mo`ljal olish va mo`ljal olish tasavvurlari ham rivojlanadi.

Ko`pgina boshlang'ich sinf o'quvchilarining koordinatsion harakati, barmoq muskullari, qo'lpanjalari harakati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Maxsus mashqlar yordamida qo'lharakatlari, koordinatsiya harakatlari, qo'llarning barmoqlarning bukiluvchanligi to'g'rilanadi.

To'g'ri harakat sifatini, ko'ruv sezgi, kinestik sezgi, idrok orqali amalga oshiriladi. Bolalar xarakatlaridagi qanchalik erta bartaraf etilsa, yozuvlari va rasm chizishlari yuqori bo'ladi. Sinfda har xil guruqdagi oligofren bolalar bo'ladi, ayrimlari o`qituvchiga oson bo'ysunadilar, ayrimlari ta'sirchan, etganni qilmaydigan, turli xil faoliyatga jalb etish qiyin, xarakteri oqir bolalar ham bo'ladi, bunday bolalarga individual yondoshib fanga qiziqtirib boriladi.

Tasviriy faoliyatda mustaqillilik, qat'iylik hislari ham rivojlanadi. O'quvchilarni tasviriy faoliyatda ijobiy (samarali) natijalarga erishish uchun pedagogik-psixologik sharoit yaratilishi lozim. Bolalarni tasviriy faoliyatda bir qator estetik asarlarni idrok etishlarini rivojlantirish muhimdir. Idrok etish predmetni analiz va sintez qilishni talab etadi. Bularni bolalar mustaqil o'zlashtira olmaydilar:

-idrok etish bosqichlarini tashkil qilish;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

-predmetni yaxlitligicha idrok etish;
-analiz qilib ko'rib chihish;
-predmetni tuzilishini, yirik va mayda hismlarini o'zaro munosabatlarini aniqlash;
-rangini ajratib ko'rsatish;
-predmetni yana yaxlitligicha ko'rib chihish.

Estetik tarbiya – bu bolalarni voqealikdagi, san'atdagi, tabiatdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go`zallikka munosabatini idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o`stirish, ularda go`zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go`zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Insonda go`zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof muhit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko'ra, insoniyatning badiiy rivojlanish qonuniyatlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog`langan. Estetik tarbiya eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyqularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Shaxsning barkamol bo'lib shakllanishida, aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Estetik, ya'ni go`zallik tarbiyasini singdirishning ahamiyati katta. Bunday tarbiya, avvalo yoshlarni turmushdagi go`zallik va xunuklikni tushunish, his etish orqali ma'lum bir kayfiyatni shakllantiradi, ularda go`zallikdan baxra olishni shakllantiradi.

Estetik his tuyg'u, estetik madaniyatni shakllantirishdir. Estetik tarbiya shunday katta kuchga egaki, san'at asaridagi tasvirlangan syujet, qodisa bolaning, idrok etuvchining tasavvurida, qayolida, kechinmalarida, estetik hissiyotida qayta ishlanib uning o'z tajribasiga aylanadi, yangi hissiyotlarni yangi insoniy munosabatlarni vujudga keltiradi. Bolalar rasm chizish jarayonida estetik, aqliy-hissiy va madaniy-ma'naviy rivojlanishida katta o`zgarishlar yuz beradi.

Estetik tarbiyaning uchinchi vazifasi bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdir. Maktabgacha tarbiya muassasasida har xil qobiliyatga ega bo'lgan bolalar uchraydi. Ayrim bolalar chiroyli chizadilar, ayrimlari esa yasash qobiliyatiga ega.

San'atning rasm chizish turi bilan shug'ullanish bolalarni atrof-olamga, insonning ijtimoiy hayotiga, o`simliklar va hayvonot olamiga qiziqishini kuchaytiradi, ular atrofdagi narsalarni diqqat bilan kuzatishni o'rganadilar. Yuqori darajali rasmlarni qizihish va diqqat bilan kuzatganlaridagina bolalar rasm chizish san'atiga qizihish uyqonadi, rasmlarga bo'lgan munosabatlari shakllanadi. Bolalar o`zlari chizgan rasmlariga ranglardan to'g'ri foydalana olishga o`rganadilar, o'quvchilar bir-birlarining chizgan rasmlariga baqo berishlari kerak. Tasviriy faoliyatda o'quvchilarning Vatanga bo'lgan muqabbatini va milliy san'atga qizihishlarini shakllantirib rivojlantiriladi.

Tasviriy faoliyat darslarida o'quvchilarni boshqa insonlar tomonidan chizilgan rasmlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, muomula madaniyatiga ham o'rgatilib boriladi.

Tasviriy faoliyat darslarida tanishtirilayotgan yangiliklar, bilim va malakalar berilayotganda bilim berish va tasvirlab berish yuqori darajada bo'lishi lozim. Yangilikni bilim va malakalarni shakllantirish uchun darsni o`qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil qilish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

lozim. Ish qurollaridan to'g'ri foydalani olish (qaychi, boyoq, qalam, qaychi…) ish materiallariga ehtiyotkorlik bilan yondoshish (loy, plastilin, rangli qog`oz, yelim....). Dars davomida lepka, aplikatsiya, konstruktsiyalash, predmetli, dekorotiv rasm chizishda o`qituvchi bolalarga bajarilayotgan vazifaning har bir etapini ko'rsatib tushuntirib berishi lozim. Dars davomida har bir bolani nazorat qilib turishi lozim. O'qituvchi vazifani bajarishda qiynalayotgan bolalarga yordam berishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. –T.: Ilm ziyo, 2006.
2. Бикбаева Н.У., Ибрагимова З.И., Қосимова Х.И. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда элементар математик тасаввурларни шакллантириш. – Т.: Ўқитувчи, 1995 й.
3. Jumayev M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi. – T., 2007.
4. Михайлова А., Носова Э. Д., Столяр А. А., Полякова М. Н., Вербенец А. М.Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста. – Издателство «Детсво-пресс». Санкт-петербург, 2008.
5. Asqarova D.Q. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. NAMANGAN-2020.
6. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. Toshkent, 2018 yil.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉Raximov Otabek Davlatovich, dotsent, [Рахимов Отабек Давлатович, доцент], [Otabek D. Raximov, docent]; manzil: O'zbekiston, 210101, Navoiy, I.Karimov ko'chasi, 56/46; [адрес: ул. И. Каримова, 56/46, г. Навои, Узбекистан, 210101]; [address: 56/46 I. Karimov Street, Navoi, Uzbekistan, 210101].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

MUSIQIY TA'LIMDA O'ZBEK XALQ MUSIQA CHOLG'U IJROCHILIGINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

© U.G'. Matyakubova[1]✉

[1]Urganch davlat universiteti, Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada O'zbek xalq musiqa cholg'u ijrochiligining musiqiy ta'limdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xalq cholg'ulari orqali o'quvchilarda musiqiy did va ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalq cholg'u ijrochiligini ta'lim jarayoniga joriy etishning metodik yondashuvlari va uning yosh avlodni ma'naviy yuksaltirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada xalq musiqa cholg'ularining o'quv dasturlarida qo'llanilishi, ijrochilik san'atini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarining samaradorligi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari musiqiy ta'lim tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi musiqiy ta'lim jarayonida O'zbek xalq musiqa cholg'u ijrochiligidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, uning o'quvchilarda musiqiy did, ijrochilik mahorati va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rnini aniqlash, shuningdek, xalq cholg'ularini o'qitish jarayonida samarali metod va yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada O'zbek xalq musiqa cholg'u ijrochiligini musiqiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun qo'llanilgan metodik yondashuvlar orqali O'zbek xalq musiqa cholg'ularini o'quv jarayoniga samarali joriy etish va uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish maqsad qilingan. Olingan natijalar xalq cholg'u ijrochiligini musiqiy ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha yangi metodik takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: musiqiy ta'limda O'zbek xalq musiqa cholg'u ijrochiligidan foydalanishning ahamiyati ko'p qirrali bo'lib, u milliy madaniyatni saqlab qolish va o'quvchilarda ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqot davomida aniqlangan pedagogik imkoniyatlar va metodik yondashuvlar xalq cholg'u ijrochiligining ta'lim tizimidagi o'rnini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

XULOSA: O'zbek xalq musiqa cholg'u ijrochiligi musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, ijrochilik mahoratini rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq cholg'ulari, musiqa ta'limi, cholg'u ijrochiligi, pedagogik imkoniyatlar, musiqa didi, ma'naviy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, ta'lim metodikasi.

Iqtibos uchun: Matyakubova U.G'. Musiqiy ta'limda o'zbek xalq musiqa cholg'u ijrochiligining pedagogik imkoniyatlari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.284-290.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНЕНИЯ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© У.Г. Матьякубова[1]✉
[1]Ургенчский государственный университет, Ургенч, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются педагогические возможности узбекского народного музыкального исполнения в музыкальном образовании. рассмотрены процессы формирования музыкального вкуса и исполнительского мастерства учащихся с помощью народных инструментов. также будут раскрыты методические подходы к внедрению исполнительства на народных инструментах в учебный процесс и его значение в духовном подъеме подрастающего поколения. в статье рассматривается использование народных музыкальных инструментов в образовательных программах, эффективность педагогических технологий и методов обучения, направленных на развитие исполнительского искусства. результаты исследования имеют практическое значение в совершенствовании системы музыкального образования.

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является изучение педагогических возможностей использования узбекских народных музыкальных инструментов в процессе музыкального образования, определение его места в формировании музыкального вкуса учащихся, исполнительского мастерства и духовных ценностей, а также использования народных инструментов заключается в разработке эффективных методов и подходов в процессе обучения им.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: целью статьи является эффективное внедрение узбекских народных музыкальных инструментов в учебный процесс и расширение его педагогических возможностей за счет методических подходов, используемых для интеграции игры на узбекских народных музыкальных инструментах в процесс музыкального образования. Полученные результаты позволили разработать новые методические предложения по включению исполнительства на народных инструментах в систему музыкального образования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: значение использования узбекских народных музыкальных инструментов в музыкальном образовании многогранно, оно направлено на сохранение национальной культуры и формирование творческих способностей учащихся. Педагогические возможности и методические подходы, выявленные в ходе исследования, позволяют еще больше укрепить место исполнительства на народных инструментах в системе образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: игра на узбекских народных музыкальных инструментах является эффективным инструментом в процессе музыкального образования в формировании музыкального вкуса учащихся, развитии исполнительского мастерства и воспитании их в духе национальных ценностей.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ключевые слова: узбекские народные инструменты, музыкальное образование, музыкальное исполнительство, педагогические возможности, музыкальный вкус, духовное воспитание, педагогические технологии, методика обучения.

Для цитирования: Матьякубова У.Г. Педагогические возможности узбекского народного инструментального исполнения в музыкальном образовании. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 284-290.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF UZBEKISTAN FOLK INSTRUMENT PERFORMANCE IN MUSIC EDUCATION

© Umida G‘. Matyakubova[1]✉
[1]Urgench State University, Urgench, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the pedagogical possibilities of Uzbek folk musical instrument performance in music education. The processes of forming musical taste and performing skills in students through folk instruments are considered. Also, methodological approaches to introducing folk instrument performance into the educational process and its importance in the spiritual upliftment of the younger generation are revealed. The article studies the use of folk musical instruments in educational programs, the effectiveness of pedagogical technologies and teaching methods aimed at developing performing arts. The results of the research are of practical importance in improving the music education system.

AIM: the purpose of this article is to study the pedagogical possibilities of using Uzbek folk musical instrument performance in the process of music education, to determine its place in the formation of musical taste, performing skills and spiritual values in students, as well as to develop effective methods and approaches in the process of teaching folk instruments.

MATERIALS AND METHODS: the article aims to effectively introduce Uzbek folk musical instruments into the educational process and expand its pedagogical capabilities through methodological approaches used to integrate Uzbek folk musical instrument performance into the music education process. The results obtained made it possible to develop new methodological proposals for introducing folk musical instrument performance into the music education system.

DISCUSSION AND RESULTS: the importance of using Uzbek folk musical instrument performance in music education is multifaceted, and it is aimed at preserving national culture and forming creative skills in students. The pedagogical opportunities and methodological approaches identified during the study allow further strengthening the place of folk musical instrument performance in the education system.

CONCLUSION: uzbek folk musical instrument performance is an effective tool in the process of musical education for forming students' musical taste, developing performance skills, and educating them in the spirit of national values.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Keywords: uzbek folk instruments, music education, instrument performance, pedagogical opportunities, musical taste, spiritual education, pedagogical technologies, educational methodology.

For citation: Umida G‘. Matyakubova. (2024) ‘Pedagogical possibilities of uzbekistan folk instrument performance in music education’, Inter education & global study, (10), pp. 284-290. (In Uzbek).

Musiqiy ta’lim insonning estetik va ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, milliy musiqa madaniyati va xalq cholg‘u ijrochiligini ta’lim jarayoniga joriy etish yosh avlodning madaniy merosga hurmatini oshirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratadi. O‘zbek xalq musiqa cholg‘ulari ko‘p asrlik an’analarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularning pedagogik salohiyati ta’lim jarayonida ijrochilik mahoratini rivojlantirish va musiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda musiqiy ta’limni rivojlantirish jarayonida milliy cholg‘ularni o‘rgatish nafaqat ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantiradi, balki o‘quvchilarni milliy madaniyat va urf-odatlarga yaqinlashtiradi. Shu bois, ta’lim muassasalarida xalq cholg‘u ijrochiligidan samarali foydalanish, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada O‘zbek xalq musiqa cholg‘ularining pedagogik imkoniyatlari, ta’lim jarayonida ularni qo‘llash metodikasi hamda bu yondashuvning yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi.

Maqolada O‘zbek xalq musiqa cholg‘u ijrochiligini musiqiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun qo‘llanilgan metodik yondashuvlar quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: Xalq cholg‘ularining tarixi, ularning musiqiy ta’limdagi o‘rni va pedagogik ahamiyatini aniqlash uchun ilmiy va amaliy manbalar o‘rganildi. Bu jarayonda xalq cholg‘ularining didaktik va estetik imkoniyatlari hamda ularni o‘qitish jarayonida qo‘llash samaradorligi tahlil qilindi.
Xalq cholg‘u ijrochiligini o‘quv jarayoniga tatbiq etish samaradorligini o‘rganish uchun eksperimentlar o‘tkazildi. Bu jarayonda o‘quvchilarning ijrochilik ko‘nikmalari, musiqiy didi va ijodiy qobiliyatlari o‘zgarishlari kuzatildi. Eksperiment ikki bosqichda o‘tkazildi: tayyorgarlik va amaliyot bosqichlari.

Xalq cholg‘ularining ijrochilik texnikalari va asboblarini musiqiy nazariya darslari, ijrochilik mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga qo‘shish metodlari ishlab chiqildi. Bu yondashuv orqali cholg‘u ijrochiligi bilan bog‘liq nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar bir butun tizimda shakllantirildi. Xalq cholg‘ularini o‘qitishda raqamli vositalar va o‘quv dasturlaridan foydalanish bo‘yicha uslublar ishlab chiqildi. Bu, ayniqsa, virtual cholg‘u ijrochilik dasturlari va multimedia vositalari yordamida o‘quvchilarning qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining xalq cholg‘ulari bo‘yicha ijrochilik va pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tashkil qilindi. Bu

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

usul orqali o‘quvchilarning cholg‘ularni o‘rganishdagi individual qobiliyatlari va qiziqishlari inobatga olindi.

Mazkur metodik yondashuvlar orqali O‘zbek xalq musiqa cholg‘ularini o‘quv jarayoniga samarali joriy etish va uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish maqsad qilingan. Olingan natijalar xalq cholg‘u ijrochiligini musiqiy ta’lim tizimiga kiritish bo‘yicha yangi metodik takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

O‘zbek xalq musiqa cholg‘u ijrochiligini musiqiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mavzusida qilingan ilmiy izlanishlar[7, 127] milliy va xorijiy musiqashunoslik, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlari doirasida keng ko‘lamli manbalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek musiqa madaniyati, jumladan, xalq cholg‘ulari ijrochiligiga bag‘ishlangan milliy tadqiqotlarda xalq cholg‘ularining tarixi, ularning o‘ziga xos texnik xususiyatlari va ijrochilik an’analari chuqur tahlil qilingan. Ushbu asarlar xalq cholg‘ularining musiqiy ta’lim jarayonidagi ahamiyatini, ularning estetik va ma’naviy tarbiya vositasi sifatidagi roli va pedagogik imkoniyatlarini yoritadi. Xususan, A. Sodiqovning[8, 145] tadqiqotlari O‘zbek xalq cholg‘ularining rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda o‘rganishga asoslangan.

Xorijiy olimlar (masalan, J. Blacking[1, 25], C. Nettl[3, 96]) tomonidan musiqiy folklor va xalq cholg‘ulari ta’lim jarayonidagi o‘rni bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ular xalq cholg‘ularining musiqiy tarbiya vositasi sifatida universalligi va ularning milliy madaniyatlarni saqlab qolishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Shuningdek, xorijiy tajribalar xalq cholg‘ularini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish metodikasini ishlab chiqishda foydali bo‘lgan. Pedagogik adabiyotlarda musiqiy ta’limning nazariyasi va amaliyoti, ayniqsa, xalq cholg‘ularining tarbiyaviy ahamiyati keng ko‘rib chiqilgan. Xususan, V. Shatskiy[9, 78] kabi pedagoglarning qarashlari o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni singdirish uchun musiqiy ta’limning imkoniyatlarini asoslaydi.

Mahalliy musiqashunoslar tomonidan xalq cholg‘ularining o‘ziga xosligi, ijrochilik maktablari va ularning musiqiy ta’limda o‘rganilish uslublari keng yoritilgan. Xususan, Shashmaqom cholg‘ulari, doira, dutor, tanbur kabi cholg‘ular ijrochiligini pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek xalq musiqa cholg‘u ijrochiligini ta’lim jarayoniga joriy etish faqat ijrochilikni rivojlantirishni emas, balki o‘quvchilarni ma’naviy va estetik jihatdan tarbiyalashni ta’minlashda ham samarali vosita hisoblanadi. Ushbu sohadagi ilmiy ishlanmalarni tahlil qilish orqali musiqiy ta’limda xalq cholg‘u ijrochiligidan foydalanishga oid yangi yondashuvlarni taklif etish imkoniyati yuzaga keladi.

Musiqiy ta’limda O‘zbek xalq musiqa cholg‘u ijrochiligidan foydalanishning ahamiyati ko‘p qirrali bo‘lib, u milliy madaniyatni saqlab qolish va o‘quvchilarda ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqot davomida aniqlangan pedagogik imkoniyatlar va metodik yondashuvlar xalq cholg‘u ijrochiligining ta’lim tizimidagi o‘rnini yanada mustahkamlash imkonini beradi. Muhokama jarayonida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratildi: Eksperimentlar davomida xalq cholg‘u ijrochiligidan foydalanish musiqiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va milliy qadriyatlarga qiziqishini oshirishda yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Xususan, cholg‘u

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

mashg‘ulotlari o‘quvchilarning musiqa nazariyasini o‘zlashtirishini ham sezilarli darajada yaxshilagan.

Cholg‘u ijrochiligi orqali ma’naviy tarbiya: Xalq cholg‘ulari ijrochiligini ta’lim jarayoniga joriy qilish nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki o‘quvchilarning ma’naviy olamini boyitishda ham samarali ekanligini ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar xalq kuylarining mazmuni va estetik qadriyatlarini his qilish orqali ma’naviy kamolot sari intilishdi. Raqamli texnologiyalarni xalq cholg‘u ijrochiligiga tatbiq etish o‘quvchilarni o‘qitishga bo‘lgan qiziqishni oshirgan. Virtual cholg‘ular yordamida o‘quvchilar cholg‘ularning ovozlarini tahlil qilish, ijrochilik usullarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Bu yondashuv xalq cholg‘ularini o‘rganishda zamonaviy pedagogik metodlardan samarali foydalanish imkoniyatini tasdiqladi. O‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligini ta’lim jarayoniga joriy qilishda o‘qituvchilarning ijrochilik va pedagogik kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, malakali o‘qituvchilar bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ular o‘quvchilarning musiqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishishi mumkin. Xalq cholg‘u ijrochiligini musiqiy nazariya darslari, ijrochilik mashg‘ulotlari va sinfdan tashqari tadbirlarga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning musiqiy ta’limga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Muhokama davomida aniqlangan natijalar O‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligini ta’lim jarayoniga kengroq joriy qilish uchun amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Xalq cholg‘ularidan samarali foydalanish musiqiy ta’lim tizimini boyitish bilan birga, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim vosita ekanligi yana bir bor tasdiqlandi.

O‘zbek xalq musiqa cholg‘u ijrochiligi musiqiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, ijrochilik mahoratini rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida olib borilgan ishlar quyidagi xulosalarga olib keldi: Xalq cholg‘u ijrochiligi ta’lim jarayonida nafaqat ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish, balki o‘quvchilarning ma’naviy va estetik tarbiyasini mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon milliy madaniyatni yosh avlodga yetkazish va ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Xalq cholg‘ularini musiqiy ta’lim jarayoniga joriy etishning samaradorligi innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish bilan ortadi. Xususan, raqamli texnologiyalar va interaktiv o‘qitish metodlari xalq cholg‘ularini o‘qitishda o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga imkon beradi.

O‘qituvchilar tomonidan xalq cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha yetarli pedagogik va ijrochilik kompetensiyalarning shakllanganligi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli natijalar uchun muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ushbu yo‘nalishda alohida e’tibor qaratilishi lozim. Xalq cholg‘ularining musiqiy ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish va ularning milliy madaniyatga qiziqishini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda ham keng qo‘llanilishi kerak. O‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligidan foydalanish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ta’lim tizimining sifatini oshirish, milliy madaniyatni rivojlantirish va yosh avlodni ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda strategik ahamiyatga ega.

Ushbu xulosalar musiqiy ta’limda xalq cholg‘u ijrochiligi asosida yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi. Shu bilan birga, xalq cholg‘u ijrochiligini musiqiy ta’lim tizimiga joriy etish milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishning samarali usullaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Blacking, J. (1973). How Musical is Man? Seattle: University of Washington Press.
2. G'ayibayevna, M. U. (2022). Pedagogical Fundamentals of Formation of Moral Values in Students through Music Lessons. European journal of innovation in nonformal education, 2(4), 40-43.
3. Nettl, B. (1983). The Study of Ethnomusicology: Twenty-nine Issues and Concepts. Urbana: University of Illinois Press.
4. Matyakubova, U. G. (2021). Increasing the Effectiveness of Music Teaching Methodology Lessons. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 783-791.
5. Umida, G. (2022). Musiqa madaniyati darslarini hamkorlikda tashkil etish texnologiyasining nazariy asoslari. Academic research in educational sciences, 3(1), 595-600.
6. Нажметдинова, Н. И., & Матьякубова, У. Г. (2021). НАЧАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ СЛУШАНИЮ МУЗЫКИ. Экономика и социум, (4-2 (83)), 240-243.
7. Yusupov, O. (2018). Musiqiy madaniyat va xalq cholg‘ularining rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
8. Sodiqov, A. (2015). O‘zbek xalq cholg‘ulari tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
9. Shatskiy, V. (1981). Esteticheskoye vospitaniye i narodnaya muzyka. Moskva: Prosveshcheniye.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Matyakubova Umida G‘ayibayevna,** Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi, [**Матьякубова Умида Гаибаевна,** старший преподаватель Ургенчского государственного университета], [**Umida G‘. Matyakubova,** senior teacher of Urgench State University]; manzil: O‘zbekiston, Urganch sh., Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Ҳамид Олимжон, 14], [address: Uzbekistan, 14, Khamid Alimjan st., Urgench city]. E-mail: umida@urdu.uz ORCID: https://orcid.org/0000-0003-0092-8151

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

TA'LIM PLATFORMALARI ORQALI IQTIDORLI TALABALARDA KASBIY KOMPETENTLIKINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

© Y.J. Ruzimova[1]✉

[1]Urganch davlat universiteti, Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada ta'lim platformalari orqali iqtidorli talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Platformalarning o'quv jarayonida qo'llanilishi, ularning talabalar kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdagi o'rni va samaradorligi tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Iqtidorli talabalar uchun maxsus platformalarni yaratish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida platformalardan foydalanish orqali talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi – ta'lim platformalari orqali iqtidorli talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va ularni samarali hal qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shuningdek, ta'lim platformalarining innovatsion texnologiyalar yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, ulardan ta'lim jarayonida maksimal samaradorlik bilan foydalanish usullarini taklif qilish ham ushbu maqolaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim platformalarining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ta'lim platformalarining iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli vositalar ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Platformalarning interaktivligi, moslashuvchanligi va resurslarning xilma-xilligi iqtidorli talabalar uchun o'z bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'lim platformalaridan foydalanishda bir qancha muammolar ham mavjud.

XULOSA: ta'lim platformalari orqali iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim platformalari o'quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qilishda katta imkoniyatlarga ega ekani aniqlandi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Kalit so‘zlar: ta’lim platformalari, kasbiy kompetentlik, iqtidorli talabalar, pedagogik muammo, innovatsion texnologiyalar, metodik yondashuvlar, ta’lim samaradorligi, kasbiy tayyorgarlik.

Iqtibos uchun: Y.J. Ruzimova. Ta’lim platformalari orqali iqtidorli talabalarda kasbiy kompetentlikini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. // Inter education & global study. 2024. №10 B.291-297.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ТАЛАНТЛИВЫХ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПЛАТФОРМЫ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

© Й.Ж. Рузимова[1]✉
[1] Ургенчский государственный университет, Ургенч, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье подчеркивается педагогическая значимость развития профессиональной компетентности талантливых студентов посредством образовательных платформ. Исследовано использование платформ в образовательном процессе, их роль и эффективность в формировании профессиональной подготовки студентов. Также в статье анализируется значение инновационных образовательных технологий и методических подходов к их внедрению в образовательный процесс. Разработаны рекомендации по созданию специальных платформ для одаренных учащихся и их эффективному использованию. Результаты исследования расширяют возможности развития профессиональной компетентности студентов за счет использования платформ в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является изучение педагогических возможностей развития профессиональной компетентности одаренных учащихся посредством образовательных платформ, анализ проблем, возникающих в этом процессе, и разработка научно обоснованных рекомендаций по их эффективному решению. Также одной из основных целей данной статьи является определение роли и значения образовательных платформ в совершенствовании профессиональной подготовки студентов с помощью инновационных технологий, а также предложение способов их использования с максимальной эффективностью в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье были использованы методы исследования педагогических возможностей образовательных платформ в развитии профессиональной компетентности одаренных учащихся.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования роли и значения образовательных платформ в развитии профессиональной компетентности одаренных учащихся показывают, что современные цифровые инструменты выводят образовательный процесс на качественно новый уровень. Интерактивность, гибкость и разнообразие ресурсов платформ позволяют

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

одаренным студентам углубить свои знания и навыки. В то же время существует ряд проблем в использовании образовательных платформ.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие профессиональной компетентности талантливых студентов посредством образовательных платформ является одной из актуальных задач современной системы образования. По результатам данного исследования было установлено, что образовательные платформы обладают большим потенциалом в том, чтобы сделать образовательный процесс интерактивным, гибким и эффективным.

Ключевые слова: образовательные платформы, профессиональная компетентность, одаренные студенты, педагогическая проблема, инновационные технологии, методические подходы, эффективность образования, профессиональная подготовка.

Для цитирования: Рузимова Й.Ж. Развитие профессиональной компетентности талантливых студентов через образовательные платформы как педагогическая проблема. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 291-297.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN TALENTED STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL PLATFORMS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

© Yulduzkhan J. Ruzimova[1]✉
[1]Urgench State University, Urgench, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the pedagogical importance of developing the professional competence of talented students through educational platforms. The use of platforms in the educational process, their role and effectiveness in the formation of professional training of students has been researched. The article also analyzes the importance of innovative educational technologies and methodical approaches to their implementation in the educational process. Recommendations on the creation of special platforms for gifted students and their effective use have been developed. The results of the study expand the opportunities for developing the professional competence of students through the use of platforms in the educational process.

AIM: the purpose of this article is to study the pedagogical possibilities of developing the professional competence of gifted students through educational platforms, to analyze the problems that arise in this process and to develop scientifically based recommendations for their effective solution. Also, one of the main goals of this article is to determine the role and importance of educational platforms in improving the professional training of students with the help of innovative technologies, and to suggest ways to use them with maximum efficiency in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: in this article, research methods were used to study the pedagogical possibilities of educational platforms in the development of professional competence of gifted students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study of the role and importance of educational platforms in the development of professional competence of gifted students show that modern digital tools bring the educational process to a qualitatively new level. The interactivity, flexibility and variety of resources of the platforms allow gifted students to deepen their knowledge and skills. At the same time, there are several problems in using educational platforms.

CONCLUSION: developing the professional competence of talented students through educational platforms is one of the urgent issues of the modern education system. According to the results of this research, it was found that educational platforms have great potential in making the educational process interactive, flexible and effective.

Key words: educational platforms, professional competence, gifted students, pedagogical problem, innovative technologies, methodical approaches, educational efficiency, professional training.

For citation: Yulduzkhan J. Ruzimova. (2024) 'Development of professional competence in talented students through educational platforms as a pedagogical problem', Inter education & global study, (10), pp. 291-297. (In Uzbek).

Hozirgi davrda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ayniqsa, iqtidorli talabalar uchun maxsus platformalarni rivojlantirish zaruratga aylanmoqda. Innovatsion texnologiyalarning keng ko'lamda qo'llanilishi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va mehnat bozorining yuqori talablariga mos ravishda, talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish ta'limning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim platformalari orqali iqtidorli talabalar bilan ishlash usullarini takomillashtirish dolzarb pedagogik masala sifatida o'rganishni talab etadi.

Ta'lim platformalari talabalarning bilim olish jarayoniga interaktivlik, mustaqillik va kreativ yondashuvni olib kiradi. Bunda iqtidorli talabalar uchun o'ziga xos moslashuvchan va individual ta'lim yo'llarini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu maqolada ta'lim platformalari orqali iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va usullarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning echimlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish masalalari yoritiladi.

Ushbu maqolada iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim platformalarining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

Nazariy tahlil: Ta'lim platformalari, kasbiy kompetentlik va innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilmiy manbalar va adabiyotlarni o'rganish hamda ularning pedagogik jarayonlardagi rolini tahlil qilish. Empirik tadqiqotlar: Iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim platformalarining samaradorligini baholash uchun kuzatishlar, so'rovnomalar va intervyular tashkil etildi. Eksperimental usul: Maxsus ta'lim platformalaridan foydalanish orqali talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullarni sinovdan o'tkazish. Taqqoslash va tahlil: Ta'lim jarayonida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

an’anaviy usullar bilan ta’lim platformalarining imkoniyatlarini taqqoslash, ularning afzalliklarini aniqlash. Statistik tahlil: Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarni raqamli formatda ifodalash uchun statistik usullar qo‘llanildi. Mazkur metodologik yondashuvlar yordamida ta’lim platformalarining iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari chuqur o‘rganilib, ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ta’lim platformalari va kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar keng qamrovli va ko‘p qirrali tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, iqtidorli talabalar bilan ishlash metodlari va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish usullari bo‘yicha ilmiy asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim platformalari ta’lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatini optimallashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Dastlabki tadqiqotlarda Anderson[1, 25] va Siemens[5, 49] kabi olimlar tomonidan ta’lim jarayonlarida raqamli platformalarning ahamiyati va konnektivizm nazariyasi asosida o‘qitish samaradorligi yoritilgan. Bu asarlar raqamli muhitda talabalar bilan ishlashda individual yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Vigotskiy[6, 196] tomonidan ta’lim jarayonida ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati ta’kidlanib, bu nazariya ta’lim platformalari orqali talabalar kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Collins va Halverson[2, 97] ta’limning raqamli davrdagi imkoniyatlarini tadqiq etib, ta’lim platformalarining talabalar bilimini individuallashtirish va ular faoliyatini diversifikatsiya qilishda o‘rni katta ekanligini ko‘rsatdi. Milliy tadqiqotlarda, jumladan, M.Q. Usmonov va A.A. Karimov[4 kabi pedagoglar asarlarida ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va platformalardan foydalanish metodikasi, ularning talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdagi samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy manbalarda ta’lim platformalari asosida talabalar kompetentligini rivojlantirishga oid tadqiqotlarda Garrison va Vaughn[3, 17] tomonidan "aralash ta’lim modeli" yoritilib, raqamli texnologiyalar va an’anaviy o‘qitish usullarining kombinatsiyasi samaradorlikka olib kelishi ta’kidlangan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim platformalaridan foydalanish nafaqat talabalar bilimini oshiradi, balki ularning kasbiy ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish uchun innovatsion imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, milliy va xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar asosida ta’lim platformalaridan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish ushbu yo‘nalishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Ta’lim platformalarining iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli vositalar ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Platformalarning interaktivligi, moslashuvchanligi va resurslarning xilma-xilligi iqtidorli talabalar uchun o‘z bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta’lim platformalaridan foydalanishda bir qancha muammolar ham mavjud. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, platformalardan foydalanishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Talabalar mustaqilligini oshirish: Platformalar orqali talaba o‘z bilim olish jarayonini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa uning mas’uliyatini va o‘zini rivojlantirish istagini kuchaytiradi. Individual yondashuvni ta’minlash: Platformalar yordamida talabalar individual o‘quv rejalarini shakllantirishi va o‘z ehtiyojlariga mos resurslardan foydalanishi mumkin. Zamonaviy mehnat bozoriga moslashuv: Ta’lim platformalari orqali egallangan bilim va ko‘nikmalar talabalarni mehnat bozorida raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Biroq, amaliyotda platformalardan foydalanishda bir qator muammolar ham kuzatilmoqda. Texnik cheklovlar: Internet tarmog‘iga kirish imkoniyati yoki texnik jihozlarning etishmasligi, ayniqsa, qishloq hududlarida, platformalardan to‘laqonli foydalanishni qiyinlashtiradi. O‘qituvchilarning tayyorgarligi: Ko‘plab o‘qituvchilar platformalar bilan ishlash uchun etarli darajada raqamli savodxonlikka ega emas. Motivatsiya etishmovchiligi: Talabalar orasida mustaqil ishlash uchun yetarli ichki motivatsiya bo‘lmagan hollarda platformalarning samaradorligi pasayadi.

muhokama davomida aniqlanganki, ta’lim platformalari orqali talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishni samarali amalga oshirish uchun quyidagilar talab etiladi: platformalarning texnik imkoniyatlarini kengaytirish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish; o‘qituvchilarni raqamli savodxonlik va platformalardan samarali foydalanish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish; talabalar motivatsiyasini oshirish uchun interaktiv, qiziqarli va ijodiy faoliyatlarni ta’lim jarayoniga kiritish; natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim platformalaridan samarali foydalanish iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ta’lim platformalarining qo‘llanilishi ustuvor pedagogik vazifa sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’lim platformalari iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Ushbu platformalar talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim olish jarayonini mustaqil boshqarish va raqobatbardosh kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi. Ta’lim platformalarining afzalliklari aniqlandi: Platformalar orqali talabalar individual o‘quv rejalarini shakllantirish va o‘z ehtiyojlariga mos resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi isbotlandi.

Yuzaga keladigan muammolar tahlil qilindi: Texnik cheklovlar, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi etishmovchiligi va talabalar motivatsiyasi pastligi kabi muammolar ta’kidlandi. Platformalarning kasbiy kompetentlikka ta’siri aniqlandi: Iqtidorli talabalar ta’lim platformalari orqali nafaqat nazariy bilimlarni, balki zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan amaliy ko‘nikmalarni ham egallashi mumkinligi ko‘rsatildi. Samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi: Platformalardan foydalanishni optimallashtirish uchun texnik infratuzilmani yaxshilash, o‘qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish va talabalar motivatsiyasini oshirishga qaratilgan usullar taklif qilindi. Tadqiqotdan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ta’lim platformalari iqtidorli talabalar bilan ishlashda o‘quv jarayonining sifatini oshirishga yordam beruvchi muhim pedagogik vositadir. Ularni ta’lim tizimiga keng joriy etish orqali kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha yangi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

imkoniyatlarni shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, platformalarning samaradorligini oshirish uchun ulardan foydalanish sharoitlari va imkoniyatlarini yanada takomillashtirish zarur.

Ta’lim platformalari orqali iqtidorli talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’lim platformalari o‘quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qilishda katta imkoniyatlarga ega ekani aniqlandi. Tahlil natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi. Ta’lim platformalari individual yondashuvni ta’minlash, talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undash orqali ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Platformalar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, bu esa ularning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Platformalarni samarali qo‘llash uchun texnik infratuzilmani takomillashtirish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish va talabalar motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, jumladan, texnik cheklovlar va raqamli savodxonlik etishmovchiligi, platformalardan foydalanish samaradorligini pasaytirayotganini ko‘rsatdi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Ta’lim platformalarini keng joriy etish orqali iqtidorli talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish nafaqat ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqadi, balki mamlakatning raqobatbardosh mutaxassislarini etishtirishga ham zamin yaratadi. Shu bois, platformalardan foydalanishni strategik yondashuv asosida rivojlantirish zarurati mavjud.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
2. Collins, A., & Halverson, R. (2009). Rethinking Education in the Age of Technology: The Digital Revolution and Schooling in America. Teachers College Press.
3. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass.
4. Usmonov, M. Q., & Karimov, A. A. (2020). Innovatsion pedagogika va ta’lim texnologiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. Siemens, G. (2004). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ruzimova Yulduzxon Jumanazar qizi**, o‘qituvchi, [**Рузимова Юлдузхан Джуманазаровна,** преподаватель], [**Yulduzkhan J. Ruzimova,** teacher]; manzil: O‘zbekiston, Urganch sh., Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Ҳамид Олимжон, 14], [address: Uzbekistan, 14, Khamid Alimjan st., Urgench city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

BARKAMOL AVLOD MAKTAB O‘QUVCHILARINI XALQ QO‘SHIQLARI VOSITASIDA ESTETIK TARBIYALASHNING MAVJUD AHVOLI

© F.A. Nazarov[1]✉
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada yosh avlodni ajdodlarimiz an’analari, qadriyatlari va madaniyati asosida tarbiyalash, ularda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy-musiqiy merosimiz, xususan, xalq qo‘shiqlari xususida fikr bayon etilgan. O‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, xususan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir fan, sinfdan tashqari olib boriladigan har bir tadbirdan o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy shakllantirish vositasi sifatida foydalanish o‘ta muhim va dolzarb masaladir. Chunki mamlakat va xalqning taqdiri kelajagimiz vorisi bo‘lgan ana shu yoshlarning hayotga qay darajada tayyor ekanligi va ularning ma’naviy-mafkuraviy barkamolligiga bog‘liqdir.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi barkamol avlod maktab o‘quvchilarini xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning ahvolini o‘rganish, ushbu jarayonda milliy musiqiy merosning o‘rni va ahamiyatini aniqlash, shuningdek, ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida xalq qo‘shiqlari va estetik tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlar, milliy va xalqaro tadqiqotlar o‘rganildi. Shuningdek, maktablarda o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida kuzatuvlar olib borildi, so‘rovnomalar o‘tkazildi va pedagoglarning tajribasi tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotda muammoli ta’lim, musiqiy tarbiya va xalq madaniy merosini o‘rganuvchi metodlar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: xalq qo‘shiqlari bolalar estetik dunyoqarashining shakllanishida samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi; maktablarda xalq qo‘shiqlari asosida o‘quvchilarning musiqiy va estetik tarbiyasini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti; estetik tarbiyani rivojlantirishda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yondashuvlarning yetarlicha joriy etilmagani aniqlangan; xalq qo‘shiqlari bolalarga nafaqat musiqiy bilim beradi, balki ularda milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatni kuchaytiradi, ammo amaliy mashg‘ulotlar va musiqiy darslarning metodikasini takomillashtirish talab qilinadi.

XULOSA: xalq qo‘shiqlari vositasida barkamol avlod o‘quvchilarining estetik tarbiyasini shakllantirishda milliy musiqiy merosning imkoniyatlari keng bo‘lib, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun tizimli ishlar olib borilishi kerak. Ushbu tadqiqot asosida maktablarda musiqiy tarbiyaga oid yangi yondashuvlar ishlab chiqish, xalq

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

qo‘shiqlarini dars jarayoniga kengroq tatbiq etish, shuningdek, estetik tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar berilishi mumkin.

Kalit so'zlar: folklor, musiqa, qobiliyat, tarbiya, musiqa asari, san’at, xalq qo‘shiqlari, estetik tarbiya, barkamol avlod, milliy madaniyat, musiqiy tarbiya, xalq merosi.

Iqtibos uchun: Nazarov F.A. Barkamol avlod maktab o‘quvchilarini xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning mavjud ahvoli. // Inter education & global study. 2024. №10 B.298-305.

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ФОРМИРОВАНИЕ УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ НАРОДНОГО ПЕНИЯ В ШКОЛАХ ГРАМОТНОСТИ КАК МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

© Ф.А. Назаров[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается воспитание молодого поколения на основе традиций, ценностей и культуры наших предков, а также формирование у них духовно-нравственных качеств с использованием национального музыкального наследия, в частности, народных песен. Предоставление образования и воспитания молодому поколению, особенно использование каждого предмета, преподаваемого в общеобразовательных школах, и каждого внеклассного мероприятия в качестве средства духовно-нравственного воспитания учащихся является чрезвычайно важным и актуальным вопросом. Это связано с тем, что судьба страны и народа зависит от того, насколько молодое поколение, которое является нашим будущим, подготовлено к жизни и обладает духовно-идеологическим совершенством.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является изучение состояния эстетического воспитания школьников через народные песни, выявление роли и значения национального музыкального наследия в этом процессе, а также разработка практических рекомендаций по его совершенствованию.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были изучены научная литература, национальные и международные исследования, посвященные народным песням и эстетическому воспитанию. Также в школах проводились наблюдения за работой с учениками, опросы, а также анализировался педагогический опыт. В исследовании использовались методы проблемного обучения, музыкального воспитания и изучения народного культурного наследия.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что: народные песни являются эффективным средством формирования эстетического мировоззрения у детей; в школах недостаточно уделяется внимания развитию музыкального и эстетического воспитания учащихся на основе народных песен; недостаточно внедряются современные педагогические технологии и подходы для использования народных песен в эстетическом воспитании; народные песни не

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

только дают детям музыкальные знания, но и укрепляют уважение к национальной культуре, однако методику проведения практических занятий и музыкальных уроков необходимо совершенствовать.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: народные песни обладают широкими возможностями для формирования эстетического воспитания школьников. Для успешной организации этого процесса необходимо проводить систематическую работу. На основе данного исследования можно предложить разработку новых подходов к музыкальному воспитанию в школах, более широкое использование народных песен в учебном процессе, а также укрепление педагогических и психологических основ эстетического воспитания.

Ключевые слова: фольклор, музыка, способности, воспитание, музыкальное произведение, искусство, народные песни, эстетическое воспитание, гармоничное поколение, национальная культура, музыкальное воспитание, народное наследие.

Для цитирования: Назаров Ф.А. Духовно-нравственное формирование учащихся средствами народного пения в школах грамотности как методическая проблема. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 298-305.

SPIRITUAL AND MORAL FORMATION OF STUDENTS BY MEANS OF FOLK SINGING IN LITERACY SCHOOLS AS A METHODOLOGICAL PROBLEM

© Farhodjon A. Nazarov[1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the upbringing of the younger generation based on the traditions, values, and culture of our ancestors, as well as the development of their moral and ethical qualities through the use of our national musical heritage, particularly folk songs. Providing education and upbringing to the younger generation, especially using each subject taught in general secondary schools and every extracurricular activity as a means of shaping students' moral and ethical values, is an extremely important and pressing issue. This is because the fate of a country and its people depends on how well-prepared the younger generation, as the heirs of our future, is for life and on their spiritual and ideological maturity.

AIM: the primary objective of this study is to examine the state of aesthetic education of schoolchildren through folk songs, to identify the role and significance of national musical heritage in this process, and to develop practical recommendations for its improvement.

MATERIALS AND METHODS: during the research, scientific literature and national and international studies on folk songs and aesthetic education were studied. Observations of working with students were carried out in schools, surveys were conducted, and

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

teachers' experiences were analyzed. The study employed methods of problem-based learning, music education, and the study of folk cultural heritage.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study revealed that: folk songs serve as an effective tool for shaping children's aesthetic worldview; insufficient attention is paid in schools to developing students' musical and aesthetic education based on folk songs; modern pedagogical technologies and approaches for utilizing folk songs in aesthetic education are not sufficiently implemented; folk songs not only provide children with musical knowledge but also strengthen their respect for national culture, although the methodology of conducting practical classes and music lessons needs improvement.

CONCLUSION: folk songs have vast potential for shaping the aesthetic education of schoolchildren. To organize this process effectively, systematic work must be carried out. Based on this research, it is possible to propose the development of new approaches to music education in schools, broader incorporation of folk songs into the curriculum, as well as strengthening the pedagogical and psychological foundations of aesthetic education.

Key words: folklore, music, ability, education, musical composition, art, folk songs, aesthetic education, harmonious generation, national culture, music education, folk heritage.

For citation: Farhodjon A. Nazarov (2024) 'Spiritual and moral formation of students by means of folk singing in literacy schools as a methodological problem', Inter education & global study, (10), pp. 298-305. (In Uzbek).

Bugungi kunda xalq qo‘shiqlari namunalari maktab o‘quv dasturlaridan qay darajada o‘rin olgan, degan savolga javob izlash zaruriyati vujudga kelmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarga axloqiy–estetik tarbiya berishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilar milliy musiqa durdonalari, folklor qo‘shiqlari bilan bir qatorda, jahon xalqlari musiqa madaniyati namunalaridan ham bahramand bo‘ladilar.

Milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan xalq qo‘shiqlari estetik tarbiyada muhim ahamiyatga ega. Xalq qo‘shiqlari nafaqat bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularda milliy g‘urur, estetik did va hissiy dunyoni shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu paragrafda barkamol avlod maktab o‘quvchilarini xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash muammosining mavjud ahvolini tahlil etishga harakat qilamiz. Barkamol avlod maktab o‘quvchilarini xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalashga, o‘qituvchilarning estetik tarbiyaga oid fikr va mulohazalarini aniqlash hamda umumlashtirishga intilamiz.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning real holatini va o‘qituvchilarning o‘z fikrlarini o‘zaro qiyoslab, estetik tarbiyaning mavjud holatini aniqlashga harakat qildik.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda xalq qo‘shiqlarini o‘rgatish vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashga oid mavjud tajribalar quyidagilardan iborat.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda xalq qo‘shiqlarini o‘rgatish asosida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash bo‘yicha mavjud tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish maqsadida, ilg‘or o‘qituvchilarning darslari kuzatilib, magnit tasmasi va video tasvirga yozib olindi. Darslarni kuzatish va qayd etish jarayonida quyidagi savollarga javob izladik:

a) musiqa darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash uchun qanday savol va topshiriqlar beriladi. Estetik tarbiya berishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat;

b) musiqa madaniyati ta’limi mazmuni bilan bog‘liq savollar–musiqa madaniyati darsligiga kiritilgan milliy musiqa namunalaridan biri bo‘lgan Xorazm musiqa folklori, jumladan xalfa va doston qo‘shiqlarining o‘rni;

d) estetik tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan savollar–dars turi, o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlariga mosligi, ishlash tempi bilan bog‘liqligi, estetik tarbiyalashda foydalanadigan usullar va h.k.

Darslarni kuzatish va tahlil etishda musiqa madaniyati o‘quv predmetining xususiyatidan kelib chiqib, dars tiplarini tasniflashga harakat qildik.

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti aralash dars tipini qo‘llash uchun muvofiq kelib, unda darsning umumiy mavzusiga bo‘ysunuvchi o‘zaro mantiqan bog‘lanuvchi quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi; musiqa idroki (tinglash), kuylash, musiqa savodi, raqs va ritmik xarakatlar, chapak va cholg‘u asboblarida chalish hamda musiqa ijodkorligi .

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda xalq qo‘shiqlarini o‘rganish vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash muammosi bo‘yicha ellikdan ortiq dars yozib olinib, tahlil etildi. Xorazm musiqa folklorini o‘rganish jarayonida 5-7-sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashda xalfa va doston qo‘shiqlari yetakchi o‘rin egallaydi.

Milliy musiqiy an’ana o‘zining ko‘p qirraliligi, janrlarga boyligi, jozibadorligi, o‘ynoqiligi, dunyoning boshqa o‘lkalarida uchramaydigan o‘ziga xos musiqiy ohanglari bilan ajralib turadi.

Xalq dostonlari negizida tashkil topgan va takomillashib kelayotgan, faqat Xorazm vohasiga mansub musiqiy janrlardan biri–xalfachilik san’ati ham ilmiy, amaliy tadqiq etishga loyiq adabiy–musiqiy manbadir.

Xalfalar ijodidagi lapar, yalla, aytishuvlar, milliy raqslar bir qator olimlar S.Ro‘zimboev, R.Yunusov, B.Matyoqubov kabilar tomonidan o‘rganilgan.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda xalq qo‘shiqlarini o‘rgatish asosida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash bo‘yicha mavjud tajribalar o‘rganilgan va umumlashtirilgan. Ilg‘or o‘qituvchilarning darslari kuzatilib, magnit tasmasi va video tasvirga yozib olingan. Darslarni kuzatish va qayd etish jarayonida musiqa darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash bo‘yicha savol va topshiriqlar amalga oshirildi. Estetik tarbiya berishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Musiqa madaniyati darsligida Xorazm musiqa folklori, jumladan xalfa va doston qo‘shiqlarining o‘rni qay darajada ifodalangan? Estetik tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? kabi savollarga javoblar olindi. Ellikdan ortiq dars kuzatilib, tahlil etilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

So‘rovnomada 118 nafar oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchisi ishtirok etdi. O‘tkazilgan so‘rovnoma tahlil qilinganda musiqa o‘qituvchilari Xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash bo‘yicha sayoz tasavvurga egaligi aniqlandi. Aksariyat o‘qituvchilar darslarda xalq qo‘shiqlaridan foydalangan holda o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda nimalarga e’tibor qaratish lozim? degan savolga javob berishga qiynalganlari ayon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida olib borgan kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, barkamol avlod maktablarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashga ta’sir qiladigan hamda o‘qituvchilarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni to‘rt guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhda o‘qituvchilar va o‘quvchilarning estetik tarbiya mohiyati, vositalari, milliy musiqa va xalq qo‘shiqlari o‘rtasidagi farqlarni ajrata olmasliklari ko‘rsatilgan. Ikkinchi guruhda musiqani idrok etish, qo‘shiq kuylay olish, cholg‘u asboblarida kuy ijro etish, musiqa ijodkorligi bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega bo‘lmagan, uchinchi guruhda esa folklor qo‘shiqlaridagi rang–baranglik, ta’sirchanlik, jozibadorlikni farqlamaslik, ularni tinglay va kuylay olmasligi, to‘rtinchi guruhda xalq qo’shiqlarida uchraydigan yalla, lapar, xalfa va doston qo‘shiqlarining ijrosi va raqs harakatlari bo‘yicha bilimga ega emasligi aniqlandi.

Davlat ta’lim standarti ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari, katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslarini o‘rgatishni me’yorlashtiradi. Musiqa madaniyati ta’limining mazmuni yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar musiqa san’atini butun estetikasi bilan o‘rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari; musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Musiqa madaniyati o‘quv predmetining mazmuniga bo‘lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi: musiqa tinglash; jamoa bo‘lib kuylash; musiqa savodxonligi; musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash va kuylash ta’lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o‘rganish bilan bir qatorda cholg‘uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari, bilan har tomonlama o‘rganish va o‘zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot yuzasidan olib borgan kuzatishlarimizdan ayon bo‘ldiki, hozirgi paytda amaliyotda qo‘llanib kelinayotgan Musiqa madaniyati darsliklari va dasturida xalq qo‘shiqlarini o‘rganishga nihoyatda kam vaqt ajratilganligining guvohi bo‘ldik. Jumladan, DTSda ham o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning nazariy asoslariga ko‘p e’tibor berilgan-u, amaliy jihatdan o‘rganish hamda tahlilga kam vaqt ajratilgan. DTSni sinflar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

5–sinf o‘quvchilari egallashi lozim bo‘lgan bilimlar: orkestr, ansambl, xor tuzilishi; ovoz turlari; simfonik orkestr; vokal – simfonik asarlar.

5–sinf o‘quvchilari egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: cholg‘u dastasi va xalq cholg‘u orkestrini audiokasseta, radio va televidenie orqali tinglab, ularni tembr va cholg‘u tovushlari tarkibidan ajrata bilish; xor va orkestr ijrosidagi asarlarni badiiy idrok

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

etib, ulardagi mazmun va badiiy obrazlarni anglab olish; musiqali drama va opera asarlarini ijro uslubidan ajrata bilish; berilgan qo‘shiqlarni sof ohangda yoddan kuylash 6-sinf o‘quvchilari egallashi lozim bo‘lgan bilimlar: klassik (mumtoz) namunaviy musiqani; ustozona (kasbiy) musiqada klassiklikni; xalq musiqa janrlarida mumtozlikni; zamonaviy musiqa ijodiyotida klassiklikka xos badiiy yuksaklikni; Sharq xalqlari klassik musiqalaridan Ozarbayjon mug‘omlari, Eron dastgohlari, Hind ragalari, Arab maqomlari, Uyg‘ur muqomlari bilan tanishish; Sharq xalqlari musiqa madaniyatida mohiyatan o‘zaro o‘xshash ijod turlarining mavjudligi hamda cholg‘u asboblarining o‘xshashligi va mushtarakligi; Rok janri, uning asl vatani; o‘zbek musiqasida rok janri, kino musiqasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari.

6-sinf o‘quvchilari egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: xalq va ustozona klassik musiqani shakl, mazmun, badiiy barkamollik va ijro mahoratiga qarab ajratish; zamonaviy milliy musiqada klassikaga xos badiiy yuksaklik; qo‘shiqning so‘z ma’nolarini jarangdor va ifodali kuylash; ayrim qo‘shiqlarni doira usullari boshqaruvida kuylash.

7–sinf o‘quvchilari o‘rganishi lozim bo‘lgan bilimlar: mumtoz namunaviy musiqani; xalq musiqa janrlarida mumtozlikni; Sharq xalqlari musiqa madaniyatida mohiyatan o‘zaro o‘xshash ijod turlarining mavjudligi hamda cholg‘u asboblarining o‘xshashligi, mushtarakligi va hk.

O‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: xalq va ustozona klassik musiqani shakl, mazmun, badiiy barkamollik va ijro mahoratiga qarab ajratish; zamonaviy milliy musiqada klassikaga xos badiiy yuksaklik; ritm va usulni farqlay olish; qo‘shiqlarning so‘z ma’nolarini jarangdor va ifodali kuylash va hk.

Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi tahliliga e’tibor beradigan bo‘lsak, musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarga musiqa folklori bo‘yicha nihoyatda kam bilim berilishini kuzatamiz. Hozirgi amaldagi darsliklarda Xorazm musiqa folklori namunalari faqat 7–sinf Musiqa darsligida o‘z aksini topgan.

7–sinf darsligida xalq qo‘shiqlari bo‘yicha quyidagi mavzular berilgan: yallachilik san’ati; xalq ashulalari; Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha; Xorazm dostonchilik maktablari; xalfachilik san’ati; Xorazm ashulachilik san’ati.

Xalfachilik janri Xorazmda xalq orasida keng tarqalgan bo‘lsa ham, respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarining musiqa madaniyati dasturi va darsligiga kiritilmagan. Masalan, 2001 yilda nashrdan chiqqan Musiqa madaniyati 5–sinf darsligi (Mualliflar: A.Mansurov, D.Karimova) hamda 2002 yilda chop etilgan, 6–sinf musiqa darsliklarida (S.Begmatov va boshqalar) xalfachilik to‘g‘risida hech qanday ma’lumot berilmagan.

Faqatgina 7–sinf musiqa darsligining (Mualliflar: O.Ibrohimov, J.Sadirov) 121–122–betlarida bu janr haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan.

Ko‘rinib turibdiki, musiqa darslarida xalq qo’shiqlari namunalari ko‘p asrlik ma’naviyati, milliy qadriyatlari, hayotiy udumlari yetarli darajada o‘z ifodasini topmagan. Bizningcha, maktab darsliklariga milliy merosimiz namunalari hamda xalq qo‘shiqlari, folklor namunalari ko‘proq kiritilsa, yoshlarimizning ma’naviy, axloqiy hamda estetik tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ... diss. -T.: 1998. -317 b.
2. Mamirov Q. Milliy musiqa va uning ma’naviy tarbiyaviy ahamiyati (To‘plam. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot.). -T.: O‘zbekiston, 1997. -124-b.
3. Mamirov Q. Ohanglarda hayot nafasi. (O‘quv qo‘llanma) –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1998.
4. Mamirov Q. Quyosh yurtim. (O‘quv qo‘llanma) -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999.
5. Rajabov Tuxtasin Ibodovich. Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class. https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277ECB European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397.
6. Ражабов, Т. И. (2021). Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
7. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
8. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне” тутовое дерево-балх” и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
9. Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nazarov Farxodjon Allaberdiyevich**, Musiqa ta’lim kafedrasi o’qituvchisi, [**Назаров Фарходжон Аллабердиевич,** Преподаватель кафедры музыкального образования], [**Farhodjon A. Nazarov**, Teacher of the department of music education]; manzil: O‘zbekiston, Termiz sh., “Barkamol avlod” ko'chasi, 43-uy [адрес: Узбекистан, ул. «Баркамол авлод», 43, г. Термез], [address: Uzbekistan, 43, “Barkamol avlod” st., Termez city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA MAKTABGACHA 6-7 YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

© G.M. Altibayeva [1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola maktabgacha ta'lim pedagogikasi sohasidagi innovatsion yondashuvlar ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy metodik jihatdan samarali tashkil etish hamda bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni ta'minlashga intellektual yondashishga oid bilim va ko'nikmalarga egallashi, ulardan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish va ushbu usullarni amaliyotda qo'llash orqali ularning aqliy faolligini, fikrlash qobiliyatini hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilg'or xalqaro va mahalliy tajribalarni o'rganish, bolalarning aqliy rivojlanishini tekshirish va yangi metodlarni sinovdan o'tkazish, kuzatish, so'rovnoma va testlar yordamida bolalarning intellektual qobiliyatlarini baholash, taqqoslash usuli: Innovatsion texnologiyalar bilan an'anaviy o'qitish usullarini solishtirish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tadqiqot natijalarini umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: : - bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirishda o'yinli ta'lim texnologiyalari, interaktiv dasturlar va robototexnika kabi innovatsion usullarning yuqori samaradorligi qayd etildi;

-bolalarning analitik va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus mo'ljallangan interaktiv o'yinlar, LEGO va boshqa konstruktorlarni qo'llash orqali kreativlik va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirildi;

-elektron ta'lim platformalari orqali bolalarning diqqatini oshirish va fikrlash tezligini shakllantirish va multimediali materiallar yordamida bolalarning qiziqishini oshirish va vizual-mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mumkin.

Sinov tariqasida o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalarning fikrlash qobiliyatida ijobiy o'zgarishlar keltirib chiqardi. Interaktiv texnologiyalar bilan shug'ullangan bolalar o'z tengdoshlariga qaraganda mantiqiy vazifalarni tezroq va samaraliroq bajarishlari kuzatildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun pedagoglarning malakasini oshirish, ota-onalarni jarayonga jalb qilish va maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur.

XULOSA: maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxs sifatida shakllanishida uning psixik xususiyatlarini rivojlantirish aql, iroda, diqqat, harakat hayotda o‘z o‘rnini topa olishi, uning vatani xalqning ravnaqi yo‘lida e’tiqod bilan xizmat qilish haqidagi tayyorgarliklari uni shaxs darajasiga ko‘taradi. Bunday sifatlarni ro‘yobga chiqarish tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi. Bolaning kamolatiga, ruhiyatiga fe’l –atvori shakillanishiga qanday omillar tasir etadi. Bola tarbiyasiga, uning shakillanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va ta’lim va tarbiya tasir etuvchi omillar shular hisoblanadi. Inson intellekti uchun eng muhim narsa shuki u atrofimizni o‘rab olgan va olamdagi narsa va hodisalar o‘rtasida bog‘lanishi va munosabatlarini aks ettirish hamda shu bilan ijodiy ravishda qayta o‘zgarish imkonini beradi. Demak, intellekt aqliy energiyaning umumiy omili sifatida ishlaydi. Har qanday intellektual faoliyatning muvaffaqiyati ma'lum bir umumiy omilga, umumiy qobiliyatga bog‘liq. Har bir inson ma'lum darajadagi umumiy intellekt bilan tavsiflanadi, bu odamning atrof-muhitga qanday moslashishini belgilaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha, yosh, bola, ta’lim, tarbiya, sog‘lomlashtirishg, mashg‘ulot.

Iqtibos uchun: Altibayeva G.M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari vositasida maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning aqliy qobiliyatini shakllantirish. // Inter education & global study. 2024. №10 B.306-314.

John Holland (1919–2008) Hollandning kasb tanlash nazariyasi: Holland o‘zining “Shaxs-tur va Kasb tanlash” nazariyasida insonlar o‘z shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra kasb tanlashi kerakligini ta'kidlagan. Uning yondashuvi shaxs turini oltita asosiy toifaga (realistik, investigativ, artistik, ijtimoiy, tadbirkor va konvensional) ajratadi, bu esa kasb tanlashda katta yordam beradi. Donald Super (1910–1994) Kasbiy rivojlanish nazariyasi: Donald Super kasbiy rivojlanishni hayot davomida o‘sib boradigan jarayon sifatida ko‘rgan. U kasbiy rivojlanish bosqichlarini aniqlab, kasb tanlashning psixologik jihatlari bilan bog‘liq muhim tadqiqotlar olib borgan. Lev Vygotsky (1896–1934) Sotsiokultural nazariya: Vygotskyning sotsiokultural yondashuvi shaxsning rivojlanishi va ta’lim jarayonida ijtimoiy muhit va madaniyatning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu nazariya o‘spirinlarning psixologik rivojlanishi va kasb tanlashdagi ijtimoiy ta’sirlarni o‘rganishda foydali bo‘lgan. Eli Ginzberg (1911–2002 Kasbiy rivojlanish nazariyasi: Ginzberg kasb tanlashni uzoq vaqt davom etadigan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi va uni bolalikdan boshlab o‘spirinlik davriga qadar bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon deb tushuntiradi. Anne Roe (1904–1991) Kasbiy tanlash nazariyasi: Roe kasbiy tanlashda insonning shaxsiy ehtiyojlari va rivojlanish jarayonlari muhim rol o‘ynaydi, deb hisoblaydi. U bolalik davridagi hissiy tajribalar kasb tanlash qaroriga ta'sir qilishi mumkinligini o‘rgangan. David Kolb (1939–hozirgi vaqtga qadar)O‘rganish uslublari nazariyasi: Kolbning o‘rganish uslublari nazariyasi o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari asosida kasbga yo‘naltirishni tushunishda muhim o‘rin tutadi. U tajriba asosida o‘rganish jarayonini ta'riflab, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Hovard Gardner (1943–hozirgi vaqtga qadar) Ko‘p intellektlar nazariyasi: Gardnerning nazariyasi insonning turli qobiliyatlari va intellektual darajalari haqida tushuncha beradi. Ushbu yondashuv kasb tanlashda o‘quvchilarning qaysi intellektual sohalarda kuchli ekanligini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Ushbu olimlar psixotiplar, kasbiy rivojlanish va kasb tanlash jarayonlari bilan bog‘liq nazariyalarni rivojlantirib, ushbu sohada ilmiy asos yaratganlar. Ularning tadqiqotlari kasb tanlash jarayonida o‘spirinlarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishga imkon beradi.

Kasb tanlashda o‘quvchilarning psixotiplari katta ahamiyatga ega, chunki bu ularning qanday kasbni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi mumkinligini belgilab beradi. Psixotiplarga asoslangan kasb tanlash orqali o‘quvchilar o‘zlarining tabiiy qobiliyatlari va qiziqishlariga mos keladigan sohalarga yo‘naltirilishi mumkin.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash muhimdir. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quvchilarni psixotiplariga qarab kasbga yo‘naltirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Ekstravertlar: Ekstravertlar ijtimoiy va faol odamlar bo‘lib, jamoaviy faoliyatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishlari mumkin. Ular kommunikativ ko‘nikmalar talab qiladigan kasblarga (masalan, marketing, jurnalistika, o‘qituvchilik) yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

2. Introvertlar: Introvertlar ko‘proq ichki fikrlashga moyil bo‘lib, yakkama-yakka ishlashni afzal ko‘radilar. Bunday o‘quvchilarni ilmiy izlanishlar, texnik loyihalar, dasturlash kabi kasblarga yo‘naltirish mumkin.

3. Hissiy yo‘nalganlar: Hissiyotga asoslangan o‘quvchilar ko‘proq badiiy, ijodiy sohalarga moyil bo‘ladilar. Ular san'at, dizayn, musiqa, adabiyot va ijodiy faoliyat bilan bog‘liq kasblarga yo‘naltirilishi lozim.

4. Fikrlovchilar: Fikrlovchi o‘quvchilar tahliliy qobiliyatlari bilan ajralib turadilar. Ular matematik, texnologik va ilmiy kasblar uchun mos keladi. Muhandislik, informatika, ilmiy izlanishlar ularning muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

5. Intuitiv shaxslar: Intuitiv o‘quvchilar tasavvurga boy bo‘lib, yangilik yaratish va kelajakdagi loyihalarni ko‘rish qobiliyatiga ega. Ular dizayn, tadbirkorlik, yangi texnologiyalarni yaratish sohalarida muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilar kasb tanlash jarayonida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bunga ota-onalarning bosimi, ijtimoiy stereotiplar, o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholash kabi omillar kiradi. Shuningdek, o‘quvchilar ba’zan o‘z psixotiplarini va qobiliyatlarini to‘g‘ri anglamay, noto‘g‘ri kasblarni tanlashlari mumkin. Bu esa kelajakda kasbiy muvaffaqiyatsizliklarga olib kelishi mumkin. Birlamchi va ikkilamchi diognostik metodikalar yordamida o‘quvchilarning kasbiy bilimlarini rivojlantirish va ularni psixotiplari asosida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish o‘quvchilarning individualligi asosida kasbga yo‘naltirishning bir ko‘rinishi sifatida e’tirof etiladi.

Maqolada Karl Yung, Jon Holland, Donald Super kabi olimlarning nazariyalari asosida o‘quvchilarning ekstravert, introvert, hissiy, fikrlovchi va intuitiv kabi psixologik turlari tahlil qilingan. Ushbu tavsiyalarga ko‘ra, o‘quvchilarni ularning psixologik turiga mos keladigan kasblarga yo‘naltirish ularga tabiiy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Tavsiya: o‘qituvchilar va psixologlar o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlab, ularga individual maslahat va amaliy mashg‘ulotlar orqali kasb tanlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari kerak. Bu jarayonda ota-onalar va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi ham katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalarni muhokama qilish bo'yicha videoselektor yig‘ilishida so'zlagan nutqi.
2. Karl Gustav yung Psychological Types (1921)
3. Isabel Briggs Myers va Peter B. Myers - Gifts Differing: Understanding Personality TYype (1980)
4. Ilk o‘spirinlik davrida kasbiy tanlov muammosi. ADPI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjonovna ADPI talabasi Ismatillayeva Iroda. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy anjuman to'plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.
5. Abdulmadjidova, M. (2021). Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili. BARQARORLIK VA YETAKCHI
6. Ziyomuhammadov, B., & Abdullayeva, S. (2006). Pedagogy. Study guide. Tashkent, 40.TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 614-617.
7. Abdullaeva, S. H. (2014). Shaping to emotional stability future teachers of the professional education. European Journal of Natural History, (4), 23-24.
8. Khamidovna, A. S. The Role of a Psychologist in Creating a Learning Environment in Higher Education Institutions.
9. Абдуллаева, Ш. Х. (2021). Психологические факторы эмоционального стресса в профессиональной деятельности учителя:
10. Абдуллаева Шоира Хамидовна Ташкентский государственный университет Востоковедения, заведующий кафедрой педагогики и психологии, доктор психологических наук, доцент. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5).
11. Khamidovna, A. S. (2018). The Study of the Emotional Stability of Secondary School Teachers–as a Component of Professional Competence. Archive, 75.
12. Абдуллаева, Ш. Х. (2016). Коммуникативные умения как профессиональная компетенция педагога. NovaInfo. Ru, 3(54), 304-306.
13. qizi Xabibullayeva, S. S., & qiz Abdulmadjidova, M. D. (2023, January). Tezkor qaror qabul qilish-hozirgi zamon muhim talabi. in international conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 45-49).
14. Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O'smirlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. Science and Education, 2(12), 602-608.
15. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O 'Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 5-9.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi,** 2 bosqich tayanch doktoranti, [**Абдулмаджидова Махдияна Дилмуроджон кизи,** докторант 2 ступени], [**Mahdiyana D. Abdulmajidova,** 2nd degree doctoral student]; manzil: O'zbekiston Andijon shahri Universitet ko'chasi, 129- uy [адрес Узбекистан город Андижан, улица Университетская, дом 129], [address Uzbekistan, Andijan city, University street, 129].

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

BOSHQARUV KADRLARI ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK, PSIXOEMOTSIONAL VA IRODAVIY XUSUSIYATLARNING GENDER JIHATLARI

© D.S. Abdullajanova[1]✉

[1]O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: kadrlar zaxirasini shakllantirish tashkilotni nafaqat o‘z ishlarini, balki kerak bo‘lganda tegishli sohalardagi vazifalarni ham professional ravishda bajara oladigan xodimlar bilan sifatli ta’minlash uchun zarurdir. Tashkilotning kadrlar zaxirasining bir qismi sifatida o‘qitilgan yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi kadrlarni yollash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga va natijada ularni moslashtirishga, shuningdek, kadrlarni rivojlantirishga investitsiya qilish tartibini yaratishga imkon beradi. Bunday investitsiyalar kadrlarning motivatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va kadrlarni tashkilotda ushlab turishga yordam beradi, bu xodimlar almashinuvi darajasini pasaytiradi, shuningdek boshqaruv xodimlarining vaqtincha yo‘qligi va boshqa fors-major holatlarida xavflarni kamaytiradi. Quyida keltirilgan maqolada boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik, psixoemotsional va irodaviy xususiyatlarning gender jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

MAQSAD: boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik, psixoemotsional va irodaviy xususiyatlarining gender jihatlariga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini samaradorligini oshirishda psixologik texnologiyalarni bilish va ularni qo‘llashi mazkur ishlarning samaradorligi oshirishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Boshqaruv sohasida ishlovchi erkaklarda stress darajasining yuqori bo‘lishi, kundalik hayotda ham distress elementlarining ko‘zga tashlanishi bilan psixikaning nomutanosibligi uchun asos bo‘ladi. Natijada, shaxsda miya tuzilmalarining qo‘zg‘aluvchanligini ortadi, ichki organlardan signallarni noto‘g‘ri qabul qilish boshlanadi. Zaxiradagi erkak kadrlarda ustunliklar kuzatilgan bo‘lib, zaxiradagi kadrlarda konstitutsiyaviy anomaliyalar, o‘ziga xos xarakterli deformatsiyalar, xatti-harakatlarning buzilishi bilan namoyon bo‘lishi, xulq-atvor, birinchi navbatda, hissiy-irodaviy sohaning holatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, ushbu shaxsiy komponentning ishlashidagi og‘ish kadrlardagi ustuvorlikni ularning ijtimoiy ierarxiyadagi mavqeyini o‘zgartirishga intilishning ko‘p marotaba muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Zaxiradagi kadrlarda ustuvorlikni kuzatilishi doimiy vahima ostida bir ishni tugallamasdan ikkinchi ishni “bo‘ynilariga yuklab” qo‘yish haqidagi ustanovkalarning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

stereotipik tarzda miyaning defolt tizimida avtomatizatsiya bo‘lgani bilan tasniflash mumkin.

XULOSA: zaxira va boshqaruv kadrlarida gender atributlarini namoyon bo‘lishi ulardagi ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik bilan belgilanishi kuzatildi. Ayollar va erkaklarga aynan zaxira davrida bevosita faoliyatiga ta’sir etadigan omillarning ajratib olinganligi mualliflikda ishlab chiqilgan so‘rovnoma maqsadli ekanligidan dalolat beradi. Sababi, tadqiqot maqsadiga, olingan ahamiyatli farqdagi natijalar oldimizga qo‘yilgan moslikni ko‘rsatayotganligi bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: kadrlar zaxirasi, boshqaruv, irodaviy xususiyatlar, psixoemotsional holatlar, investitsiya, fors-major, professionalizm, metodologik muammolar.

Iqtibos uchun: Abdullajanova D.S. Boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik, psixoemotsional va irodaviy xususiyatlarining gender jihatlari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.419-430.

ГЕНДЕРНЫЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ, ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНЫХ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПРИ ФОРМИРОВАНИИ РЕЗЕРВА УПРАВЛЯЮЩИХ КАДРОВ

© Д.С. Абдуллажонова[1]✉
[1]Университет общественной безопасности республики Узбекистан, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: формирование кадрового резерва необходимо для обеспечения организации сотрудниками, способными профессионально выполнять не только свою работу, но и задачи в смежных областях. Наличие подготовленных высококвалифицированных специалистов в составе человеческих ресурсов организации позволяет существенно сократить затраты на найм персонала и, как следствие, на его адаптацию, а также создать процедуру инвестирования в развитие персонала. Такие инвестиции оказывают существенное влияние на мотивацию персонала и помогают удерживать персонал в организации, что снижает уровень текучести кадров, а также снижает риски временного отсутствия управленческого персонала и других форс-мажорных ситуаций. В статье сравнительно анализируются гендерные аспекты социально-психологических, психоэмоциональных и волевых характеристик при формировании управленческого кадрового резерва.

ЦЕЛЬ: знание и применение психологических технологий в повышении эффективности пропагандистских мероприятий, направленных на гендерные аспекты социально-психологических, психоэмоциональных и волевых особенностей при формировании резерва управленческих кадров, служит повышению эффективности данной работы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались такие методы, как беседа, социально-психологический опрос, наблюдение, а степень

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

статистической достоверности полученных результатов подтверждалась факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: высокий уровень стресса у мужчин, работающих в сфере менеджмента, является основой дисбаланса психики с заметным присутствием элементов дистресса даже в повседневной жизни. В результате у человека повышается возбудимость мозговых структур, начинается неправильный прием сигналов от внутренних органов. В мужских кадрах резерва наблюдаются доминанты, проявляющиеся в наличии у резервных кадров конституциональных аномалий, специфических деформаций характера, нарушений поведения, поскольку поведение зависит, прежде всего, от состояния эмоционально-волевой сферы, отклонение в функционировании этого личностного компонента может привести к многократному безуспешному завершению стремления расстановки приоритетов в кадрах изменить свое положение в социальной иерархии. возможно. Отслеживание приоритета в резервном персонале можно классифицировать по тому факту, что установки на то, чтобы “загрузить” вторую работу на шею, не выполняя одну работу в условиях постоянной паники, стереотипно автоматизированы в системе мозга по умолчанию.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: было замечено, что проявление гендерных атрибутов в резерве и управленческом персонале определяется адаптивностью к социальной среде в них. Выделение факторов, непосредственно влияющих на активность женщин и мужчин именно в резервный период, свидетельствует о целенаправленности разработанной автором анкеты. Причина в том, что цель исследования определяется тем фактом, что полученные результаты в значительной разнице показывают согласованность, которую мы ставим перед собой.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, управление, волевые характеристики, психоэмоциональные состояния, инвестиции, форс-мажорные обстоятельства, профессионализм, методические проблемы.

Для цитирования: Абдуллажонова Д.С. Гендерные аспекты социально-психологических, психоэмоциональных и профессиональных характеристик при формировании резерва управляющих кадров. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 419-430.

GENDER ASPECTS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL, PSYCHOEMOTIONAL AND VOLUNTARY PROPERTIES IN FORMING A RESERVE OF MANAGEMENT PERSONNEL

© Dilnozaxon S. Abdullajanova[1]✉
[1]University of public safety of the republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the formation of a personnel reserve is necessary to provide the organization with high-quality employees who can professionally perform not only their own

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

work, but also, if necessary, tasks in related areas. The presence of highly qualified specialists as part of the organization's human resources allows for a significant reduction in personnel recruitment costs and, as a result, for their adaptation, as well as for creating a system for investing in personnel development. Such investments have a significant impact on staff motivation and help retain staff in the organization, which reduces the level of staff turnover, as well as reduces risks in the event of temporary absence of management personnel and other force majeure situations. The article below provides a comparative analysis of the gender aspects of socio-psychological, psycho-emotional and volitional characteristics in the formation of a reserve of management personnel.

AIM: knowledge and application of psychological technologies in increasing the effectiveness of propaganda activities aimed at gender aspects of socio-psychological, psycho-emotional and volitional characteristics in the formation of a reserve of managerial personnel, serves to increase the effectiveness of this work.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the study, such methods as conversation, socio-psychological survey, observation were used, and the degree of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the high level of stress among men working in the field of management is the basis of mental imbalance with the noticeable presence of elements of distress even in everyday life. As a result, the excitability of brain structures increases in humans, and incorrect reception of signals from internal organs begins. In male reserve personnel, there are dominants, manifested in the presence of constitutional anomalies, specific character deformations, and behavioral disorders in reserve personnel, since behavior depends primarily on the state of the emotional and volitional sphere, a deviation in the functioning of this personal component can lead to repeated unsuccessful completion of the desire to prioritize personnel to change their position in the social hierarchy.. maybe. Priority tracking in backup personnel can be classified by the fact that the mindset of “loading” a second job onto the neck, without doing one job in a constant state of panic, is stereotypically automated in the brain's system by default.

CONCLUSION: it was noted that the manifestation of gender attributes in the reserve and management personnel is determined by their adaptability to the social environment. The identification of factors that directly affect the activity of women and men during the reserve period indicates the purposefulness of the questionnaire developed by the author. The reason is that the purpose of the study is determined by the fact that the results obtained show a significant difference in the consistency that we set for ourselves.

Key words: personnel reserve, management, volitional characteristics, psycho-emotional situations, investment, force majeure, professionalism, methodological problems.

For citation: Dilnozaxon S. Abdullajanova. (2024) ‘Gender aspects of socio-psychological, psychoemotional and voluntary properties in forming a reserve of management personnel’, Inter education & global study, (10), pp. 419-430. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Jahondagi ko‘plab iqtisodiyoti rivojlanish pallasida bo‘lgan mamlakatlar oldida turgan muhim muammolardan biri bu kadrlar zaxirasini, shuningdek, lavozimga loyiq kadrlar saralovini amalga oshirgan holda professional kadrlar resursini shakllantirish hisoblanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda yuqoridagi muammoning yechimiga nisbatan kadrlarni tanlash usullari va tartiblarini rasmiylashtirish, saralash mezonlarini ishlab chiqish, muammolarni hal qilishga ilmiy yondashuvni takomillashtirish, boshqaruv kadrlariga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olish, yosh va istiqbolli kadrlarni rag‘batlantirish, kadrlar qarorlarini asoslash va ularning targ‘ibotini kengaytirish, iqtisodiy va davlat qarorlarini kadrlar siyosatining asosiy elementlari bilan tizimli bog‘lash singari keng tarqalgan tendensiyalar mavjud. Inson resurslari va innovatsion potensialni aniqlashning yangi yondashuvlarini izlash tashkilotlarda kadrlarni boshqarish doirasidagi asrning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda kadrlar zaxirasini yaratish bo‘yicha ishlar tizimli bo‘lishi hamda tabiatan “nomenklatura” shaklida yuzaga chiqishi natijasida “iqtidorlarni saralash”, “liderlarni aniqlash” kabi tushunchalar ostida samarali kadrlar zaxirasini vujudga keltirish mumkinligi tobora tadqiqotlar orqali o‘z tasdig‘ini topmoqda. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar asosan kadrlar menejmenti sohasida kadrlaning kasbiy-malakaviy, estetik-etikaviy jihatlariga e’tiborni qaratsa, hozirda ushbu “talablar” orasida kadrning psixologik imiji, psixoprofessiogrammatik portretini sohalar doirasida yaratish masalasi ham alohida qo‘shilgani bilan ahamiyatga egadir [1].

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar munosabati bilan jamiyat, uning sohalari, tashkilotlari, muassasalari va boshqalarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Barkamol, doimiy takomillashtirib boruvchi boshqaruvsiz jamiyatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni yengib bo‘lmaydi. Mavjud vaziyat boshqaruv sohasining ijtimoiy-psixologik muammolariga tobora ko‘proq e’tibor berishni talab qilmoqda. Tadqiqotchilarning boshqaruv sohasidagi shaxsni, shu jumladan, rahbarning shaxsini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ancha barqaror tusda bo‘lib, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda turli tasniflar mavjud. Amerikalik psixolog M.Shou tomonidan taklif qilingan eng muvaffaqiyatli tasniflardan biri biografik xususiyatlar, qobiliyatlar, shaxsiy xususiyatlar kabi uchta komponentdan tashkil topgan yondashuvdir [2].

Biografik xususiyatlar yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va ma’lumotini o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pchilik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yosh va boshqaruv darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik yo‘q, garchi yosh ko‘p jihatdan boshqaruv samaradorligini belgilasa ham. Erkak va ayol liderlarni qiyosiy o‘rganishda ular yetakchilikning samaradorligi va sifati bo‘yicha farq qilmaydi, farqlar faqat yetakchilik shakllarini tanlashda mavjud. Tadqiqotlarga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy maqom va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqliklarning 90% gacha rahbarlar doimo yuqori ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega bo‘lgan yyetarlicha ma’lumotli odamlar sifatida harakat qilishadi [3].

Qobiliyatlar insonning o‘ziga xos xususiyati sifatida xodimlarning ish samaradorligi bilan bog‘liq. Qobiliyatlar - bu har xil faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

individual barqaror xususiyatlaridir. Agar shaxsiy xususiyatlarning ma'lum bir to'plami insonning rivojlanishi uchun oqilona ajratilgan vaqt davomida o'zlashtirgan faoliyat talablariga javob bersa, bu uning ushbu faoliyat qobiliyatiga ega degan xulosaga kelish uchun asos bo'ladi. Shaxsning o'zlashtirgan faoliyati (mehnat, tarbiya, sport va boshqalar) uning psixologik fazilatlariga (intellekt xususiyatlari, hissiy-irodaviy soha, sensomotor qobiliyatlari) yuqori talablarni qo'yadi. Bu talablarni faqat hech qanday sifat, hatto u juda yuqori rivojlanish darajasiga yetgan bo'lsa ham, qondira olmaydi. Bitta intellektual xususiyat faoliyatning yuqori mahsuldorligini ta'minlashi, barcha qobiliyatlarning ekvivalenti sifatida harakat qilishi mumkin degan fikr, ilmiy ishonchdan mahrum [4]. Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan intellektual sifatlar yig'indisidir. Qobiliyat vazifasini bajaruvchi psixik sifatlar yig'indisining tuzilishi pirovard natijada muayyan faoliyat talablari bilan belgilanadi va turli faoliyat turlari uchun har xil bo'ladi. Jarayonni kuzatish orqali insonning o'zgargan sharoitlarda, o'zlashtirish faoliyati davomida yangi vazifalarni bajarish qobiliyatini baholash mumkin. Amalda insonning qobiliyatlarini tegishli faoliyatni o'zlashtirishdagi rivojlanish tezligi, shaxsning yutuqlarining sifat darajasi, ushbu faoliyat bilan shug'ullanishga moyilligi, muvaffaqiyat va sarflangan kuchning nisbati kabi ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi bilan baholash mumkin. Uchinchi komponentning xarakteristikasi xarakter xususiyatlari bilan bog'liq shaxsiy xususiyatlar bilan bog'liq. Xodimlarning tabiatini hisobga olmasdan, zamonaviy sharoitda tashkilotni boshqarish mumkin emas. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda ham xodimning mavjud imkoniyatlarini potensial darajasini ham faoliyat olib borayotgan sohaga xarakter xislatlari mos tushishini inobatga olish lozim.

Erkak jinsiga mansub boshqaruv va zaxira kadrlarda psixoanalitik nuqtayi nazardan, "menga tegma" prinspining ustuvor bo'lishi evaziga ish vaqtida doim xavfsiz masofani saqlashga intilishi, tanqidiy haqiqatdan qochishi, idealizatsiya yoki qadrsizlanish sifatida mudofaa fantaziyasidan foydalanish darajasining balandligi bilan ham xarakterlanadi. Yuqorida ta'rifi keltirilgan psixoemotsional holatlar bo'yicha ishonch darajasiga tafovutlar kuzatilganligi fikrimizning tasdig'i sifatida qabul qilinishi mumkin. Xususan, yolg'on shkalasida ($U=68384$; $p<0,01$) zaxiradagi kadrlarda yuqori natijalar qayd etilgan bo'lib, ularda boshqaruvdagi erkak kadrlarga nisbatan ish faoliyatida yolg'on ishlatish orqali vaziyatdan chiqish, mas'uliyatli ishdan o'zini olib qochish holatlari bahona bilan kombinatsiyalashgan holatda ishlatiladi. Boshqaruvdagi kadrlarda yolg'on o'z mavqeyini saqlab qolish uchun ikkinchi imkoniyatni yaratish zarurati bilan bog'liq.

Ishonchlilik shkalasida esa ($U=72236,5$; $p<0,01$), vaziyat aksincha ko'rinish olgan. Boshqaruvdagi kadrlarda so'zsiz bo'ysunish motivi baland bo'lib, bu ularda har narsaga ishonch bildirish, o'z faoliyat doirasidan kelib chiqib doim ishonchli ma'lumotlar berishga intilish hamda "erkak kishi bitta gapiradi" maqoliga monand ravishda o'z va'dasini ustidan chiqish – boshqaruv samaradorligini oshiruvchi mexanizmlardan biri haqidagi tasavvurlarning uyg'unlashgan shaklda faoliyatlarida dasturul-amal bo'lib qolgani bilan izohlanadi. Zaxiradagi kadrlarda ushbu natijalarning biroz pastligini faoliyat jarayonidagi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

tushunmovchiliklarning oldini olishda doim ham to‘g‘ri so‘zni aytmasliklari, har bir vazifa ustidan sinchkovlik bilan nazoratni olib borishlari evaziga ishonchlilik ko‘rsatkichlarining pastroq ko‘rinish olishi bilan tushuntirish mumkin (3.3.1-jadval).

Korreksiya ko‘rsatkichida (U=66091; p<0,01) ustunlik zaxiradagi kadrlarda qayd etilib, “har bir bosgan qadami uchun javobgarlik” mavjudligining evaziga ularda o‘z ishini, xulq-atvorini to‘g‘irlab borish boshqaruvdagi kadrlarga nisbatan ko‘proq bo‘lar ekan. Zaxiradagi kadrlarda ierarxiyadan bir pog‘ona balandlash uchun o‘zini takomillashtirish bilan birga ilgari yo‘l qo‘ygan xatolarini qayta takrorlamaslik motivi ham baland bo‘ladi. Ushbu omillar ularning ish faoliyatidagi samaradorlik darajasini hamda ijtimoiy statusining stabillashuviga ham zamin yaratishi bilan xarakterlidir.

Paranoyallik (U=72644; p<0,01) doimiy shubha ostida shaxs xulq-atvorining o‘zgarishi bilan bog‘liq holat bo‘lib, boshqaruv sohasidagi erkak kadrlarda ushbu xususiyatning baland natija ko‘rsatishini ulardagi mas’uliyatlilik hamda javobgarlik hissining kuchli namoyon bo‘lgani sababidan deb aytish mumkin. Tig‘iz ish grafigi, xodimlarning ustidan olib borilishi lozim bo‘lgan doimiy nazorat ularda shubhalanishni ortishiga zamin yaratadi. Natijada, ularning xulq-atvorida mukammallikka intilish, ideal vazifa ko‘rsatkichini qayd etish motivlari shakllanib boradi (3.3.1-jadval).

Psixasteniya shkalasi (U=73132; p<0,01) shaxsning qat’iyatsizligi, shubha va og‘ishga moyilligi bilan bog‘liq holda giperkompensatsiya reaksiyasini ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Bu reaksiya ularda kutilmagan o‘ziga ishongan va qat’iy mulohazalar, bo‘rttirilgan qat’iylik va shoshilinch ehtiyotkorlik talab qilinadigan lahzalar va vaziyatlarda ekstremal harakatlar bilan namoyon bo‘ladi. Olingan muvaffaqiyatsizliklar qat’iyatsizlik va shubhani yanada kuchaytiradi. O‘z-o‘zini tahlil qilish tendensiyasi, o‘z harakatlari va xulq-atvor motivlari haqida o‘ylash bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z tajribalari va his-tuyg‘ularini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Zaxiradagi kadrlarda psixoastenik tipga xos belgilarning ko‘proq ifoda etilgani ulardagi bosim ostida harakatlanish natijasida yuksalish umididan shubhalar paydo bo‘la boshlangani bilan tushuntirish mumkin.


Gipomaniya shkalasi (U=73905,5; p<0,01) bo‘yicha maniyaning yengil shakli bo‘lib, uning namoyon bo‘lishida doimiy yuqori kayfiyat, faollik va to‘liq jismoniy farovonlik hissi bilan tavsiflanadi. Boshqaruvdagi erkak kadrlarda ushbu jihatning baland bo‘lishini “omma oldida” o‘zining nuqsonlarini ko‘rsatmaslik, yashirish ehtiyojining mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Erkak jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda shaxs psixoemotsional xususiyatlari namoyon bo‘lishini taqqoslash asnosida olingan natijalar tahlili quyidagicha ko‘rinish olganini ko‘rishimiz mumkin: ipoxondriya (U=79691; p>0,05), depressiya (U=79391; p>0,05), isteriya (U=82699,5; p>0,05), psixopatiya (U=77938,5; p>0,05) hamda shizoidlik (U=84301,5; p>0,05) ko‘rsatkichlarida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (3.3.1-jadval).

Bu boshqaruvdagi erkak kadrlarda doimiy hissiy zo‘riqishlar ostida, yuklamalarning bajarish chastotasi o‘rtasidagi nomutanosibliklarning boshqaruv sohasidagilar faoliyatida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

tez-tez kuzatilishi natijasida erkaklarda o‘z sog‘ligiga e’tiborsiz bo‘lish oqibatida doimiy xavotir, ichki qo‘rquv shakllanib borishi, faoliyat samaradorligiga jiddiy salbiy ta’sir etishi bilan birga shaxsiy, psixoemotsional xususiyatlarining beqaror ko‘rinishga kelishiga ham omilli ta’siri xos xususiyat va hayot tarzi bo‘lganligi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.



1-rasm. Boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda shaxs psixoemotsional xususiyatlari namoyon bo‘lishini taqqoslash natijalari (erkaklarda)

Ishonch darajasidagi farqlar kuzatilgan yolg‘on shkalasida (U=247984,5; p<0,01) ustunlik zaxiradagi ayol kadrlarning tomonida bo‘ldi. Kuch ishlatmasdan, so‘z orqali vaziyatdan mohirona chiqish pallasida zaxiradagi ayol kadrlar yolg‘on gapirishga moyil bo‘ladilar. Ishonchlilik shkalasi bo‘yicha (U=262806; p<0,05) boshqaruvdagi ayol kadrlar ustunlik qayd etib, rahbar ayollar psixologiyasiga xos bo‘lgan kollektiv hamkorlik prinsipining elastik tarzda ishlashi natijasida ularda ishonch bildirish va ishonish ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi, aynan ishonch bildirish orqali kadrlarni saralash mexanizmi ayollar boshqaruvchanligi ostidagi samaradorlikning asosiy harakatlantiruvchi kompleks resursi hisoblanadi.

Korreksiya ko‘rsatkichida zaxiradagi ayol kadrlarda nisbatan ustun farqlar aniqlanib, o‘zining xatolari ustida ishlash orqali muvaffaqiyatga erishish, ish jarayonidagi g‘alabalarga to‘sqinlik qiluvchi xarakter jihatlarini to‘g‘irlash – rahbarlik sari eltuvchi yo‘l sifatida baholanar ekan (U=233006; p<0,01). Boshqaruvdagi ayollarda esa, “bukrini go‘r to‘g‘irlaydi” mazmunidagi maqolga hamohang ravishda nuqsonli jihatlariga kamroq e’tibor qaratish, asosiy fokusni ish faoliyatidagi natijalar samaradorligini oshirishga berish ortidan shaxsiy pozitsiyani mustahkamlash mumkinligi haqidagi g‘oyalarning ijtimoiy attityudlar ko‘rinishida bo‘lgani ortidan korreksiya darajasi biroz past natijada baholangan.


Paranoyallik psixotipining asosiy xususiyati maqsadlilikdir. Bu butun hayoti ma’lum bir yoki bir qator maqsadlarga erishishga bo‘ysunadigan shaxs sifatida gavdalanadi. Haddan tashqari aniq maqsadlilik bilan shaxs nafaqat boshqalarning manfaatlarini butunlay e’tiborsiz qoldiribgina qolmay, balki ularning taqdiriga ham ergashishi mumkin. Paranoyal shaxs maqsad tanlashda mustaqil bo‘lib, u o‘zi maqsad qo‘yadi, unga o‘zi erishadi va boshqalarni boshqaradi. Ushbu ko‘rsatkich jihatidan sezilarli ustunliklar boshqaruvdagi ayol kadrlarda qayd etildi (U=253459, p<0,01). Boshqaruvdagi kadr ayollarda asosiy maqsadlilik bilan chambarchas bog‘liq holda, yuqori energiya va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

tajovuzkorlik kabi xususiyatlar mavjud. Ularning katta energiyasi maqsadlariga erishishga qaratilgan katta kirish kuchida, shuningdek, samaradorligida namoyon bo‘ladi.

Psixasteniya (U=259732; p<0,01) introspeksiya va mulohaza yuritishga moyillikni belgilaydi. Psixasteniklar ko‘pincha qaror qabul qilishda ikkilanadilar, o‘zlari va boshqalar uchun yuqori talablar va mas’uliyat yukini ko‘tara olmaydilar. Bunday subyektlar aniqlik va ehtiyotkorlikni namoyish etadilar, ular uchun xarakterli xususiyat – o‘z-o‘zini tanqid qilish va ishonchlilik. Ular odatda keskin o‘zgarishlarsiz bir tekis kayfiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkichda zaxiradagi kadrlarda ustunliklar kuzatilib, xos nozik xilqat vakili deb atalmish nomga “dog‘” tushirmaslik uchun ular asosiy mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishdan ko‘ra, qaror qabul qilish imkoniyatini erkaklarga qoldirishadi. Ish faoliyatidagi kamchiliklarga nisbatan keskin tanqidiy ruh ba’zida zaxiradagi kadrlarda nomukammallik tuyg‘usini gurkirab rivojlanishiga imkon beradi.

Gipomaniya ko‘rsatkichida ham ishonchli farqlar kuzatilib (U=264076,5; p<0,05), boshqaruvdagi ayol kadrlarda shaxsiy holatidan, ijtimoiy ahvolidan, shu bilan birga jamiyatda egallab turgan statusidan xursandlik darajasi yuqoriligi ma’lum bo‘ldi. Ekspansiv kayfiyat hamda adrenalin gormoniga boy energiya boshqaruvdagi ayollarda kun davomida tig‘iz bo‘lgan ekstremal sharoitda barcha yuklatilgan vazifalarni bajarishga imkoniyat yaratadi. Emansipatsiyaga munosabatning reaktiv tusda bo‘lishi zaxiradagi ayol kadrlarda gipomaniya ko‘rsatkichining biroz pastroq natijada ko‘rinish olishiga sabab bo‘ladi.



2-rasm. Boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda shaxs psixoemotsional xususiyatlari namoyon bo‘lishini taqqoslash natijalari (ayollarda)


Ayol jinsiga mansub boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda ham erkaklardagi kabi ayrim shkalalarda ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Xususan, ipoxondriya (U=280843; p>0,05), depressiya (U=281214,5; p>0,05), isteriya (U=281890,5; p>0,05), psixopatiya (U=278571; p>0,05) hamda shizoidlik (U=277729,5; p>0,05). Sabab, erkak kadrlardan farqli ravishda ushbu yuqorida nomlari zikr qilingan shkalalarning barchasida zaxiradagi ayol kadrlarda o‘z xarakter xusussiyatlariga hamo-hangligi, hayot faoliyatida deyarli farq qilmasligi nuqtayi nazaridan shkalalarda ahamiyatli farqlar aniqlanmagan bo‘lishi mumkin.

Izlanishlarimizdan o‘rin olgan navbatdagi tadqiqot metodikasi tahlili erkak jinsidagi zaxiradagi hamda boshqaruv kadrlarining ijtimoiy-psixologik sifatlari tahliliga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

bag‘ishlangan. E’tiborli jihati barcha shkalalar bo‘yicha ishonchli natijalar qayd etilganida bo‘ldi. Xususan, mulohazakorlik bo‘yicha (U=69301,5; p<0,01) boshqaruvdagi kadrlarda ustunliklar kuzatilib, ko‘proq tahliliy ko‘rsatkichlar bilan tanishish, majlislarda dolzarb masalalarni hal qilish hamda murakkab vazifalar ustida “bosh qotirish” ko‘lamining ko‘proq bo‘lishi boshqaruvdagi kadrlarda mulohaza yuritish darajasining ortishi ham olib keladi.

Muloqotmandlik har qanday personal bilan ishlaydigan xodimlar, rahbarlar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi (U=66446,5; p<0,01). Boshqaruvdagi kadrlarda tabiiy ravishda muloqot qilish, begona shaxs bilan tezda “til topishish” ko‘nikmasi shakllangan bo‘ladi. Bunga sabab esa, ularning yillar davomida orttirgan tajribasi hamda shaxslararo munosabatlarda yuzaga keluvchi baryerlarni ustalik bilan yengish mahoratining rivojlanganlik darajasi deb aytish mumkin. Shu bilan birga, “odam-odam” tizimida ishlovchi barcha xodimlarda muloqotmandlik sifatlari rivojlangan bo‘lib, uning takomillashuvida shaxsiy intilish hamda tashabbuskorlik ham rol o‘ynaydi. Boshqaruvdagi erkak kadrlarda o‘z g‘oyalarini qo‘l ostidagilarga singdirish uchun ham jamoaning fikrini o‘rganish, har bir shaxs bilan individual hamda guruhiy tarzda ochiq muloqot o‘rnatish zarurati paydo bo‘ladi. Mazkur omillar boshqaruv kadrlarida so‘zga chechanlik, gapga ustalik hamda o‘z qarashlarini to‘g‘ri yetkazib berish kabi malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.



3-rasm. Boshqaruv hamda zaxiradagi kadrlarda ijtimoiy-psixologik sifatlar namoyon bo‘lishini taqqoslash natijalari (erkaklarda)

Barqarorlik jihatidan ham boshqaruvdagi kadrlarda ustunliklar kuzatilib, ritmni bir maromda ushlab turishga erishish orqali o‘z pozitsiyasini mustahkamlashni amalga oshirish – samarali, strategik maqsadlar ro‘yobining garovi bo‘lishi mumkinligi boshqaruvdagi kadrlar misolida dalillanmoqda (U=62597,5; p<0,01). Zaxiradagi kadrlarda irodaviy, hissiy hamda motivatsion barqarorlikni stabil, statik va progressiv ko‘rinishda ushlab turish ko‘nikmasining yetishmasligi oqibatida ularning ish unumdorligida pasayishlar kuzatilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, shaxsiy intilish darajasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ekstremallik sifatini har qanday sharoitga, vaziyatga tayyorlik deb baholasak, ushbu ko‘rsatkichda ham ustunliklar boshqaruvdagi erkak kadrlarda qayd etilgani ma’lum bo‘ladi (U=68828; p<0,01). Boshqaruvdagi kadrlarda rejasi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

paydo bo‘ladigan, o‘zgaruvchan, rigid ish grafigi natijasida ularning ekstremal vaziyatlarga tayyorligi ortib boradi. Zaxiradagi kadrlarda to‘satdan beriluvchi topshiriqlar oldida “tiz cho‘kish” ehtimoli ularning har qanday tayyorgarlik darajasini yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Rostgo‘ylik ko‘rsatkichida (U=66337,5; p<0,01) esa zaxiradagi kadrlarda ustunliklar mavjudligi aniqlanib, “boshga qilich kelganda ham rost so‘zlash” tamoyiliga sodiqlik ruhi ularning kasbiy, shaxsiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlar garovi sifatida namoyon bo‘lishi haqidagi ustanovkalar bilan chambarchas bog‘liq. Boshqaruvdagi erkak kadrlarda rostgo‘ylik fazilatining doim ham ijobiy samara bermasligi real ish jarayonida o‘z isbotini topganligi uchun ham ularning natijalarida biroz past ko‘rsatkichlar kuzatilganini ko‘rish mumkin.

Navbatdagi erkak jinsiga mansub boshqaruvdagi hamda zaxiradagi kadrlarning irodaviy sifatlari namoyon bo‘lishi borasida mavjud tafovutlar solishtirilganda, irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lish darajasi hamda namoyon bo‘lish ko‘lami kabi ikkita shartli qutbdan iborat shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilgani e’tiborga loyiq. Xususan, mustaqillik, tashabbuskorlik kabi irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lish darajasi jihatidan sezilarli ustunliklar zaxiradagi erkak kadrlarda aniqlangan bo‘lib (U=73626,5, p<0,01), ish faoliyatida bir pog‘onadan ikkinchi pog‘onaga “sakrash” istagining, shuningdek, tan olinish motivining dinamik-progressiv tusda kechishi evaziga ham boshqaruvdagi erkak kadrlarnikiga nisbatan yuqorilanish kuzatilgan, deb izohlashimiz mumkin. Metodikadan o‘rin olgan maqsadga intiluvchanlik (U=79980,5; p>0,05), mardlik, qat’iylik (U=78172; p>0,05), tirishqoqlik, qaysarlik (U=80249,5; p>0,05), vazminlik, o‘zini tuta bilishning (U=79965; p>0,05) namoyon bo‘lish darajasida zaxiradagi kadrlarda ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Sababi, zaxiradagi erkak kadrlarda irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lish darajasi “faolroq” tusda bo‘lishi ularning ijtimoiy statusini yaxshilash va o‘zini aktuallashtirgan holda professional ierarxik ketma-ketlik pillapoyalarini bosib o‘tishga ehtiyoj deyarli ustunlik qilmasligi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lish ko‘lamini o‘zida aks etuvchi maqsadga intiluvchanlik (U=79038; p>0,05), mardlik, qat’iylik (U=84556,5; p>0,05), tirishqoqlik, qaysarlik (U=83797,5; p>0,05), mustaqillik, tashabbuskorlik (U=83125,5; p>0,05) jihatidan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bu zaxiradagi kadrlarda jamoat ishlarida faol o‘zini namoyon qilish, qat’iy bir maqsad sari intilish, yuklamalarni tirishqoqlik bilan bajarish, har bir bo‘layotgan voqea-hodisaga nisbatan faol pozitsiyada bo‘libda tashabbus ko‘rsatishni boshqaruvdagi kadrlarga ko‘ra ahamiyatsiz ekanligi sabab bo‘lishi mumkin.

Kadrlarda gender xususiyatlarini namoyon bo‘lshishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyaning differensial-prognostik modellashtirilishi kadrlar muammosini tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish jarayonida boshqaruv subyektlarida gender xususiyatlarining namoyon bo‘lishi, gender stereotiplarining faoliyatga bevosita salbiy yoki ijobiy ta’siri, psixoemotsional barqarorlikni ta’minlashdagi ijtimoiy-psixologik sifatlarni, oqibatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni va boshqa qator jihatlarni ilmiy-amaliy faktlar asosida tasdiqlashni taqazo etadi. Genderning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ijtimoiylashishi ijtimoiy norma, qoidalar, xulq-atvor xususiyatlarini o‘zlashtirish, ijtimoiy muhitga kirishish jarayoni deb yoritiladi. Rollar haqida madaniy tasavvurlar orqali ustanovkalarni shakllanishi, ayollar va erkaklarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini anglatadi. Genderning ijtimoiylashish jarayonlariga turli konsepsiyalar kontekstida qaraladi. Birinchidan, psixologik yo‘nalganlik (kognitiv, neobixevioristik, psixoanalitik) konsepsiyasi doirasida. Ikkinchidan, ijtimoiylashish jarayonlaridagi ijtimoiy rollar konsepsiyasi. Genderning ijtimoiylashi mexanizmlari psixanalitik qarashlar, ijtimoiy rollar, gender tuzilmalarni o‘z ichiga oladi. Gender tuzilmasi nazariyasi aynan S.Bemga tegishli bo‘lib, ma’lumotlarni onadan bolaga o‘tish jarayoni deb tushuntiradi. O.V.Krasnova, T.Z.Kozlov qarashlarida gender tuzilmasi ayollar va erkaklarning hayotiy qarashlari, o‘zaro munosabatlarida ko‘zga tashlanadi. Erkaklar kasbiy muvaffaqiyatlariga ko‘ra qadrlanadi, ayollar esa reproduktiv imkoniyatlariga nisbatan qadrlanadilar [5].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Митина О.В. Женщина в обществе. Женское гендерное поведение в социальном и кросскультурном аспектах. М.: Общественные науки и современность №3. 1999. – С. 179-180.
2. Поляков Д.Д. Механизмы формирования кадрового резерва системы общего образования РФ./ Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс». Педагогика. Научные исследования: от теории к практике. 2020. № 2. – С. 38-40.
3. Рахимова Н.Х. Формирование и использование трудового потенциала женщин Узбекистана в условиях перехода к рыночным отношением (на примере Республики Узбекистан). Т.: Шарк. 1994. – С. 30-42.
4. Свергун О. Управление персоналом: гендерный подход. / О. Свергун // Справочник по управлению персоналом. 2012. № 6. – С. 21-25.
5. Толочёк В.А. Задатки способности – ресурсы в детерминации социальной успешности человека // Фундаментальные и прикладные исследования современной психологии: результаты и перспективы развития. Отв. ред А.Л.Журавлёв, В.А.Кольцова. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 2017. – С. 14-27. 1265-1272 ISBN 978-5-9270-0362-4.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna**, Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi professori, Psixologiya fanlari doktori (DSc), [**Абдулладжанова Дилнозахон Султанбековна,** профессор кафедры воспитательно-психологического обеспечения служебной деятельности, доктор психологических наук (DSC)], [**Dilnozakhon S. Abdullajanova,** Professor of the Department of Educational and Psychological Support of Professional Activity, Doctor of Psychological Sciences (DSC)]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Ташкентская область, Зангиатинский район], [address: Uzbekistan, Zangiota district, Tashkent region]; dnekbaeva@inbox.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

HARBIY OILALARDA AYOL SHAXSINING YANGI IJTIMOY-MUHITGA MOSLASHISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

© X.X. Ibragimova[1]✉

[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada harbiy oilalarda ayollar shaxsining yangi ijtimoiy-muhitga moslashish jarayoni psixologik jihatlari yoritilgan. Ayollarning moslashuviga ta’sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, stress va xavotirni boshqarish strategiyalari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining ro‘li va maxsus psixologik dasturlar samaradorligi batafsil tahlil qilingan.

MAQSAD: Maqolada moslashuvni osonlashtirishga qaratilgan psixologik treninglar, reabilitatsiya dasturlari va jamoatchilik yordamining ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: harbiy oilalarda ayol shaxsining yangi ijtimoy-muhitga moslashishining psixologik jihatlari bo'yicha qo'llanmalar, o'quv tadqiqot maqolalari va so'rov ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Usullar so'rovlar, suhbatlar, sinfda kuzatishlar va talabalar faoliyati ma'lumotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Miqdoriy ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi, sifatli ma'lumotlar esa mavzuli kodlash va hikoya tahlili orqali tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: psixologik maslahat va reabilitatsiya markazlari tashkil etish natijasida stress va xavotirni kamaytirib, ayollarning hissiy barqarorligini oshiradi va ularning kundalik hayotiga ijobiy ta’sir o’tkazish mumkin. Ayollarni ijtimoiy aloqalar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga erishiladi.

XULOSA: harbiy oilalarda ayollar shaxsining moslashuv jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Treninglar, stressni boshqarish dasturlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish orqali bu jarayonni yengillashtirish mumkin. Ushbu tavsiyalarni tizimli amalga oshirish nafaqat ayollarni, balki harbiy oilalarni umumiy barqarorlikka olib keladi. Shu sababli, davlat, jamiyat va mahalliy tashkilotlar ushbu yo‘nalishda faol ish olib borishi zarur.

Kalit so'zlar: harbiy oilalar, ayollar moslashuvi, psixologik mexanizmlar, stressni boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, moslashuvchanlik, ijtimoiy psixologik ro’l, psixologik markazlar, hissiy boshqaruv.

Iqtibos uchun: Ibragimova X.X. Harbiy oilalarda ayol shaxsining yangi ijtimoy-muhitga moslashishining psixologik jihatlari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.431-439.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АДАПТАЦИИ ЖЕНСКОЙ ЛИЧНОСТИ К НОВОЙ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ В СЕМЬЯХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

© Х.Х. Ибрагимова[1]✉
[1]Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье описаны психологические аспекты процесса адаптации личности женщины к новой социальной среде в семьях военнослужащих. Подробно анализируются ключевые факторы, влияющие на адаптацию женщин, включая стратегии управления стрессом и тревогой, роль систем социальной поддержки и эффективность специальных психологических программ. В статье подчеркивается важность психологической подготовки, реабилитационных программ и поддержки общества, направленных на содействие адаптации.

ЦЕЛЬ: в статье подчеркивается важность психологических тренингов, реабилитационных программ и общественной помощи, направленных на облегчение адаптации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: включает пособия, учебные исследовательские статьи и данные опросов по психологическим аспектам адаптации женской личности к новой социальной среде в семьях военнослужащих. Методы включают опросы, интервью, наблюдения в классе и анализ данных об успеваемости учащихся. Количественные данные анализируются с использованием статистических методов, тогда как качественные данные анализируются с помощью тематического кодирования и анализа историй.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: создание центров психологического консультирования и реабилитации может снизить стресс и беспокойство, повысить эмоциональную стабильность женщин и положительно повлиять на их повседневную жизнь. Укрепление системы поддержки женщин достигается за счет социальных связей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: процесс адаптации женской личности в семьях военнослужащих требует комплексного подхода. Этот процесс можно облегчить, разработав тренинги, программы управления стрессом и системы социальной поддержки. Систематическая реализация этих рекомендаций приведет к общей стабильности не только женщин, но и семей военнослужащих. Поэтому необходимо, чтобы государство, общество и местные организации активно работали в этом направлении.

Ключевые слова: семьи военнослужащих, адаптация женщин, психологические механизмы, управление стрессом, социальная поддержка, гибкость, социально-психологическая роль, психологические центры, эмоциональное управление.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Для цитирования: Ибрагимова Х.Х. Психологические аспекты адаптации женской личности к новой социальной среде в семьях военнослужащих. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 431-439.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE ADAPTATION OF A FEMALE PERSONALITY TO A NEW SOCIAL ENVIRONMENT IN MILITARY FAMILIES

© Xurshida X. Ibragimova[1]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article describes the psychological aspects of the process of adaptation of a woman's personality to a new social environment in military families. Key factors affecting women's adjustment are analyzed in detail, including stress and anxiety management strategies, the role of social support systems, and the effectiveness of special psychological programs. The article highlights the importance of psychological training, rehabilitation programs and community support aimed at facilitating adaptation.

AIM: the article emphasizes the importance of psychological trainings, rehabilitation programs and public assistance aimed at facilitating adaptation.

MATERIALS AND METHODS: includes manuals, educational research articles and survey data on the psychological aspects of adapting a female personality to a new social environment in military families. The methods include surveys, interviews, classroom observations, and analysis of student performance data. Quantitative data is analyzed using statistical methods, whereas qualitative data is analyzed using thematic coding and story analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: The establishment of psychological counseling and rehabilitation centers can reduce stress and anxiety, increase women's emotional stability and positively affect their daily lives. Strengthening the support system for women is achieved through social connections.

CONCLUSION: the process of adapting a female personality in military families requires an integrated approach. This process can be facilitated by developing trainings, stress management programs and social support systems. The systematic implementation of these recommendations will lead to the overall stability not only of women, but also of military families. Therefore, it is necessary that the state, society and local organizations actively work in this direction.

Key words: military families, women's adaptation, psychological mechanisms, stress management, social support, flexibility, social psychological role, psychological centers, emotional management.

For citation: Xurshida X. Ibragimova. (2024) 'Psychological aspects of the adaptation of a female personality to a new social environment in military families', Inter education & global study, (10), pp. 431-439. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Harbiy oilalarda yashash ko‘pincha oilaning boshqa turlaridan keskin farqlanadi. Bu farq harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari va talablari bilan izohlanadi. Ayollar uchun bunday sharoitlar ko‘proq ijtimoiy va psixologik moslashuvni talab qiladi. Ushbu jarayon turli xil omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni chuqur tahlil qilish masalaning muhimligini ochib beradi. Harbiy oilalar jamiyatdagi boshqa oilalarga nisbatan o‘ziga xos tuzilma va sharoitlarga ega bo’lib, bular ko‘chishlar va joylashuvdagi o‘zgarishlar va muhit o’zgarishlaridir. Harbiy xizmat xususiyatlari sababli, bunday oilalar doimiy ravishda yashash joyini o‘zgartirishi mumkin. Bu oila a’zolarining ijtimoiy muhitga moslashuvini talab qiladi. Mazkur maqolada harbiy oilalarda ayol shaxsining moslashuv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ularni yengish usullari va psixologik mexanizmlar batafsil tahlil qilinadi. Ayollar shaxsining ijtimoiy va psixologik rolini o‘rganish ularning yangi sharoitlarda muvaffaqiyatli moslashuvi uchun zaruriy nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhimdir.

Harbiy oilalarda ayol shaxsining moslashuv jarayoni o’rganib borar ekanmiz, biz hozirgi kunda bu mavzu naqadar dolzarb va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Unda shaxsning moslashuv omillari, harbiy xizmat sharoitlari va psixologik yondashuvning ahamiyati aniq belgilangan. Ushbu kirish bo‘limi maqola muammosining umumiy ko‘rinishini berib, asosiy tahlil va xulosalarga zamin yaratadi. Oilaviy vaqt cheklovlari, harbiy xizmatchilarning uzoq muddat xizmatda bo‘lishi ayollarning oila boshqaruvinini yakka o‘zi amalga oshirishiga olib keladi. Ijtimoiy izolyatsiya bu yangi hududlarda yashash ijtimoiy aloqalarni qurishni qiyinlashtiradi, bu esa ayollar uchun stress va moslashuvdagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Moslashuv jarayonining psixologik asoslari bu shaxsning moslashuv jarayoni uning psixologik holati, ijtimoiy rolni qabul qilish qobiliyati va yangi sharoitlarga integratsiyalashuv tezligiga bog‘liq. Harbiy oilalarda ayol shaxsining moslashuv jarayoni harbiy xizmatning o‘ziga xos qiyinchiliklari va sharoitlari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayon shaxsning psixologik holati, ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv qobiliyati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligiga bog‘liq [1].

Harbiy oilalardagi ayollar uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Hissiy barqarorlik. Stress va xavotirga chidamlilik moslashuvning asosiy omilidir.
- Kommunikatsiya ko‘nikmalari: Yangi muhitda ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish ayollarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.
- Shaxsiy moslashuvchanlik: Ayolning moslashuvchanligi uning turmush tarziga yangi sharoitlarni kiritishiga yordam beradi.

Ayol shaxsining psixologik moslashuv qobiliyati, avvalo, uning individual xususiyatlariga bog‘liq. Harbiy xizmat sharoitlaridagi vaqtinchalik cheklovlar, ko‘chishlar yoki uzoq vaqt davomida er-xotinning bir joyda bo‘lmasligi ayollardan sabr va chidamlilik talab qiladi. Shaxsning bu xususiyati stressni yengish va murakkab sharoitlarda ijobiy kayfiyatni saqlash imkonini beradi. Hayotiy sharoitlar tez-tez o‘zgarishi bilan bog‘liq harbiy xizmatda yashash moslashuvchan bo‘lishni talab qiladi. Moslashuvchanlik yangi muhitni tezroq qabul qilish, uni konstruktiv qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Stress va xavotirni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

yengish qobiliyati hissiy barqarorlik bilan bog‘liq. Hissiy holatini boshqarishni bilgan ayollar moslashuv jarayonida muhim yutuqlarga erishadi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash moslashuv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi, doimiy aloqa va hissiy qo‘llab-quvvatlash ayollarni ruhlantiradi va ularga yangi muhitga o‘rganishda yordam beradi. Oila a’zolari bilan kuchli aloqalar ayolning stress darajasini kamaytiradi. Yangi joyga ko‘chib kelganda, ayollar mahalliy jamoa bilan aloqalarni o‘rnatish orqali ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Ushbu aloqa faqat psixologik yordam emas, balki amaliy yordam sifatida ham muhimdir. Harbiy xizmat xodimlari uchun maxsus tashkilotlar (psixologik yordam markazlari, ayollar klublari va boshqa ijtimoiy xizmatlar) ayollarni yangi muhitga moslashuvini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi [2].

Hissiy boshqaruv moslashuv jarayonida asosiy o‘rin tutadi. U stress, xavotir va depressiyani kamaytirish uchun samarali usullarni qamrab oladi, bunda meditatsiya, nafas olish mashqlari va jismoniy faoliyat ayollar uchun stressni kamaytirishning samarali usullari hisoblanadi. O‘z hissiyotlarini tushunish va boshqarishni o‘rganish, jumladan, yozuvlar orqali yoki ijtimoiy yordam guruhlarida bo‘lishish stressni yengillashtiradi. Mutaxassis bilan muloqot qilish, masalan, psixologik maslahat olish, ayollarning moslashuv jarayonini yengillashtiradi va hissiy salomatlikni tiklashga yordam beradi.

Harbiy oilalarda ayollarning moslashuv jarayoni murakkab bo‘lishiga qaramay, uni samarali boshqarish imkoniyati mavjud. Shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va hissiy boshqaruvni yaxshilash orqali ayollar yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashishi mumkin. Moslashuv jarayonida ayollarni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish va maxsus psixologik dasturlarni amalga oshirish dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Harbiy oilalarda ayollar yangi ijtimoiy-muhitga moslashishi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar shaxsning turli psixologik reaktsiyalari va yangi sharoitlarga moslashuv jarayonini qamrab oladi. Bu bosqichlarni tahlil qilish moslashuv mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularni qo‘llab-quvvatlash usullarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Yangi sharoitlar bilan yuzlashganda, shaxs birinchi navbatda stressga hissiy va fiziologik javob qaytaradi [3].

Qiyinchiliklar yoki yangi talablar ayollarda xavotir, noaniqlik hissi, hatto qo‘rquv uyg‘otishi mumkin. Bu stressga tabiiy javobdir va moslashuvning dastlabki bosqichida paydo bo‘ladi. Stress holati tufayli yurak urishi tezlashishi, uyquning buzilishi yoki qattiq charchoq kabi belgilar kuzatiladi [4]. Ba’zi hollarda ayollar yangi sharoitlarni qabul qilmaslikka moyil bo‘lishi mumkin, bu esa stress darajasini oshiradi. Ushbu bosqichda ayollarga hissiy boshqaruv usullarini o‘rgatish, masalan, nafas olish mashqlari, meditatsiya va ijobiy fikrlash usullari yordam beradi.

Harbiylar oilasida adaptatsiya jarayoni judayam muhim bo’lib, shaxs bu bosqichda yangi muhitga o‘rganishni boshlaydi. Bu jarayon odatda bir necha hafta yoki oy davom etadi va bir qancha omillarni o‘z ichiga oladi. Bu omillarning biri ayollar yangi muhit talablarini anglab, ularga moslashish yo‘llarini izlashidir. Harbiy oilalarda yashovchi ayollar uchun yangi muhitda o‘ziga mos ijtimoiy rolni topish muhim ahamiyatga ega. Bu, masalan,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

mahalla tadbirlarida faol ishtirok etish yoki bolalarni tarbiyalashga ko‘proq vaqt ajratishni o‘z ichiga oladi. Ayollar yangi sharoitlarga moslashgan sari xavotir darajasi pasayadi va stress darajasi kamayadi. Bu bosqichda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi juda muhim. Psixolog, ijtimoiy hodim yoki maslahatchilar bilan ishlash ayollarga moslashuv jarayonida ko‘maklashadi. Ayollarning yangi rollarga moslashuvini osonlashtirish uchun treninglar va maslahat xizmatlari tashkil etilishi lozim.

Integratsiya bosqichi shaxsning yangi muhitga to‘liq moslashuvi bilan yakunlanadi. Ayollar yangi ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topadi va faol ishtirok etishni boshlaydi [5]. Masalan, mahalla hayotiga qo‘shilish, bolalar ta’limida qatnashish yoki jamoa tadbirlarida ishtirok etish. Ayollar yangi sharoitda yaqin do‘stlik aloqalarini o‘rnatadi, bu ularga hissiy va amaliy yordam olish imkonini beradi. Integratsiya bosqichida ayollar o‘zlarini yangi muhitning bir qismi sifatida his qilishadi va bu ularga ichki qoniqish hissini beradi. Bu bosqichni mustahkamlash uchun psixologik maslahatlar davom ettirilishi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi faol ishlashi kerak. Moslashuv jarayonining ushbu uch bosqichi ayollar uchun murakkab, ammo boshqariladigan jarayondir. Har bir bosqichda individual va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vositalarini qo‘llash orqali moslashuvni yengillashtirish mumkin. Ushbu bosqichlarning har biri harbiy oilalarda yashash sharoitlarini qabul qilish va yangi ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur bosqichlarni hisobga olish psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Harbiy oilalarda ayollar stressni boshqarish uchun turli psixologik strategiyalardan foydalanadi. Yangi ijtimoiy-muhitga moslashuv jarayonida stress tabiiy hodisa bo‘lib, u shaxsiy va ijtimoiy omillarga bog‘liq holda rivojlanadi [6]. Kognitiv qayta ishlash stress holatida shaxsning fikrlarini ijobiy tomonga yo‘naltirish va qiyinchiliklarni boshqarishda konstruktiv yondashuvni qo‘llashni nazarda tutadi. Shaxs o‘z qiyinchiliklarini imkoniyat sifatida qabul qilishga o‘rgatiladi. Masalan, yangi muhitda qiyinchiliklarni muammo emas, balki o‘zini rivojlantirish uchun imkoniyat sifatida ko‘rish. Haddan tashqari tashvish va xavotir o‘rniga muammolarni real tahlil qilish va hal etish yo‘llarini topish stressni kamaytiradi. O‘z-o‘ziga dald "Men bunga qodirman", "Bu vaqtinchalik qiyinchilik" kabi ijobiy tasdiqlar ayollarning o‘ziga ishonchini oshiradi va stressni kamaytiradi. Ayollarga kognitiv qayta ishlash mashqlari o‘rgatilishi mumkin. Masalan, qiyin holatlarga qarashni o‘zgartirishga qaratilgan savollar va ijobiy fikrlash kartalarini ishlab chiqish.

Hissiy boshqaruv shaxsning ichki hissiy holatini nazorat qilish orqali stressni kamaytirish mimkin. Tinchlanishga qaratilgan meditatsion texnikalar stressni kamaytirish va hissiy barqarorlikni oshirishda samarali. Ayollarga oson meditatsiya texnikalari, masalan, nafas olishga diqqatni jamlash o‘rgatilishi mumkin. Tinch va chuqur nafas olish stress paytida organizmni tinchlantiradi. Nafas olish texnikalari tanadagi fiziologik stress belgilarini kamaytiradi. Hissiy holatni barqarorlashtirish uchun yoqimli musiqa tinglash samarali bo‘lishi mumkin. Musiqa ongni tinchlantirib, ijobiy kayfiyatni shakllantiradi.

Yaqinlar bilan muloqot qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash stressni boshqarishda eng samarali usullardan biridir. Ijtimoiy aloqalar ayollarga nafaqat hissiy, balki amaliy yordamni ham taqdim etadi. Yaqinlar bilan his-tuyg‘ularni bo‘lishish va yordam so‘rash stressni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

kamaytiradi. Ayollarning stressni yengishda eng katta yordamchilari oila a'zolari va yaqin do'stlaridir. Harbiy xizmat bilan bog'liq oilalarning bir-birlari bilan muloqoti, oilaviy marosimlardi birga o'tkazish, bayramlarni birga nishonlash qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytiradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash harbiy muhitdagi ayollarning yangi ijtimoiy-muhitga moslashuvini yengillashtiruvchi muhim omillardan biridir. Moslashuv jarayonida ayollarning hissiy barqarorligini saqlash va stressni kamaytirish uchun yaqin atrofdagi insonlar va jamoalar tomonidan ko'rsatiladigan yordam katta ahamiyatga ega. Quyida bu jarayonda ijtimoiy yordamning turli shakllari va ularning ta'siri to'liq yoritiladi. Oila a'zolari va yaqin do'stlar ayollar uchun eng yaqin ijtimoiy yordam manbasi hisoblanadi. Yaqinlar bilan his-tuyg'ularni bo'lishish ayollarning xavotirini kamaytiradi va ularda himoyalanganlik hissini kuchaytiradi. Oila a'zolari tomonidan uy-ro'zg'or ishlarida yoki farzandlarni tarbiyalashda yordam berilishi moslashuv jarayonini osonlashtiradi. Oila bilan muloqotda "Biz birgamiz" kabi his-tuyg'ular moslashuvni yengillashtiradi va hissiy barqarorlikni ta'minlaydi. Harbiy oilalarda oila a'zolari o'rtasida o'zaro aloqa va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun oilaviy maslahat xizmatlari tashkil etilishi mumkin.

Ijtimoiy yordam ayollarning harbiy sharoitlarga moslashuv jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yaqinlar, mahalla va rasmiy tashkilotlarning qo'llab-quvvatlash vositalarini birgalikda ishlatish moslashuvni yengillashtiradi. Shaxsiy va ijtimoiy yordamni uyg'unlashtirish orqali ayollarning stress darajasini kamaytirish va yangi sharoitlarda muvaffaqiyatli integratsiya qilishga erishish mumkin. Moslashuvni samarali ta'minlash uchun davlat va jamiyat harbiy oilalar uchun maxsus yordam dasturlari yaratish va ularni amalda qo'llashni ta'minlashi lozim. Ijtimoiy yordam tizimining rivojlanishi ayollarning psixologik salomatligi va ijtimoiy faolligini oshirishga hissa qo'shadi.

Harbiy oilalarda ayollarning yangi ijtimoiy-muhitga moslashuv jarayoni murakkab bo'lsa-da, uni to'g'ri boshqarish va samarali yordam vositalarini qo'llash orqali yengillashtirish mumkin. Mazkur jarayon ayollarning hissiy, psixologik va ijtimoiy jihatlari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun moslashuvni qo'llab-quvvatlash uchun bir qator tavsiyalarni amalga oshirish zarur.

Harbiy oilalardagi ayollarning moslashuvi ko'p qirrali jarayon bo'lib, yangi muhit talablariga javob berish uchun shaxsiy va ijtimoiy resurslarni safarbar qilishni talab qiladi. Bu jarayonning asosiy qiyinchiliklari stress, xavotir, doimiy o'zgarishlar va ijtimoiy izolyatsiya bilan bog'liq. Biroq, tegishli psixologik va ijtimoiy yordam vositalari orqali bu qiyinchiliklarni samarali yengish mumkin. Ayollar moslashuv jarayonida hissiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan samarali foydalanish orqali yangi sharoitlarga o'rganadi. Bu omillar nafaqat individual shaxsga, balki oilaning umumiy ahvoliga ham ta'sir qiladi. Moslashuv jarayonida ijodiy yondashuvlar, masalan, psixologik treninglar, stressni boshqarish bo'yicha maxsus dasturlar va qo'llab-quvvatlovchi guruhlar tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvlar ayollarning yangi sharoitlarga moslashuvini osonlashtiradi va ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Moslashuv jarayonini yengillashtirish va samarali boshqarish uchun birqancha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurdir. Psixologik dasturlar ayollarga yangi muhitda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

o‘ziga ishonchni oshirish va hissiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Bulardan biri ayollarni moslashuvchanligini oshiruvchi treninglardir. Ushbu treninglar ayollarga yangi muhitda o‘zini qulay his qilish ko’nikmalarini shakillantirish va ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishga ko‘maklashishdir. Treninglarda shaxsiy o‘sish, kommunikatsiya ko‘nikmalari va hissiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazilishi lozimdir. Individual va guruhli psixologik maslahatlar tashkil etish, ayollarga stress holatlarini yengishda, yangi sharoitga moslashishda va ijtimoiy o‘zini anglashni kuchaytirishda yordam beradi.

Keyingi tavsiya stressni boshqarish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqishdir. Stressni kamaytirish va xavotirni boshqarishga qaratilgan amaliy usullarni joriy qilish lozimdir. Ayollarga stressni kamaytirish uchun 5–10 daqiqalik qisqa meditatsion va nafas olish mashqlari tavsiya etilishi mumkin. Bundan tashqari, musiqiy seanslar tashkil etish ijobiy natija beradi.

Psixologik maslahat va reabilitatsiya markazlari tashkil etish natijasida stress va xavotirni kamaytirib, ayollarning hissiy barqarorligini oshiradi va ularning kundalik hayotiga ijobiy ta’sir o’tkazish mumkin. Ayollarni ijtimoiy aloqalar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga erishiladi. Qo‘llab-quvvatlash guruhlari va klublarini tashkil etish, harbiy oilalar uchun maxsus ijtimoiy dasturlar yaratish, harbiylar oilasidagi ayollarni jamoat bilan muloqotini rivojlantirish va yaqinlari o‘rtasida yordamni kuchaytirishga erishish mumkindir. Ijtimoiy aloqalar mustahkamlanib, ayollarning yangi ijtimoiy-muhitda o‘zini qulay his qilishi ta’minlanadi.

Tavsiyalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Ayollarning stress darajasini sezilarli darajada kamaytirish.
2. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish orqali ayollarning yangi muhitda barqaror hayot kechirishini ta’minlash.
3. Hissiy va psixologik barqarorlikni oshirish orqali oilaviy muhitni mustahkamlash.

Harbiy oilalarda ayollar shaxsining moslashuv jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Treninglar, stressni boshqarish dasturlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish orqali bu jarayonni yengillashtirish mumkin. Ushbu tavsiyalarni tizimli amalga oshirish nafaqat ayollarni, balki harbiy oilalarni umumiy barqarorlikka olib keladi. Shu sababli, davlat, jamiyat va mahalliy tashkilotlar ushbu yo‘nalishda faol ish olib borishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bronfenbrenner, U. (1979). "The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design". Harvard University Press. - Inson rivojlanishining ekologik modeli va ijtimoiy muhitning moslashuvga ta'siri bo‘yicha nazariy asos.
2. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). "The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and DesignStress, Appraisal, and Coping". Springer Publishing.
3. Stressni boshqarish va moslashuv jarayonidagi kognitiv yondashuvlarning amaliyotda qo‘llanilishi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

4. Барканов, С.(2018). "Психологические аспекты адаптации военнослужащих и их семей". Москва: Педагогика и психология.
5. Harbiy xizmat sharoitlarida oila a’zolarining moslashuv jarayonidagi psixologik omillarni tahlili.
6. 4.Репина, Л. В., & Иванова, Т. В. (2016). "Социально-психологическая адаптация в условиях профессиональной мобильности". Санкт-Петербург:
- Ijtimoiy moslashuvning psixologik jihatlari va stressga qarshi kurashish usullari.
7. Darling, N., & Steinberg, L. (1993). Parenting style as context: An integrative model. Psychological Bulletin, 113 (3), 487–496.
8. American Psychological Association (APA). (2020). "Stress Management Techniques". Retrieved from www.apa.org
9. Stressni boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va tadqiqotlar.
10. Ершова, А. В. (2020). "Психология семьи в военных условиях". Москва: Издательство МГУ.
11. Folkman, S. (1997). Positive psychological states and coping with severe stress. Social Science & Medicine, 45(8), 1207–1221.
12. Stress va moslashuvda ijobiy psixologik holatlarning roli.
13. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan harbiy oilalarga yordam dasturlari va mahalliy qo‘llab-quvvatlash tizimlari haqidagi rasmiy nashrlar.
14. Kovaleva, T.V.(2015). Адаптация женщин в условиях профессиональной неопределенности. Санкт-Петербург: Питер.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ibragimova Xurshida Xusanbayevna,** Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi [**Ибрагимова Хуршида Хусанбаевна,** преподаватель кафедры педагогики и психологии] [**Xurshida X. Ibragimova**, Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology] manzil: O‘zbekiston Andijon shahri Universitet ko‘chasi, 129- uy [адрес Узбекистан город Андижан, улица Университетская, дом 129], [address Uzbekistan, Andijan city, University street, 129].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

ONALAR DUNYOQARASHI VA FARZANDLAR PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI

© R.N. Alimardanova[1]✉

[1]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada oila mustahkamligini ta’minlashda ota-ona va farzand munosabatlarining falsafiy va psixologik yondashuvlari, zamonaviy oilada ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tarbiya mezonlari va an’analari tahlil qilinadi. Onalarning dunyoqarashining farzandlarining psixologik rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganish uchun amalga oshirilgan bu tadqiqotda kuzatuv va suhbat usullari qo‘llanildi. Natijada, onalarning dunyoqarashining farzandlarining psixologik holatiga aniq ta’siri aniqlandi.

MAQSAD: oilaviy turmush munosabatlari oilaning o‘tgan ijtimoiy tuzumlarga, hozirgi mavjud va kelajakdagi ijtimoiy hayotga bog‘lanib ketganligi bilan ikkiyoqlama xususiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: hozirgasha soha mutaxassislaridan ko‘pshiligi oila muammolarining qator qirralarini o‘z ilmiy izlanishlarida o‘rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar, xususan, D. Maers, V. Kvinn, F. Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o‘rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: kelajakdagi tadqiqotlar onalar dunyoqarashini o‘zgartirishning farzandlarning psixologiyasiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, bu muammo aniqroq hal qilinishi mumkin. Shuningdek, boshqa guruhlar, masalan, otalar, akalar va ukalar bilan olib borilgan tadqiqotlar ham natijalarni kengaytirishga yordam beradi.

XULOSA: tadqiqot uslubiyatining yaxshilashiga ijtimoiy fanlar va psixologiya sohasidagi yangi usullar va yondashuvlar joriy etilishi ham zarur. Masalan, onalar dunyoqarashini psixologik rivojlanishga ta’sirini aniqlovchi yangi psixometrik usullar ishlab chiqish mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotning boshqa mamlakatlarda ham olib borilishi kerak, chunki madaniyat va ijtimoiy muhitning farzand psixologiyasi va onalar dunyoqarashiga ta’siri mavjud.

Kalit so'zlar: onalar dunyoqarashi, farzand, psixologik rivojlanish, ta’sir, kuzatuv, suhbat.

Iqtibos uchun: Alimardanova R.N. Onalar dunyoqarashi va farzandlar psixologik rivojlanishi. // Inter education & global study. 2024. №10 B.440-446.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

МАТЕРИНСКОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ

© Р.Н. Алимарданова[1]✉
[1]Термезский университет экономики и сервиса, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются философско-психологические подходы к детско-родительским отношениям, особенности взаимоотношений родителей и детей в современной семье, критерии и традиции воспитания в целях обеспечения стабильности семьи. В данном исследовании использовались методы наблюдения и интервью, чтобы изучить, как мировоззрение матерей влияет на психологическое развитие их детей. В результате было определено явное влияние мировоззрения матерей на психологическое состояние их детей.

ЦЕЛЬ: семейно-бытовые отношения приобретают двойственный характер, когда семья привязана к прошлым социальным установкам, к текущей и будущей общественной жизни.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: к настоящему времени большинство специалистов в этой области изучили ряд аспектов семейных проблем в своих научных исследованиях. Некоторые зарубежные психологи по этому вопросу, в частности Д.Маерс, В.Куинн, Ф.Освещается в исследованиях Зимбардо и др. В определенной степени он также изучался российскими и французскими учеными.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: эта проблема может быть решена более конкретно, если будущие исследования будут направлены на выявление влияния изменения материнского мировоззрения на психологию детей. Исследования с другими группами, такими как отцы, братья и сестры, также могут помочь расширить результаты.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: необходимо также внедрение новых методов и подходов в области социальных наук и психологии для совершенствования методологии исследования. Например, могут быть разработаны новые психометрические методы, определяющие влияние материнского мировоззрения на психологическое развитие. Однако исследование также должно проводиться в других странах, поскольку существует влияние культуры и социальной среды на психологию ребенка и мировоззрение матери.

Ключевые слова: мировоззрение матери, ребенок, психологическое развитие, влияние, наблюдение, беседа.

Для цитирования: Алимарданова Р.Н. Материнское мировоззрение и психологическое развитие детей. // Inter education & global study. 2024. №10. С. *440-446.*

MATERNAL WORLDVIEW AND PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

© Ra'no N. Alimardanova[1]✉
[1]Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the philosophical and psychological approaches of parent-child relations, the characteristics of the relationship between parents and children in the modern family, the criteria and traditions of upbringing in order to ensure the stability of the family. Observational and interview methods were used in this study to study how mothers' worldview affects the psychological development of their children. As a result, the clear influence of mothers' worldview on the psychological state of their children was determined.

AIM: family-Lithuanian relations acquire a twofold character when the family is tied to past social attitudes, to a fluid and future universal life.

MATERIALS AND METHODS: By now, most experts in this field have studied a number of aspects of family problems in their scientific research. Some foreign psychologists on this issue, in particular D. Myers, V.Quinn, F. are covered in the studies of Zimbardo and others. To a certain extent, it has also been studied by Russian and French scientists.

DISCUSSION AND RESULTS: this problem can be solved more specifically if future research is aimed at identifying the impact of changes in maternal worldview on the psychology of children. Research with other groups, such as fathers, siblings, can also help expand the results.

CONCLUSION: it is also necessary to introduce new methods and approaches in the field of social sciences and psychology to improve the research methodology. For example, new psychometric methods can be developed to determine the influence of the maternal worldview on psychological development. However, the study should also be conducted in other countries, since there is an influence of culture and social environment on the psychology of the child and the worldview of the mother.

Key words: mother's outlook, child, psychological development, influence, observation, conversation.

For citation: Ra'no N. Alimardanova. (2024) 'Maternal worldview and psychological development of children', Inter education & global study, (10), pp. ***440-446***. (In Uzbek).

Ma'lumki, oilaviy turmush munosabatlari oilaning o'tgan ijtimoiy tuzumlarga, hozirgi mavjud va kelajakdagi ijtimoiy hayotga bog'lanib ketganligi bilan ikkiyoqlama xususiyat kasb etadi. Barcha zamon va davrlarda, sinfiy jamiyatlarda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy va individual, sinfiy-tabaqaviy, milliy-etnik xususiyatlarga, o'ziga xos belgilariga ega jihatlari mavjuddir. Bular esa oilaviy munosabatlarning psixologik va ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-axloqiy aloqalari xususiyatlarini belgilashga asos bo'ladi. Oila, ta'bir joiz bo'lsa, kishining hayot yo'li, faoliyati boshlanadigan eng birinchi jamoa sanalib, inson ilk

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

bor insonni shu yerda ko‘radi, u haqda tushuncha, tasavvurga ega bo‘ladi. Oilada, avvalo, bola uchun eng yaqin kishilar, uning ota-onasidir. Shuning uchun ham bolaning xulq-atvori, xarakteri, odat hamda ko‘nikmalari oilada shakllanadi.

Bu tadqiqotning mavzusi, psixologiya sohasida onalar va ularning farzandlari orasidagi aloqa tushunchasini yanada chuqurroq o‘rganish uchun dolzarb. Onalar dunyoqarashi va farzandlarining psixologik rivojlanishi orasidagi bog‘liqlik, farzand tarbiyasi va uni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy maqsadi, onalar dunyoqarashining farzandlarining psixologik holatiga qanday ta’sir etayotganini o‘rganishdan iborat.

Inson oilada dunyoga keladi, undagi urf-odat, an’analarni, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtiradi va dunyoqarashi shakllanadi. Nikoh va oila munosabatlari ijtimoiy masala sifatida hamma davrlarda olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Oila turli o‘ziga xos qator xarakteristikalarni egallovchi kichik guruhning alohida turi sifatida bola shaxsini shakllantiradigan birlamchi ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy tajriba, ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalariga ega bo‘ladigan ilk ijtimoiy institut hisoblanadi. [3;180].

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, psixologiyada yangi yondashuvlar aniqlashda ko‘rsatilgan. Bu yondashuvlar onalar va ularning farzandlarining orasidagi munosabatlarni, dunyoqarashining farzandlarining psixologik rivojlanishiga qanday ta’sirini keltirishini tushuntirishga yordam beradi. Bu, onalar dunyoqarashini o‘zgartirish yo‘li bilan farzandlarining psixologik holatini yaxshilashga ham yordam berishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, u natijalarini farzand tarbiyasida va psixologik muammo yuz berganda qo‘llash mumkinligiga asoslanadi. Bu tadqiqotning natijalari, onalar dunyoqarashining o‘zgartirilishi orqali bolalar psixologiyasini takomillashtirishning samaradorligini ko‘rsatadi. Bu, onalar, tarbiyachi va psixologlar uchun juda muhim bo‘lib, ularning ishida juda katta yordam beradi.

Olimlar tomonidan to‘plangan ilmiy dalil va xulosalarning barshasi mohiyatan o‘zbek muhitiga to‘g‘ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odati, an’ana va milliy qadriyatlari boshqasinikiga mos kelmaydi. Muhimi, O‘zbekistonda oila va undagi o‘zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo‘lgan ma’lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni xududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘rganish zarur. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston olimlari M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G‘.G‘oziyev, Sh.R.Baratov, M.Mamatov, B.M.Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o‘rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barsha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta’sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan ko‘tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta’sirini o‘z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Rishordson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan ushbu soha

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

bo‘yisha V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovish, E.I.Pavlovish, V.L.Titarenko kabi bir qator olimlar oila muammolari, shaxs oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlari bo‘yisha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi, ya’ni yolg‘iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo‘lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaktinchalik O‘zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a’zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig‘ emas. Shu ma’noda oila - inson o‘z baxti va saodati, orzu-xavaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o‘zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir [2: 36].

Ilmiy muammo: Onalar dunyoqarashining farzandlarining psixologik rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi, hali ham aniq emas. Bu muammoni hal qilish uchun, onalar dunyoqarashini o‘zgartirish orqali bolalar psixologiyasini takomillashtirishning samaradorligini aniqlash kerak. Bu muammo, onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni, farzandlar psixologiyasini shakllantirishda onalar dunyoqarashining ahamiyatini va uning ta’sirini yorituvchi psixologik, pedagogik va jamiyatshunoslik nazariyalarini chuqurroq tushuntirish uchun muhimdir [5: 15].

Bundan tashqari, bu muammo, onalar va farzandlar orasidagi aloqa, farzandlar psixologik rivojlanishi, onalar dunyoqarashi va uni o‘zgartirishning samaradorligi, shuningdek, onalar dunyoqarashining farzandlar psixologik rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini tahlil qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu muammoni hal qilish, farzand tarbiyasini yaxshilash, bolalar psixologiyasini takomillashtirish uchun muhim hissa o‘ynaydi. Shuning uchun, onalar dunyoqarashini tahlil qilish, ularning farzandlariga qanday ta’sir qilishini o‘rganish va bu ta’sirni yaxshilash yo‘llarini topish uchun kuzatuv va suhbatlar olib boriladi. Bu maqsadga erishish uchun, tadqiqot olib boriladi, natijalar tahlil qilinadi va xulosalar chiqariladi. Ushbu tadqiqot natijalari, onalar dunyoqarashining farzandlarning psixologik rivojlanishiga qanday ta’sir qilayotganini aniqlovchi ilmiy asos bo‘lishi mumkin.

Bu tadqiqotda kuzatuv va suhbatlar usuli ishlatilgan. Kuzatuv usuli, onalar va ularning farzandlari orasidagi munosabatlarni o‘rganish va onalarning dunyoqarashini tahlil qilish uchun tanlandi. Bu usul, onalar va ularning farzandlari orasidagi aloqa va munosabatlar haqida to‘g‘ri ma’lumotlarni beradi. Kuzatuv jarayonida, onalar dunyoqarashini, aloqalarini, munosabatlarni, ma’lum holatlar va muammolarni tahlil qilish imkoniyati beriladi. Suhbatlar usuli esa, onalar va ularning farzandlarining fikr va tuyg‘ularini aniqlovchi a’loqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu usul, onalar va ularning farzandlarining mazmuni va aloqalarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Suhbatlar jarayonida, onalar dunyoqarashini, farzandlari bilan munosabatlarini, muammolarni va ularga yechim topish usullarini aniqlash imkoniyati beriladi.

Bu usullar tadqiqot maqsadiga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Ular onalar va ularning farzandlari orasidagi munosabatlarni, onalar dunyoqarashini, farzand psixologiyasini shakllantirish va bu aloqalarni yaxshilash, shuningdek, onalarning o‘z dunyoqarashini o‘zgartirishning samaradorligini aniqlovchi ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ular yorug‘likda bo‘lganda, onalar va ularning farzandlarining psixologik rivojlanishini yaxshilash yo‘llarini topishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari onalar dunyoqarashining farzandlarning psixologik rivojlanishiga ta’sirini aniqlovchi ko‘plab ma’lumotlar taqdim etadi.

Birinchi natija, onalar dunyoqarashining farzandlarning psixologik rivojlanishini ancha ta’sir qilayotganligini ko‘rsatadi. Bu, onalar va ularning farzandlarining orasidagi aloqalarning, farzandlar psixologiyasining va onalar dunyoqarashining bir-biriga bog‘liqligi tufayli xosil bo‘layotgan vaziyat. Bu natija, onalar dunyoqarashini o‘zgartirishning farzandlarning psixologik rivojlanishini yaxshilashga qanday ta’sir qilishini aniqlovchi ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchi natija, onalar dunyoqarashining o‘zgartirilishi orqali bolalar psixologiyasini takomillashtirishning samaradorligini ko‘rsatadi. Bu, onalar dunyoqarashining farzandlarning psixologik rivojlanishini yaxshilashga qanday ta’sir qilishini aniqlovchi ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu natija, onalar dunyoqarashini o‘zgartirishning farzandlarning psixologik rivojlanishini yaxshilashga qanday ta’sir qilishini aniqlovchi ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi natija, onalar va ularning farzandlari orasidagi munosabatlarni, farzandlar psixologiyasini shakllantirishda onalar dunyoqarashining ahamiyatini va uning ta’sirini yorituvchi psixologik, pedagogik va jamiyatshunoslik nazariyalarini chuqurroq tushuntirish uchun muhim. Ushbu natija, bu aloqani yaxshilash yo‘llarini topishga yordam beradi. Bu natijalar, onalar va ularning farzandlari orasidagi munosabatlarni, onalar dunyoqarashini, farzand psixologiyasini shakllantirish va bu aloqalarni yaxshilash, shuningdek, onalarning o‘z dunyoqarashini o‘zgartirishning samaradorligini aniqlovchi ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot davomida uchta asosiy muammo duch keldi: birinchi, onalar dunyoqarashining farzandlar psixologik rivojlanishiga ta’sirini o‘lchashning qiyinligi; ikkinchisi, farzandlar psixologiyasini o‘zgartirishning onalar dunyoqarashiga ta’sirini o‘lchashning qiyinligi; uchinchisi, onalar va ularning farzandlarining orasidagi aloqalarni o‘zgartirishning onalar dunyoqarashiga ta’sirini o‘lchashning qiyinligi.

Bu muammolarni yengish uchun, onalar dunyoqarashini va ularning farzandlariga ta’sirini aniqlovchi ko‘proq ilmiy-uslubiy usullarni ishlatish, farzandlar psixologiyasini o‘zgartirishning onalar dunyoqarashiga ta’sirini aniqlovchi ko‘proq ilmiy-uslubiy usullarni ishlatish, onalar va ularning farzandlarining orasidagi aloqalarni o‘zgartirishning onalar dunyoqarashiga ta’sirini aniqlovchi ko‘proq ilmiy-uslubiy usullarni ishlatish zarur.

Boshqa tadqiqotlar asosan ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni, farzandlar psixologiyasini va onalar dunyoqarashini bir-biriga aloqasiz holda yoki ikkala tomonning aloqasini faqat bir jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Bu tadqiqotning ustunligi shundaki, u onalar dunyoqarashini, onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni, shuningdek, farzandlar psixologiyasini bir-biriga bog‘liq holda o‘rganadi. Biroq, bu tadqiqotning bir nechta kamchiliklari ham bor.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Birinchisi, bu tadqiqotning faqat bir guruhga - onalarga va ularning farzandlariga qaratilgan bo‘lishi. Bu esa, natijalarni boshqa guruhlarga nisbatan yoki boshqa sharoitlarda qo‘llash imkonlarini chegaralaydi.

Ikkinchisi, bu tadqiqotda onalar dunyoqarashini o‘zgartirishning samaradorligi aniqlovchilar soni juda kam.

Uchinchi kamchilik, tadqiqot uslubiyatining yaxshi, lekin aniq emasligi. Bu, xususan, natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan solishtirishda muammo yaratadi.

Tadqiqot muammolarni aniqlovchi usullarni takomillashtirishga yordam beradi va onalar dunyoqarashini o‘zgartirishning farzandlarning psixologik rivojlanishiga qanday ta’sir qilayotganini aniqlovchi ilmiy-asosli yondashuvlar ishlab chiqishga imkon beradi. Tadqiqotning kamchiliklari esa natijalarni boshqa guruhlarga nisbatan yoki boshqa sharoitlarda qo‘llash imkonlarini chegaralaydi. Biroq, bu kamchiliklar tadqiqot uslubiyatining takomillashtirilishi orqali yengilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Hasanov S. Xorazm ma’rifati-olam ko‘zgusi. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.-304 b
2. Eshmuradov O. Oila mustahkamligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. 2022.-36-40 b
3. Ананев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – М.: “Наука”, 1977. – 180.
4. Анисимов О.С. Акмеология и методология: проблемы психотехники и мыслетехники. – М.: РАГС, 1998. –72.
5. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Alimardanova Ra‘no Narbayevna**, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), [**Алимарданова Рано Нарбаевна,** доктор философии (PhD) по психологическим наукам], [**Ra‘no N. Alimardanova**, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences]; manzil: O‘zbekiston, Termiz sh., A. Navoiy ko'chasi, 4B-uy [адрес: Узбекистан, ул. А.Навои,4Б, Термез], [address: Uzbekistan, 4B, A.Navoiy st., Termez city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

YETUKLIK YOSHDAGI ODAM SAVDOSI JINOYATI JABRLANUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

© M.B. Raximov[1]✉

[1]Urganch shahri bo‘yicha IIO FMB, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada odam savdosi qurboni bo‘lgan insonlarning o‘ziga hos psixologik jihatlarining ilmiy nazariy hamda amaliy tavsifi keltirib o‘tilgan.

MAQSAD: Odam savdosi jinoyatidan jabrlangan insonning psixologik holatiga qanday ta'sir qilishi va jinoyat qurbonlarining umumiy xususiyatlarini tavsiflash haqida tushuncha berishdir. Bu jinoyat qurbonlari bilan qanday ishlashni va sodir bo'lgan voqea natijasida boshdan kechirishi mumkin bo'lgan jarohatni engishga yordam berishni tushunishga yordam beradi. Ish huquqni muhofaza qilish organlari, psixologlar, sotsiologlar va huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyat qurbonlariga yordam berish sohasida ishlaydigan barcha uchun foydali bo'lishi mumkin.

MATERIALLAR VA METODLAR: odam savdosi jinoyati jabrlanuvchilarining psixologik holatini tahlil qilish murakkab va ko‘p qirrali metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Ayniqsa, yetuklik yoshidagi jabrlanuvchilarni tadqiq qilish ularning rivojlanish bosqichini, ruhiy holatini va jamiyatga qayta integratsiyalash imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodlar jabrlanuvchilarni tushunish va ularga mos yordam ko‘rsatishning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: odam savdosi jinoyati insonning nafaqat huquqlarini poymol qiladi, balki uning shaxsiyati, psixologiyasi va ijtimoiy hayotiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Ayniqsa, yetuklik yoshidagi jabrlanuvchilar ushbu jinoyatning eng ko‘p ta’siriga uchragan guruhlar qatoriga kiradi. Ushbu davr – inson hayotida o‘ziga xos ruhiy va ijtimoiy yetuklik shakllanadigan bosqich bo‘lib, odam savdosining zararli oqibatlari ushbu jarayonni izdan chiqarishi mumkin.

XULOSA: odam savdosi jinoyati yetuklik yoshidagi jabrlanuvchilar uchun chuqur ruhiy va ijtimoiy iz qoldiruvchi muammo hisoblanadi. Ushbu davrda inson o‘zining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotini barpo etishga intilarkan, jinoyat oqibatlari ularning rivojlanish jarayonini izdan chiqarib, psixologik barqarorlikka jiddiy zarar yetkazadi.

Kalit so'zlar: psixologiya, jinoyat qurboni, zaiflik, ijtimoiy mavqe, yosh, jins, ta'lim darajasi, yashash joyi, tashvish, xavf-xatar, o'zini o'zi qadrlash, hamdardlik, oldini olish, jinoyat qurbonlariga yordam.

Iqtibos uchun: Raximov M.B. Yetuklik yoshdagi odam savdosi jinoyati jabrlanuvchilarining psixologik xususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №10 B. 447-454

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЖЕРТВ ТОРГОВЛИ ЛЮДЬМИ В ВЗРОСЛОМ ВОЗРАСТЕ

© М.Б. Рахимов[1]✉
[1]ИИО ФМБ по городу Ургенч, Ургенч, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье представлено научное теоретическое и практическое описание специфических психологических аспектов людей, ставших жертвами торговли людьми.

ЦЕЛЬ: дать понимание того, как торговля людьми влияет на психологическое состояние жертвы, и описать общие характеристики жертв преступлений. Это поможет вам понять, как работать с жертвами преступлений, и помочь им справиться с травмой, которую они могут получить в результате произошедшего. Работа может быть полезна правоохранительным органам, психологам, социологам и всем, кто занимается предотвращением преступности и оказанием помощи жертвам преступлений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. анализ психологического состояния жертв торговли людьми требует сложных и многогранных методических подходов. В частности, исследование жертв зрелого возраста включает углубленный анализ стадии их развития, психического состояния и возможностей реинтеграции в общество. Методы, использованные в данном исследовании, направлены на повышение эффективности понимания пострадавших и оказания им соответствующей помощи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: преступление торговли людьми не только нарушает права человека, но и серьезно вредит его личности, психологии и общественной жизни. Жертвы-подростки входят в число групп, наиболее пострадавших от этого преступления. Этот период является этапом в жизни человека, когда формируется специфическая психическая и социальная зрелость, а вредные последствия торговли людьми могут сорвать этот процесс.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: торговля людьми – это проблема, которая оставляет глубокий психологический и социальный шрам жертвам во взрослом возрасте. В этот период, когда человек стремится наладить свою личную, общественную и профессиональную жизнь, последствия преступности тормозят процесс его развития и серьезно нарушают психологическую устойчивость.

Ключевые слова: психология, жертва преступления, уязвимость, социальный статус, возраст, пол, уровень образования, место жительства, тревога, риск, самооценка, эмпатия, профилактика, поддержка жертвы преступления.

Для цитирования: Рахимов М.Б. Психологические характеристики жертв торговли людьми в взрослом возрасте. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 447-454.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADULT VICTIMS OF HUMAN TRAFFICKING

© Mukhammad B. Rakhimov[1]✉
[1]IIO FMB of the Urgench city, Urgench, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article presents a scientific theoretical and practical description of the specific psychological aspects of victims of human trafficking.

AIM: To provide an understanding of how human trafficking affects the psychological state of a person who has suffered from the crime of human trafficking and to describe the general characteristics of victims of crime. This will help to understand how to work with victims of crime and help them overcome the trauma they may experience as a result of the incident. The work can be useful for law enforcement agencies, psychologists, sociologists, and all those working in the field of crime prevention and assistance to victims of crime.

MATERIALS AND METHODS: the analysis of the psychological state of victims of human trafficking requires complex and multifaceted methodological approaches. In particular, the study of adult victims involves an in-depth analysis of their developmental stage, mental state, and opportunities for reintegration into society. The methods used in this research are aimed at understanding victims and increasing the effectiveness of providing them with appropriate assistance.

DISCUSSION AND CONCLUSIONS: the crime of human trafficking not only violates a person's rights, but also causes serious harm to his or her personality, psychology, and social life. In particular, victims of this crime are among the groups most affected by this crime. This period is a stage in a person's life when a specific psychological and social maturity is formed, and the harmful consequences of human trafficking can disrupt this process.

Conclusion: the crime of human trafficking is a problem that leaves a deep psychological and social imprint for victims of this crime. During this period, while a person strives to build his or her personal, social, and professional life, the consequences of the crime disrupt their development process and cause serious harm to psychological stability.

Keywords: psychology, crime victim, vulnerability, social status, age, gender, education level, place of residence, anxiety, risk, self-esteem, empathy, prevention, assistance to victims of crime.

For citation: Mukhammad B. Rakhimov. (2024) 'Psychological characteristics of adult victims of human trafficking', Inter education & global study, (10), pp. 447-454. (In Uzbek).

Ushbu ilmiy maqola Odam savdosi jinoyatidan jabrlangan insonning psixologik xususiyatini o'rganadi. Mualliflar odamni jinoiy hujumga nisbatan zaifroq qiladigan ichki va tashqi omillarni hisobga oladi. Ular jabrlanuvchilarning ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsi, ta'lim

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

darajasi va yashash joyi kabi xususiyatlarini tahlil qiladi va bu omillarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri va jinoyat qurboni bo‘lish ehtimoliga qanday ta’sir qilishini aniqlaydi. Ushbu maqolaning maqsadi Odam savdosi jinoyatidan jabrlangan insonning psixologik holatiga qanday ta'sir qilishi va jinoyat qurbonlarining umumiy xususiyatlarini tavsiflash haqida tushuncha berishdir. Bu jinoyat qurbonlari bilan qanday ishlashni va sodir bo'lgan voqea natijasida boshdan kechirishi mumkin bo'lgan jarohatni yengishga yordam berishni tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mualliflar o'zlarining tadqiqotlari natijalarini umumlashtiradilar va olingan natijalarning mumkin bo'lgan qo'llanilishini muhokama qiladilar. Ish huquqni muhofaza qilish organlari, psixologlar, sotsiologlar va huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyat qurbonlariga yordam berish sohasida ishlayotgan har bir kishi uchun foydali bo'lishi mumkin.

Jinoyat qurbonlarini alohida toifadagi shaxslar sifatida o‘rganish XX asr o‘rtalarida boshlangan. Ushbu yo'nalishdagi birinchi muhim qadam 1965 yilda AQShda Jinoyatchilarni tergov qilish bo'yicha Milliy komissiyaning tashkil etilishi bo'ldi, bu esa o'z navbatida Milliy adliya institutining tashkil etilishiga olib keldi. Ushbu tadqiqotlar doirasida qurbonlarning xususiyatlari, ular duchor bo'ladigan jinoyat turlari va ularning adliya tizimi bilan o'zaro aloqasi kabi qurbonlikning turli jihatlari o'rganildi. Tadqiqotlar qurbonlikning boshqa ko‘plab jihatlarini, jumladan, xavf omillari, jinoyatning oldini olish yo‘llari va turli psixologik jihatlarni ham qamrab oldi.

1970-yillarda jinoyat qurbonlari adliya tizimining muhim elementi sifatida qabul qilina boshladi va jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qiluvchi ko'plab tashkilotlar paydo bo'ldi. Masalan, 1984 yilda AQShda “Jabrlanuvchilar taklifi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, u jabrlanuvchilarga tergov va sud jarayonining borishi to‘g‘risida ma’lumot olish, shuningdek, sudda ularning manfaatlarini himoya qilish huquqini kafolatladi. Hozirgi kunda dunyoning turli mamlakatlarida jinoyat qurbonlari bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda va ularning natijalari jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish va umuman jinoyatchilikka qarshi kurashishning yanada samarali tizimlarini yaratishda foydalanilmoqda.

Jinoyat qurboni bilan bog'liq ko'plab tushunchalar va nazariyalar mavjud bo'lib, ular psixologiya va kriminologiyada ushbu hodisani tushunishga ta'sir qiladi. Ulardan ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Jabrlanuvchining stereotiplari nazariyasi - bu nazariya kim jinoyat qurboniga aylanishi mumkinligi haqida ma'lum stereotiplar mavjudligini tasdiqlaydi. Misol uchun, qurbonlar ko'pincha zaif holatda bo'lgan yoki ijtimoiy jihatdan past darajadagi odamlardir.

Jabrlanuvchining kompensatsiyasi nazariyasi - bu nazariyaga ko'ra, jinoyat qurbonlari ko'rgan zararlari uchun qoplanishi kerak. Kompensatsiya moddiy yordam, psixologik reabilitatsiyada yordam va hokazolarni o'z ichiga olishi mumkin.

Jinoyatga munosabat nazariyasi - bu nazariya jinoyat qurbonlari sodir bo'lgan voqealarga ma'lum munosabatda bo'lishini bildiradi. Reaktsiya zarba, qo'rquv, g'azab, shuningdek, xatti-harakatlar va hissiyotlarning o'zgarishini o'z ichiga olishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Ikkilamchi qurbonizatsiya nazariyasi - bu tushuncha jinoyat qurbonlarining qarindoshlari va do'stlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan travmatik ta'sirni tavsiflaydi. Ular jabrlanuvchining o'zi kabi hissiy reaktsiyalarni boshdan kechirishlari va bir xil qiyinchiliklarni boshdan kechirishlari mumkin.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash nazariyasi - bu nazariyaga ko'ra, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jinoyat qurbonlariga sodir bo'lgan voqeadan keyin tiklanishiga yordam beradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash oila, do'stlar, psixologik yordam bo'yicha mutaxassislar va boshqalarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi mumkin. Bu nazariyalarning barchasi jinoyat qurbonlari sodir bo'layotgan voqealarni qanday qabul qilishlarini, qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirishlarini va ularga reabilitatsiya va tiklanishda qanday yordam berish mumkinligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Namuna tavsifi har qanday tadqiqotning, shu jumladan jinoyat qurbonlarini o'rganishning muhim qismidir. U tadqiqotga kim va qancha odam kiritilganligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Vakillik namunasini olish uchun uni hisobga olish kerak. yoshi, jinsi, irqi, ijtimoiy mavqei, yashash joyi va boshqalar kabi turli omillarni hisobga olish lozim.[1]

Global odam savdosi inson huquqlarining jiddiy buzilishi bo‘lib, inson qadr-qimmatini suiiste’mol qilishni o‘z ichiga oladi. U uyushgan jinoyatchilikning bir turi sifatida qonun ustuvorligining asosiy tamoyillari va jamiyatning demokratik standartlariga putur etkazadi. Fenomenning transmilliy tabiati muammoga milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda jalb qilingan barcha institutlarning birlashgan sa'y-harakatlarini talab qiladi.

Odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxsning psixologiyasi namoyon bo'ladigan vaziyatlarda jabrlanuvchining xatti-harakati qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.Ular hech qanday jinoyat sodir etishga ta'sir qila olmaydi, Lekin hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Jabrlanuvchining turi o'zini turli yo'llar bilan namoyon qiladi: Bular hissiy beqarorlik, itoatkorlikka intilish, muloqotdagi qiyinchiliklar, his-tuyg'ularni noto'g'ri idrok etish va hokazolarda namoyon bo'ladi. Agar odamlar hayot uchun xavfli daqiqalarga noto'g'ri munosabatda bo'lishsa, ular muammoga duch kelishlari mumkin.

O'zaro munosabatlarda, sodir etilgan zo'ravonlik holatlarining yarmida jabrlanuvchi – o‘zidan o‘zi jabrlanib qolmaydi. Balki o'zaro aloqada bo'lgan odamlarning aybidir. Bunda Inson omili katta rol o'ynaydi. Ba'zi odamlar ko'proq zaif, boshqalari kamroq, ammo zo'ravonlik jinoyatlarining aksariyatida jabrlanuvchining harakatlari tajovuzning sababi bo'ladi.

Bunda jabrlanuvchining xulq-atvori psixologiyasi shunday bo‘ladiki, potentsial jabrlanuvchi tajovuz va zo‘ravonlikka moyil bo‘ladi. Har bir jabrlanuvchi beqaror. Muammolar shaxsning psixologik va ijtimoiy (va ehtimol fiziologik) xususiyatlarida paydo bo'ladi. Ammo jabrlanuvchilik sindromi turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi.[2]

Odam savdosi jinoyatida jabrlanuvchining psixologik xususiyatini tahlil qilish qanday psixologik va xulq-atvor omillari jinoyat qurboni bo'lish xavfini oshirishini tushunishga yordam beradi. Bu jinoyatlarning oldini olish va jabrlanuvchilarni himoya qilish choralarini ishlab chiqishda yordam beradi. Jabrlanuvchilikka psixologik omillarning ta'siri zamonaviy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

kriminologiya va psixologiyaning eng ko'p o'rganilayotgan masalalaridan biridir. Jinoyat qurboni bo'lish xavfiga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab psixologik omillar mavjud. Ushbu omillardan biri jabrlanuvchining psixologik portretidir. Shaxsiy xususiyatlar, masalan, o'z-o'zini hurmat qilish darajasi, hissiy barqarorlik va moslashish qobiliyati qurbonlik darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Jabrlanuvchining hayotiy tajribasi ham muhim psixologik omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilgari jinoyat qurboni bo'lgan odamlar yana qurbon bo'lish ehtimoli ko'proq. Bundan tashqari, bolalik davrida yoki oila davrasida zo'ravonlikni boshdan kechirgan odamlar ham xavf ostida. Muhim omillardan biri ham ijtimoiy maqomdir. Masalan, daromadi past, ijtimoiy mavqei past odamlar jinoyat qurboniga aylanish ehtimoli ko‘proq. Shuningdek, qurbon bo'lish xavfi atrof-muhitning holati, masalan, aholi zichligi va yashash joyining ijtimoiy tuzilishiga ta'sir qiladi. Ayrim ijtimoiy guruhlar, masalan, kambag'al mamlakatlardan kelgan muhojirlar va muhojirlar ham jinoyat qurboniga aylanish ehtimoli ko'proq.

Bu omillardan kelib chiqib, jinoyat qurboniga aylanish xavfida psixologik omillarning ahamiyati katta, degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu omillarni tushunish jinoyatning oldini olish va potentsial qurbonlarni himoya qilish uchun yanada samarali choralarni ishlab chiqishga yordam beradi. Jinoyat qurbonlari bilan ishlash huquq va psixologiya sohasidagi mutaxassislardan ma'lum mahorat va bilimlarni talab qiladi. Jinoyat qurbonlari bilan ishlash bo'yicha ba'zi amaliy tavsiyalar: Qo'llab-quvvatlash va hissiy yordam. Jinoyat qurbonlari ko'pincha shok, xavotir va qo'rquvni boshdan kechirishadi. Ularga hissiy yordam ko'rsatish va sodir bo'lgan voqealarga hissiy reaktsiyalarni bartaraf etishda yordam berish muhimdir.

Men nima qilganim haqida ma'lumot. Jinoyat qurbonlari o'z huquqlarini va yuridik yordam olish imkoniyatlarini bilishlari kerak. Mutaxassislar jabrlanuvchilarga ularning huquqlari, mavjud himoya choralari va kompensatsiya olish imkoniyatlari to'g'risida to'liq ma'lumot berishlari shart. Tibbiy yordam olishda yordam. Jinoyat qurbonlari ham jismoniy, ham ruhiy tibbiy yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Mutaxassislar o'zlariga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar haqida ma'lumot berishlari va jabrlanganlarga tibbiy yordam olishda yordam berishlari kerak. Himoya rejasini ishlab chiqish. Jinoyat qurbonlari kelajakda xavf ostida qolishlari mumkin. Mutaxassislar ularga takroriy qurbonlarning oldini olishga yordam beradigan himoya rejasini ishlab chiqishda yordam berishlari kerak.

Qabul qilingan kompensatsiyalarda yordam. Jinoyat qurbonlari jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplash huquqiga ega. Mutaxassislar jabrlanuvchilarga tovon va tovon puli olishda yordam berishlari kerak. Huquqni muhofaza qilish organlari bilan aloqada yordam berish. Jinoyat qurbonlari huquqni muhofaza qilish organlari bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Mutaxassislar ularga tartiblarni tushunishga yordam berishlari va huquqni muhofaza qilish organlari bilan muloqot qilishda yordam berishlari kerak. Psixologik yordam imkoniyatlari haqida ma'lumot berish. Jinoyat qurbonlari jarohat olishlari va psixologik yordamga muhtoj bo'lishlari mumkin.

Mutaxassislar jabrlanuvchilarni travma oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan mavjud yordam va davolash dasturlari haqida xabardor qilishlari kerak. Trening xavfsizlikni qurbon

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

qiladi. Jinoyat qurbonlari o'zlarini zaif va himoyasiz his qilishlari mumkin. Mutaxassislar ularga qayta qurbon bo'lish xavfini kamaytirish uchun xavfsizlik va o'zini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari kerak. Individual yondashuv. Har bir jabrlanuvchi o'ziga xosdir va individual yondashuvni talab qiladi. Mutaxassislar yordam va yordam ko'rsatishda har bir jabrlanuvchining individual ehtiyojlari va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari kerak. Boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik. Jinoyat qurbonlari bilan ishlash advokatlar, tibbiyot mutaxassislari va ijtimoiy xodimlar kabi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilishni talab qiladi. Mutaxassislar jinoyat qurbonlariga har tomonlama yordam ko‘rsatish uchun jamoa bo‘lib ishlay olishi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qila olishi kerak.

Ushbu maqolada adabiyotlar tahlili va tadqiqotlari asosida jinoyat qurbonlarining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Jinoyat qurbonining psixologik portretini o'rganish qurbonlik jarayonini yaxshiroq tushunishga, yordam va qo'llab-quvvatlashning samarali choralarini ishlab chiqishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jinoyat qurbonlari ko'pincha tashvish, stress, ruhiy tushkunlik va travmadan keyingi stress buzilishi darajasini boshdan kechirishadi.

Shuningdek, qurbonlikka yosh, jins, jinoyat turi, yashash joyi va madaniy xususiyatlar kabi omillar ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, jinoyat qurbonlariga yordam va qo'llab-quvvatlash stressni kamaytirish va jinoyat oqibatlarini engishga yordam berish uchun imkon qadar tezroq ko'rsatilishi kerak. Buning uchun samarali qo'llab-quvvatlash va davolash dasturlarini ishlab chiqish, jabrlanuvchilarni xavfsizlik va o'zini o'zi himoya qilishni o'rgatish va boshqa mutaxassislar, masalan, advokatlar va tibbiyot mutaxassislari bilan hamkorlik qilish kerak. Umuman olganda, jinoyat qurbonining psixologik portretini o‘rganish jabrdiydalikni o‘rganishning muhim yo‘nalishi bo‘lib, jinoyatlar bilan bog‘liq jarayonlarni chuqurroq anglash, jabrlanganlarga yordam va qo‘llab-quvvatlashning samarali choralarini ishlab chiqishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. M. Sh. Maxtaev. “Криминалистическое обеспечение предупреждения преступлений (правонарушений)”. Yurayt nashriyoti, Moskva 2023. - 229 b.
2. Д.Ю.Goncharov. “Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qonunchilik: tarmoqlararo munosabatlar” "Yurayt" nashriyoti, Moskva . 2023. - 285 б.
3. Dilbar ABDULLAYEVNA. (2024). THE NEED FOR SOCIAL-PSYCHOLOGICAL STUDY OF THE PSYCHOEMOTIONAL STATES OF ADOLESCENTS WITH SOMATIC DISEASES. News of the NUUz, 1(1.1.1), 215-219. https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.1.1.741
4. Уразбаева, Д. А. (2023). ОНКОЛОГИК БЕМОРЛАР ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ҲОЛАТИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “MA'MUN SCIENCE”, 1(1).
5. Urazbaeva, D. (2023). PSIXOSOMATIK KASALLIKLARDA BEMORLAR BILAN PSIXOLOGIK TADBIRLAR OLIB BORISH ZARURATI. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, 1(2), 189-192.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

6. Urazbaeva, D. A. (2020). Specific peculiarities of conducting psychological actions with oncology patients. International Journal of Current Research and Review, 12(16), 126-129.
7. Urazbaeva, D. (2024). TIBBIYOT SOHASIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISH ZARURATI. Молодые ученые, 2(6), 39-42.
8. ABDULLAYEVNA, D. (2024). JAMIYATDA AYOLLARNING KASBIY PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI MASALALARI. News of UzMU journal, 1(1.2), 226-230.
9. Urazbayeva, D. (2023). OSHQOZON YARASI VA O 'N IKKI BARMOQLI ICHAK YARASI TASHXISLI BEMORLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATLARINI TADQIQ QILISH XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI, 2(3), 47-50.
10. Abdullayevna, U. D. (2022). ONKOLOGIK BEMORLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLARLARINI DIAGNOSTIKA QILISHNING O 'ZIGA XOSLIGI. O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI, 1(3), 43-47.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Raximov Muxammad Baxtiyarovich,** Urganch shahri bo'yicha IIO FMB boshlig'i mayor, [**Рахимов Мухаммад Бахтиярович,** начальник ИИО ФМБ по городу Ургенч, майор], [**Mukhammad B. Rakhimov,** Major, Head of the Federal Bureau of Investigation for the city of Urgench]; manzil: O'zbekiston, Urganch sh., Tinchlik ko'chasi, 18-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул.Тинчлик, 18], [address: Uzbekistan, 18, Tinchlik st., Urgench city] E-mail: muha9090muxa@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

MAQOM XONANDALIGIDA AYOL IJROCHILARNING KIRIB KELISHI HAMDA AYOLLAR IJROSINING AHAMIYATI

© D.Abduazimova[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada maqom xonandaligida ayol ijrochilarning kirib kelishi va ularning ijrosidagi o'ziga xosliklar ko'rib chiqiladi. Ayollar ijrosining madaniyatimiz rivojidagi ahamiyati hamda bu jarayonning jamiyat hayotiga ta'siri yoritib beriladi. Tadqiqot doirasida ayol ijrochilarning o'ziga xos vokal va musiqiy uslublari tahlil qilinadi.

MAQSAD: Maqolaning asosiy maqsadi - maqom san'atida ayol ijrochilarning kirib kelishi, ularning ijrochilikdagi o'ziga xosliklarini aniqlash va ayol ijrosining ahamiyatini yoritishdir. Shuningdek, ayollar tomonidan ijro etilgan maqomlarning jamiyatdagi estetik va ijtimoiy ta'siri tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: O'zbekistonning boy madaniy merosi hisoblangan maqom san'ati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, unda erkak ijrochilar bilan bir qatorda ayol ijrochilarning ham hissasi muhimdir. Ushbu maqola orqali ayollar ijrosining maqom san'atida qanday o'rin tutishi va uning jamiyatdagi o'rni o'rganiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Maqom san'atida ayollar ishtiroki tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan bo'lib, XX asrning o'rtalariga kelib bu jarayon yangi bosqichga ko'tarildi.Ayollar ijrosida lirizm va nazokatning ustunligi ularni erkak ijrochilardan ajratib turadi. Bu holat maqomning mazmunan boyishiga xizmat qiladi. Ayol ijrochilar maqom san'atiga yangi ruh bag'ishlab, milliy musiqa merosimizni xalqaro miqyosda targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan.

XULOSA: maqom xonandaligida ayol ijrochilarning kirib kelishi nafaqat musiqiy merosimizni boyitgan, balki jamiyatning madaniy hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayol ijrochilar o'z ijodi bilan yosh avlodni estetik tarbiyalashda, milliy o'zlikni anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: maqom san'ati, ayol ijrochilar, musiqiy meros, madaniy ta'sir, estetik tarbiya.

Iqtibos uchun: Abduazimova D. Maqom xonandaligida ayol ijrochilarning kirib kelishi hamda ayollar ijrosining ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.455-460.

ВХОД ЖЕНЩИН-ИСПОЛНИТЕЛЕЙ И ЗНАЧЕНИЕ ЖЕНСКОГО ИСПОЛНЕНИЯ В СТАТУСНОМ ПЕНИИ

© Д. Абдуазимова[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусства и культуры, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается вхождение исполнительниц в статусное пение и особенности их выступления. Будет подчеркнута важность женского творчества в развитии нашей культуры и влияние этого процесса на жизнь общества. В рамках исследования анализируются уникальные вокально-музыкальные стили исполнительниц.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи – вхождение женщин-исполнительниц в статусное искусство, определить их особенности в исполнительстве и пролить свет на значение женского исполнительства. Также анализируется эстетическое и социальное влияние статуса женщины в обществе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: макомное искусство, считающееся богатым культурным наследием Узбекистана, имеет многовековую историю, в которой важен вклад как исполнительниц, так и исполнителей-мужчин. В данной статье исследуется место женского перформанса в статусном искусстве и его место в обществе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: участие женщин в искусстве макама сформировалось в результате исторических процессов и к середине XX века этот процесс вышел на новый уровень. Преобладание лиризма и женственности в женском исполнении отличает их от исполнителей-мужчин. Это условие служит обогащению статуса. Женщины-исполнители сыграли жизненно важную роль в продвижении нашего национального музыкального наследия на международном уровне, привнося новый дух в искусство статуса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: париобщение певиц к пению макама не только обогатило наше музыкальное наследие, но и оказало положительное влияние на культурную жизнь общества. Женщины-исполнительницы своим творчеством служат важным инструментом эстетического воспитания молодого поколения, реализации национальной идентичности.

Ключевые слова: статусное искусство, исполнительницы, музыкальное наследие, культурное влияние, эстетическое воспитание.

Для цитирования: Абдуазимова Д. Вход женщин-исполнителей и значение женского исполнения в статусном пении. // Inter education & global study. 2024. №9(1). С. 455-460.

THE ENTERPRISES OF FEMALE PERFORMERS IN MAQOM SINGING AND THE IMPORTANCE OF WOMEN'S PERFORMANCE

© Dilorom Abduazimova[1]✉
[1]Uzbek State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the emergence of female performers in maqom singing and the specifics of their performance. The importance of women's performance in the development of our culture and the impact of this process on the life

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

of society are highlighted. The study analyzes the unique vocal and musical styles of female performers.

AIM: the main purpose of the article is to identify the emergence of female performers in maqom art, identify their specifics in performance, and highlight the importance of female performance. The aesthetic and social impact of maqoms performed by women in society is also analyzed.

MATERIALS AND METHODS: maqom art, which is considered a rich cultural heritage of Uzbekistan, has a centuries-old history, in which, along with male performers, female performers also play an important role. This article examines the place of women's performance in maqom art and its role in society.

DISCUSSION AND RESULTS: the participation of women in the art of maqom was formed as a result of historical processes, and by the middle of the 20th century this process reached a new level. The predominance of lyricism and femininity in women's performance distinguishes them from male performers. This situation serves to enrich the content of the maqom. Female performers have given a new spirit to the art of maqom and played an important role in promoting our national musical heritage internationally.

CONCLUSION: The entry of female performers into maqom singing has not only enriched our musical heritage, but also had a positive impact on the cultural life of society. Female performers serve as an important tool in the aesthetic education of the younger generation and in the understanding of national identity with their work.

Keywords: maqom art, female performers, musical heritage, cultural influence, aesthetic education.

For citation: Dilorom Abduazimova. (2024) 'The enterprises of female performers in maqom singing and the importance of women's performance', Inter education & global study, (10(1)), pp. 455-460. (In Uzbek).

Barchamizki ma'lumki, maqomlar o'tmish bastakorlik ijodiyoti mahsuli bo'lib, asrlar davomida ustoz-shogird an'anasi orqali bizni zamonamizgacha yetib kelgan. Maqomlar cholg'u va aytim yo'lini o'z ichiga oladi. O'zbek maqomlarini ashula ijrochiligisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Maqom ijrochiligida ayol ovozlarining kirib kelishi maqomda o'ziga xos yangilik, erkak ijrochilarga anchagina yengillik bergan bo'lsa, maqom ijrochiligida asarning jozibasini, uning ahamiyatini yanada oshirdi deb aytish mumkin.

Qadimdan ayollar ijrochiligi yuqori baholangan. Tegishli adabiyotlarda keltirilishicha Sosoniylar davlatida (tahminan 568-625-yillarda) ayollar san'ati rivojlangan. Ayniqsa, saroy raqqosalari, hofizalari to'g'risida tarixiy manbalar bizga ma'lumot berganlar.

Jumladan, Ozodvar Changiy (592-649) nomi bilan mashhur bo'lgan bu ayol Sosoniylar musiqa madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, ayollardan iborat bo'lgan musiqa dastasini tashkil etgan. Daniyalik musiqashunos A.Kristensen o'z asarida shunday yozadi; "Sosoniylar saroyida jamoa orasida ayollardan iborat musiqachilar dastasi (ansambl) alohida o'ringa ega edi va Xisrav Parvez II ayollar san'atiga yuqori baho bergan".[6, B.13;]

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Ayollar san‘ati, ayniqsa, Ozodvar Changiy to‘g‘risida A.Firdavsiyning “Shohnoma” asarida ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. Keyingi davr musiqashunosligida ham ayollar ijrochiligi mavjud bo‘lgani haqidagi ma‘lumot va ushbu jarayon muhrlangan suratlar bizgacha yetib kelgan. Ana shu kabi suratlardan biri Xiva xonligi poytaxti Xorazmda 1896 yili Rossiyalik sayohatchi Voljinskiy tomonidan olingan. Suratda hashamatli bir xonada besh qiz qo‘llarida dutor, doira, she’rlar bitilgan kitob va gullar ushlab turganlari ko‘zga tashlanadi. Ularning ust-boshlaridan professional san’atkor ekanliklari haqida xulosa qilishimiz mumkin. Ular to‘y marosimi yoki so‘fiy anjumanida ayollar davrasida o‘z mahoratini namoyish qilganliklarini tahmin qilishimiz mumkin.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida ham Marg‘ilondagi ayollar gashtagida dutorchi qizlar musiqa ijro etishgani sahnasi bor. Shu bilan birgalikda Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asarining ayol qahramonlari Qumri, Zebi va boshqalar dutor chalib, qo‘shiq ijro etganlari va raqsga tushganlari aks ettirilgan sahnalari mavjud. Ular qo‘shni qishloqqa yo‘l olar ekanlar, ot qo‘shilgan aravadagi sayohatlari mobaynida dutor chalib, qo‘shiq kuylab borganlar.

Ayollar ijrochiligi qadim zamonlardan mavjud ekanligi barchaga ayon. Qadim zamonlardan buyon ayollar davrasida ijro etilib kelinayotgan yallalar, xalfalar ijodida namoyon bo‘lgani bunga yorqin misoldir. Ammo maqom ijrochiligida ayol ijrolarining qo‘shilishi dastlabki maqom ansambli faoliyati bilan bog‘liqdir.

Maqomning dastlabki zabardast xofizalari bo‘lmish Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Hadiya Yusupovalarning maqom ijrochiligida ayol xonandalar ijodini boshlab bergani ijrochilikda o‘ziga xos uslubni yaratdi.

1959-yilda O‘zbekiston teleradiosi qoshida Maqom ansamblining tashkil etildi va ushbu ansamblga 1989-yilda Yunus Rajabiy nomi berildi. Yunus Rajabiy xalq orasida sochilib yotgan maqom durdonalarini bir jild ostida sahifalab akademik bo‘lgan bo‘lsa, o‘zi tashkil qilgan ansambl doirasida eng buyuk san’atkorlarni tarbiyalab yetishtirdi. Bular mohir sozandalar, o‘xshashi yo‘q xofiz va xofizalar, sermahsul bastakorlar silsilasi edi. Bastakorlikda dong‘i ketgan Faxriddin Sodiqov, tanbur maktabining qiroli Turg‘un Alimatov, maqom ijrochiligida o‘zining sayqallangan ovozi bilan ajralib turuvchi Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Hadiya Yusupova, O.Alimaxsumov, I.Ikromov, E.Lutfullayev singari yana bir qancha san’at gavharlarini jiloladi.

Shuni ham aytish joizki, maqom ijrochiligida ayol xonandalarining kirib kelishi va yuzaga chiqishida aynan ushbu maqom ansamblining hissasi beqiyos. Maqom ijrochiligida o‘zining ijro yo‘lini, uslubini yarata olgan, ahamiyati salmoqli xonandalar Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Hadiya Yusupova shular jumlasidandir.

Ushbu ma’lumotlarga tayanib, shuni aytish mumkinki, ayollar ijrosi maqom ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, maqom asarlarining hajmi 2-2,5 oktavani tashkil etadi. Maqom ijrochiligiga ayol ovozlarining qo‘shilishi erkak xonandalarga ancha yengillik berdi, asarning saviyasini yanada oshirdi, ijroga nafislik va joziba bag‘ishladi. Yaratgan tabiatan barcha narsalarni juft yaratdi. Ushbu misolni kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalarida uchratamiz. Shu bilan birgalikda maqom ijrochiligida ham ayol xonandalarning ansambl tarkibiga qo‘shilishi, birgalikda

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

maqom namunalarini maromiga yetkazib go‘zal ijro talqinini yaratishi ham ushbu fikrimizning yana bir bor isboti. Maqomlarimizni bizgacha mukammal talqinda yetib kelishida nafaqat erkak xonandalar, balki ayol xonandalarning ham xizmatlari beqiyosdir.

Maqom ijrochilikda xonanda Berta Davidovaning ijrosining ahamiyati shundaki, o‘zining yuqori diapazonli, jarangdor kuvrak ovozi bilan ansambl ijrosiga yanada joziba bag‘ishlagan. Xonanda ovozining jarangdorligi, tiniqligi, ovoz tembrining kuchi va go‘zalligi, xonanda ovozidagi dard va faqatgina Berta Davidovaga xos yovvoyi pardalar ijrosi ushbu xonanda ijro uslubini boshqa xonandalar ijro uslubidan farqlab turadigan jihatdir. Yana shuni ham aytib o‘tishimiz kerakki, Berta Davidova maqom ijrochiligi tamoyillariga to‘la javob bera oladigan xofiiza deb bemalol ayta olamiz.

Berta Davidova bilan bir qatorda maqom ijrochiligining yana bir zabardast vakilasi bo‘lmish Kommuna Ismoilova ijrosining maqom ijrochiligidagi ahamiyati shundaki, o‘zining kuchli, jarangdor, to‘liq, quyuq va tik ovozi bilan maqom asarlarini yanada bezagan. O‘zining san’atga bo‘lgan beqiyos mehri bilan maqom ijrochiligida o‘zining “Kommunacha” yo‘lini yaratib ketgan xonandadir.

Ushbu tarovatli xonandalar qatorida maqom ijrochiligiga o‘zining hissasini qo‘shgan yana bir xonanda Hadiya Yusupovadir. Hadiya Yusupova ansamblga kelganida yosh bo‘lishiga qaramay, xonandalar Berta Davidova, Kommuna Ismoilovalar bilan bir qatorda murakkab mas‘uliyatni zimmasiga olib, maqom ijrochiligining zabardast hofizasi bo‘lib nom qoldirgan. Hadiya Yusupova ijrosining maqom ijrochiligidagi ahamiyati shundaki, ovozidagi dard, mungli ijrosi, ovozining tembr kuchi bilan maqom ijrolarida o‘zining ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ushbu xofizalarsiz maqom ijrochiligini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uch xonandaning ham o‘ziga xos yo‘li, uslubi mavjud bo‘lib, hozirda xonanda sifatida shakllanib borayotgan yosh xonandalar ushbu ijrochilarga ergashib, taqlid qilib, ularning ijro uslublaridan andoza olib, ularni ayol ijrochilar sifatida namuna qilib kelmoqdalar.

Ushbu xonandalar maqom ijrochiligi yo‘lida uzoq yillar faol ijod qilib, ulkan muvaffaqiyatlarga erishib, xalq mehri va ehtiromiga sazovor bo‘lganlar. Bu muvaffaqiyatlar ortida albatta akademik Yunus Rajabiyning mehnatlari yotadi.

Albatta, ulardagi noyob iste’dod, mehnatsevarlik, maqsadga qunt va sabot bilan intilish, san‘atga muhabbat, vatanga sadoqat musiqa san‘atining maqom ijrochiligi yo‘nalishida eng yuqori cho‘qqilarni zabt etishga zamin bo‘ldi.

Ushbu hofizalarning ijrolari ijrochilik mezonlariga to‘la javob bergan va bundan keyin ham ayol ijrochilar uchun eng mukammal namuna bo‘lib qoladi.

Biz hozirgi zamon vakillari bizgacha ziyon-zahmatsiz holda yetib kelgan durdona ijro namunalarini asrab avaylashimiz, ularni yanada targ‘ib qilishimiz va shu bilan birgalikda zamon talabidan kelib chiqqan holda biz ham maqom ijrochiligi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maqom ijrochiligi haqiqatdan ham go‘zal va murakkab asl san‘at turidir. Ayollar ijrosining esa maqom ijrochiligida o‘ziga xos ahamiyati bor.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Musiqa san‘ati ijrochiligida xonandalik o‘zgalariga qaraganda nisbatan keng qamrovli, ehtiroslarga boy, yetakchilik xususiyatiga ega yo‘nalishdir. Musiqaning mukammalligi, sehri, zabardastligi hamda ifodaviyligi xonanda talqinida to‘laqonli ifodalanishi muqarrar.

Ayollar ijrosi bilan esa har qanday san‘at yanada go‘zallashadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bo‘riyeva K. An‘anaviy xonandalik (ayollar ovozlari uchun). – Toshkent 2008.
2. Isroilova H. An‘anaviy hofizlik san‘ati. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2007.
3. Jalilov A. Kommuna Ismoilova. – Toshkent: Musiqa, 2009.
4. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004.
5. Matyakubov Sh. An‘anaviy ijrochilik san‘ati tarixi. – Toshkent: Musiqa, 2015.
6. Yuldasheva N., Raxmatova N. O‘zbek musiqa adabiyoti. – Toshkent 2016.
7. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. – Toshkent 2005.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abaduazimova Dilorom** o’qituvchi, [**Абадуазимова Дилором,** преподаватель], [**Abaduazimova Dilorom,** teacher]; manzil: 100125, O'zbekiston, Shahar: Toshkent, Tuman: Mirzo-Ulug'bek, Yalang'och dahasi, 127A [адрес: 100125, Узбекистан, Город: Ташкент, Район: Мирзо-Улугбек, Ялангоч дахаси, 127A], [address: 100125, Uzbekistan, City: Tashkent, District: Mirzo-Ulug'bek, Yalang'och dahasi, 127A]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

MADANIY TADBIRLAR KONTEKSTIDA TALABALARNING SSENARIYNAVISLIK KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

© N.E. Mamatqosimova[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Madaniy tadbirlar nazariyasi, madaniy tadbirlarni tashkil etish usullari yoritilgan.

MAQSAD: madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali talabalarning ssenariy yozish qobiliyatini rivojlantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida analiz, kreativ yondoshuv, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning samaradorligi pedagogic tajriba sinov jarayonida tasdiqlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirish asosida ssenariy, madaniy tadbirlar nazariyasi tadqiq etildi. mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Madaniy tadbirlar turlari va spetsifikasi o‘rganilgan. Madaniy tadbirlarni tashkil etish usullari, madaniy tadbirlar ssenariysini yaratish va shu asosda talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

XULOSA: madaniy tadbirlarda pedagogik mahoratni qo‘llash katta samaralarga erishishga yo‘l ochadi. Aynan pedagogik fazilatlarni madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida qo‘lash ham tadbirning salmog‘ini oshirishga xizmat qiladi. Tadbir tashkilotchisining ta’lim bilan tarbiya uyg‘unligiga erishishda uning pedagogik mahorati ham katta rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: ssenariy, ssenariynavis, drama, dramaturgiya, inssenirovka, adabiy asar, adabiyot.

Iqtibos uchun: Mamatqosimova N.E. Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirish masalalari. // Inter education & global study. 2024. №10 B.461-467.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СЦЕНАРНО-СИСДЕРНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

© Н.Э. Маматкасымова[1]✉

[1]Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы развития сценарных навыков студентов в условиях культурных мероприятий. Объясняется теория культурных мероприятий, методы организации культурных мероприятий.

ЦЕЛЬ: развивать у учащихся умение писать сценарии путем организации культурно-массовых мероприятий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались такие методы, как анализ, творческий подход и наблюдение, а эффективность полученных результатов была подтверждена в ходе педагогического эксперимента.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основе развития сценарных навыков студентов в контексте культурных мероприятий исследована теория сценария и культурных мероприятий. Проанализирована литература по теме. Изучены виды и особенности культурных мероприятий. Были даны рекомендации по методам организации культурно-массовых мероприятий, созданию сценария культурно-массовых мероприятий и развитию на этой основе сценарных навыков студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Использование педагогических навыков в культурных мероприятиях открывает путь к достижению высоких результатов. Использование педагогических качеств в процессах организации культурно-массовых мероприятий также способствует увеличению веса мероприятия. Педагогическое мастерство организатора мероприятия играет большую роль в достижении гармонии между образованием и обучением.

Ключевые слова: сценарий, сценарист, драматургия, драматургия, постановка, литературное произведение, литература.

Для цитирования: Маматкасымова Н.Э. Вопросы развития сценарно-сисдерных навыков студентов в контексте культурных мероприятий. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 461-467.

ISSUES OF DEVELOPING STUDENTS' SCRIPTWRITING SKILLS IN THE CONTEXT OF CULTURAL EVENTS

© Nadira E. Mamatkasimova[1]✉
[1]Uzbek State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article studies the issues of developing students' scriptwriting skills in the context of cultural events. The theory of cultural events, methods of organizing cultural events are covered.

AIM: to develop students' scriptwriting skills through organizing cultural events.

MATERIALS AND METHODS: in the research process, methods such as analysis, creative approach, observation were used, and the effectiveness of the results obtained was confirmed in the process of pedagogical experimental testing.

DISCUSSION AND RESULTS: the theory of scriptwriting, cultural events was studied on the basis of developing students' scriptwriting skills in the context of cultural

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

events. Literature on the topic was analyzed. Types and specifications of cultural events were studied. Recommendations are given on the methods of organizing cultural events, creating a script for cultural events and, on this basis, developing students' scriptwriting skills.

CONCLUSION: the use of pedagogical skills in cultural events opens the way to achieving great results. It is precisely the use of pedagogical qualities in the processes of organizing cultural events that serves to increase the significance of the event. The pedagogical skills of the event organizer also play a major role in achieving the harmony of education and upbringing.

Keywords: script, scriptwriter, drama, dramaturgy, staging, literary work, literature.

For citation: Nadira E. Mamatkasimova. (2024) 'Animal symbolism in fine arts', Inter education & global study, (10), pp. 461-467. (In Uzbek).

Yangi O‘zbekistonda sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash [2] maqsadida ta’limiy va madaniy jabhalarni tizimli isloh qilish, ilmiy-tadqiqot va ijrochilik mahoratining yangi tizimini joriy qilish, davlat musiqali, drama hamda qo‘g‘irchoq teatrlarida yagona repertuar strategiyasi asosida g‘oyaviy, ma’naviy va badiiy jihatdan puxta yaratilgan sahna asarlarini namoyish etish, teatr va sirk san’ati ustalari tomonidan “ustoz-shogird” an’analari va mahorat maktablari asosida ta’lim berish tizimining yo‘lga qo‘yilishi [1] muhim vazifa sifatida belgilandi.

Bugungi davrda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Bu borada ma’naviy-madaniy islohotlar birlamchi bo‘lib, davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni aholining keng qatlamiga san’at vositalari orqali yetkazish samaraliroqdir. “Albatta, biz xalqimizning ma’naviy kamol topishida madaniyat namoyandalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e’tirof etamiz. Yuksak ideallar yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, o‘zligimizni anglash, g‘urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog‘lab maydonga chiqish – siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz” [3].

Mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi yo‘lida olib borilayotgan islohotlar Yangi O‘zbekiston fuqarolarining ma’naviy-madaniy rivojlanishiga asos bo‘lib, bevosita san’at va madaniyat taraqqiyotining huquqiy asoslari, xususan madaniy tadbirlar, bayram va tomoshalar, estrada shou dasturlari, teatrlashtirilgan konsertlarning barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlash hamda takomillashtirishda o‘z ta’sirini o‘tkazib, madaniy tadbirlarning ijtimoiy hayotimizdagi ma’naviy ahamiyatini, shaxs tarbiyasidagi o‘rnini rivojlantirish va ommalashtirishga asos bo‘ladi. Madaniy tadbirlar jamiyat ma’naviy ko‘zgusi bo‘lib, unda millat va davlatning qudrati, ma’naviy boyligi, madaniy qadriyatlari mujassam bo‘ladi, badiiy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

vositalar orqali dunyoga tarannum etiladi. Madaniy tadbirlar dasturining badiiy saviyasini yuksak darajada ta'minlanishida ssenariy va uni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etib, ssenariy tayyorlash va madaniy tadbirni tashkil etish o'ziga xos mahorat, bilim, malaka va ko'nikma talab etadi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda dramaturg va rejissyorning o'rni katta bo'lib, bu jarayon ham ijodiy, ham tashkiliy jarayonlardan iboratdir.

Bu borada tadqiqotchilar B.S.Sayfullayev, H.Muhammad, U.H.Qoraboyev, F.E.Ahmedov, V.Q.Rustamov, J.Dushamovlarning izlanishlari metodologik manba bo'lib, Respublikamizning turli hududlarida madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayoni bilan shug'ullanib kelayotgan mutaxassislar fikrlari amaliy ko'nikma hosil qilishda xizmat qiladi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, xalqlarning o'ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarning o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish [5, 3-4].

U.H.Qoraboyev madaniy tadbirlar yuzasidan quyidagicha fikr bildiradi: "Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va ular kishilarning ishdan bo'sh vaqtida kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham unga kengroq tushuncha va atama zarur bo'lmoqda. Ularni keng qamrovli "madaniy tadbirlar" deb atasa yaxshi bo'ladi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, "ommaviy tadbirlar", "badiiy tadbirlar" atamalariga ham murojaat kilish mumkin" [7, 123].

R.SH. Rustamova esa "Madaniy-ma'rifiy tadbirlar deganda aholini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini, dam olishini ko'ngilli o'tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy extiyojlarini qondirishga xizmat kiluvchi tadbirlar tushuniladi" [4, 12] – deb qayd etadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "tadbir" – biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir, deyilgan. Madaniy tadbirlar to'g'risida shu soha olimlari turli fikr mulohazalarni aytib o'tganlar. Ular bu tushunchani badiiy ommaviy tadbirlar deb, yana boshqalar madaniy-ma'rifiy ishlar deb yuritganlar. Madaniy tadbirlar esa bu jarayonlarning barchasini o'zida qamrab oladigan ijodiy va tashkiliy jarayondir [6, 724].

Madaniy tadbirlarni kengroq ma'noda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, tematik kechalar, turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya va h.k.lar, bog'lar, maydonlarda o'tkaziladigan turli janrlardagi tadbirlar umumiy nom bilan madaniy tadbir tushunchasiga teng boladi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

[5, 12]. Bir so‘z bilan aytganda ijodiy, uslubiy jihatdan mukammal, puxta tayyorlangan, to‘g‘ri tashkil etilgan dasturlar madaniy tadbir desak to‘g‘ri bo‘ladi.

U.H.Qoraboyev tasnifiga ko‘ra madaniy bayramlarning (tadbirlarning) qamroviga qarab ularni shartli ravishda uch guruhga bo‘ladi.

Birinchi guruh – tabiat va mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mavsumiy bayramlar;

Ikkinchi guruh – inson kamoloti, oila hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan oilaviy marosim va tantanalar;

Uchinchi guruh – jamiyat ma’naviyati, e’tiqodlar bilan bog‘liq diniy bayramlar shular jumlasidandir [8, 72].

Madaniy tadbirlar yuzasidan tadqiqot olib borgan B.S.Sayfullayev va V.Q.Rustamov madaniy tadbirlarni quyidagi turlarga ajratadi va ularning spetsifik jihatlarini ta’riflaydi [5, 52]:

1. Turli janrlarda tashkil etilagan konsertlar va bayramlar
2. Davra suhbatlari
3. Mavzuli kechalar
4. Viktorina
5. Ko‘rik-tanlovlar
6. Debat
7. Badiiy-sport tomoshalari

Madaniy tadbirlar turlarining spetsifik jihatlari quyidagilardan iborat:

Turli janrlarda tashkil etilagan konsertlar va bayramlar **–** teatrlashtirilgan konsertlar va bayramlar murakkab ijodiy va tashkiliy jarayonlarni talab qiladigan turlaridan hisoblanadi. Bunda konsert va bayramlar ma’lum bir g‘oya, mazmun va voqeaning qizil chizig‘iga joylashtiriladi. Teatrlashtirilgan konsert va bayramlarning o‘ziga xosligi shundaki, bunda dastur teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etilishi lozim bo‘ladi.

Davra suhbatlari – rasmiy bo‘lmagan holatda, kichik auditoriyalarda, ma’lum bir mavzu atrofida suhbat tariqasida tashkil etiladi. Shunga ko‘ra madaniy tadbirning bu turida katta tayyorgarlik ko‘rishga unchalik ham hojat bo‘lmasa kerak. Sababi, bunda bir yoki ikki kishi asosan, o‘sha mavzu bo‘yicha qisqacha ma’lumot beradi (yoki ma’ruza qilishi ham mumkin) va undan keyin savol-javob tariqasida fikrlar almashinib, birgalikda xulosalar chiqariladi.

Mavzuli kechalar – jamiyat jamoa uchun ijtimoiy jihatdan muhim hisoblangan voqealarga, sanalarga bag‘ishlab o‘tkaziladi. Mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy madaniy hayotidagi kundalik voqea-hodisalarga, mehnatga bag‘ishlangan mavzuli kechalarni tashkil etish orqali insonlar ongiga ta’sir qilish va ularda salbiy oqibatlarga nisbatan qarshi tura olish immunitetni shakllantirish kabi vazifalar qo‘yilgan holda yondashish maqsadga muvofiqdir.

Viktorina – bilimlarning turli sohalariga oid savollarga og‘zaki yoki yozma ravishda javoblar berish tariqasida tashkil etiladigan o‘yinlar asosiga qurilgan tadbirlardan hisoblanadi. Viktorinalar bir-birlaridan savollar turi va murakkabligi, yurish ketma-ketligi,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

g‘oliblarni aniqlash va rag‘batlantirish tartibi bilan bog‘liq o‘yin qoidalariga ko‘ra farqlanadi. Viktorinalarda oldindan tayyorlangan savollar majmuidan ham foydalanish mumkin.

Ko‘rik-tanlovlar – madaniy tadbirlarning eng qiziqarli turlaridan hisoblanadi. Ko‘rik-tanlovlar asosan musobaqa shaklida tashkil etiladi. Bunday tadbirlarda tomonlarning bir-biri bilan turli mavzular bo‘yicha tortishuvlar, bahs-munozaralar, bellashuvlar orqali namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, ko‘rik-tanlovlar ham madaniy tadbirlarning eng zamonaviy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, tanlov ishtirokchilarini ham tomoshabinlarni ham tarbiyalaydi.

Debat – ikki tomonlarning dolzarb mavzular bo‘yicha oshkora fikr almashinuvi asosida maxsus tashkillashtiriladigan tadbir shakli. Bunda ishtirokchilar o‘zlarining haq ekanliklarini bir-birlariga emas, balki uchinchi tomonga tushuntirishliklari va isbotlashliklari nazarda tutiladi. Debatlarni aniq bir mavzu atrofidagi ikki yoki undan ortiq insonlar yoki guruhlar o‘rtasidagi ochiq tortishuvlar, fikr, mulohazalar, bahs-munozaralar asnosida tashkil etilishiga qaramay uning ahamiyatli jihatlari kengdir. Insonlar (tinglovchi, tomoshabin) muammolarni o‘rtada fikr yuritayotganlarning fikrlarini tahlil qilish asosida ko‘p narsalarni eslab qoladilar. Debatlar ko‘proq ilmiy mazmun olsagina ko‘proq samara beradi, ta’siri katta bo‘ladi.

Badiiy-sport tomoshalari – bu turdagi tadbirlarni tashkil etishdan maqsad **–** sog‘lom turmush tarzi, insonlar salomatligi, ularning ham ma’nan ham jismonan yetuk bo**‘l**ishlari, bir so‘z bilan aytganda **–** insonlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish. Bunday tadbirlar asosan, musobaqa shaklida o‘tkaziladi. Unga teatrlashtirish usullarini qo**‘l**lash esa tadbirning badiiy jihatlarini yanada ko‘chaytirishga, faollashtirishga sabab bo**‘l**adi va natijada tomoshabin o‘zi kutmagan rohatbaxsh manzaralarga duch keladi, tomoshaga nisbatan faolligi oshib boradi [5, 52].

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda avvalo, madaniy tadbir dramaturgiyasi ya’ni ssenariysi yaratiladi. Bu jarayon o‘ziga xos pedagogik jarayon bo‘lib, talabalarda turli mavzulardagi madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning dramatik asosi bo‘lmish sssenariy yaratishning nazariy va amaliy asoslarini, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishning amaliy va metodik jihatlarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish, sahnalashtirish ishlarini amalga oshirish kabi nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Har qanday madaniy tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir o‘tadigan joyni bezash kabi ishlar kirsa, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi. Masalan, badiiy jamoalar bilan ishlash uchun mikrofonlar, texnik jihozlarni tayyorlash kabi vazifalar shular jumlasidandir. Yoki, sahnani bezash uchun rassom ijodiy nuqtayi nazardan yondashganda ham unga aynan duradgor kerak bo‘ladiki, u sahnani bezagi uchun kerakli jihoz yoki materiallardan foydalanadi, ya’ni sahna uchun kerakli figura, shakl va boshqalarni tayyorlab beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Har bir tadbir o‘zining xususiyati jihatidan pedagogik asosga ega. Chunki pedagogika ham asosan tarbiyaviy jarayonlarni boshqaradi. Insonlarga ta’sir qilish, bola tarbiyasi, ibrat, ma’naviy ozuqa, bilimli-ilmli bo‘lish, ustozlarga, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va boshqa barcha shu kabi tushunchalarni pedagogika sohasida yanada chuqur o‘rganiladi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, madaniy tadbirlarda pedagogik mahoratni qo‘llash katta samaralarga erishishga yo‘l ochadi. Aynan pedagogik fazilatlarni madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida qo‘lash ham tadbirning salmog‘ini oshirishga xizmat qiladi. Tadbir tashkilotchisining ta’lim bilan tarbiya uyg‘unligiga erishishda uning pedagogik mahorati ham katta rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turzim sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2023-y., 06/23/114/0527-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida”gi PF-158-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06/23/158/0694-son. 12.09.2023-y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgust.
4. Bekmatov A„ Rustamova R. Milliy g‘oya targ‘iboti va madaniy-ma’rifiy tadbirlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Sayfullayev B.S., Rustamov V.K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2016.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy nashriyoti, 2006.
7. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. – Toshkent: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003.
8. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nodira Eshquvatovna Mamatqosimova**, katta o‘qituvchi. [**Надира Эшкуватовна Маматкасымова**, старший преподаватель], [**Nadira E. Mamatkasimova**, senior teacehr], manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘ochh dahasi 127 A uy. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, М.Улугбек р. Массив Ялангач, д. 127 А.], [address: Uzbekistan, Tashkent city, M.Ulugbek dst. Massiv Yalangach, 127 A]; e-mail: n.mamatkasimova@gmail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

MAQOM ASHULA YO‘LLARINING KOMPOZITSION VA LAD MASALALARI

© J.Sh. Sherimmatov[1]✉
[1]Y. Rajabiy nomidagi O‘zMMSI, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqomlar o‘zbek va tojik xalqlari musiqa merosining shox namunasi. Bugungi kunda maqomlarning amaliy, nazariy masalalarini chuqur o‘rganish, mazmun va mohiyatini anglash, turli tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega. Maqomlarning tarkibiy tuzilishi, kompozitsion shakllanishi, parda-lad unsurlarining maqom usullari bilan birgalikda o‘zaro munosabati va muayyan turkum holiga kelishidagi o‘rni maqom asarida o‘ziga xos uslubini namoyon etadi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning maqsadi maqomlarning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etish, tahlil qilish va amaliy tamoyillarini o‘rganish. SHuningdek, asosiy e’tibor maqomlarda parda-lad tuzilmalarining shakllanishi va maqom shakli qismlarining bo‘linishidagi ahamiyati maqomlar misolida tahlil qilinadi. Maqomlar, mumtoz musiqa namunalarini qay tarzda tahlil qilish usuli muammolarini aniqlashga qaratiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda maqomlarga oid ilmiy manbalar, maqolalar va shu mavzuga oid olimlarning fikrlari tahlili o‘tkaziladi. Materiallar maqomlar tarixi, maqomshunoslik, musiqa nazariyasi kabi turli sohalarga oid ilmiy ishlarni qamrab oladi. Usullar tadqiqotning asosiy mavzusi va natijalarini tasniflash, izohlash va umumiy xulosalash orqali ko‘rib chiqiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotchi olimlar maqomlarning tarixiy rivojlanishi va musiqiy-nazariy tomonini muhim deya ta’kidlashadi. Maqom turkumlarining muayyan turkumi shakllanishida ustuvor ahamiyatga egaligi qayd etiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqomlarning shakl-kompozitsion va parda-lad tuzilmalari vositasida uning musiqiy tafakkuri rivojlanishida bosh mezonga aylanishi mumkin.

XULOSA: tadqiqot xulosasiga ko‘ra, maqomlar tafakkurining asosiy mazmuni ham amaliy, ham ilmiy-nazariy jihatlarining o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. Maqomlar nazariyasida aynan parda tuzilmalari hamda kompozitsion shakllanishini o‘rganishi va to‘laqonli tadqiq etish orqali maqomlarning estetikasi va ma’naviy mazmunini anglash orqali barkamol shaxs tarbiyalash imkoniyatlari oshib boradi.

Kalit so‘zlar: maqom, maqomlar nazariyasi, parda, shakl, turkumiylik, Shashmaqom, nasr, ashula, shoxparda, xat.

Iqtibos uchun: Sherimmatov J.Sh. Maqom ashula yo‘llarining kompozitsion va lad masalalari . // Inter education & global study. 2024. №10 B.468-475.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

КОМПОЗИЦИОННЫЕ И ЛАДОВЫЕ ВОПРОСЫ ПЕСЕННЫХ РАЗДЕЛОВ МАКОМА

© Ж.Ш. Шеримматов[1]✉
[1]УзНИМИ имена Ю. Ражабии, Тошкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: макомы - образец высокого музыкального наследия узбекского и таджикского народов. На сегодняшний день актуальное значение имеет углубленное изучение практических и теоретических вопросов макомов, понимание их содержания и сущности, проведение различных исследований. Структурное построение макомов, их композиционное формирование, взаимосвязь ладовых элементов с методами макома и их роль в формировании определенного цикла демонстрируют своеобразный стиль в произведении макома.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является исследование, анализ и изучение практических принципов научно-теоретических аспектов макомов. Также основное внимание уделяется анализу формирования ладовых структур в макомах и их значения в разделении частей формы макома на примере макомов. Исследование направлено на выявление проблем методологии анализа макомов и образцов классической музыки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании анализируются научные источники, статьи и мнения ученых по данной теме. Материалы охватывают научные работы в различных областях, таких как история макомов, макомоведение, теория музыки. Методы рассматриваются путем классификации, интерпретации и обобщения основной темы и результатов исследования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: ученые-исследователи подчеркивают важность исторического развития и музыкально-теоретической стороны макомов. Отмечается, что циклы макомов имеют приоритетное значение в формировании определенного цикла. Анализ показывает, что формально-композиционные и ладово-звукорядные структуры макомов могут стать главным критерием в развитии музыкального мышления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: согласно результатам исследования, основное содержание мышления макомов проявляется во взаимосвязи как практических, так и научно-теоретических аспектов. В теории макомов возможности воспитания гармонично развитой личности возрастают благодаря осмыслению эстетики и духовного содержания макомов путем изучения и всестороннего исследования ладовых структур и композиционного формирования.

Ключевые слова: маком, теория макомов, лад, форма, цикличность, Шашмаком, наср, ашула, шахпарда, хат.

Для цитирования: Шеримматов Ж.Ш. Композиционные и ладовые вопросы песенных разделов макома. // Inter education & global study. 2024. №10. С 468-475.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

COMPOSITIONAL AND LAD QUESTIONS OF MAKAM SINGING SECTIONS

© Juratbek Sh. Sherimmatov[1]✉
[1]UzNIMA named after Y. Rajabiy, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: maqoms are the crown jewels of the musical heritage of the Uzbek and Tajik peoples. Today, it is of paramount importance to deeply study the practical and theoretical aspects of maqoms, understand their content and essence, and conduct various research on them. The structural composition of maqoms, their compositional formation, the interaction of modal elements with maqom methods, and their role in forming a specific cycle reveal a unique style in maqom works.

AIM: the purpose of this study is to research, analyze, and examine the scientific and theoretical aspects of maqoms. The main focus is on analyzing the formation of modal structures in maqoms and their significance in the division of maqom form sections, using maqoms as examples. It aims to identify issues with the methods of analyzing maqoms and classical music samples.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzes scientific sources, articles on maqams, and the opinions of scholars on this topic. The materials cover scientific works in various fields, such as the history of maqams, maqom studies, and music theory. The methods are considered by classifying, interpreting, and summarizing the main topic and results of the study.

DISCUSSIONS AND RESULTS: researchers emphasize the importance of the historical development and musical-theoretical aspect of maqams. It is noted that it is of paramount importance in the formation of a specific category of maqam cycles. Analysis shows that maqams can become the main criterion in the development of his musical thinking through form-compositional and parda-lad structures.

CONCLUSION: according to the research results, the main content of the thinking of makoms is manifested in the interconnection of both practical and scientific-theoretical aspects. In the theory of maqams, the possibilities of harmoniously developing personality are enhanced by understanding the aesthetics and spiritual content of maqams through the study and comprehensive research of poetic structures and compositional formation.

Key words: maqom, maqom theory, lad, form, cyclicity, Shashmaqom, nasr, song, shahparda, xat.

For citation: Juratbek Sh. Sherimmatov (2024) ‘Animal symbolism in fine arts’, Inter education & global study, (10), pp. 468-475. (In Uzbek).

O‘zbek maqomlari – mumtoz qadriyatlar asosida taraqqiy topgan o‘zbek musiqa merosining muayyan tizimi. Amalda bu tizim o‘zbek maqomoti deya yuritilib, Buxoro Shashmaqomi, Xorazm Olti yarim maqomi va Dutor maqomlari, Farg’ona-Toshkent maqom yo‘llari nazarda tutiladi. Maqom turkumlari butun bir tizimni tashkil qiluvchi maqomlar majmuyi hisoblanadi. Uning umumiy tuzilishi, amaliy asoslari musiqa ahliga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ma’lumdir. Biroq, ayrim ochilmagan qirralari, xususan, nazariyasiga oid muhim qonuniyatlari keng ilmiy tadqiqotlarni talab etmoqda.

Zamonaviy musiqashunoslikka ko‘ra XX-XXI asrlarda O‘zbekiston va Tojikistonda nashr etilgan ko‘plab ilmiy manbalarda maqom turkumlarining tarkibiy tuzilishi va o‘ziga xos jihatlari, xususan, nazariy va amaliy tomonlari tadqiq qilinadi. Bu tadqiqotlarda maqomlarning ma’no-mazmuni va ichki tuzilishiga doir tushunchalar izohlanadi. Lad masalalari bilan bir qatorda shakl va uning tarkib topishi, muayyan tarkibiy qismlarga bo‘linishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Musiqiy shakllarni tahlil qilishda mazkur maqolaning metodologik asosi sifatida biz turli maqom asarlarining qiyosiy tahlili qilinadi. Mazkur usul murakkabliklarga ega o‘rganish jarayoni hisoblanib, asosiy e’tiborni mavzu shakllanishidagi o‘zaro o‘xshashlik holatlariga, beqaror kompozitsion ko‘rinishlarga, tuzilishi va shaklning uzunlik tuzilishlariga yo‘naltiriladi.

Muayyan musiqiy shakldagi kabi maqomda ham bo‘linish omili – tsezuradir. Maqom kuylaridagi sezura umumiy va maxsus sifatdagi belgilarga ega. Sezuraning umumiy xususiyatlariga melodik fikrning tayanchda, ayni vaqtda tonikada yakunlanishini keltirish mumkin. Bundan tashqari, tonika uzun (yirik) cho‘zimlarda ifodalanishi va vaqt davomiyligining shunaqa uzun ko‘rinishda sadolanishi ham muhim belgidir. Maqomda muayyan tovush – tugallanuvchi tayanch cho‘zimining yiriklashishi, uning ko‘p marotaba takrorlanishi orqali ham ifodalanadi. Muayyan tovushning mazkur aniq takrori, asosan tanburning tovush sadolanishi harakat tarzi uchun xos bo‘lib, harakatning aynan o‘sha tovushda to‘xtashi va ma’lum vaqt davomidagi uning cho‘zimlik masofasiga ko‘ra belgilanadi. Maqom kuyining melodik harakati davomida tayanch tovushi tez-tez yuzaga kelishi mumkin, chunki turli bo‘linishlar orqali lad qonuniyatlarini ifoda qilinishi uchun xos xususiyat hisoblanadi. Shakl tarkib topishi jarayonida har qanday tayanchlar, asl lad-melodik majmua, tonikaga notayanch tovushlarning tortilishi (opevanie) bilan bog’liqligini qayd etish kerak. Mazkur lado-melodik majmua o‘ziga xos shakllangan melodik xotima (dumcha, kadans) va o‘z turining to‘liq mukammal xotimasini namoyon etadi. SHaklning kompozitsion bo‘linishiga, ya’ni melodik xotimasiga misol tariqasida Saraxbori Buzruk sho‘’basidan quyidagi xotimali formulani keltiramiz:



Quyidagi misol esa Talqini Uzzol sho‘’basidagi xotimaning yana bir ko‘rinishi:



Mazkur parchalarda musiqiy harakatning boshi va oxirida aynan asosiy tayanch tovushi keltiriladi. Birinchi misolda pastki yordamchi notayanch tovushlar orqali tayanch

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

mustahkamlansa, keyingi misolda esa yuqorgi tovushlardan pog'onama-pog'ona tushish orqali xotima (kadentsiya) ko'rsatiladi.

Maqomlarda melodik rivojlanish odatda har xil doiralarning takrorlanishi va ladning nisbatan tayanch tovushlari orqali shakllanishib borishi bilan o'ziga xos. Mazkur musiqiy doiralarni tuzilma yoki xat deya nomlash o'rinli, fikrimizcha. Aynan shunday nomlash orqali melodik davriyaga muvofiq mazmuni kelib chiqadi. Ya'ni, "Periodos" (yunon.) asl ma'nosi "aylanish", "doira" bo'lib, maqom tuzilmasi yoki xati aynan mazkur tushunchaga mos keladi.

Shakl – muayyan intonatsion fikrni ifodalaydi. U bevosita mazkur fikrning mujassam etilishi va shunga binoan doimo aniq ko'rinishda yuzaga keladi. Biroq, maqom tuzilmasi shaklining har bir shunaqa aniq tartibda tarkib topishida musiqiy tuzilmaning ma'lum xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, maqom tuzilmasining doimo bir xil tugashi orqali uning aniq xotimali musiqiy tuzilmasi namoyon bo'ladi. Ushbu musiqiy harakatni tahlil qilish orqali, biz maqom tuzilmasiga nisbatan tugallangan musiqiy fikr xususiyati tashkil topadi.

Quyida Saraxbori Buzrukning Daromad qismi:



Ko'rib turganimizdek, Saraxbori Buzrukning kirishi Daromad qismi bo'lib, u ma'lum ma'noda birinchi xat (davriya) hisoblanadi. Ushbu qism ikkita yarim xatdan tarkib topgan. Tuzilma asosiy bosh tayanch pardasidan boshlanib, d^1 tovushi shoxparda sifatida tasdiqlanadi. Buzruk maqomining muhim intonatsion ohangi d-e-d-g – kvartaga sakrash (yarim tonlik ishlatilmagan) sifatida belgilanadi. Ayniqsa, ikkita melodik tuzilmada d - g tovushlari tayanch sifatida keltirilgan. Ikki nimxatdan keyin keladigan Zamzamaning oxirida kelgan xotimali tuzilma mazkur ekspozitsion qism tugallanganligiga ishora hisoblanadi.

Bundan tashqari, zamzamada maqom sho'basida qatnashuvchi tayanchlar melodik intonatsialash orqali ifodalanib, asosiy tayanchi d^1 alohida xotima orqali mustahkamlanganligi e'tiborni o'ziga tortadi. Mazkur xotima asarning boshqa joylarida ham bir xil ko'rinishda uchraydi. Mazkur belgilarga binoan, Daromad qismini musiqiy-intonatsion mavzui va xususiyatlari nuqtai nazaridan Sarahbori Buzrukning bosh lad tuzilmasi ekanligining guvohi bo'lamiz.

Ta'kidlash kerakki, Sarahborlarda zamzama va xanglarning o'rni katta bo'lib, ular ham tarkibiy qismga bog'lanib keladi hamda ularning ohangini mustahkamlaydi va tarkibiy qismning tugallanganini ko'rsatadi. Xususan, zamzamaning oxirida keluvchi xotima ((kadans) maqomlar amaliyotida "dumcha" deya yuritiladi) tarkibiy qismning tugallanganini belgilab beradi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

O‘zgaruvchanlik yoki vaqtinchalik melodik harakatlarga tayanish xususiyatlariga ega tuzilmaga misol tariqasida, Nasrulloiyning birinchi tarkibiy qismini keltiramiz:



Mazkur qism ikki tuzilmadan tarkib topgan bo‘lib, umumiy tovushqatori c^1- a^1 diapazonida. Tuzilmaning qaror pardasi - c^1 bo‘lib, birinchi tuzilma aynan c^1 tovushida boshlanadi va vaqtinchalik tayanch sifatida keyinchalik d^1 tovushi ko‘rsatiladi. Ikkinchi tuzilmada ham qisman vaqtinchalik tayanch sifatida d^1 tovushi kelgan, biroq oxirgi ikki takt asosiy tayanch tovushiga olib kelgan. SHunga e’tiboran, Nasrulloi sho‘‘basining boshqa qismlarida ham ikki asosiy tayanch o‘zgaruvchanligining guvohi bo‘lamiz.

Maqom kuyidagi asosiy intonatsion rivojlanish va kompozitsion bo‘linishi quyidagilardan iborat:

1. Kirish (ekspozitsion) qismlariga xos bo‘lgan bayon turlari:
- lad tayanchini ko‘rsatish;
- doimiy ravishda lad tayanchiga qaytish yo‘li bilan uni mustahkamlash;
- kuy mavzuiy o‘zagini aniqlash.

2. o‘rta qismlarda ko‘p uchraydigan bayon turlarining o‘ziga xos belgilari:
- yuqoriga intilgan kuy harakatlari;
- tovush diapazonining kengayishi;
- “mavzu”ning bo‘linishi va sekventsiyali yo‘l bilan asosiy tayanchdan yuqorida joylashgan vaqtinchalik tayanchlarning joriy qilinishi;
- lad tayanchlarini muntazam ravishda almashinib borilishini ta’minlash;
- dastlabki kuy tuzilmasini kvarta, kvinta, oktava va ba’zan tertsiya balandligiga (masalan, Navo maqomida) ko‘chirish (transpozitsiya qilish);
- aynan transpozitsiya (ko‘chirish) yo‘li bilan umumiy tovushqator diapazonida yangi tayanch pardalarning tarkib topishi.

3. yakunlovchi qismlarga xos bo‘lgan xotimali bayon turlari:
- yuqoridan pastga yo‘naltirilgan kuy harakatlarining ustivorligi;
- ohanglarda yakunlovchi sifatlarlarning yuzaga kelishi;
- aqsosiy tayanch pardaga qaytish va unda qaror topishi;
- funktsiyalarning shartli belgilanishi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Maqom shaklining tuzilishini aniqlashimizda mazkur bayon qilish turlari bizga qo‘l keladi[1].

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, maqom tuzilishi jihatidan murakkab asar bo‘lib, lad pardalarining shakl strukturasiga ta’siri juda katta. Ya’ni, shakl qismlarining ajratilishi ham lad tayanch pardalariga bo‘ysunadi. SHunga ko‘ra, daromad, miyonxat, avj va furovard kabi kichik tulizmalarni aniqlash mumkin.

Shashmaqom turkumida 6 ta lad asos qilib olingan bo‘lsa, uning tarkibida kichik lad tuzilmalari mushtarak holatda birlashib ketgan. Ustoz san’atkor va bastakorlarning mahoratiga ko‘ra ularning bir nechta yo‘llari, variantlari yuzaga keldi. Xususan, parda-lad, usul, maqom cholg’u va ashula yo‘llari, turli janrli navlari shakllandi. O‘zbek musiqasining bir mahalliy uslubini Xorazm maqomlari, dutor maqomlari, surnay maqomlari va xalq orasida keng tarqalgan turli maqom namunalari orqali tasavvur qilish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ражабов. И. Мақомлар. Т., 2006
2. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Т., 2014
3. Матякубов О. Хоразм Дутор мақомлари ва Олти ярим мақоми. -Т., 2018
4. Шеримматов Ж.Ш. Свойства компонентов в структуре ветвей узбекских макомов //Проблемы современной науки и образования. – №. 9 (154). 2020. – С. 69–71.
5. Shukhratovich S. J. Study of the Theoretical Foundations of Uzbek Maqom // JournalNX. – С. 481-485.
6. Шеримматов Ж. Ш. Ўзбек мақомларида лад тузилмаларининг композицион роли //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. №. 3. – С. 640-645.
7. Шеримматов Ж. Ш. Ўрта асрлар мусиқий рисолаларида мақомлар назарияси //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 688-692.
8. Шеримматов Ж. Ш. Искусство суворы в музыкальной культуре хорезма // Проблемы современной науки и образования. 2022. №. 5 (174). – С. 100-104.
9. Шеримматов Ж. Хоразм мумтоз мусиқа санъати тарихидан //Journal of Culture and Art. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 177-182.
10. Бердиханова Ш. Н. Традиция дастанного исполнительства в Каракалпакстане //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 869-876.
11. Бердиханова Ш. Н. О ПОЭТИЧЕСКОЙ ОСНОВЕ ДАСТАНОВ //European Journal of Arts. – 2023. – №. 1. – С. 46-51.
12. Abdusamatova G., Yunusov R. “Tohir va Zuhra” musiqali dramasining o‘tmishi va buguni //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 8-15.
13. Xaydarov X. S. “Kabus-name” as an example of a classical education system //European Journal of Arts. – 2024. – №. 1. – С. 3-5.

[1] Mazkur ko’rsatmalar Yu.N. Xolopovning qator ishlarida beriladi va ularga asoslangan holda tuzib chiqilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

14. Хайдаров Х. С. Развитие традиционной музыки Узбекистана в 20-е годы XX века //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-1 (145). – С. 102-104.
15. Abdusamatova G. A. SHARQ XALQLARI DOSTONCHILIGIDA “TOHIR VA ZUHRA” SYUJETI //Oriental Art and Culture. 2024. – Т. 5. №. 4. – С. 21-28

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jur’atbek Sherimmatov Shuxratovich,** “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi, [**Jur’atbek Sherimmatov Shuxratovich,** prepodavatelь kafedrы «Istorii i teorii uzbekskogo makoma»], [**Juratbek Sh. Sherimmatov**, teacher of the Department of history and theory of uzbek maqoms]; E-mail: sherimmatov17@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

JAHON MUSIQA TA'LIM TIZIMI METODIKASINING AHAMIYATI

© D.A. Kavilova[1]✉

[1]O`zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqola jahon musiqa ta'lim tizimining respublikamiz standartlariga mosligi va dolzarbligiga bag`ishlanadi. Jahon musiqa ta'lim tizimi metodikasi, tizimi va nazariyalarining ahamiyati haqida so`z yuritilgan. Bir qator olimlar tomonidan o`rganilgan tadqiqotlar natijasiga ko`ra, musiqaning va ladlarning inson organizmiga, psixikasiga ta'siri, san'atning vazifalari bayon etilgan.

MAQSAD: talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida soha mutaxassisligidan kelib chiqqan holda mukammal tarzda ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: jahonda ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida impressionizm, neoklassisizm davrlarining nazariy me'rosini o`rganish, talabalarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, insonni yuksaklikka ko`tarishga xizmat qiluvchi musiqiy asarlarni yaratish va badiiy maxorat bilan ijro etish bo`yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dj. Kervenning "Tonik-sol-fa", "Relyativ" tizimi, J.Jak-Dalkrozning "Musiqali ijod" nazariyasi, R.Myunnixning "YAlsi" nazariyasi bo`yicha o`qitishda talabalarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini san'atni ijodiy aks ettirish asosida ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda [1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ta'lim jarayonida darsliklar, o`quv qo`llanmalar, o`quv-metodik qo`llanmalar, pedagogik texnologiyalar, o`quv-uslubiy ishlanmalar, tarqatma materiallardan foydalanib kelinmoqda. Ammo, faqatgina shular bilan chegaralanib qolmasdan, ta'lim berishning yangi uslub va usullarini ishlab chiqish, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Zamonaviy texnologiyalar pedagogning ishini yengillashtiribgina qolmay, ta'lim sifatini ham oshiradi. Dars jarayoni didaktik o`yinlardan foydalangan holda tashkil etilsa, talabalarning shu fanni o`zlashtirishlari bir muncha oson kechadi.

XULOSA: har bir fan ma'lum talablar asosida, darsliklar, qo`llanmalar, o`quv adabiyotlar, to`plamlar va sohaga oid bir qancha adabiyotlarni o`zlashtirish bilan birga, ularning bir-biriga o`zaro bog`liqligi, ularning hayotda tatbiq etilishi o`rganiladi. Talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda o`quv rejaga kiritilgan har bir fanni mukammal o`rganib, ko`nikma hosil qilgan holda ijodiy yondashmoq zarur.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, tizim, metodika, nazariya, musiqiy tarbiya, ijodiy qobiliyat, lad, pedagogik texnologiya, jarayon, mutaxassislik.

Iqtibos uchun: Kavilova D.A. Jahon musiqa ta'lim tizimi metodikasining ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №10 B.476-481.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ МИРОВОЙ СИСТЕМЫ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© Д.А. Кавилова[1]✉
[1]Государственный институт искусств и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данная статья посвящена соответствию и актуальности мировой системы музыкального образования стандартам нашей республики. В ней говорится о важности методики, системы и теорий мировой системы музыкального образования. По результатам исследований, проведенных рядом ученых, было сформулировано влияние музыки и ладов на организм человека, психику, задачи искусства. Приведены выводы и предложения о положительных сторонах новой сферы музыки на сегодняшней функциональной музыке.

ЦЕЛЬ: состоит в совершенствовании музыкально-творческих способностей учащихся в процессе их развития на основе отраслевой специализации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в учебных и научно-исследовательских учреждениях мира ведутся научные исследования по изучению теоретического наследия эпох импрессионизма, неоклассицизма, развитию музыкально-творческих способностей учащихся, созданию и художественному исполнительству музыкальных произведений, служащих возвышению человека. Dj."Тоник-соль-фа" Кервена," релятивистская " система, Дж.Теория "музыкального творчества " Жака-Далькроза, р.В преподавании теории мюнхенского "Ялси" особое внимание уделяется научным исследованиям, основанным на творческом отражении музыкально-творческих способностей учащихся в искусстве [1].

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в образовательном процессе используются учебники, учебные пособия, учебно-методические пособия, педагогические технологии, учебно-методические разработки, раздаточные материалы. Но, не ограничиваясь этим, необходимо развивать новые методы и методы обучения, использовать новые современные педагогические технологии. Современные технологии не только облегчают работу педагога, но и повышают качество образования. Когда процесс урока организован с использованием дидактических игр, освоение этого предмета учащимися происходит несколько легче.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: каждая дисциплина изучается на основе определенных требований, наряду с освоением учебников, пособий, учебной литературы, сборников и ряда отраслевой литературы, их взаимосвязи друг с другом, их применения в жизни. К развитию музыкально-творческих способностей у учащихся необходимо подходить творчески, отлично изучая каждый предмет, входящий в учебный план, и формируя умения и навыки.

Ключевые слова: узыкальное образование, система, методика, теория, музыкальное воспитание, творческие способности, лад, педагогическая технология, процесс, специальность.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Для цитирования: Кавилова Д.А. Значение методологии мировой системы музыкального образования. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 476-481.

THE IMPORTANCE OF THE METHODOLOGY OF THE WORLD MUSIC EDUCATION SYSTEM

© Dilyorakhan A. Kavilova[1] ✉
[1]Uzbekistan State institute of arts and culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article is devoted to the compliance and relevance of the world music education system to the standards of our republic. It talks about the importance of the methodology, system and theory of the world music education system. According to the results of research conducted by a number of scientists, the influence of music and frets on the human body, the psyche, and the tasks of art has been formulated. The conclusions and suggestions on the positive aspects of a new field of music for today functional music are presented.

AIM: is to improve the musical and creative abilities of students in the process of their development on the basis of industry specialization.

MATERIALS AND METHODS: scientific research is conducted in educational and research institutions around the world to study the theoretical heritage of the epochs of Impressionism, neoclassicism, the development of musical and creative abilities of students, the creation and artistic performance of musical works serving the elevation of man. Dj."Tonic-sol-fa" by Kerven, ”relativistic" system, J.The theory of “musical creativity" by Jacques-Dalcroze, R. In teaching the theory of the Munich Yalsi, special attention is paid to scientific research based on the creative reflection of musical and creative abilities of students in art [1].

DISCUSSION AND RESULTS: textbooks, teaching aids, teaching aids, pedagogical technologies, educational and methodological developments, handouts are used in the educational process. But, not limited to this, it is necessary to develop new teaching methods and methods, to use new modern pedagogical technologies. Modern technologies not only facilitate the work of a teacher, but also improve the quality of education. When the lesson process is organized using didactic games, the mastering of this subject by students is somewhat easier.

CONCLUSION: each discipline is studied on the basis of certain requirements, along with the development of textbooks, manuals, educational literature, collections and a number of industry literature, their interrelation with each other, their application in life. It is necessary to approach the development of musical and creative abilities of students creatively, perfectly studying every subject included in the curriculum, and forming skills and abilities.

Key words: musical education, system, methodology, theory, creativity, mood, pedagogical technology, process, specialization.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

For citation: Dilyorakhan A. Kavilova. (2024) 'The importance of the methodology of the world music education system', Inter education & global study, (10), pp. 476-481. (In Uzbek).

Jahon musiqa ta'lim tizimida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yosh avlodga musiqiy tarbiya berishning kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. Jumladan, Fransiya musiqa ta'lim tizimida "Marteno" metodi, Vengriyada "Tonik-sol-fa" metodi, Italiyada "Educazione musicale" metodlarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish, Zamonaviy musiqa xalqaro jamiyati – ISSM (International Society for Contemporary Music) Xalqaro tashkiloti musiqaning barcha yo`nalishlari bo`yicha tajriba almashish, kompozitorlar, amaliyotchi-pedagoglar, musiqa sohasi mutaxassislari yangi asarlarini taqdim etish, musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etish bo`yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yunon faylasufi Platon: "Davlatning kuch-qudrati – unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to`g`ridan-to`g`ri bog`liqdir", - deb hisoblagan. Platon va uning izdoshlari: "Davlat uchun insonni yuksaklikka ko`tarishga yordam beruvchi musiqa kerak", deb hisoblaganlar. Qadimgi Xitoyda musiqa – tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan, u tarbiyaning eng muhim vositasidir [2].

Aristotel o`zining "Poetika" asarida badiiy ijodning me'yoriy qonunlarini falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Aristotel san'atning borliqdagi imkoniyatini faol, ijodiy, yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashda ko`radi. Uning fikricha, "San'atning vazifasi voqe'likni mexanistik tarzda qayta tiklamay, balki uni ijodiy aks ettirishdan iborat" [3]; Aristotel psixikani o`zgartiruvchi musiqiy ladlar to`g`risida shunday mulohaza bildirgan: "Bir laddagi musiqa kishini muloyim va rahmdil qilib qo`yadi, boshqa biri esa, hayajonlanish va asabiylashishga olib kelishi mumkin". Uning fikricha, frigiy, doriy, lidiy ladlaridagi ohang kishining sog`lig`i va ruhi uchun ijobiy ta'sir qiladi, boshqa ladlardagi musiqani esa, yosh avlodning qulog`iga yetkazmaslikni ta'minlashni tavsiya qilgan. Insonning go`zallik tuyg`usini rivojlantirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo`lmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg`ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Musiqani qalbi go`zallikka oshno insonlargina sevadi, anglaydi. Musiqa tinglash, uni idrok etish bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi [4].

Bugungi kunda musiqaning yangi sohasi funksional musiqa orqali musiqaning kishi psixikasi va fiziologiyasiga ta'sirini o`rganilishi buning boisidir. "Musiqa ta'limi" yo`nalishi fanlari o`zining aralash dars tipi (tuzilmasiga ega), ifoda vositasi (tili) va aktiv psixologik ta'siri bilan farq qiladi. Demak, musiqa ta'limi talabalarning shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o`ynaydi. L.Burboning "Emosii, chuvstva i proshenie" kitobida "Ijodiy qobiliyat insonlarga kerakli bo`lgan qandaydir yangilikni ochish yoki yaratish demakdir. Ilohiy ne'mat esa qobiliyat, iste'dod, daholikni tasodifan yuzaga keltiruvchi transsendental hodisa, ilohiy ne'mat, ya'ni bu – "Xudo bergan" tuhfadir, - deb ta'riflanadi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

[5]; S.L. Frank “Har qanday inson u yoki bu darajada yaratuvchidir. Borliqning har qaerida ijod mavjud. Agar u insonning ichki muhitidan kelib chiqsa, har qanday hunarmand muhabbat va did bilan ishlaydigan bo`ladi, ishga o`z shaxsini qo`shayotgan ma’noda ilhomlanib yangi ijod namunalarini yaratadi [6]; V.A. Engelgardtning fikricha, “Ijod... – san’atning mohiyati. U xuddi shu darajada fanning ham mohiyati hisoblanadi. Har ikki holatda ham insonning yaratish, ya’ni o`zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot xuddi san’at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o`zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi” [7]; ye.YA. Basin “Tvorchestvo i empatiya” nomli maqolasida “Ilmiy ijod shaxsning muhim belgisi – rasional ko`rish va faoliyatining namoyon bo`lish shaklidir. Bu shunchaki hissiy qabul qilish yoki intellektual faoliyat emas, balki dunyoni shunday ko`rishki, unda hissiyotlar, aql, tuyg`ular uzviy jihatdan uyg`unlashgan tarzda aks etadi”, - degan fikrni bildirgan [8]; N.A. Berdyaevning ta’kidlashicha, ijodning asosiy xususiyati – erkinlikdan iborat. Uning falsafasidagi o`ziga xoslik eng avvalo, u ijodga borliqni emas, erkinlikni asos qilib olgan. Inson ijod qilishga ilohiy kuch yordamida jalb etiladi. Ijod qilish esa, uning insoniy burchi, insonning yerga yuborilishidagi vazifasidir [9]; S.I. Bugrova “Ilmiy ijod insonning bevosita hayotiy faoliyati bilan bog`liq bo`lib, unga ko`proq ob’ektivlik va tizimlilik xosdir”, - deya ta’kidlagan [10]; “Ijod bu – hayot mazmuni va haqiqatini izlash haqidagi o`y”, - deydi I.N.Efimova [11].

Har bir pedagog o`z darsining ijodkori bo`lishi lozim. Bir asarni tahlil etish jarayonida talabaning imkoniyatini, o`zlashtirish holatini hisobga olib individual yondashish lozim. Talaba dars jarayonida berilgan asarni aqlan tushunib yetsagina u mustaqil ta’lim jarayonida o`z ustida ishlashi va buning natijasida o`z salohiyatini oshirib, rivojlantirib borishi mumkin. Hozirda mamlakatimizda fan va ta’lim sohasida chuqur islohotlar olib borilmoqda. Ushbu imkoniyatlardan samarali va unumli foydalanib, sohaning yetuk mutaxassislari bo`lib yetishmog`imiz zarur. O`rnatilgan tartibda tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadkikot ishlarini olib borishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ta’lim jarayonini mukammallashtirish, tadqiqot ishi doirasida yangi ishlab chiqilgan metodlar yaxshi samara beradi. Talabalar o`zlarining musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini namoyon eta olishlari, o`z ustida ishlay olishlari va faoliyatlari davomida ijodiy izlanishlar olib borishlari darkordir. Talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega omillardan hisoblanadi. Ta’kidlab o`tilganidek, talabalarning kelajakdagi pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy-boshqaruv faoliyatida ularning musiqiy-ijodiy qobiliyati muhim rol o`ynaydi. Har bir mutaxassisni shakllantirishda ularga alohida yondashuv zarur hamda ixtisoslik fanlar yakka tartibda o`tkazilishi va dars soatlari hajmini ko`paytirish maqsadga muvofiq bo`lar edi. Har bir ixtisoslik fani o`zining muayyan maqsad va vazifalariga ega.

Mutaxassislik fanlarini guruhli dars sifatida o`tkazish yetuk kadr tayyorlashda va malaka talablarini to`liq bajarishda sifat darajasini pasaytiradi. Aksariyat ota-onalar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

farzandini ma'lum bir fandan yaxshiroq o`zlashtirishi uchun repetitor mashg`ulotiga olib borishadi. Bunga sabab nima? Sababi – bola yakka mashg`ulotlarda guruhli darslardan farqli o`laroq o`z fikrini erkin va mustaqil bayon etadi, pedagog bilan muloqot jarayonida ham berilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondoshadi va miyaning ishlash jarayoni faollashadi. Buning natijasida bolaning ko`nikma hosil qilishi tezlashadi va rivojlanadi. Demak, bo`lajak mutaxassislarga ixtisoslik fanlarini o`zlashtirish jarayoni yakka tarzda o`tkazilishi har tomonlama samarali va maqsadga muvofiq usul sanaladi.

Talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida soha mutaxassisligidan kelib chiqqan holda mukammal tarzda ishlab chiqish lozim: talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ta'lim jarayonini mukammallashtirish, jahon musiqa ta'lim tizimi metodikasidan foydalangan holda yangi ishlab chiqilgan metodlar yaxshi samara beradi; musiqa ta'lim tizimi metodikasi jahon standartlariga mos, uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бахритдинова Н. Ўзбекистон болалар хор маданияти. -Т., 2002. – Б.8.
2. Қодиров Р.Г. "Мусиқа педагогикаси". Т.2014. –Б.13.
3. Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т. 4. - М.: Мысль, 1983. С. 376-381.
4. Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т. 4. - М.: Мысль, 1983. С. 641-644.
5. Бурбо Л. Эмоции, чувства и прощение. – М.: ИД «София», 2007. – С.144.
6. Франк С.Л. Реальность и человек. Мыслители XX века. –М.: Республика, 1997. – С.294.
7. Энгельгардт В.А. Познание явлений жизни. (Сер. Наука, мировозрение, жизнь) – Москва: Азбука-классика, 2009. – С.210.
8. Басин Е.Я. Творчество и эмпатия. 1987/2, С.54.
9. Бердяев Н.А. Самопознание. – М.: Книга, 1991. – С. 56-57.
10. Бугрова С.И. Л.Н.Столович. Жизнь - творчество - человек: функции художественной деятельности. – М.: Политиздат, 1985 (1987, 5,). – С.172.
11. Шермухамедова Н. Илмий тадқиқот методологияси. Т.2020. –Б.114.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kavilova Dilyoraxon Abdujabbor qizi**, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD), "Vokal" kafedrasi o`qituvchisi [**Кавилова Дилярахон Абдужаббор кизи,** доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Преподаватель кафедры "Вокал"], [**Dilyoraxon A. Kavilova** , Doctor of Philosophy (PhD) on pedagogical sciences, Lecturer of the Vocal Department]; manzil: O'zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'ochh dahasi 127 A uy. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, М.Улугбек р. Массив Ялангач, д. 127 А.], [address: Uzbekistan, Tashkent city, M.Ulugbek dst. Massiv Yalangach, 127 A]; e-mail: dilyorakavilova@gmail.com.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

Original paper

NATIONAL TELEVISION SERIES OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS

© Eleonora G. Rinatovna[1]✉

[1]Institute of Art and Culture of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan.

Annotatsiya

INTRODUCTION: this article is devoted to the study of the development of television series in Uzbekistan. It examines the history of the emergence of the first private television series, starting with the television series “Kingdom of Demons” (“Shaytanat”), released in 1997, and their evolution to modern projects.

The author analyzes a number of significant television series, including “The whole world is not enough” (“Bir kam dunyo”), “This Life”, “I am Jalaliddin”, “Hunter of fortune” and “Save me”. Particular attention is paid to the storylines, acting, direction and social themes addressed in these projects.

The text also discusses the problems and disadvantages of modern private television series, such as the excessive use of family themes and formulaic plots. At the same time, there are positive trends and successful projects demonstrating an increase in quality and diversity in the industry.

AIM: the article aims to highlight the development, achievements, problems and prospects of private TV series production in Uzbekistan.

MATERIALS AND METHODS: the research methodology consists of complex analysis, content analysis, comparative analysis, empirical research methods, etc.

DISCUSSION AND RESULTS: the development of private television series in Uzbekistan has undergone a long and complex journey since the appearance of the first private series "Shaytanat" in 1997. During this time, the industry has experienced periods of rise and decline, facing various challenges and difficulties.

An analysis of several significant television series, such as "Bir Kam Dunya," "Bu Hayot," "Mendirman Jaloliddin," "Bakht Ovchisi," and "Meni Asra," shows that private television series in Uzbekistan are gradually developing, exploring new genres and themes. However, the industry still faces certain difficulties, including the excessive use of family and domestic themes and stereotypical plots.

Despite this, there are also positive trends. Projects addressing important social issues are emerging, and the quality of directing and acting is improving. It is especially worth noting the attempts to create historical series and projects oriented toward a female audience. It is important to emphasize that private television series play a significant role in modern Uzbek culture, reflecting current societal issues and shaping public opinion. At

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

the same time, they serve as a platform for the development of local talent in the film and television industry.

CONCLUSION: overall, the private television series industry in Uzbekistan demonstrates potential for further growth and development. Key success factors in the future may include increasing thematic diversity, improving the quality of scripts, and investing in technical equipment and specialist training. With proper attention to these aspects, Uzbek private television series have every chance to reach a new level of quality and popularity, both within the country and beyond its borders.

Key words: television series, national television series, themes, social problems, directing, acting, plot, development of television in Uzbekistan.

Iqtibos uchun: Eleonora G. Rinatovna**.** National television series of Uzbekistan: achievements and shortcomings. // Inter education & global study. 2024. №10 B.482-492.

O‘ZBEKISTON MILLIY TELESERIALI: YUTUQ VA KAMCHILIKLAR

© E.R. Ganiyeva[1]✉
[1]O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O’zbekiston

Аннотация

KIRISH: ushbu maqola O‘zbekistonda teleseriallari rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda 1997-yilda ekranlarga chiqqan “Shaytanat” teleserialidan boshlab birinchi xususiy teleseriallarning paydo bo‘lish tarixi va ularning zamonaviy loyihalarga o‘tishi ko‘rib chiqiladi.

Muallif “Bir kam dunyo”, “Bu hayot”, “Mendirman Jaloliddin”, “Baxt ovchisi”, “Meni asra” kabi qator ahamiyatli teleseriallarni tahlil qilgan. Bu loyihalarda syujetlar, aktyorlik mahorati, rejissyorlik va ijtimoiy mavzularga alohida e’tibor qaratilgan.

Matnda, shuningdek, zamonaviy xususiy teleseriallarning muammo va kamchiliklari, xususan, oilaviy mavzular va formulali syujetlardan haddan tashqari ko‘p foydalanish kabilar haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, sohada sifat va xilma-xillik ortib borayotganini ko'rsatuvchi ijobiy tendentsiyalar va muvaffaqiyatli loyihalar mavjud.

MAQSAD: maqolada O‘zbekistonda xususiy teleseriallar ishlab chiqarishning rivojlanishi, erishilgan yutuqlari, muammolari va istiqbollarini yoritib berish maqsad qilib olingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotning usullari kompleks tahlil, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, empirik tadqiqot usullari kabilarni tashkil etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: O‘zbekistonda xususiy teleseriallar rivoji 1997-yilda birinchi xususiy “Shaytanat” seriali paydo bo‘lganidan beri uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi.Bu davrda soha yuksalish va pasayish davrlarini boshidan kechirdi, turli sinov va qiyinchiliklarga duch keldi. “Bir kam dunyo”, “Bu hayot”, “Mendirman Jaloliddin”, “Baxt ovchisi”, “Meni asra” kabi bir qancha muhim teleseriallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xususiy teleseriallar bosqichma-bosqich rivojlanib, yangi teleseriallar izlanmoqda. janrlar va mavzular. Biroq, sanoat hali ham muayyan qiyinchiliklarga duch

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

kelmoqda, jumladan, oilaviy va maishiy mavzular va stereotipik syujetlardan ortiqcha foydalanish.

Shunga qaramay, ijobiy tendentsiyalar ham mavjud. Muhim ijtimoiy masalalarni hal qiluvchi loyihalar paydo bo‘lib, rejissyorlik va aktyorlik mahorati yaxshilanmoqda. Ayniqsa, ayol tomoshabinga qaratilgan tarixiy seriallar va loyihalar yaratishga urinishlarni alohida ta'kidlash joiz. Ta’kidlash joizki, xususiy teleseriallar zamonaviy o‘zbek madaniyatida dolzarb ijtimoiy muammolarni o‘zida aks ettiruvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ular kino va televidenie sohasida mahalliy iste'dodlarni rivojlantirish uchun platforma bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA: umuman olganda, O'zbekistonda xususiy teleseriallar sanoati yanada o'sish va rivojlanish salohiyatini namoyish etadi. Kelajakdagi muvaffaqiyatning asosiy omillari mavzu xilma-xilligini oshirish, skriptlar sifatini yaxshilash, texnik jihozlar va mutaxassislarni tayyorlashga sarmoya kiritishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu jihatlarga munosib e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa, o‘zbek xususiy teleseriallari ham mamlakat ichida, ham uning tashqarisida yangi sifat va mashhurlik darajasiga ko‘tarilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Kalit so'zlar: tijorat teleseriallari, milliy teleseriallar, mavzular, ijtimoiy muammolar, rejissyorlik, aktyorlik mahorati, syujet, O'zbekistonda televideniya rivojlanishi.

For citation: Ganiyeva E.R. O‘zbekiston milliy teleseriali: yutuq va kamchiliklar. // Inter education & global study. 2024. №10. С. 482-492.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТЕЛЕСЕРИАЛЫ УЗБЕКИСТАНА: ДОСТИЖЕНИЯ И НЕДОСТАТКИ

© Э.Р. Ганиева[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусства и культуры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: настоящая статья посвящена исследованию развития коммерческих телесериалов в Узбекистане. В ней рассматривается история возникновения первых частных телесериалов, начиная с телевизионного сериала "Шайтанат", вышедшего в 1997 году, и их эволюция до современных проектов.

Автор анализирует ряд значимых телесериалов, включая "Бир кам дунё", "Журналист", "Бу ҳаёт", "Мендирман Жалолиддин", "Бахт овчиси" и "Мени асра". Особое внимание уделяется сюжетным линиям, актерской игре, режиссуре и социальным темам, затрагиваемым в этих проектах.

В тексте также обсуждаются проблемы и недостатки современных частных телесериалов, такие как чрезмерное использование семейно-бытовой тематики и шаблонных сюжетов. Вместе с тем отмечаются положительные тенденции и успешные проекты, демонстрирующие рост качества и разнообразия в индустрии. Исследование дает комплексное представление о развитии частного

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

телесериального производства в Узбекистане, его достижениях, проблемах и перспективах.

ЦЕЛЬ: целью статьи является освещение развития, достижений, проблем и перспектив частного телесериалов в Узбекистане.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: методологию исследования составляют комплексный анализ, контент-анализ, сравнительный анализ, эмпирические методы исследования и т.д.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: развитие частного телесериала в Узбекистане прошло долгий и сложный путь с момента появления первого частного сериала «Шайтанат» в 1997 году. За это время индустрия переживала периоды подъема и упадка, сталкиваясь с различными проблемами и трудностями.

Анализ ряда значимых телесериалов, таких как «Бир Кам Дунё», «Бу Хаёт», «Мендирман Джалолиддин», «Бахт Овчиси», «Мени Асра», показывает, что частные телесериалы в Узбекистане постепенно развиваются, осваивают новые жанры и темы. Однако индустрия по-прежнему сталкивается с определенными трудностями, в том числе с чрезмерным использованием семейно-бытовой тематики и стереотипных сюжетов. Несмотря на это, есть и положительные тенденции. Появляются проекты, затрагивающие важные социальные проблемы, повышается качество режиссуры и актерской игры. Особо стоит отметить попытки создания исторических сериалов и проектов, ориентированных на женскую аудиторию.

Важно подчеркнуть, что частные телесериалы играют значительную роль в современной узбекской культуре, отражая актуальные проблемы общества и формируя общественное мнение. В то же время они служат платформой для развития местных талантов в кино- и телеиндустрии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в целом индустрия частных телесериалов в Узбекистане демонстрирует потенциал для дальнейшего роста и развития. Ключевыми факторами успеха в будущем могут стать увеличение тематического разнообразия, улучшение качества сценариев, а также инвестиции в техническое оборудование и подготовку специалистов. При должном внимании к этим аспектам узбекские частные телесериалы имеют все шансы выйти на новый уровень качества и популярности как внутри страны, так и за ее пределами.

Ключевые слова: коммерческий сериал, национальный сериал, тематика, социальные проблемы, режиссура, актерское мастерство, сюжет, развитие телевидения в Узбекистане.

Для цитирования: Ганиева Э.Р. (2024) ‘Национальные телесериалы узбекистана: достижения и недостатки’, Inter education & global study, (10), pp. 482-492. (In Eng).

The emergence and development of private TV series in Uzbekistan required some time and accumulation of creative potential. Private national series went through a long

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10

and rather complex path. Their emergence and development was directly related to the development of commercial television in the country. It was the first private TV channels that gave orders for the creation of private TV series.

The first private television series in the country is considered to be the 20-episode adaptation of the novel "Shaytanat" by Uzbek writer Tahir Malik, created at the commercial film studio "Qalqon" in 1997.

This is a significant work in every sense, gathering powerful creative forces around itself. The TV series "Shaytanat" (screenplay by T. Malik, U. Zafarov, M. Tuychiev, directed by J. Kosimov, Yo. Sadiev, F. Zaynutdinov) has a rich script and directorial basis, an intriguing plot and full-blooded character images. All these components, merging together, contributed to the emergence of a unique television work that won audience recognition and love.

The plot of the TV series revolves around two main characters - Asadbek and Elchin. "Famous singer Elchin is accused of deliberately killing his wife and is imprisoned for many years. The point is that he plays gambling while completely drunk and loses everything. In the hope of winning back, he even bets his wife. Having lost in the end, Elchin, not realizing what is happening, falls asleep under the influence of drunkenness. When he comes to his senses, he finds his wife dead. He realizes that this murder was committed by the people of Asadbek, the leader of a famous criminal gang. Now Elchin's goal is to take revenge on Asadbek." [2]

